TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

OMON MATJON

28



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

OMON MATJON





1619291
TDTU ASOSIY
ARM (KUTUBXONA)

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(5O‘)-5
O-55

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Marhabo Qo‘chqorova, Diyor Matjonov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8569-5-0

©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

BETAKROR SHOIR OMON MATJON HAQIDA

Yangi o'zbek she'riyatining buyuk darg'alaridan biri Omon Matjon (1943–2020)dir. Omon Matjon 1943-yil 14-fevral kuni Xorazm viloyatining Gurlan tumanida tug'ilgan. Uning otasi Matjon Jumaniyozov (1905–1976) shu tumanda pochta bo'limining boshlig'i bo'lgan. Onasi Xotira Ermatova (1916–1946) qisqa umr ko'rib, o'ttiz yoshga to'lganida to'rt farzandni dunyoga keltirib, vafot etadi. Omon Matjon uch yasharligida onasidan yetim qoladi. Shoirni o'gay onasi O'rozbika opa tarbiyalagan. Omon Matjonning ilk qo'liga qalam olib, adabiyotga muhabbat qo'yishida ikkita opasi Gulsara va Oyimjonlarning ham xizmatlari katta bo'lgan. Gulsara opasiga ergashib Omon olti yoshida Gurlan tumanidagi Orjanikidze nomli o'rta maktabga boradi va 1-sinfga o'qishga qabul qilinadi. Opasining dastxati juda chiroyli edi. Omon Matjon maktab ustozlaridan tashqari, opasi bilan ham o'qish va yozish mashg'ulotlari bilan shug'ullanadi. Gulsara boshi qattiq shamollab, shu dard bilan gullagan o'n olti yoshida olamdan ko'z yumadi. Qizining bevaqt o'limidan chuqur qayg'uga tushgan ota — Matjon akaning bir kunda qop-qora sochlari oppoq bo'lib oqarib ketadi. Omon akaning ikkinchi opasi Oyimjon esa turmushga chiqib, yigirma olti yoshida bevaqt vafot etadi. Omon Matjonning opalaridan tashqari akasi Zarif ham bor edi. Matjon akaning ikkinchi ayolidan tug'ilgan farzandlari: Sobir, Hamro, Qadam ismli o'g'illari ham bor. Yosh Omon qalbida adabiyotga, so'z san'atiga mehr-u muhabbatning uyg'onishida ikki opasi, akasi Zarif og'aning ham hissasi katta. Albatta, shoir shaxsiyatining shakllanishida, uning badiiy tafakkuri, poetik nigohining kamol topishida juda ko'p omillar, ustozlar mehnati, oilaviy muhit bilan birgalikda shaxsiy mutolaa (gazeta-jurnallar, badiiy adabiyot mutolaasi) ham katta ahamiyatga molik. O'quvchilik yillaridayoq Yangibozor tumani gazetalarida Omonning ilk she'rlari chop etiladi. Unga Xorazmda

mashhur jurnalist va shoir Do‘stjon Matjon ko‘pgina maslahatlar beradi.“Baliq va chirigan To‘r” nomli she’r bo‘lajak shoirning ilk ijodidan biridir. 1961-yilda akasi Zarif Matjonovning maslahati bilan Samarqand Davlat universiteti filologiya fakultetining fransuz tili bo‘limiga o‘qishga kiradi. Ammo ikkinchi kursga o‘tgan yili Sovet Armiyasi xizmatiga chaqiriladi. U 1962–1964-yillarda xizmatga ketib, Germaniyaning Drezden, Maysen shaharlarida uch yil harbiy xizmat burchini ado etadi. U harbiy qismdagi kutubxonada o‘tirib, kitob mutolaasi bilan shug‘ullanadi. She’rlar yozaboshlaydi. Leninobodlik Isoqul To‘raqulov degan harbiy-xizmatchi do‘stidan bir turkum she’rlarini Toshkentga berib yuboradi. U Omon Matjonning she’rlarini “Sharq yulduzi” jurnaliga yetkazadi. 1965-yilning 6-son (iyun)ida “Soldat o‘ylari” turkumi ostida Omon Matjonning ilk she’rlari poytaxt matbuotida chop etiladi. Harbiy xizmatdan so‘ng Omon Matjon o‘qishni davom ettiradi. Poytaxtga keladi. Dastlab nashriyotda ish faoliyatini boshlagan Omon Matjon turli jurnal va tahririyatlarda (G‘afur G‘ulom nashriyotida 16 yil, “Yoshlik” jurnali bosh muharriri lavozimida 4 yil, SK Markaziy qo‘mitasida 4 yil, Matbuot qo‘mitasida 4 yil, “Cho‘lpon” nashriyoti direktori lavozimida 4 yil, “Gulxan” bolalar jurnali muharriri lavozimlarida) fidoyilarcha mehnat qildi.

Uning ilk she’riy to‘plami “Ochiq derazalar” (Toshkent: 1970) nomi bilan nashr etilgan. Shundan so‘ng shoirning “Karvon qo‘ng‘irog‘i” (1973), “Quyosh soati” (Toshkent: 1974), “Dramatik dostonlar” (Toshkent: 1975), “Yonayotgan daraxt” (Toshkent: 1977), “Yarador chaqmoq” (Toshkent: 1979), “Haqqush qichqirig‘i” (Toshkent: 1979), “Seni yaxshi ko‘raman” (1983), “Daraxtlar va giyohlar kitobi” (1984), “Gaplashadigan vaqtlar” (Toshkent: 1986), “Ming bir yog‘du” (Toshkent: 1989), “O‘rtamizda birgina olma” (Toshkent: 1990), “Odamning soyasi quyoshga tushdi” (Toshkent: 1991), “Qush yo‘li” (1993), “Iymon yog‘dusi” (Toshkent: 1995), “Diydor aziz” (Toshkent: 2011), “Xaloskor ruh” (Toshkent: 2012), “Ming bir yog‘du”, “Yangi she’rlar” (2020), “Maqsudam” (2021) kabi 25 dan ziyod she’riy to‘plam va dramatik dostonlari, she’riy, nasriy qissa va tragediyasi chop qilindi. Omon Matjon o‘zbek xalqining erka shoirlaridan biri. Uning ko‘pchilik

she'rlari tug'ma tabiiy she'r emas, qo'shiq bo'lib yaralgan. Omon Matjon dramatik, she'riy dostonlarida tarixiy shaxslar hayotiga ko'p murojaat etdi. Masalan, Al Xorazmiy, Pahlavon Mahmud, Beruniy, Ma'mun, Najmiddin Kubro, Dravor xonim kabi tarixiy obrazlar qator dramatik doston, tragediya va qissalarida aks ettirilgan. Omon Matjon shaxs tabiatiga xos xiyonatkorlik, sotqinlik, ko'ra olmaslik kabi ijtimoiy salbiy illatlarni qator dramatik dostonlarida qizil ip misoli davomiy o'rgandi, ayovsiz tanqid qildi. Omon Matjon she'riyatining asos o'zagini Xorazm nafasi, xorazmlik odamlar, Xorazm tarixi, Xorazmning qadimiy ming yillik urf-odatlari, Xorazm xarakteri, tabiati, iqlimi, qisqasi, Xorazm milliy koloriti tashkil etadi. Shoir asarlaridan Xorazm ohanglari ufurib turadi. Shoir she'riyatini falsafiy mazmun, satira va ramz, xalqonalik, soddalik muhim badiiyat unsurlari bezab turadi. Omon Matjon she'riyati xalq ijodi ohanglaridan, mumtoz shoirlar ijodiy an'analaridan (Pahlavon Mahmud, Navoiy, Ogahiy, Maxtumquli, Miriy), zamonaviy adabiyot yangilanishlari bilan obdan to'yintirilgan. Shuning uchun ham shoir she'riyati va uning betakror badiiyati olimlar va muxlislarning tahsiniga sazavor bo'lib kelmoqda. Shoir shu bilan birga tarjimon sifatida xorijlik shoirlar: Shiller, Bodler, Yevtushenko, Rasul Hamzatov, Yustinas Marsinyakivichyus, Shandor Petefi, Berdi Kerboboyev, Suhrob Tohir, Ibroyim Yusupov ijodidan badiiy tarjima ishlarini ham amalga oshirdi.

Omon Matjon ijodida Navoiyga sharh sifatida yozilgan "Ming bir yog'du" ma'rifiy dostoni, chorrahali sujet asosida yozilgan "Gaplashadigan vaqtlar" she'riy qissasi, 40 afsonani o'z ichiga jamlagan "Haqqush qichqirig'i" dostoni, "Najmiddin Kubro" tragediyasi alohida adabiy voqea bo'ldi. Xulosa shuki, Xorazm bulbuli Omon Matjon nafaqat o'zbek adabiyotining, balki, butun umumturkiy xalqlar adabiyotining betakror ijodkori, ulkan shoiridir.

Marhabo Qo'chqorova,
filologiya fanlari doktori

SHE'RLAR

* * *

Kimnidir axtardim, axtardim uzoq,
Ko'zimni panalab ba'zan quyoshdan.
G'ildirak izidan uzun tunlarda
Nomin hay-huyladim uning tog'-toshdan.

Va nihoyat, bugun, istiqbol kuni
Ko'rib qoldim uni olamdek ravshan:
— Mening qalbim edi,
dunyo tanib —
She'riyat eshigin qoqardi o'ychan.

YURAKKA

O‘zi yaratdi-yu seni tabiat,
Lekin tinchimadi sen yaralgandan.
Bu tor siyna ichra bandisan abad,
Tabiatning senga rashki kelgandan.

Balli! Asirlikda kechgan umring ham
Hikmatlar tikloldi fazodan yuksak.
Sig‘dirolmas edi ko‘ksiga olam,
Ozod o‘ylaringni bir-bir sanasak.

Qanday mo‘jizalar ko‘rardi bashar,
Beqafas yaralgan bo‘lsayding agar.

* * *

Ko‘zlaringni yashirgil mendan,
O‘tib ketay yoningdan befarq,
O‘tib ketay yoningdan bedard.
Ko‘zlaringni yashirgil mendan.

Borligimni payqama, mayli,
Burchaklarda, mayli, qayrilma,
Meni deb tinchingdan ayrilma,
Borligimni payqama, mayli.

Nomim bo‘lsa qalbingda agar,
Otib tashla, mayli, tuproqqa.
...Har kuni o‘t shu yo‘lni toptab,
Nomim bo‘lsa qalbingda agar.

SHE'RIYAT

...O'z oroling bo'lsin.
"Dhammapada"

She'riyat — hammaning o'zi, o'zligi!
She'riyat o'zing-ku, qalbdan qalblarga
Ezgulikning beqiyos ganjin
Ishonch qog'ozisiz eltib berguvchi!
...Men ham shoshilyapman senga, she'riyat!
Unvon, yo'llanmalar tegmasa hamki,
Sen sari ketguvchi ulkan kemadan
Faqat yuklarimga joy topsam, mayli.
She'riyat!
Shu ishonch tinchitmas takror,
Sirli kashflar sari sudrar solimni.
Senga sodiqligim bayrog'i shulki,
Har gal,
har she'rimda,
har tepganda qalb —
O'zim o'z qalbimning bo'lsam Kolumbi.

* * *

Belanchakda yotar koinot,
Chayqalmasa tinmasmi yig‘i?!
Bizni chayqab turgan bu hayot
Kimlarningdir so‘nggi qo‘shig‘i.

Samovot — bir juldur dasturxon,
Somon yo‘li unda qand yuqi,
Tunga va’da etar oltin non
Yulduzlarning so‘nggi qo‘shig‘i.

Osmon ingrab chiqar goh tunda,
Qorga to‘lar bog‘lar bo‘shlig‘i.
Bahor va’da etadi unga
Bo‘ronlarning so‘nggi qo‘shig‘i.

Men na kun, na tunman samoda,
Bir oshiqman yerda bor-yo‘g‘i.
Menga nelar etasan va’da,
Ey sevgining so‘nggi qo‘shig‘i?!

* * *

Boshqalardek sevishdik biz ham,
Kuyib yurdik boshqalar kabi.
Bu savdoni baxt bildik biz ham,
Baxtdir, dedik visol, yor labi.

Boshqalardek duch kelib qolsak,
Olislardek ming bor qayrilib.
Mana, biz ham bebaxt, beqarsak
Boshqalardek ketdik ayrilib.

Ishqning qoldi faqat ozori,
Qalam, qog‘oz — meros bir yalov.
Qalbimdadir ishqning mozori,
Yonib qoldi unda bir olov.

Ishqdan faqat shu qoldi menga,
Olov yonar, sen-chi, yo‘qsan, yor.
Kelolmaysan o‘z maqbarangga,
Unga gullar qo‘yar boshqalar.

BOBUR

Ey sen, yurtim, qilichlardan qolgan jarohat,
Ey sen, tig‘lar chaqmog‘idan yaralgan quyosh!
Qaysi nayza ilib ketdi boshing bu daf’a,
Bir farzanding izlab yurar seni so‘qqabosh.
Izlab-bo‘zlab yurar u ham qo‘lida qilich,
Nomusingni u tig‘ bilan topmoqchi, Vatan!
Kurashmoqqa qolmaganda na imkon, na kuch,
Ko‘kragidan g‘amli kuylaŕ sirqadi ba’zan.

U kuylaydi tuprog‘ingni sening, o o‘lka,
Uning yolg‘iz hamrohidir quvg‘in va alam.
Keta turib olg‘a siqim tuprog‘i ichra
Bor edi qon va bor edi bir kichik qalam.
Shunday ketdi ul sarkarda yurtdan beshuhrat,
Faqat qalam olg‘a ketdi va qalbdan nido.
Olislarda topsa hamki ganji beadad
Ona Vatan ko‘yida u bo‘ldi bir gado.

Lekin cheksiz edi hijron. Chidolmay axir
G‘azal to‘la yuragini otdi yurt tomon.
O, Vatan deb pora-pora bo‘lgan bu bag‘ir
Osiyoni qo‘shiqlarga ko‘mdi shul zamon.
Qo‘shig‘i deb qabul etdi uni Vatani,
Qo‘shig‘i deb endi bunda yuradi erkin,
Mening yurtim, ololmadi shoh qalbi seni,
Shoir qalbi, shoir qalbi zabt etdi lekin.

ESHIGINGDAN O‘TAMAN...

Kuz yoysa ham yo‘llarga xazon,
Qor ko‘msa ham borliqni butun,
Ko‘klam kelib, ursa ham xandon,
Eshingingdan o‘turman bir kun.

Sochlaringga tushsa hamki oq,
Peshanangni bossa ham ajin,
Kirganda ham gavdamga titroq,
Eshingingdan o‘turman bir kun.

Mayli, shunda tanimasang ham,
Yoki desang, ko‘rmayin turqin,
Yoshim yutib, boshim qilib xam,
Eshigingdan o‘turman bir kun.

Meni demay yumsang ham ko‘zing,
Xonang qolsa zulmatga tutqun,
Xotirangga sham bo‘lib o‘zim,
Eshigingdan o‘turman bir kun.

Vaqtim yetib chiqsa bu jonim,
Dardlarimga yasalsa yakun,
Qabristonga tobut ichra jim
Eshigingdan o‘turman bir kun.

AMU

Amu sovuq, befarq tog‘lardan
Yuz o‘girib, qochib keladi.
Toshlar aro u yalangoyoq
O‘ziga yo‘l ochib keladi.

U dovonlar oshar to‘lg‘anib,
Otilar u vodiylar tomon,
Go‘yo tomdan tushholmay qolib,
Onasiga intilgan o‘g‘lon.

Oshiqarkan pastliklar sari
Uqubatda poyama-poya,
Qoyalarning qora xanjari
Bardoshiga sololmas soya.

Qarang, telba desalar hamki,
O‘z yo‘lidan toymas u zinhor,
Go‘yo taqir huv kengliklarda
Ko‘zlagani katta baxti bor.

ESKI O‘CHOQ

Olis-olislarning befarq yelida
Qorayib yotar bir tashlandiq o‘choq.
Cho‘g‘lar yo‘qdir uning sovuq kulida,
Endi bosib yotar chag‘iru yantoq.

Unutdimi uni balki yosh sayyoh,
Yo‘liga ketdimi aytmay ham xayr?!
Yo topganmi bunda ovunchli dargoh
Shahar shovqinidan quvilgan shoir?!

Adadsiz o‘choqlar qurgan bir cho‘pon
Bir tun zavqi uchun qurib ketdimi?!
Qora qahratonda balki biror on
Adashgan yo‘lchini xushnud etdimi?!

Ha, qurshab-qurigan qaysidir jonga
Harorat bergandir yonib-to‘lg‘anib.
Undan isinganlar o‘zga tomonga,
O‘zga o‘choqlarga ketgan ishonib...

Yillar o‘tib borar chaqmoqlarsimon,
Poyonsiz sahroda bir o‘choq yotar.
Uni eslab kelar har yil Bahorjon, —
Butun qirga lola gulxanlar yoqar!

MASAL

Sim halqada bir it yugurar,
Bo‘lar-bo‘lmas akillab turar.

Hurar yaqin mehmon kelsa ham,
Yaxshi kelsa, yomon kelsa ham.

Huraverar, kattami-kichik,
Bezor qildi shu ola kuchuk!

Zanjirining qisqaligini,
O‘g‘rilarning ustaligini

Bilsa hamki juda ko‘p hurar,
Sim halqada tinmay yugurar...

Boshqa uyda yuvosh bir it bor:
U ko‘p hurmas va lekin hushyor!

* * *

Qalbimdan sir axtarmagil sen,
Yashirin bir sir unda yo‘qdir.
Yaxshisi sen jimgina kel-u
Yonginamda bir nafas o‘tir.

Yoniq qalbin ufqda qo‘yib,
O‘y suradi horg‘in tabiat.
Qo‘llarida titraydi osmon,
Savollarga go‘yo to‘la xat.

Turnalarning saflari bilan
Xayr, kuz, deb yozar u ko‘kka.
So‘ng Quyosh va yerni qaygadir
Jo‘natar qish otli konvertda...

Sen savollar bermagil menga,
Borliqni ham tergama bu dam.
Bu ulug‘vor maktub ichida
Bilsang, bormiz ikkalamiz ham.

Uchib ketar fursat oq kaptar,
Qo‘y, bilmayman, bu xat kimgadir?
...Yaxshisi sen jimgina kel-u
Yonginamda bir nafas o‘tir.

* * *

Xayolimda yashar bir nargis,
Alvon-alvon tong va'da etar.
Lekin uning alvon rangini
Tongda quyosh olar-da ketar.

Xayolimda yashar bir nargis,
Yulduzlardan hidlar jam etar.
Osmonimning xush hidlarin ham
Daydi yellar olar-da ketar.

Xayolimda yashar bir nargis,
Siynasini bolga kon etar.
Dunyo ko'rgan arilar buni
Ko'rmay o'tmas — olar-da ketar...

Xayolimda yashasa ham ul,
Yasholmadi daxlsiz butkul.

"Chiq-chiq-chiq..." Bu soatning tovushi. Derazadan Bahor saltanati ko'rinayotir — Hovurlanib yotgan huv tuproqda, bo'g'otdan uzilayotgan qatrada, havoda, tanamizning har bir hujayrasidagi tuyg'uda go'zal va cheksiz hayot qaynab yotibdi. Hayotning mangu, borliqning boqiyligiga butkul ishonaman!

Hayot fursat misoli poyonsiz va ilinjsiz ekan, o'lim o'zi nima, qaerda boshlanadi?!

* * *

Daryo goho to'lib-toshsa, qirg'oq buzib tikka yo'l solib keta boshlasa, bu uning xatosiday bo'lib ko'rinadi bizga!

* * *

Yashashni o'rgat menga, ey qalamcha ko'chat! Seni ko'rganimda lablarim tars-tars yorildi! Qirqilgan vujuding yerdan qarz olib hamki, hayotga intilyapti.

Men esa tomirlarimda gurkirab yotgan hayotimni Hech kimga baxsh etganimcha yo'q. Ey qalamcha ko'chat, menga yashashni o'rgat...

* * *

Qadimda jonidan to'ygan kishilar o'zlarini daryoga tashlab mangu "orom"ga erishganlar. Kecha men qirg'oqning o'zi ham oqim shahdidan yemirilib, suvga "tap-tap" qulayotganini ko'rdim.

Amudaryo! Nega suvlaringning bo'tana ekanini bilaman: Bu aslida loyqa emas, oqimga dosh berolmay yiqilganlarning vujudlari!!

* * *

Gurlan haqida shunday afsona bor. Bu yerda biri ko'r, biri lang ikki odam yashagan ekan. Ko'r langni ko'tarib yurar, lang uning yelkasida o'tirib olib yo'l ko'rsatar ekan... Tirikchilikni shunday o'tkazarkanlar...

Gurlan, bu o'sha o'tmish kishilarining nomi, moziydan bizga esdalik. Hayot...

* * *

O'rgimchak to'raga taqlid qilib yashardi Pashshaoy. O'rgimchak to'raning katta-katta tiniq ko'zlari, mag'rur salobati, uzoq vaqt og'ir sukutda tura olishi, o'zining ipak yo'llarida nazokat bilan qadam tashlashi, mardligi — hamma-hammasi Pashshaoyning yuksak ideallari, orzusi edi... Buni u Hech kimga aytmas, u haqda gapirishni ham o'rinsiz deb bilar, O'rgimchak to'raning nomiga nomunosib so'zlar ishlatib qo'yishdan qo'rqardi.

Yo falak! Bir kuni... Pashshaoyning yurakchasi yorilib ketay dedi. U Oliy hazratlari tomonidan ziyofatga taklif etilgan edi.

Bormasinmi, oh?! Bordi! Bu yerda hamma narsa go'zal edi! Pashshaoy hayajonlanar, O'rgimchak to'ra bilan yolg'iz o'tirganidan tili tutilib gapira olmas, nafasi siqilib borar edi. U buni bildirmaslikka tirishar, lekin borgan sari negadir holdan toyayotgan edi.

Pashshaoy o'zining ko'rinmas bir tuzoqqa tushib qolganini, o'layotganini juda kech payqab qoldi. Juda kech... Lekin shunda ham miq etmadi, faqat joni chiqayotgan paytda bir so'z deya oldi xolos:

— O'lsang ham eng ishongan kishingning aldovidan o'lma ekan!..

* * *

O'zining haqligin biron marta yoqlay olmagan odam boshqani himoya qila olmaydi.

* * *

Eshikning tutqichi gerdaydi: "Men jahon eshiklarini ochguvchiman".

* * *

Kotlovan labiga juda yaqin kelibgina ekskovatorni ko'rdim. O'zini "mana men!" demasdan ham tog'-tog' ishlar qilib qo'yibdi.

U o'z ishiga chuqurlashgani sayin mehnati olisroqdan ko'rinmoqda edi.

* * *

Feruz saroyida maqom kechasi davom etar, kuylayotgan hofiz aql-u hushlar hokimi edi. Musiqa tugagan zahoti xon "jallod" deya hayqirdi. Hamma lol edi. Qo'shiqchiga darra tortildi.

Ertasiga buning sirini so'raganlarida, yosh hofiz qo'shiqning qaysi bir pardasidan chala urg'u bilan o'tganini tan oldi.

* * *

Svetlov she'rga misralar soniga qarab emas, she'rligiga qarab haq to'lashni tavsiya etgan edi. Demak:

— Salom talant! Salom mehnat! Salom mangulik! Xayr gonorar!!!

* * *

Gohida o'lim shuhratga sabab bo'lsa, gohida shuhrat "o'ldiradi...".

* * *

O'zi haqida turfa-turfa ertaknamo gaplar tarqatib yurgan bir qalamkashni bilaman. Undan jirkanaman: She'r homilasi uning yuragida emas, go'yo oyog'ida paydo bo'ladi...

Adabiyotni Hech bo'lmaganda ODOBIYOT deb tushunsa edi.

* * *

Mashhur bir kishi havaskorgina bir qalamkashning narsalarini ko'rmoqda edi. Men "ustoz"ga chetdan qarab, vajohatidan "mana hozir bo'sh joyini topaman-ku, mana ishkali chiqib qoladi-ku!" degan o'ta didsiz bir ishbilarmonlikni o'qir edim. Lekin ul "zot" susaygandan susayar, basharasining qayeridadir takabburlik alomatlari yig'ilmoqda edi.

— Ha-a... Umuman... — dedi u o‘qib bo‘lgach.

...Eh! Shunday “umuman”lar qachon yo‘qoladi, shunday “umuman” odamlar-chi?!

Go‘zallikni ko‘rganda beixtiyor chapak chalib yuboradigan kishilarni sog‘inaman.

* * *

Ko‘z — topadi. Ba’zan, yashiradi ham!

* * *

Mansab ba’zan noyob bir iste’dodning zomini bo‘lib qolsa, ba’zan butunlay bo‘m-bo‘sh kimsada, favqulodda talantni ochganday bo‘ladi.

* * *

Uning butun vujudi qorniga — nafsiga bo‘ysunadi, u — xalta.

* * *

U kishi katta ish qilishdan ko‘ra, katta ishda turishni yaxshi ko‘rardilar.

* * *

Qiz qalbi go‘yo deraza shishasi. Olisdan ming termil, ichkarini ko‘rolmaysan. Ko‘p yaqinlashaversang esa nafasing tegib xiralashadi.

— Derazangga yaqinlashayapman...

* * *

Izhor etilmay qolgan sevgi — o‘tqazilmay qolgan ko‘chat.

* * *

Xorazmda tog‘lar yo‘q emas, bor: — Xorazm tog‘lari vohani tongda quyoshdan to‘sib qo‘ymaslik uchun odamlar qiyofasida yashashadi!

— Xorazmiy, Beruniy, Pahlavon Mahmud, Ogahiy, Hojihon...

* * *

Bahorda gullash bilan birga... chirish ham boshlanadi. Agar ko'karmasang, chiriysan!

Endigina tili chiqqan qizil lab qizg'aldoq shabadada chayqalib yonboshidagi sag'anani turtdi:

— Hoy, tursang-chi, bahor keldi-ku!

* * *

— Erkinlik nima?

— Intilmoq, kurashmoq!

— Imkon bo'lmasa-chi?

— Hamma imkoniyatlarga kurashib erishasan. Kurashdan tashqaridagi hayot (agar bu hayot bo'lsa) bo'shliq...

Demak, erkinlikning yashash qonuni — kurashmoq!

* * *

Odamlar bir-birlariga qarab o'zlarini rostlaydilar.

* * *

Dushmanning xatosi dono qiladi, do'stniki ado...

SIRLARIM

O‘ynashib barmoqlaring
Bir-bir ko‘zimni yopsalar,
Sevgidan roz aylayin
Tong qushlari uchgan mahal,
Kuylayin osmon to‘lib,
Kuylayin olamga man, —
Sen agar mashshoq bo‘lib,
Nay agar bo‘lganda man!

Ona yurtim husniga
Mot bo‘lib, ko‘ngil qo‘yib,
Har urug‘ning ko‘ksiga
Mavj iyib, g‘ulu iyib,
Bo‘lsa kim g‘aflat panoh,
Toshqin solardim unga man, —
Sen agar bo‘lganda tog‘,
Soy agar bo‘lganda man!

Tongda quyoshning shu’lasi
Shabnamda izlar tuyg‘ular.
Tog‘da ohular galasi,
Dilda sehrli cholg‘ular...
O‘q tiqay qalbin o‘yib,
Hissiz kishi ko‘rganda man, —
Sen agar sayyod bo‘lib,
Yoy agar bo‘lganda man!

Oyki ming yildan buyoq
Yerdan yiroq ketmas, nechun?
Bilmagay, bag‘ri quroq —

Ul o‘zgaga bog‘liq uchun!
Yetmay o‘z baxtimga to,
Kirgay edim ming jangga man,
Sen agar bo‘lsang samo,
Oy agar bo‘lganda man!

Eng muqim tinchlik uchun,
Eng go‘zal sevgi uchun,
Eng asil do‘stlik uchun,
Eng nafis sezgi uchun
Har qadah ichra nihon
Yog‘du bo‘lardim lolarang, —
Senki soqiyi zamon,
May agar bo‘lganda man!

YONAYOTGAN DARAXT

Tunda yashin tushdi bog‘ning chetiga,
Zulmat boyo‘g‘lidek chekindi karaxt.
Vulqondek portladi qorong‘ulikda
Yonayotgan daraxt!

Salobatli yashil saltanat edi,
Erkin qushchalarga zangor poytaxt.
Uchqunlardek to‘zitdi qushlarini
Yonayotgan daraxt!

Nega, nega yondi?! Kechqurun bexos
Bulutlar guldirab qilgandilar jahd, —
Uyg‘oq edi, o‘zi ilk zarbni oldi
Yonayotgan daraxt!

Daraxtlar yonmoqda bugun dunyoda,
Yonib, o‘zgalarni uyg‘otmoq ne baxt!
Do‘stlarimdir barcha yonayotganlar,
Yuragimdir — YONAYOTGAN DARAXT!

G‘AFUR G‘ULOM XOTIRASI

Samovotda qora nur ko‘pdir,
Quyoshdan ham u behad katta.
Dunyo izlar shu’lali taqdir,
U ko‘nikmas aslo zulmatga.

Ko‘milganda yerga, hatto don
Tars yorilar o‘tmayin hafta.
Jismin otar osmonga tomon,
Ko‘nikmaydi u ham zulmatga.

Yer tubinda yotadir tog‘lar,
Yog‘du, kenglik izlab shiddatda.
Portlar bir kun olov buloqlar,
Ko‘nikmaslar tog‘lar zulmatga.

Sen quyoshni kuylab yashading,
Sen yashading nurga xizmatda.
Nega yo‘qsan?! Janggami ketding
Yer ostida qolgan zulmatga?!

OGAHIY G‘AZALIGA MUXAMMASI
MULOQOT

Ko‘klam edi. Junbush kelib o‘y-u, xayol, yod ustina,
Ruhin ziyorat etgali bordim men ustod ustina,
Sas berdi ul: “Holim zabun, keldingmu imdod ustina,
Mushkin qoshining hay’ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun nas keltirur nun eltibon sod ustina!”

“Ey pir, dedim, yodlar bugun ash’orlaringni Xorazm... ”,
“Qo‘yg‘il, dedi, faxriyangni, dardimi topgil chorasin,
Yon, oshiq o‘l, hech bosmasin davron changi ko‘z qorasin,
Qilg‘il tamosho qomati zebosi birlan orazin,
Gar ko‘rmasang gul bo‘lganin payvand shamshod ustina!”

Ketdik ulug‘ shoir bilan bog‘lar sari, qo‘ydik qadam,
Olam g‘amin so‘zlay desam, olamni suygan ul hakam
Ishqiy g‘azal aytur edi: “Oshiq tumoridur sitam,
Noz-u ado-u g‘amzasi qasdim qilurlar dam-badam,
Vah muncha ofatmu bo‘lur bir odamizod ustina?!”

Nogoh shu on qo‘zg‘oldi ko‘k-ko‘k ichra ne sir borkim,
Chaqmoq chaqib, yel daf qilib, yetkurdi ko‘p ozorkim,
Roz qildi ustoz: “Yor desam, Haqdin bu qanday korkim,
Men xastaga jon asramoq emdi erur dushvorkim,
Qotil ko‘zi bedod etar har lahza bedod ustina!”

Tez pok o‘lub osmon yuzi, dillarda ham ketdi kadar,
Chah-chah bilan qushlar kelib, yuz ochdi gullar bexatar,
Suhbat falak mavzusiga ko‘chgaymi deb solsam nazar,
Ul... gul yuzi shavqi bilan shaydo ko‘ngul shomu sahar,
Bulbuldek aylar yuz navo ming na’vi faryod ustina!

“Ming yor demak birlan, dedim, jomi visol bir to‘lmog‘oy,
Haqdin karam yo‘q, u bizim orzulara qotilmog‘oy!”
Lutfimga ul zot aytdi: “Qo‘y, dardim sanga esh o‘lmog‘oy,
Boshimga yoqqan g‘am toshin mingdan biricha bo‘lmog‘oy,
Gardun agar ming besutun yog‘dirsa Farhod ustina!”

“So‘z yo‘q, dedim, surmak qiyin dildan dila ishq raxshini!”
“Cho‘ng ham chuqur fikr et, dedi, tinglarda shoir, Baxshini!”
Ishq haqinda she’r bitib — shohlarga aytganman shuni:
“Ey shah, karam aylar chog‘i teng tut yomon-u yaxshini,
Kim mehr nuri teng tushar vayrona obod ustina!”

“Obod zamon, tenglik, dedim, turmush go‘zal,
qushdek ko‘ngil....”
“O‘g‘lon, dedi, bu larzakor ochunga keng nazzora qil,
Olam bilan bo‘y o‘lchashib ko‘rmay havo ettingmi, bil,
Xoki taning barbod o‘lur oxir jahonda necha yil
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurib bod ustina! ”

Birdan tilimni tishladim, izza boqib yon-vergakim,
Darkormi so‘z ustozlaring so‘z aytmagan bir yerdakim.
Bor jur’ating, yozgin, Omon, yurting ovozin she’rgakim,
Ne jur’at ila Ogahiy ochgay og‘iz so‘z dergakim,
Yuz xayli g‘am qilmish hujum ul zor-u noshod ustina!

GO‘DAK FE’LLI DO‘STIMGA

(hazil)

Go‘dak tasavvuri — tasavvurimiz,
Go‘dak tafakkuri — tafakkurimiz.
Yo‘qsa, har qadamda nechun xatolar,
Nechun shuncha yig‘i ham iltijolar?!

Go‘dak tasavvuri — tasavvurimiz,
Go‘dak tafakkuri — tafakkurimiz.
Yo‘qsa, ne uchundir buncha to‘ymaslik,
Ne topsak, so‘rg‘ichdek qo‘ldan qo‘ymaslik?!

Go‘dak tasavvuri — tasavvurimiz,
Go‘dak tafakkuri — tafakkurimiz.
Yo‘qsa, nadin har yon qo‘g‘irchoq nazar,
Nadin birni suymoq, birovdan — hazar?!

Go‘dak tasavvuri — tasavvurimiz,
Go‘dak tafakkuri — tafakkurimiz.
Yo‘qsa, nima uchun kattalar zinhor
Ne desalar shuni qilamiz takror?!

Go‘dak tasavvuri — tasavvurimiz,
Go‘dak tafakkuri — tafakkurimiz.
Yo‘qsa, ne uchundir shuncha ovutmoq,
Shuncha aldab, shuncha uyquda tutmoq?!

* * *

Kishi kayfiyati, ruhiga qarab,
Gul ham bajarganday turli xil xizmat,
Kitob ham shunaqa, o‘qib chiqqanda
Ming kishi uqadi ming turli hikmat.

Eng ko‘hna rivoyat, afsonalardan
O‘ta zamonaviy romangacha to,
Kuzatdim g‘alati bir mantiqni men,
Seskandim bir nima deyishga hatto.

Mana, Navoiyning “Farhod Shirin”i,
Parvozga obqochar dilni har so‘zi.
Birdan paydo bo‘lar Yosuman kampir,
Hamma ishni buzib, daf bo‘lar o‘zi.

Deylik, mana Yago, badkirdor kimsa,
Unga nafrat o‘qir asrlar inson.
Qilgulikni qilib, asar so‘nggida
Jazo-pazo olmay bo‘ladi gumdon.

Eslang “Faust”dagi Mefistofelni,
Buyuk insonlarni qo‘ygan baloga.
Butun bir avlodni chalg‘itib yo‘ldan,
O‘zi qochib ketdi Arshi a’loga.

Kim oh tortmas eslab “O‘tgan kunlar”ni,
Otabek, Kumushning o‘ylab qismatin.
Shuncha fojiaga sababchi bo‘lib,
Dev urmay, sog‘ qoldi qo‘shmachi xotin.

Bular kim?! Har davr, har voqeada
O‘ziga o‘zgacha berdirib sayqal,
Ba’zan bir asarmas, hatto bir xalqning
Taqdirin o‘zicha etadilar hal.

Ular biz bilganday, balki ko‘pmasdir,
Balki bir odamdir quv va ustamon —
Zamonning zayliga qarab har yerda
Turli qiyofada bo‘lar namoyon.

Ishqilib, o‘quvchi yaxshi biladi
Minglab shunday shaxs, shunday jonlarni,
Yozuvchi ularni ko‘pda unutar
Madh etib asosiy qahramonlarni.

Balki shuning uchun ular sog‘-omon
Kitobdan kitobga ko‘chib yurarlar?!
Kichkina, xushgina ko‘rinib ko‘zga,
Ta’qibdan, jazodan qochib yurarlar.

Men bugun kitobdan misollar olib,
Atrofga, hayotga boqmadim atay.
Balki ular ko‘pdir tegramizda ham,
Balki hayotda ham yashashar shunday?!

Bu boshqa masala!
Aziz o‘quvchim,
Qay taqdirni yozmang, qaysi zamonni,
Shularga ko‘z-quloq bo‘ling, iltimos,
Shular o‘ldirmasin Bosh qahramonni!

* * *

Yig‘lading-u ... kulding.
Bo‘ron bosildi:
Kumush ko‘l yuzida
Qalqdi ikki oy.

Yig‘lading-u... kulding.
Tindi quyqum sel.
Maysa o‘tlar rasmin
Sola ketdi soy.

Yig‘lading-u... kulding.
Bulutlar arib,
Maysalarga to‘ldi ko‘k,
Qushga to‘ldi bog‘.

Yig‘lading-u... kulding.
Ko‘zlaringda birdan
Yashay boshladilar
Suv va cho‘g‘ Inoq.

1619291

* * *

Sen ketursan, izingdan —
Men boqurman jim, jim.
Menga qoldi ko‘zingning
Qaroligi tim, tim.

Qaro endi kunlarim,
Qaro endi qismatim.
Ko‘zim qarog‘ida ham
Yoshim endi lim-lim.

Bul qarolig‘ — tun emas,
Yulduzlarni ko‘zlasam.
Bo‘ron daragidir bu,
Havosidir dim, dim.

Kelmas endi qaldiroq,
Chaqilmas endi chaqin.
Yuraklar gung kecha bu,
Yo‘l ko‘rsatur kim, kim?

O‘tdi sevgi, o‘tdi dard —
Ko‘chayotgan qushlardek.
Ketmoqdasan jim, jim,
Qolmoqdaman jim, jim.

AYRILIQ

Ilk og‘och gulladi Qrimda,
Olmaga o‘xshatdim tusidan.
Tongning ko‘ngli yorishdi go‘yo
Shu uchmi-to‘rt gulning isidan.

Bu og‘och kimnidir sog‘ingan,
Boshiga gulbargak taqmoqda.
Sahardan uyg‘onib, qaygadir —
Oyog‘i uchida... boqmoqda.

Toshkentda tong otdi qachonlar,
Sen unda soatni tezlaysan.
Shoshasan zangori qutiga
Cho‘zilib... oq konvert izlaysan.

* * *

Mehr ko‘zda emas, men bildim, bildim,
Mehr ko‘zda degan gap bir oz xato.
Ko‘z go‘yo oyna ko‘l — aks etar unda
Osmonning bag‘rida ne bo‘lsa paydo.

Mehr ko‘zda emas, men bildim, bildim,
Mehr ko‘zda degan gap bir oz xato.
Ko‘z go‘yo yaxmalak, sirg‘anar undan
Xuddi nurdek yengil tog‘, vodiy, daryo.

Mehr ko‘zda emas, men bildim, bildim,
Mehr ko‘zda degan gap bir oz xato.
Mehr xotiradir bizga kimdandir,
Ko‘z yumsak bizdan ham shu qolar tanho.

Mehr ko‘zda emas dedim va lekin
Bordir mehr ko‘zda deyishda ma’no.
Yurakdir ko‘zlarda aks etgan asli,
O‘shandan yorug‘dir, yorug‘dir dunyo.

XORAZM RAQSI

Davra oling, o‘ynoli,
“Lazgi” chaling, o‘ynoli,
Larza soling, o‘ynoli,
O‘ynab qoling, o‘ynoli!

Bu — navbahor, o‘ynoli,
Sayradi tor, o‘ynoli.
O‘rtada, yor o‘ynoli,
Dil intizor, o‘ynoli!

Sabo bo‘lib o‘ynoli,
Daryo bo‘lib o‘ynoli,
Ziyo bo‘lib o‘ynoli,
Dunyo to‘lib o‘ynoli!

Boqib har yon, o‘ynoli,
Qochsin yomon, o‘ynoli,
Zamon-zamon, o‘ynoli,
Omon-omon, o‘ynoli!

* * *

Qo‘shjonov domlaning uyida
O‘rik bor yaxshi nav, chayir tan,
Avji tik, savlatdor, keng bag‘ir,
Bir shoxi sal yerga qayrilgan.

Shu shoxcha haqida she’rimiz:
Bargidan ko‘p mẹva tugadi.
Shundan u osmonga o‘rlamas,
Yuklari zaminga egadi.

Yo‘lakka sollangan deng o‘zi,
Kirganning nigohin qilar band,
Bolalar bir sakrab to‘yadi,
Qo‘l kalta yoshlar ham bahramand.

Sinmasin, o‘zini tutsin deb,
Domlamiz uni ko‘p yoqlagan.
Cho‘p yostiq qo‘yib so‘ng sim bilan
Balandroq bir shoxga bog‘lagan.

Mehrni tuydi u — tez o‘sdi,
Kuch indi shu nimjon shoxchaga.
Odamni ko‘tarar u bugun,
Ko‘rk qo‘shdi bu ko‘rkam bog‘chaga.

Ha, bugun ul o‘rik komil, cho‘ng,
Boqsang ko‘z shukuhga to‘ladi.
Endi huv tepaga tortilgan
Simlarni qirqsa ham bo‘ladi!

KLOD MONE CHIZGAN MANZARA

Asqad Muxtorga

Qayer bu?!
Oq-kulrang bo‘shliq.
Bug‘.
Tuman.
Yo tuz konlarimi?!
Balki yupqa qor?!
Yo ohor chaplangan quruq xolst, bo‘z?!
Aniq emas. Lekin nimalardir bor!

Boshqa zalga o‘tib ketdi hamrohlar.
Bilgim keldi bu lavh sirin, anglagim.
O‘rindiqqa botdim.
Yonimga cho‘kdi
Chet tilda gapirgan yana allakim.

Sukutda, unutib atrof-olamni,
Idrokning yoritib qabatlarini,
Asta ilg‘ay bordim oq-kulrang sathdan
Ajib manzaraning jihatlarini.

...Nafis tong ipagi.
Titroq simob ko‘l.
Oy nurin yopingan bog‘ tinch uyquda.
Ko‘lda esa aksi...
Bu go‘zallikni
Bir ne buzmasa deb qotdim qo‘rquvda.

Yo‘q, yo‘q!
Bu ilohiy hayot go‘shasin
Rassom zap bekitgan berib rang o‘yin.
Bu shoshqin odamlar, bu tezkor asr
Unga yetib borishi qiyin!

1979, Nyu-York, Metropoliten-muzey

SENI YAXSHI KO‘RAMAN

1

Sen oppoq ko‘ylakda
qorasoch —
Tushimda ko‘rinding yosh pari
Va bor-yo‘q xotirot olamim
Chekindi ruhimdan tashqari.

Kim bo‘lding? Tanimni osmondan
Quyoshga nur qilib elatgan!
Kim bo‘lding? Mudroq bu tanamda
Sanoqsiz daraxtlar gullatgan!

Bu sensan, muhabbat, tanidim,
O‘ylagan, kutganim, deganim.
Lekin sen, nahotki, bilmading,
Bu — bir tush, uyquda ekanim?

Na orzu etolmay bir bo‘sa,
Izhorga na bir so‘z uzilmay,
Tush birdan uzildi...
Armonlar
Qoldi qatlari buzilmay.

Lekin sen kelishga va’da ber,
Mayliga, tushimda, bir zamon —
Muhabbat, men seni kutaman,
Kutaman, uyg‘onmay hech qachon!

2

O‘qiy olmas bo‘ldim kitoblar,
harflar ko‘zga arang ko‘rinar,

faqat sening chehrang ko‘rinar,
so‘zlar dostonidan ketib.

Chaman kezsam endi tinchim yo‘q,
na kapalak, na rang ko‘rinar,
faqat sening chehrang ko‘rinar
gullar bo‘stonidan ketib.

Oqshom ko‘zni yumsam ham shu hol,
ko‘kda yalt-yult bir jang ko‘rinar,
faqat sening chehrang ko‘rinar,
yulduz osmonidan ketib.

Muhabbat deb keldim dunyoga,
oshiqqa yer-ko‘k tang ko‘rinar.
faqat sening chehrang ko‘rinar,
dunyo har yonidan ketib.

3

Taqdir, nega ishqning ikki yulduzin
Bir qutlug‘ ayyomda etding-u bunyod,
Quyun, chochinlarga tashlading bizni.
Tiniq bir osmonda qo‘ymading ozod?!

Taqdir, nega bizni zamondosh aylab,
Bir hayot tuzini ko‘rgizib baham,
Bir bor to‘ydirmading lekin diydorga,
Uni ham, meni ham etmading xurram?!

Nega bir tuproqda berib tavallud,
Bu jannat diyorda bor etib bizni,
Yer osti, yer ustin ganj etding, lekin
Aytishga qo‘ymading eng muhim so‘zni?!

Nega bu ming yillik nomdor shahar —
Bag‘ri Sharq-u G‘arbga ochiq bir makon, —

Topib berolmadi ikkimiz uchun.
Yo bir yo‘l, Hech qursa, bitta oshiyon!!

Chaqin, kamalaklar darg‘asi taqdir,
Qismatlar qomusin bitganing mahal,
Avval yuraklarga boq, titrab turgan,
Muhabbat yo‘llarin ravon et avval!

4

Ko‘p kezma daraxtzor bog‘lar ichinda,
Daraxtlar dil do‘sting bo‘lolmas sening.
Chorlasang kelolmas, yonib qucholmas,
Sen faqat mening bo‘l,
meniki,
mening.

Ko‘p qolma jarang suv buloq bo‘yinda,
Buloq ham dil do‘sting bo‘lolmas sening.
Qaynashim chashmadan teran joydandir,
Sen faqat mening bo‘l,
meniki,
mening.

Ko‘p titma muhabbat kitoblarini,
Kitoblar dil do‘sting bo‘lolmas sening,
Bu ishqning tarixi mening qalbimda,
Sen faqat mening bo‘l,
meniki,
mening.

5

Turmushning yo‘rig‘i bois gohida
Kutganlaring qilmas saxovat, karam.
Shundayam orzuyim o‘zing bo‘lgansan,
Qishdan yaratganman o‘ziga ko‘klam.

Bir kunlik nasiba poyida qushlar
Yerga ming bor chumduk ursalar sarson
Men kutdim labingdan bir totishni zor,
So‘ng ming yil yashay deb mast-u bearmon.

Kunduz — hamma nurdan ko‘zi to‘q chog‘lar
Yulduzlarni Hech kim olmas yodiga!
Sen siyoh sochingni yoy uchqunlatib,
Kunduz ham tush ko‘rgan oshiq otiga...

Kim qanday kun ko‘rsa ko‘rgan zamon bu,
Shoirning holidan kulma, iltimos:
Xayoldir yagona ovunchi uning,
Tiriklik manbayi orzudir, xolos.

6

Quyosh tong oldida qizargan kabi,
G‘unchalar qisinib yuz yorgan kabi
Iymanib kelasan, ochilolmaysan:
“Anavilar bor-da, o‘shalar...” deysan.

Qo‘lingda Zuhradan go‘yo bir xat bor,
Go‘yoki Laylidan meros qismat bor,
Ming yillik yozg‘utdan qutulolmaysan:
“Anavilar bor-da, o‘shalar...” deysan.

Azizam, yulduzlar falakda baxtli,
Inson o‘z qalbida — yurakda baxtli...
Sen sira o‘zingni nurga solmaysan:
“Anavilar bor-da, o‘shalar...” deysan.

Gulim, “o‘sha”larga o‘chma-o‘ch ochil,
Sening uchun bugun bog‘lar bo‘sh, ochil!
Ularni qo‘yaver, ular qolmaslar,
Chunki bizlar kabi seva olmaslar!

7

Turnalar uchdi,
Bulutlar ko‘chdi.
Og‘ochlarning barglari
Yerlara tushdi.
G‘amgin ko‘rdim seni bu kez-a,
Bahoringni bermagil kuz-a,
Tabassum qil!

Nechun oy yo‘qdir,
Nurga joy yo‘qdir.
Yoshli ko‘zing bor,
Jo‘shqin soy yo‘qdir.
G‘amgin ko‘rdim seni bu kez-a,
Yosh yarashmas bu chaqmoq ko‘z-a,
Tabassum qil!

Javobsiz so‘zim,
Zor o‘ldi ko‘zim.
Darding nadir, ayt,
Jon tutay o‘zim.
G‘amgin ko‘rdim seni bu kez-a,
G‘am tushmasin bu shirin so‘z-a,
Tabassum qil!

Qo‘zg‘olsin tog‘lar,
Chayqalsin bog‘lar.
Quyosh yuzindan
Yo‘qolsin dog‘lar.
G‘amgin ko‘rdim seni bu kez-a,
Dog‘ yarashmas bu oppoq yuz-a,
Tabassum qil!

8

Nogahon derazam chertilar.
Kelgan kim? Ayni tong ne sazo!

...Yozaman deb xatlar,
Yozmadi.
Kimdi u? E, senmi, xush sabo!
Sabojon, bor o‘shal bog‘ tomon,
Gullarni gapga sol tamanno.
Keltirgil iforli xabarlar,
Bor, sodiq sirdoshim, xush sabo.

U barmoq tekizib junjikkan
Muz buloq ustida bo‘l paydo.
Oppoqmi suv osti toshlari,
So‘zlab ber, jon do‘stim, xush sabo.

Bor! Uning darchasini to‘sguvchi
Ichkovak tolni eg, sol g‘ovg‘a...
Oq qog‘oz yotarmi so‘rida,
O‘sma-chi, qalam-chi, ayt, sabo?

Fazoni bo‘ylaydi yo‘ldoshlar,
Yer bilan so‘zlashar Oy, Zuhro...
Shu yaqin, sas yetar bir joydan
Menga hech xabar yo‘q, xat... sabo...

9

Sog‘indim men seni.
Ko‘rgim keladi,
Lekin aytolmayman hech kimga buni.
Shahar g‘uj tosh o‘rmon.
Boshimga tushgan
Quyoshga talpingan og‘ochning kuni.

Sog‘indim. Kun-tunlar qatlandi qalbda
Rangin ipaklari sog‘inchning.
Agar yoysam yo‘llardagi simyog‘ochlarga
Zorlanib yetardi Samarqand qadar.

Sog‘indim, jahonda balki hech bir til
Hijronim mukammal yozganmas hali.
Qadim yozmalardek ul kunlar yitdi,
Bir so‘zingni eslash olam tasalli...

Daraxtman. Men million yaprog‘im bilan
Boqaman zor titrab sen kelar kunga.
Sog‘indim men seni.
Ko‘rgim keladi,
Lekin aytolmayman buni hech kimga.

10

Umr o‘tar, vaqt o‘tar,
Xonlar o‘tar, taxt o‘tar,
Omad o‘tar, baxt o‘tar,
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan
Sening yurishlaring, sening kulishlaring.

Bahorda bog‘ na go‘zal,
Qor tushsa tog‘ na go‘zal,
Bu yoshlik chog‘ na go‘zal.
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan
So‘zsiz qarashlaring, holim so‘rashlaring.

Oy chiqar goh zaholi,
Do‘stlar ko‘pdir vafoli.
Hayot shundan safoli,
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan
Sekin so‘zlashlaring, pinhon izlashlaring.

Umr — yo‘l, qayrilish — ko‘p,
Uchrashish, ayrilish ko‘p,
Unutilish, aytilish ko‘p,
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan
O‘sha kulishlaring, o‘sha kelishlaring.

11

Mumkinmi, men bugun ketar chog‘ingda
Esdalikka biron narsa so‘rasam?
Bir ilinj istaydi yuragim sendan,
Faqat yupatmagil va ichma qasam.

Endi uchrashuvlar bo‘lmas, bilaman,
Bir kunda to‘rt fasl evrilmas endi.
G‘iybat qashqirlari, hasad itlari
Endi ochdan o‘ling, keting, bas endi...

Mumkinmi, men sendan ketar chog‘ingda
Esdalikka biron narsa o‘tinsam?
Uzun qora soching ko‘zdan uzildi,
Xo‘pmi, uzun tunga hamdard tutinsam?

Bir o‘xshamas qiliq qilsam nogahon
G‘ir-g‘ir yosh aylangan ul ko‘zlar qani?
Qani ul qish, kuzning zahridan zada —
Orzu qushlarimning osud maskani?

Senga ne berdimki, bu soat yanib
Qalbimga bir ovunch qilurman ta’ma?
Ketma deb aytishga haqqim yo‘q axir,
Xayr deyishga ham qo‘ymas bir nima...

Chunki sergak, yog‘du, xushvaqt ruh bilan
Men tuydim, bilaman, sezasan sen ham:
Bizni uchrashtirdi sirli bir Shodlik,
Endi ayirmoqda anglab bo‘lmas G‘am...

Ilinj shul:
ko‘r taqdir ajratsa hamki,
Pinhona qovushgan ikki tuyg‘uni,
Mening yuragimdan uzolmas aslo
Sendan yodgor qolgan nurli qayg‘uni...

12

Million jajji fonus yoqdi daraxtlar.
Kamalak. Yashillik. Yomg‘ir yuz foiz...
Imon keltirgayman ammo —
bu bog‘lar
Yorug‘dir bizning-da sevgimiz bois.

Har yog‘och,
har shoxni uyg‘otdi Navro‘z,
Gul bilan qitiqlab karaxt tanini.
U seni ko‘rsatdi menga.
Va bildim
Yuragim qayerda joylashganini!

Oh, bahor! Zaminning so‘z erkinligi!
Maysalar kuylashar ko‘kka o‘rlashib.
Shu buyuk quvonchga jo‘r bo‘ldik biz ham
Lablarim lablaring bilan birlashib.

Umr nima o‘zi?
Imon keltiray,
Hikmat bu, bahordek qisqa va ayon:
Sevgi ila mas’ud onlarni o‘yla,
Asil umr shuldir. Qolgani — yolg‘on...

* * *

Garchi inson umri falakdan ehson,
U burchdir, u — nurga mangu ehtiyoj,
Do‘stim, tushlaringni bezasin har tong
Pushkinona shuhrat, pushkinona toj.

She’r — bu qalbimizning yonmoqlik kasbi,
Yozmoq-chizmoq, garchi umum taomil.
Zamona kotibi bo‘lolsak basdir
Pushkindek xatti rost, Pushkindek odil.

Sevgi — ko‘ksimizda bahor chalgan soz,
Ul suzgin qarashlar ruhning ziynati...
Ayol sha’ni uchun eng yuksak e’zoz
Pushkin iztirobi, Pushkin tiynati!

Zo‘r jangohlar cho‘mar sukutga og‘ir,
Shoirning ko‘zlari — uyg‘oq g‘alayon.
Elda izhori erk qolmasa oxir,
Pushkinona qudrat, o‘zing sol isyon.

Daholik hammaga yor bo‘lmas, ammo
Paymonam tubinda qolsa jindek nur,
Taqdir, sen yashashni menga et ravo
Pushkindek elsevar, Pushkindek mag‘rur.

NOZIM HIKMAT ZINALARI

Nozim Hikmat bir gal Toshkentga kelganida nashriyotga kirishi lozim bo'lib qoldi. Lekin binoning yangi zinalari bitmagan, o'rniga taxtalar tashlab qo'yilgan edi. Shoirning yuragi ham ancha charchab qolgan paytlar...

To'rtinchi qavatga uni qo'lda ko'tarib chiqdilar.

Uni eltar ekan mehrli qo'llar,
Oyoqlar ostida taxta lapanglab,
Xayollar ichradir mening turk og'am,
Xizr bobo yanglig' o'zda nur jamlab.

Bu zinalar gapmi?!
Moviy ko'z ustoz
Azob yo'llarining o'tgan baridan —
Turmalar, tergovlar, o'ch, razolatning
turfa qabatlari, zinalaridan.

Oh, sening taqdiring!
Ozmi jahonda
Shoirga qatag'on qilguvchi turqlar!
Ozmi inqilob, deb yo ozodlik deb,
Tilidan, elidan quvilgan turklar?!

Qaydaki erksizlik, xiyonat hokim,
Kasofat mirshabdir, tulkilar to'ra.
Jahonning jamiki sotqinlariga
Shoir o't ochishdan tinmaydi sira.

O‘tmishdan kelarmi, kelajakdanmi,
La’nat jaholatga!
Senga ham la’nat,
Shoirning qo‘lini tishlagan kishan,
Yangroq so‘zning yovi — biqqi sukunat!

She’riyat! Bardam bo‘l!
Yuksalmoqdamiz
So‘ngsiz zinalardan!
Qaytmasmiz izga!
Bizga cho‘zilmoqda minglab mard qo‘llar,
Yuraklar ergashib kelmoqda bizga.

QO‘SHIQ

(Miriyga o‘xshatma)

Nechun bu kuz so‘lg‘indir,
Ko‘zing yoshga to‘lg‘indir?
Na bo‘lg‘anin aytmasang,
Bilmadim, na bo‘lg‘imdir!
Sen unda dog‘ bo‘lding,
Men munda dog‘ qoldim.

Nedin titrar siynalar,
Nadin achchiq ginalar?
Yo‘limizga yomonlar
Sochdi sovuq ninalar.
Sen unda dog‘ bo‘lding,
Men munda dog‘ qoldim.

Ey, husnda birinchim,
Ey, tishlari dur-injum,
Yolg‘iz sening o‘zingsan
Bu dunyoda ilinjim,
Sen unda dog‘ bo‘lding,
Men munda dog‘ qoldim.

Men bahor istayurman,
Seni zor istayurman.
Bir qarorga kel endi,
Men qaror istayurman.
Sen unda dog‘ bo‘lding,
Men munda dog‘ qoldim.

* * *

Daraxtlar va giyohlarning tarhi fayzini
bir risola etmoq istab,
sozlab bayotin,
obdon boqsam o‘z umrimning qabatlariga
men yashabman o‘shalarning rangin hayotin.
Ha-da!
Gohi, bo‘yterakdek, dirdov qolibman,
na gul va na meva tugib, o‘z-o‘zim bilan.
Sal bulutga barglarimni gizlab teskari,
sal shamolga qo‘porilib ildizim bilan.
Goh o‘rikdek, mevamdan to mag‘zimga qadar,
yuraklarga malham, davo yig‘ib yashabman.
Goh anordek, bahorni “pov” yonib qarshilab,
sal yot nazar tegsa gulim to‘kib tashlabman.
Men tok bo‘ldim.
Zanglarimga zamindan sharbat,
barglarimga oq quyoshdan ziyolar soldim.
Hayot barpo bo‘lgandagi alvon isyondan
Ko‘ngillarga sarxush surur, havolar soldim.
Goh shunchaki bir ihota — chaqir butazor —
ko‘p yo‘llarni asradim men to‘zsa qor, dovul.
Goh oshiqlar talpinguvchi majnuntol bo‘ldim,
goh barxanlar ko‘chkisini to‘sgan saksovul.
Yo iqlimlar keskinlashgan chog‘i yurtimda
yuragimga turfa qushlar qayg‘usi tushdi,
ularni yoz olovidan, qora sovuqdan
yashiroldim — cho‘ng gujumlik baxti yetishdi.
Goh tut bo‘ldim.
Olam ipak kiymagan uchun
gardanimga qayta-qayta kallak soldilar

Goh bolalar labida oq marvarid bo‘ldim,
goh ko‘ksimni tanbur uchun o‘yib oldilar.
O‘h-ho‘, agar sanayversam,
umrim shajari
bog‘lar qayon, tog‘-u qirga boylanib ketar
va qush uchar yuksaklardan endi boqilsa,
olam yashil maysazorga aylanib ketar.
Aholisi nihoyat zich yashil saltanat —
yalpiz, ang‘iz, ismalog‘-u binafsha, bug‘doy...
Mavjlanishim — dengizlardan qolgan esdalik,
ne muzliklar eringandir dardin yorgali,
Til chiqarsam goh yerimning dardin yorgali,
qatqaloqlar qisuvidan ozurda jonman.
Tongning tiniq durlarini tun changalidan
Omon olib chiqqanimdan — pokman, omonman.
Men — maysaman, qitiqlayman tovonlarini
bolakaylar yelkamda shod o‘ynagan damlar.
Ha, giyohman — poyandozman barra va yumshoq,
tuprog‘imga og‘ir botmasin deb qadamlar.

AYOLGA MAQTOV

Shoirga yo‘l bo‘lsin, sizni chizay deb
bo‘yoq quyultirib turar rassomlar!
Mukammal husningiz yog‘dusi uchun
oy ham navbatchilik qilar oqshomlar!

Shoirga yo‘l bo‘lsin! Kuylay deb sizni,
bastakorlar yurar yoqa choq, tajang:
torni temirchiga topshirvorgudek,
har jarang ustida qilib necha jang.

E’zozingiz buyuk!
Sarkarda Bobur,
juvonmard ruhlari bo‘lg‘ay ziyoda,
qo‘shinda birgina ot qolsa, shunga
sizni o‘tqazgandir, qolib piyoda...

Shoirga yo‘l bo‘lsin! Sizdagi tal’at,
noziklik kimlarni o‘yga solmagan?!
Oqqush suvdan chiqmay, taranaverib,
Bejiz bir oyoqda uxlab qolmagan!

Sizday yasanmoqni istab, qish bitmay,
izhorga lab juftlab har bir kurtagi,
o‘riklar chiqdilar — bir tong to‘la gul,
Nur kiydi jamiki bog‘lar yurtdagi.

Shoirga yo‘l bo‘lsin, kechikdi shoir
bu inja raqobat, nurli taloshga:
Ha, bizga hech yumush qolmabdi endi
Sizni juda qattiq sevishdan boshqa!

XAFA XO‘ROZ

Qaysi kuni ko‘rib qoldim
Bitta xafa xo‘rozni:
Biram shalvirab qoptiki,
Tanimadim shovvozni!

Qizil toji qorayibdi,
Yonboshiga osilib,
Bir don topsa, do‘stlarini
“G‘ut-g‘ut”lash yo‘q yozilib.

Tongdan hatto ko‘ngli sovub,
Qichqirmoqni tashlabdi.
Ichkilikka, tamakiga
Ruju qo‘ya boshlabdi.

— E, — deydi u,
— jonga tegdi,
Chekkan barcha g‘amlarim.
Topshirdim men xo‘rozlikni,
Eplayversin “zam”larim.

Hali taftish, hali tekshir,
Buyruq, nakaz bosadi.
Hali rayon, hali oblast,
Hali markaz bosadi.

“Qoidani buzganmishman”,
Qichqirmabman bir tongda!
Hov mudirim ovda edi
Iti bilan o‘rmonda!

Ferma ilma-teshik qo‘rqib,
Poyloqchilik etibman,
Tuni bilan uxlay olmay,
Tongda mudrab ketibman...

Ba’zida deng: “Ovozingning
Avji past!” — deb so‘karlar.
Avj bo‘larmi, don o‘rniga
Chiqit sarqit to‘karlar.

“Tovuqlarning tuxumlari
Mayda emish, tosh bosmas...”
Hov, xo‘jayin dietda-ku,
Oshqozoni osh botmas.

Makka, suli, marjumakka
Bizdayam bor ishtaha!
Yeyishimiz chumchuqdag-u,
Plan — tuyaqushdaqa!

Goho, “bevaqt qichqirding” deb,
Qiladilar dag‘dag‘a,
Jim turaymi shuncha jo‘ja
Bo‘labersa tabaka.

Ammo bitta yomon ig‘vo
Hammasidan o‘tibdi:
“O‘ynashlari ko‘p...” —
deb kimdir
Yumaloq xat bitibdi!

Menda ne ayb!
Buyam biror
Ko‘rolmasning ishi-da:
Nima qilay, bitta bo‘lsam
Qirq tovuqning ichida...

Bas, hammasi jonga tegdi,
Yetar chekkan g‘amlarim.
Xo‘rozlikdan ketganim shu, —
Eplayversin “zam”larim!

Ha, baridan qanot siltdim,
O‘zim ketdim atayin:
Endi men ham odamlardek
Bir tinchgina yashayin!

SENA BO‘YIDA QUSH BOZORI

Eyfel qovurg‘asi bo‘ylab,
Liftlar g‘uj-g‘uj g‘imirlar,
Sena suvi to‘rga tushgan
Baliqlardek jimirlar.

Mundoq boqsang,
Eyfel ajib
Jimjimador to‘rqovoq —
Odam unda balandlar-u
Uchib ketolmas biroq.

Pastda daryo yoqasida
Qush bozori rastasi —
Sayroqining ming turi bor,
Qafasning ming dastasi.

Bir yon ko‘cha, bir yon dar —
Erkin-oshqin oqadi.
Qafaslardan mitti ko‘zlar —
Juft umidlar boqadi.

Ba’zi qushlar sayrab-sakrab,
Tortsa agar e’tibor,
Ba’zilari qunishgan, jim,
O‘z holidan etib or.

Qush bozorin kezgan kishi
Bir hikmatni ko‘p eslar:
Qushlar uchun hamma yerda
Bir xil ekan qafaslar...

OQSHOM.
GAVJUM PARIJ

Yarim tun.
Parijda beuyqu kezib,
Gavjum bir hayotni ko‘rdim nogahon,
Go‘yo ming-ming rangli chiroqlar tizib,
Ko‘kdan yerga tushgan edi Qahkashon.

Tomosha, bazmga shoshilgan olam
Parijni poyitaxt etmish chamasi.
Kun bo‘yi nurlangan mavjlarin bu dam
Ko‘chalarga solmish Sena daryosi.

Besharm filmlar, shahvat gullari
Qadamga ko‘zlarga zo‘rlik qiladi,
Katta bir shaharning daha-yo‘llari
Go‘yo hayo uchun torlik qiladi.

Hech to‘y,
hech anjuman bo‘lmas behuda,
Nega parijliklar bedor bu chog‘lar?!
Bilsam, asil Parij hali uyquda,
Bu yurganlar esa —
beg‘am sayyohlar...

Ne deb izohlashni bilmadim buni,
Lol kezdim men Parij kechalarida:
Qiziq-da,
o‘z xalqi urib uyquni,
Boshqalar sayr etsa ko‘chalarida...

SENDAN XABAR KELTIRSA

Sendan xabar keltirsa
Men o‘pardim shamolni,
Yo‘q bo‘lsa ham lablari,
Yo‘q bo‘lsa ham gaplari.

Sendan xabar keltirsa
Amudaryo, Sirdaryo,
Derdim, aziz diyorda
Mening qo‘sh
baxtim bor-da!

Sendan xabar keltirsa
Tillo patli qushchalar,
Ishq yod aylagusim,
Zo‘r qanot aylagusim!

Sendan xabar keltirsa,
Agar dushmanim, yovim.
Til so‘zga kelmas bo‘lur,
Gul bizga kelmas bo‘lur.

Ammo orzularimdan
Tunning umri qisqadir,
Ko‘kka yulduz qaytar,
Osmona izim qaytar!

* * *

O‘rtamizda birgina olma —
Olam ichra yumaloq ilinj.
O‘rtamizda birgina olma —
Balki g‘am u yo balki sevinch.

O‘rtamizda birgina olma,
Yarmi qizil, yarmi och-yashil.
Har tug‘yonidan qizil u,
U sog‘inchning ramzidir asil.

O‘rtamizda birgina olma,
Barmoq uchi tegsa tovlanar.
Alvon iffat, yashil tashnalik
Bir senga, bir menga dovlanar.

O‘rtamizda birgina olma,
Gard tegmagan, biram pokiza.
Hozircha u rangin bir havas,
Lab tegsa boshlanar mo‘jiza...

OROLGA YORDAM

Bugun buyuklikka da'vogarlar ko'p,
Men bunday to'dadan yiroqman, toqman.
Men ko'kka qarayman mo'jiza istab,
Yeriy hayotga-da eng yaqinroqman.

Ko'r ko'rni panada topadi derlar,
Men ko'zi ochig'-u holi chatoqman:
Men ochiq janglarning xos navkariman,
Garchi eski qo'rg'on, yirtiq bayroqman.

Kibr yulduzidan emas tuprog'im,
Men o'z xalqim yashab turgan tuproqman.
Tunga ham oshnoman, yolg'izlatmayman,
Nuri bir sahifa yetgan chiroqman.

Nafsi oldin yurar guruhbozlarning,
Demak men manzildan hali yiroqman.
Ularni hamma tez taniy qoladi —
Men hamon noma'lum,
hamon so'roqman.

Orol quriyaptimish, qarang, yangilik...
O'n yil burun chiqqan faryodman, ohman.
Necha "orol"larni quritgan zotlar
Bugun "voh, orol" der...
O'zim guvohman.

Men o'zim o'ldirgan dengiz nomiga
Sadaqa yig'mayman, evoh, no'noqman.

Har kimning boshida bir orollik bor,
Men — Oroldan battar yalangoyoqman...

Men goh ne millatman, bilmay qolaman,
Mayli qarshingizda qoraman, oqman.
Kecha — o‘zbek edim har gapga ko‘ngan,
Bugun — o‘layotgan qoraqalpoqman.

* * *

Ochil, ey gul, gul vaqting bo‘ldi,
Uyg‘on, ey dil, dil vaqting bo‘ldi.

Yetar ming bir kecha ertagi,
Tong sirlariin bil, vaqting bo‘ldi.

O‘z haqqini bilmagan quldir,
Shukr etgan ham qul, vaqting bo‘ldi.

Noming aziz, o‘zingga bek bo‘l,
El bo‘l endi, el vaqting bo‘ldi.

Ogoh etar soatsoz qismat,
Harakating qil, vaqting bo‘ldi.

Tilni qutqar tillar bandidan,
Tilga kirgin, til vaqting bo‘ldi.

O‘zbekiston, falak burjiga
Yuragingni il, vaqting bo‘ldi!

* * *

Ko‘rdim: Shukur Burhon “Hamza”dan chiqib,
asta piyodalab ketdi bir kuni.
Bir yon gavjum ko‘cha, bir yon rastalar,
olomon...
Ko‘pchilik bilmadi uni.

Repetitsiya o‘tgan. Mana u borar,
charchoq, tund...
Parvosiz harakat aro,
Hozirgina ulug‘ Shoh Edip edi,
endi fuqarodan battar fuqaro.

Ustoz! Zamonlarning do‘nish makrini
ko‘chada grimsiz ko‘rsatishmi bu?
Kecha yig‘lab sizga talpingan jonlar
bugun tanimasdan o‘tarlar, yohu!

Tirsaklar, qorinlar, ko‘krak, yelkalar
sizni turtib-surtib shoshar o‘zicha.
Tomosha bo‘lganin sezmaslar, yo rab,
shunday buyuk aktyor yuzi-ko‘zicha.

Kaltabin “ilmkash” bu salt yurishni
“Daho xalq ichra!” deb jo‘shishi mumkin.
Ko‘rmaski, dahoga yo‘l bermas hech kim,
bazo‘r bormoqda u, qisilib, munkib.

Xalq emish, kabobpaz ana “Keling!” der,
ko‘zidek gezarib sixda chandiri.
Lunji qizil somsapaz piyoz qoradi,
uyatdan qizarib, chatnab tandiri.

Xalqmi shu, birovning haqini gizlab,
besh-o‘nni yulishni poylab turganlar?
Xalqmi shu, nuroniy siymolar qolib,
soxta sumbatlarni siylab turganlar?

Xalqmi shu, xayolu orzularini
o‘zidan balandroq tiklolmaganlar.
Xalqmi shu, xalqning nomidan so‘zlab,
mingdan bir va’dasin oqlolmaganlar?

Xalq ulkim, o‘zining peshonasida
yulduzlar borini sezsa, quvonsa!
Xalq ulkim, g‘ururi bo‘lsa o‘zida,
asilga ishonsa, soxtadan tonsa!

Bu she’rni ko‘rsangiz balki koyirsiz:
“Odamni qo‘y-da, deb, holi-joniga...”
Bildim, siz piyoda, tinch yetmoqchisiz
huv g‘urur haykallar xiyoboniga!

Ungacha ancha yo‘l bor-da, ustozim,
bu ur-surda yurmang salang-bo‘sh bo‘lib!
Grim bilan chiqing, guldirab chiqing,
Hech bo‘lmasa o‘sha Yalangto‘sh bo‘lib!

AVVALGILARGA O‘XSHAMAS

(Navoiy g‘azaliga muxammas)

* * *

Charx avzoyi bu dam avvalgilarg‘a o‘xshamas,
Kotib-u davr-u raqam avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas
Endi inson qadri ham avvalgilarg‘a o‘xshamas,
Ko‘nglum ichra dard-u g‘am avvalgilarg‘a o‘xshamas,
Kim ul oyning hajri ham avvalgilarg‘a o‘xshamas.

Ne uchar yulduzlar o‘tdi chalg‘itib elni juda,
Necha avlod yo‘li-yu ummidin aylab behuda,
Davr mezoni bilan tortay bu kun o‘zimni-da,
Ne sitamkim qilsa rahm maxfiy erdi zimnida,
Emdi qilsa ne sitam avvalgilarg‘a o‘xshamas.

Bul jahon tun birla tong bahs etar bir hujrakim,
Voh, quyosh savdosig‘a shamlar nechuk bo‘ldi hakim,
Ishq, bu — o‘z umrim, anga nechun qasamlar ichmakim,
Demangiz Shirin-u Layli oncha bor ishq ichrakim,
Xo‘blikda ul sanam avvagilarg‘a o‘xshamas.

Qay kishikim bir ulug‘ ishga etibdi jon nisor,
Shiddati past-u baland kelganda ham bo‘lmaydi or.
Ey falak, hech kimni etma besamar yo‘llarda xor,
Javridin erdi alamlar, emdi tutmish o‘zga yor,
O‘lmishamkim, bu alam avvalgilarg‘a o‘xshamas.

Ona Sharq tojin kiyur! Zulmatda ushlatmang meni,
Bodayi Haq mastimaan, yolg‘onga uyg‘atmang meni,
O‘z xayolimg‘a qo‘ying, o‘zgaga ishlatmang meni,

Ishq aro Farhod ila Majnung‘a o‘xshatmang meni,
Kim bu rasvoyi dajam avvalgilarg‘a o‘xshamas.

Har kima har xil yozur Arsh Mirzosi sana,
Aylanur oyina bu, hech bitta ish topmas pana,
Nafs ipiga bog‘lidur ruh iplarin uzgan tana,
Ko‘yining ehromidan ko‘nglimni man etmang yana,
Kim anga azmi haram avvalgilarg‘a o‘xshamas.

So‘kmak o‘tganlar ishin notavonlar rasmikim,
O‘z zamonin rost etar qavmi marddir asli kim,
Shu hayot tilsimlarin ochmoq omonlar kasbikim,
Ey Navoiy, qilma Jamshid-u Faridun vasfikim,
Shoh G‘oziyg‘a karam avvalgilarg‘a o‘xshamas.

MEN ISHQIMNI AYTOLMASAM O‘ZINGGA

Men ishqimni aytolmasam o‘zingga,
Bulutlarga topshiraman qalbimni.
Ular ko‘zing osmonida bezovta —
Chaqmoq taxlit naqsh etsinlar dardimni.

Men ishqimni aytolmasam o‘zingga,
Baland toqqa borib solay hayo-hu!
Poying uzra daryo bo‘lib to‘lg‘onsin,
Cho‘qqilarning boshidagi oq uyqu.

Men ishqimni aytolmasam o‘zingga,
Vijir-vijir qaldirg‘ochga aytayin:
Har bahorda shu zangori so‘zlardan
Bo‘g‘otingda uya qursin atayin.

Aytolmayin, chekib oh-u nolalar,
Yerga ko‘ksim qo‘yar bo‘lsam nogahon,
Yuragimdan xabar topgan lolalar
Faryod solib qirga chiqsin bag‘ri qon.

QIYIN MUHABBAT

Bu ko‘zlar necha yil, necha bo‘lgandir,
Tumor yozuvidek dilga joylangan.
Kunlar yona-yona kecha bo‘lgandir,
Tunlar yona-yona oyga aylangan.

Bu qanday otashdir,
men sal dil yorsam,
Ochiq kon topgandek, to‘zdi g‘animlar.
Ammo ochilmadi ularga, erkam,
Faqat ikkimizga ayon tilsimlar.

Har kim o‘z bilgicha fasona aydi,
Bizning yonishlarni, yo‘g‘-u bor aylab.
Ha, biz zardushtiylar posboni kabi,
Bu o‘tni asradik iftixor aylab.

Bugun insof, imon tilga kirmishdir,
Jonso‘z farzandlarin yo‘qlaydi elim.
Sening yona-yona ko‘zing qolmishdir,
Mening yonishimdan qolgani — she’rim.

* * *

Qirq birinchi xotinlikka, Asiljon,
Seni keltirdilar Isfandiyorga.
Chidab turolmadi hech bir tirik jon
Gurlandan to Xeva sen qilgan zorga.

Nega muncha yig‘i — o‘yna, kul axir,
Malika bo‘larsan ulkan saroyda!
Xonlar avlodiga qoning qo‘shilsa,
Bir qo‘ling yulduzda, bir qo‘ling oyda!

Qovog‘ingni ochgil endi, nozni qo‘y,
Xonning quchog‘ida kutsang-chi, tongni!
“Qizing bo‘y egmasa, osaman!” deb u —
Garovga keltirdi, ana otangni!

Shunda ham ko‘nmading!
Baxmal to‘shaklar
Bo‘ri kirgan uydek to‘zdi shom-sahar.
Sen taslim bo‘lmading.
Lekin xon tindi
Nogoh qo‘yganingda o‘rtaga xanjar!

Xon tindi
Va lekin meros g‘azab, o‘ch
Uvvos solib kirdi uning qoniga:
Otang qatl etildi! Seni otdilar
Xonning qaynab turgan doshqozoniga!

Qachon bu voqea esimga tushsa,
Ko‘zimga yosh kelar, singlim Asiljon.

Nimani sen buncha himoya etding,
Nima deb sob bo‘lding,
o‘n besh yoshli jon?!

Hali na muhabbat havosin tuyib,
Na oq-u qaroni farq etgan qalbing
Qanday ilohiy kuch izmin bajardi,
Jon berib,
nimani qutqarib qolding?!

Tabiat har giyoh, har bir jonzotning
Zotin pok saqlashga jo etgan javhar
Isyon ko‘tardimi qalbingda nogoh,
Xondan shuning uchun qildingmi hazar?!

O o‘zbek qizlari! Mujassam iffat!
Mujassam muhabbat! Mujassami or!
Sizning ko‘ksingizning nurli zarbidan
Mening toleyimga jon rishtasi bor.

Ko‘z boylovchi taqdir naqsh olma kabi
Nogoh tig‘ damida o‘ynatsa sizni,
Yoki asir etsa to‘ymas qora tun,
Bilaman, asraysiz yulduzingizni.

Lekin shuni biling, hissiz mahramlar
Bugun ham qaydadir qiz izlar xonga!
Kimdir oh urmoqda baxtin changallab,
Kimdir o‘t yoqmoqda yana qozonga...

2–3-YANVAR, XORAZM

Xorazmda qor yukidan og‘ochlar sindi.
Kun-tun falak tegirmoni muz sepdi go‘yo.
Qurib,
ko‘kka uchib ketgan Jayhunning endi
Bulut bo‘lib tushishidan bormi bir ma’no.

Oyoqlarin muz novdalar qo‘yvormay, ushlab,
Parvozlari qotishgandek sovuq temirga,
Shoxlar aro panoh topgan junjikkan qushlar,
Daraxtlarga qo‘shilishib qulashdi yerga...

O‘zbekiston! Sening o‘ktam oyoqlaringni
Yuz yil shundoq qo‘yvormadi Shimol muzlari.
Yuking — og‘ir, shamollar — och...
va shoxlaringda
Jon qushlarim ming jovdirab boqar ko‘zlari...

Qahratonda himoyatsiz qoladi muhit,
Yiqilganlar, to‘xtaganlar, so‘zsiz — o‘ladir,
O‘zbekiston, erk daraxtim, o‘zni bardam tut,
Parvozga shay qushlar bilan yelkang to‘ladir!

* * *

Bugun yurt ufqida bir nur ko‘rindi,
Beklarni kengashga chorlang, hazratim.
Qo‘sh boshli quzg‘unning qanoti sindi,
Beklarni kengashga chorlang, hazratim.

Ammo yov aldashga hamon ko‘p mohir,
Ko‘nmas, qo‘ldan ketsa shundoq javohir.
Bandi kishanimiz hali ko‘p og‘ir,
Beklarni kengashga chorlang, hazratim.

Hali og‘zi ola va tumtaraqmiz,
Ba’zilar qo‘lida shundan tayoqmiz,
Birlashsak ko‘plardan qudratliroqmiz,
Beklarni kengashga chorlang, hazratim.

O‘zimiz olaylik yo‘llardan toshni,
O‘zimiz aritib dillardan g‘ashni,
O‘zimiz boshlaylik keksa-yu yoshni,
Beklarni kengashga chorlang, hazratim.

Har qalbdagi umid, pok xayol haqqi,
Bayroqda yuz ochgan ilk hilol haqqi,
Tolemizda balqqan Istiqlol haqqi,
Beklarni kengashga chorlang, hazratim.

ASSALOM

Assalom, assalom!
O‘zbekiston, aziz kalom, assalom,
Toleingda qutlug‘ ayyom assalom!

Xush kelibsan, ne zamonlar kutaman
Xush kel, erkim, gul bilan bol tutganim!
Ijobatli duolar, xush kelibsiz,
Dil ochuvchi sabòlar, xush kelibsiz!

Alpomishga ot mindirgan cho‘qqilar,
Oltin tarix endi ravon o‘qilar.
Dunyodaman endi dunyo safinda,
Borar bo‘ldim endi hurlar qatinda!

Assalom, assalom!
Bobolarning porloq yodi, assalom,
Botirlarning uchqur oti, assalom!

Xush kel, erkam, navro‘zlarni kuldirding,
Ko‘zlarimga yulduzlarni to‘ldirding,
Ey istiqlol, bayrog‘imga ipaksan,
O‘zbekiston, mangu urgan yuraksan!

O‘z yerim deb kuygan, yongan xalq edim,
Iymonimga chin inongan xalq edim,
Bilar edim, yaratganning mehri bor,
Toleimda buyuk davlat muhri bor!

Assalom, assalom!
Noming aziz, yangroq elim, assalom,
Yer-u ko‘kda uyg‘oq, elim, assalom!

ERKIN HAVOLARDA

Poyonsiz o‘rmonlar bag‘rida qoldim,
Bezavol yashillik hidiga to‘ymay.
Lekin hafta o‘tmay qisliqdi yurak,
Jannat bu o‘ramdan bir ilinj tuymay.

Abadiyat bo‘lib tog‘lar rom etdi,
Qoyalar osmonning cho‘ng ustunlari.
Bunda ham dunyoga sig‘mayin ketdim,
Daraga qamalgan duldul singari.

Garchi yer-u ko‘kka uyg‘undir umr,
Lekin har yurakning o‘z tug‘rosi bor.
Men qanday muhitda kim bilan bo‘lmay,
Ruhim doim uyg‘oq va yo‘lga tayyor.

Men voha o‘g‘liman, talabim — kenglik,
Erkin havolardan to‘qiyman she’rlar.
Bor bo‘l, ma’no qadar yorqin bo‘lgan so‘z,
Bor bo‘l, ufq qadar ochiq, keng yerlar!

OTAJONNI ESLAB...

Oqqan daryo tindimi,
Oltin toring sindimi,
Otga boshqa mindimi,
O‘rtadagi do‘st qani?!

Qayiq qumga urildi,
Asr zumga urildi,
Yurak simga urildi,
O‘rtadagi do‘st qani?!

Fano, baqo ne ishdir,
Bir-birovin yeyishdir,
Izindan voh deyishdir,
O‘rtadagi do‘st qani?!

Ikki daryo orasi,
Uch yuz oltmish qal’asi,
Izlar hofiz nolasin,
O‘rtadagi do‘st qani?!

ODAMLARIM

Ajab, gohi paytlar jonim-tanimdan,
Mundoq boqib tursam, bir odam chiqib,
Ochiq undab-qistab yo imlab zimdan,
Meni qaylargadir sudrar hovliqib.

U menga ko‘p tanish, hamroz, qadrdon,
Fe’li ham ruhimga g‘oyatda boyli.
Uning bilan behad kezganman jahon,
Shundan bizni tanir yer-u ko‘k xayli.

Ammo ba’zan yana — jonda alolo,
Ttrayman qalbimning oxod ishiga:
Ko‘zguga kiradi bo‘lak bir siymo,
Ne desa ko‘ndirib o‘z xohishiga.

U — ulkan davralar oshig‘i, tafti,
Deydi: “Yurt intizor, minbar intizor!”
Ul bois elimning mehribon kafti,
O‘rxun bitigidek, peshanamda bor.

Ammo umr tinsiz to‘falon emas,
Sokinlik har mahal tushar fazodan.
Bu shunday tinchlikki, sinadi qafas
Yuragimdan chiqqan jimjit sazodan.

Bu — uchinchi oshnam hadyasi erur,
Shoirlik boshlanar balki sukundan.
Ruhoniy sukunat asli tilsim nur,
Kundan hadigi yo‘q, vahmi yo‘q tundan.

Bag‘rimdan musiqa tarab chiqquvchi
To‘rtinchi odamim oldida xorman:
Ko‘z ochib ulgurmay, bu nening kuchi,
Suyuk qadamjolar poyida borman!

Bul ne ishq, keladir falakni bo‘yab,
Ma’no o‘zgarishi nedin rasmimning?!
Har gardga jon berib, har xasni suyab,
Asil maqsudini ochib ismimning?!

Zumda Yassidaman.
Naqshband bilan
Zumda olovlarga bo‘laman vobast.
Mung‘ul da’vosiga zid chiqa bilgan
Kubroning yonida olaman nafas.

...Ammo murosasiz bir insonimdan
Kimga shikoyatlar qilay, bilmayman.
“Olon”mi, “qongli”mi, ichar qonimdan,
Balki turfa urug‘ tilmochi “nayman!”

Meni u ko‘p katta masnadlar sari
Besamar muloqot uchun yo‘llaydi.
Unda ta’qib etar gunglar lashkari,
Unda soqovlar xo‘p oq yo‘l tilaydi.

Izma-iz, o‘chma-o‘ch, ochiqma-ochiq,
Dil uyimdan sarmast chiqadi bir zot:
“Ko‘zni yum baridan!
Qo‘y, qilma g‘ashlig‘,
Har ne yo‘lga tushar! Axir bu — Hayot! ”

Umar Xayyomdanmi, Mashrabdan balki,
Meros miyno-shisha qo‘lida, o‘ktam.
Deydi: “Asab torin tashlagin salqi,
Narigi qirg‘oqqa o‘tib ketsin g‘am...”.

Shu taxlit vujudim-ruhimda borar
Yillar hayot-mamot jangi beomon.
Intiho shundayin balki sur chalar,
Balki belgi shuldir ibtido tomon?!

Goh kimningdir yo‘lin qiynala ochsam,
Yo‘limga loshini tashlagani chin.
Bilmas, yo‘lsiz qolmas daryolar toshsa,
Tog‘ ham g‘ov emasdir oftob uchun.

Pinhon tajribalar ustasi Hasad,
Omadsiz g‘o‘raklar homiysi G‘araz,
Bularning yo‘liga, so‘ziga yo‘q sad,
Tig‘ni toshga suykab, to‘qir yuz faraz.

G‘urbat o‘z ishida mashg‘ul abadiy,
Kiyna Fitna bilan tamaki tortar...
Sabrning so‘nggida xaloskor Vahiy
Og‘ir bu iqlimni so‘zsiz yang‘ortar.

Agar xatolarim mening mustaqil
Tentirab ketsa-da o‘zicha, yakka,
Shulardan so‘ramas ko‘mak yo aql,
Suyalmas birovlar ekkan terakka...

Ko‘p o‘tmas.
Ro‘y berar yettinchi holat?!
Ko‘nglimga boqaman — biram osuda!
Vujudim parvozda, sharpalar g‘orat,
Borlig‘im tozarish jarangosida.

Ruhimni kim olib ketmoqda, qayon?!
Qutqarish asnosi nahot shu taxlit?!
Bulutdek pastlarda qoladi Gumon,
Xarita misoli kichrayar Tahdid...

Fitnakorlar yana xunob, qon ho‘plar;
Kim u yon bosguvchi har gal shoirga?!
Tap tortmay Ka’bani toptaydi ular,
Behadik daxl etib Abadiy Sirgak.

Aslida dilovar shul yetti do‘stim
Har shayda himoyam sari chog‘langan.
Zarur payt har qaysi ihota, ustun,
Iymonim bandiga pinhon bog‘langan.

Barining, aslida, tomiri bitta,
Bari sotqinlikdan or qiluvchi, or,
Barining vijdoni nafsidan katta,
Barida hamshira iste’dodi bor.

Garchi yetti xislat odamda nozil —
Birlashib ketgandek sinovlar vaqti,
El ham Haqqa shundoq bo‘ladi vosil,
Shundoq uyg‘onadi Vatanning baxti!

PASON TAKA

Qizilqumni qay kun kesib o‘tarkan,
Ko‘zim tushdi ja bir pason takaga.
Bir ko‘zi suruvda, bir ko‘zi o‘tda,
Tez-tez boqib qo‘yar cho‘pon akaga.

Qo‘ng‘iroq — o‘zida, uyur — bir siqim,
Ammo cho‘ponidan uzilmas ko‘zi!
Voajab, shuncha erk, kenglik bersang ham
Bir qadam otolmas o‘zicha-o‘zi.

TO‘RTLIKLAR

Ko‘kdan yerga bir ne tutash ko‘rinar,
Umr — o‘z burchingni o‘tash ko‘rinar.
“Avlodlar almashar!” — degan gap bekor,
Bu — har kimni bir-bir sinash ko‘rinar.

Qay kuni sinchiklab boqdim bir qushga:
Nafsi deb tutildi olako‘z Moshga!
Ming shukr, xudoyim, qorin bermabsan
Mendagi qanotli xayol-hushga!

Dehqon o‘z xirmonin ko‘rmasin hech kam,
Do‘stlar yig‘ilsinlar erta ham, kech ham.
O‘z yer, o‘z joyida yashasin ellar,
O‘z erkin boshqadan so‘ramay hech ham.

Ters fe’lli kimsalar kimning zuryodi,
Tag‘in har birining bordir ustodi!
Pokdil el “Yo Haq!” deb ruju qilganda
Bularning nimada bo‘larkan yodi!

Quyosh botgan sayin uzaydi soya,
Abadiy zulmatga ko‘mildi qoya.
Yerning nurga bo‘lgan buyuk sog‘inchi
Tog‘larni yuksaltib turibdi g‘oyat.

Tegmadim. Chunonam qonimni so‘rdi
Bir pashsha, shoshilmay, obdon joylashib,
Qiziq, bir o‘zining nafsi shunchami,
Yo boshqa birovlar bilan bo‘lishib...

Shu yil yoz To‘rtko‘lga qayiqda o‘tib,
Dilim to‘lqinlandi, ko‘zim yoshlandi:
Amudaryo suvi sho‘r edi, taxir,
Hovuchimdan ko‘z yoshidek tashladim.

Huv qora to‘nka yashar necha asr,
Umri yolqin umrlar ichra kasr.
Urunmang endi uni yoqmoq bo‘lib,
Balki kovakdir ichi, balki sasir.

Quyoshman deb lof urib qolding,
Jinchiroqqa o‘xshaysan, kechir.
Bo‘sh jismingga kimdir yog‘ quyib,
Piligingni ko‘tarar kimdir.

Bog‘bon uzum suvin qayga yashirdi,
Ko‘za og‘zin shuvab loyga yashirdi.
Sharbat qirq yil yashab zulmat qa’rida
Faqat shiddatini yana oshirdi.

Umr bir burda non, bir qarasam,
Non faqat umrimga jon, bir qarasam.
Umrim-u olamning-u bor hikmati
Burda non ichra nihon, bir qarasam.

Ul ko‘chguvchi qushlar na deb chekar zor,
Hatto shamolning ham tuqqan joyi bor.
Ming yil bir go‘shada yashar-u inson,
Nega til beqaror, imon beqaror?!

Bu dunyo ustma-ust bir do‘kon chiqar,
Usti — zar, ostidan ustixon chiqar.
Bunda oppoq jildli kitob olsang ham,
Yo osti, yoyinki usti qon chiqar.

Necha yil uxlabman, jon-tan qotibdi,
Qarasam tepamda tonglar otibdi.

Sas keldi: “Yer qa’rin qoq markazida
Bir quyosh qamalib porlab yotibdi!”

Hajringda oy kabi yiroqqa botdim,
Qora g‘amim bilan chiroqqa botdim.
Yig‘idan ko‘zlarim bulog‘i qurib,
Farhod teshasidek men toqqa botdim.

Chumoli yurti bu, ko‘zlari katta,
Har bir don hisobda, har qatra xatda.
Oshxo‘rlar yurtidan bir mehmon kelsa,
So‘zsiz, ochdan o‘lar bu mamlakatda.

“Eh, bir shayton urđi!” — deysan har safar,
O‘zingga olmaysan aybni hech mahal.
Mundoq qarab tursam, butun vujuding
Shaytanatga o‘nglab qurilgan shahar.

Kimningdir boshida doim qora dud,
Kimning bor-u yo‘g‘i na zarar, na sud.
Kimdir tug‘ilgandan nisbasi nurdir,
Hayot shunday rangin va shunday mavjud.

Shu zamin xalqimning tiragi erur,
Shu erk millatimning yuragi erur.
Shu bayroq, tiklangan g‘ururga in’om, —
Zangori osmonning bo‘lagi erur.

Men bosgan qadamni yerim tushundi,
Har bir nafasimni she’rim tushundi.
Tilimda gohi gul undi, goh tikan,
Lekin har so‘zimni elim tushundi.

Nega har bir g‘olib kiyavermas toj,
Nega mag‘lublar ham qolmas beiloj?!
Bildimki, osmonning eshigi bitta,
Dardli munojotga ochilar Me’roj.

KOMILJON OTANIYOZOVNI ESLAB

Ruhimga bir sado kelar
Komiljonimni yod etsam.
Dilga nurli navo kelar
Komiljonimni yod etsam.

Qadim dengiz Orol to'lar
Sir, Jayhunga xayol to'lar,
To'lin bo'lar, hilol to'lar,
Komiljonimni yod etsam.

Dillarda bir sog'inch ziyo,
Ishq bois aylanar dunyo,
Shu bir nomda ming hikmat jo —
Komiljonimni yod etsam.

Bobomurod, Karim Rahmon,
Rahmatjon, Ortiq Otajon,
Shu gulshan naqshi Olmaxon
Buyuklarimni yod etsam.

Borki aziz zotlar yodi,
Ko'rk topar el-yurt hayoti,
Bu istiqlol saodati —
Ulug'larimni yod etsam.

HAZIL LAPAR

Ay, bir aytin dedim-da
Yaxshi ko‘rajagimni.
Senga bog‘laganimni
Bori kelajagimni,
Butun kelajagimni.

Sozchi tamburni tuzdi,
Duldul arqonni uzdi.
Degish qirg‘oqni buzdi.
Daryoga kim yetkizdi
Nera borajagimni.

Gullar bulbulga aytdi,
Tong yeli elga aytdi.
Darvesh oqilga aytdi,
Bilmay, yana men qaytib
Gap-so‘z bo‘lajagimni.

Chidadim alangaga
Chopmay Sirga, Gangaga.
Aytmay hatto yangaga,
Sen bilan go‘shangaga
Birga kirajagimni.

Hoy, Omon Matjon qani,
Musiqiy jahon qani.
Jon tikay, jonon qani,
Bilsin umrim har onin
Senga berajagimni.

Chiqdi sandiqdan Tohir,
Daryoda yo‘q javohir,
Yolg‘izlikda ne tatir,
Bil, sen-la avval-oxir
Birga qolajagimni.

Eh-hey, qilichboz yashin,
To‘kma bulutlar yoshin.
Ko‘r sen ishqning otashin,
Xoh tong, xohi shomnishin,
Yorni ko‘rajagimni.
Seni ko‘rajagimni.

EY SIRLI DIYOR, XORAZM

Ey sirli diyor, Xorazm,
Ey nurli shior, Xorazm.

Necha evrilgan tarixning
Senda rasmi bor, Xorazm.

Seni kimlar turtib-chetlab,
Qilmadi abgor, Xorazm.

Goh seni sotdi Guldursun,
Goh sotdi O‘tror, Xorazm.

Ming minorlar o‘lkasi,
Ming parchin devor Xorazm.

Mirobi iqlim bo‘lgansan,
Gohi suvga zor Xorazm.

Jahon aljabrinda noming
Har daf’a takror, Xorazm.

O‘ynoqi g‘amdir kuylaring,
Chalsam yonar tor, Xorazm.

Shayx Najmiddin bahodir
Ko‘ksingda tumor, Xorazm.

Sensiz bu Osiyo naylar,
Yo parvardigor, Xorazm?!

Senga abad Jayhun va Sir
Shoshmaydi bekor, Xorazm.

To‘lar daryo, to‘lar dengiz,
Qolmagaysan zor, Xorazm.

Yurtda ne-ne ulug‘ zotlar
Seni deb bedor, Xorazm.

O‘zbekiston jamolida
Sen naqshi nigor, Xorazm.

Jahon mehrobida so‘zim:
Bor Xorazm, bor Xorazm!..

* * *

Men goh mundoq qarab,
o‘yga tolaman,
Qani kimlar bizning kelajagimiz?
Safimizga ertang kim kelar ekan,
Kimga qolar ekan kelajagimiz?

Davronlar aylanar tinmay, bilamiz,
Goho qayg‘uramiz, goho kulamiz.
Bugunni-ku obdan tashvish qilamiz,
Kimlarga bog‘liq, xo‘sh, kelajagimiz?

Kim asrar Vatanim, yurtim — elimni,
Kim saqlar tarixim, ona tilimni,
Kim tutar umidli cho‘zgan qo‘limni,
Kimlarning qo‘lida kelajagimiz?

Bugun tiklanmoqda jur’at, adolat,
Orzular uyg‘ondi dilda, harorat,
G‘imirsilab qoldi lekin adovat,
Qiyin bo‘lmasmikan kelajagimiz.

Shunday payt o‘ylayman sizni, yoshlarni,
Shu ovunch ko‘nglimdan quvlar g‘ashlarni,
Sabab yo‘q hech egish uchun boshlarni,
Kimning qo‘lida deb kelajagimiz.

Chunki yoniq yurak — oftob sizdadir,
Ulug‘ istiqlolga shitob sizdadir,
Barcha savollarga javob sizdadir,
Sizning qo‘lingizda kelajagimiz.

DOSTONLAR

"Haqqush qichqirig'i"

(Doston)

Yozmoqda bu ishqi jovidona
Maqsudim emas edi afsona.

Mazmunig'a bo'ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli.

Lekin chu raqamga keldi mazmun,
Afsona anga libosi mavzun.

Alisher Navoiy, "Layli va Majnun".

Xotirasi bo'lmagan, tarixi bo'lmagan, ko'hna asotirlar, afsonalarda, klassik adabiyotda aks etgan ma'naviy biografiyasi bo'lmagan odam — ruhan qashshoqlikka mahkum va bunday odam murakkab zamonamiz hayotini anglashga ojizdir.

Chingiz AYTMATOV

1

TABIATNING IKKINCHI SIRI

Bahor paytlari, daraxtlarga yashil alanga chirmashgan va qushlar shoxdan shoxga sakrab, shod sayrashgan mahallari bir narsaga diqqat qildingizmi? Bu manzara bir qadar sho'xchan bolalarning o'yinqaroq dovdir tabiatini esingizga solmaydimi?! Soy-chi, soy? U toshdan toshga irg'ib, quvlashayotgan bir to'p shumtakaning xuddi o'zi! Gullarning lov qizarib turishi — arzimagan gunoh qilib onasining oldida yuzlari olovlangan qizaloq! Nega shunday? Nega yashil tabiat bizga bolalikning ma'sum va pokiza, hayotshukuh va uchqunli, beg'araz va orzumand paytlarini eslatadi?!

Bu — tabiatning ikkinchi siri!

Tog‘qishloqlari manzaralari ko‘p kitoblarda a’lo va xos qilib ifodalangan. Biz aytmoqchi bo‘lgan qishloq o‘shalarga deyarli o‘xshash: qoq o‘rtasidan toshqin soy o‘tgan, bog‘lar, daraxtzorlar, qushlar dunyosi, gullar...

Qishloq ikkiga bo‘lingan dedik. Lekin bunga soy zarracha ham aybdor emas. Bu joyning bo‘rtma baland-pastligi azaldan, ya’ni ilk zamonlarda otilgan ilk vulqonlarning yo‘nalishi tufaylidir. Qishloqning ikkiga bo‘linganini hadeb ta’kidlayotganimizning sababi, ikki tomonning katta yoshdagi odamlari bir-birlari bilan uncha inoq emaslar: goh “oqsoqol bizdan saylansin!” desalar, gohida qiz uzatdi payti bir ishkal chiqadi, goh suv taqsimotida, gohida shunchaki shamol narigi tomondan esib, tandirning tutuninimi, don sovurilayotgan xirmonning changinimi olib kelsa, g‘idi-bidi, ta’na-teskarichilik, pichoqlashish, toshbo‘ron va hokazolar.

Lekin ikki tomonning bolalari haqida bunday deb bo‘lmaydi. Ular har doim birga. O‘qish tugadimi, qirga chopishadi: o‘ynashadi, qo‘y-qo‘zilarini o‘tlatishadi, qaytishlarida onalariga ko‘k chuchvara uchun piyozlar yig‘ishadi yo ermakka mayda yaltiroq toshlar yig‘ib yurishadi. Ular ham ahyon-ahyonda “mushtlashuv”-ga kirib qolishadi, lekin bunday “jang”lar daraxtlar uchiga ilashay-ilashay deb o‘tgan pastak tog‘ bulutlari quygan jaladek yodlaridan tez o‘chib-o‘tib ketadi.

Ko‘p zamon shu zaylda kechibdi.

Bir kuni kechqurun bolalar qirdagi odatdagi o‘yinlaridan qaytsalar... nimani ko‘ribdilar deng?! Hech nimani! Ha, Hech nimani! Qishloq ham yo‘q, sharqiroq soy ham, yashil daraxtlar, qushlar, gullar, bog‘... Hech nima! Faqat kultepa, xarobalar, tutun, qon izlari... Ertaklardan eshitgan jahannamiga-do‘zax deganlari xuddi shuning o‘zi bo‘lsa borki, lekin sira kam emas!

Bolalar! Sho‘rlik bolalar, yetimchalar...

Tabiat! Ularga rahm qil! Shafqat qil! Ularda nima gunoh? Endi nima qiladi ular?! Qayerga boradi? Qanday tirikchilik qiladi?!

Tabiat, jon tabiat, ona, ularning qay ahvolda turganlariga bir qara!

Lekin bu yerda tabiat ham butkul o'lgan, to'g'rirog'i, qirg'inqatag'on qilingan edi. Tabiatning bu ahvoli o'zi kishi yig'lagudek edi. Lekin bironta bola yig'lamadi. Ular hayotning bunday "muruvvat"larini hali boshlaridan kechirib ko'rmagan edilar. Bu holat ularning ko'zlariga ilk qarashda shunchaki g'alati bir yangilik edi xolos! Ya'ni, qishloqni qandaydir noma'lum kuch jodulab ketgan-u hamma narsa mana hozir o'z asliga qaytadiganday edi.

Lekin bunday bo'lmadi. Bolalar uzoq vaqt shu taxlitda turishdi, lekin mo'jiza ro'y bermadi. Kattalar bir-birlari bilan bu safar juda jiddiy va omonsiz urush qilgan edilar...

Ha, kattalarning urushi yuqorida aytganimiz jirtaki, uzuq-yuluq bulutlarning jalasi emas! Kattalarning urushi vulqonlar otilganda, yer dahshatli qimirlaganda, sunamidan ham kuchliroq to'fonlar qo'zg'olganda bo'ladigan fojialar bilan teng!

Unday payt negadir bolalar taqdiri hech kimning esiga tushmaydi!

Yosh do'stlarimiz lol-hayron edilar.

Bir qancha fursat o'tib, ularning ichidagi eng kichkina bir qizaloqning shirin lahjasi quloqqa chalindi:

— Gullar kuyib ketibdi...

— Huv anavi yerda chinor bor edi... shoxlarida qushlar...

Jimlik. Sal o'tmay qaltiragannamo bir ovoz:

— Manavi yalpizlarni nima qildim, oyimga berishim kerak edi,— dedi.

Asta-sekin siniq-muloyim, qo'rqib, yig'lamsirab aytilgan alamli so'zlar eshitila boshladi.

— Buvijonim qayda ekanlar...

— Sari yol otimiz qip-qizil toychoq tug'ib bergan edi... Olovday...

— E... Soy qani, toshqin soy... Qishlog'imizni ikkiga bo'lgan...

Birdaniga to'dadan hammaning qulog'ini yorgudek bir chinqiriq yangradi:

— Otajon! Otajon! Qaydasiz... Qo'rqib ketyapman... Otajon...

Bu nido mitti qalblarga cheksiz xo'rlik, yolg'izlik tuyg'usini soldi va ular qo'rquvdan bir-birlarining pinjilariga tiqila bosh-

ladilar. Borliqda shafqatsiz bir ruhmi, yalmog'iz borday dir-dir titradilar. Bu hol qancha davom etdi, bilmadik. Lekii ular qattiq quchoqlashganlaricha turishar, ajratadigan kuch yo'q edi go'yo! To'dadan ajraldi deguncha o'sha ko'rinmas balo o'z yo'qlik komiga tortadiganday edi!

Birdan bolalardan biri (o'sha "otajon!" deb chinqirgani!) hammani siltab, urinib, to'pdan chiqa boshladi.

— Ey, kim bo-or?! Ey xudoyim... Ey tabiat... Ona qishlog'im qani?! Qani otajonim, onajonim... Qani yangi tug'ilgan qizil toychog'im... Qani toshqin soyim, qushlarim... Qani buvajonim.., uyim... Topib ber! To-op!

Bolalar uni tinchitishga harchand urinmasin u o'zini to'xtata olmas, kul va qon ustida ag'anar, yurak yular faryod solishdan tinmas edi.

— Qanisiz, otajonim... Oyijonim...

Shu payt birinchi bo'lib gapirgan eng kichkina qizaloq yana gapirdi:

— Oyijonim aytgan edilarki, bo'ying o'sib anavi qizil gulimizga tenglashib qoldi. Endi o'sha gul ham yo'q... Biram o'sha gulga aylanib qolgim kelyaptiki...

Birdan mo'jiza yuz berdi. Qizaloq qizil gulga aylanib qoldi. Haligi o'zini bilmay faryod solayotgan bola birdan tinib qoldi va to'satdan avvalgidan-da battar girya og'oz qildi.

— Men ketaman bu yerlardan... Soyga aylanib ketaman... Ortimga qaramay ketaman... Yig'lab ketaman...

Va bola pastlikka qarab yugura ketdi. U aqldan ozib qolgan edi. Bir-ikki tengquri uni to'xtatish uchun yugurdi. Lekin banogoh bola g'oyib bo'lib, ularning oyoqlari ostida avvalgidan-da toshqin-to'lqin soy paydo bo'ldi...

Hamma ortiga tisarildi. Hayrat, qo'rquv... Bir ozdan keyin to'p ichidan bo'yi sal ulug'roq, sipo chehra bola ajralib chiqdi va do'stlariga yuzlandi:

— Faryodimizni kimdir eshitganga o'xshaydi. Ikkala tenqurimiz og'izlaridan chiqqan istaklariga aylanib qolishdi. Sizlarni bilmadim. Men o'z istagimni aytmoqchiman. Har kim aytsin, ko'nglida bo'lsa!

* * *

Sal o‘tmay o‘sha tentak toshqin soy bo‘yida chinorlar, uylar, bog‘lar, qushlar paydo bo‘ldi. Chollar, otalar, xotinlar ko‘rindi... Allaqayerdan sho‘x va o‘tkir kishnab qip-qizil toychoq dikirlab o‘tdi...

Qishloqda avvalgidek to‘laqonli hayot izga tushdi.

Bahorda — daraxtlar yashillangan, qushlar sho‘x sayragan, soy ajib sharqiragan, gullar alvonlangan paytlar bir narsaga diqqat qiling-a! Ko‘rganlaringiz bolalikning ma’sum va pokiza, beg‘araz va orzumand tabiatini, qiliqlarini eslatadi. Nega shunday?! Men bu savolni bugun bolalarga ham, kattalarga ham baravar bermoqchiman:

— Nega shunday?! Nega bizni ona yer tabiati hadeb o‘z bag‘riga chorlab turadi?! Nega u bilan yolg‘iz qolsak ko‘nglimiz yorishadi, nigohimiz tiniqlashadi? Nega har bir giyohni ko‘zimizga surtgimiz, to‘yib-to‘yib o‘pgimiz keladi?! Xush lahja buloqlarga uzoq yuz bosib, qona-qona ichgimiz keladi!

— Nega?

2

HEVOQ AFSONASI

Nuh kemasin qidirmoq Turkiya tog‘laridan
Xom, Som, Yofast singari juda qadim safsata.
G‘afur G‘ulom

Bilasizmi, to‘fon tinib,
Nuh yo‘l olgan qayoqqa?!
Eng dastavval Nuh payg‘ambar
Oyoq qo‘ygan Hevoqqa!

To‘g‘ri, ko‘plar uni “bizning
Tovda chiqqan!” deydilar.
Suvdan uchi chiqib turgan
Tog‘ga chiqqan deydilar.

Axir o‘ylang: tog‘uchida
Jonga najot bo‘lurmi?!
Taqir toshda tirikchilik,
Hayot-mamot bo‘lurmi?!

Yo‘q, albatta! Endi tinglang,
Aytib beray rostini!
To‘fon to‘xtab, dengiz bir kun
Ko‘rsatganda ostini —

Kemadagi jonlarga Nuh:
“Hey! Boq!” — depti. —Ana, yer!
O‘sha yerdan boshlanajak
Hamma uchun ona yer!

“Hey, boq” bo‘lsin bu yer nomi,
Ilk bor aytdim shu so‘zni!..”
Va kemadan barcha shodon
Yerga otibdi o‘zni!

Ya’ni barcha deganimiz,
Bu — hayvonot, nabotot.
Barcha turdan bitta-bitta,
Bitta ekan odamzod.

Nuh Odamni to‘xtatibdi:
“Qani, olgin chamani!
Bunda joy tut, shahar tikla,
Ulgi et huv kemani!”

“Payg‘ambarim!— debdi odam.
Har kaloming dilga jo!
Lekin, endi ul kemangni
Eslagim yo‘q mutlaqo!

Axir shuncha chayqalishlar,
Shuncha bo‘ron-to‘fonda

Toza kil-kil bo‘ldi yurak,
Jon qolmadi bu jonda...”

“Yo‘q,— debdi Nuh. Bunda endi
Tug‘ilgay ko‘p buyuklar!
Bu joyni ham omon tutgay,
Muqim tutgay shu “yuk”lar!”

...O‘sha-o‘sha, bu qarorgoh —
“Hyeyvoq” bo‘lib qolibdi.
Asta uning shon-shuhrati
Bor dunyoni olibdi.

Shu qutlug‘ yer farzandidir
Buyuk Mahmud Pahlavon!
O‘sha aytgan: “Nuh — bir to‘fon,
Men ko‘rdim, deb, ming to‘fon!”

Shunda o‘tgan Ogahiylar,
Komil, Feruz — ko‘p zotlar.
Musiqani eng birinchi
Xatga solgan ustodlar.

Necha marta Jayhun toshgan,
Necha bo‘lgan zilzila.
Lekin Hyevoq toleida —
Mangulikdan silsila!

Tarixda ko‘p yurtlar, ellar
Qirg‘in bo‘lgan necha bor.
Lekin Hevoq omon qolgan,
U bugun ham poyidor.

Yuksaklardan boqsang unga,
Shakli xuddi kemadir!
Hatto o‘sha to‘fonni ham
Eslatadi nimadir!

Shahar cheti — tutash qumlar,
Yetmas kishi ko‘zlari.
Bu qumlar ham o‘sha qadim
Buyuk suvning izlari...

IKKI GUL

Professor ***A. I. Mo‘minovga***

Taqdir ekan. Dashtda bir juft gul ko‘karib, qaqragan.
Ko‘k toqida kun yonarkan saroblarni alqagan.

Bir kun ufqda suvli-bog‘li shahar bo‘pti namoyon,
Umid nuri gullar uchun boshlab kepti g‘alayon.

Birinchi gul ko‘p o‘ylanmay, shu tomonga qo‘zg‘alib
Ko‘p yuribdi jazirada tashna qolib, och qolib.

Juda holdan toygan chog‘i — cho‘g‘ tiqilib tomoqqa,
Duch kepti u sopol tovoq yuzicha bir buloqqa.

“Buloq — debdi tamshanib gul.— Suvingdan ber, ichayin,
Sal kuch-quvvat, darmon yig‘ib, huv shaharga tushayin”.

“Mayli,—debdi saxiy buloq. — Lekin tingla shartimni,
Issiqni ko‘r, pana qilay, tashlab ket bir bargingni”.

Ul gul debdi:— “Qo‘y-e, bargsiz, yalang borsam agarda,
Masxarayi jahon etar meni hamma shaharda...”.

Gul ketibdi. Yo‘lda necha duch kelsa-da buloqqa,
“Bargingdan ber!” degan gapni hech olmapti quloqqa.

Ul ikkinchi gulning ham, deng, yuragi olovlangan
Yo‘l olibdi shahar sari ufqdagi tovlangan.

Yo‘lda chashma chiqsami, deng, u chunon ham eripti,
Har biridan suv ichipti — barglaridan beripti.

So‘ngsiz sahro oxir tugab, shahar yaqin qolgan on,
Ko‘rsa, qurib yotar yo‘lda birinchi gul za’faron.

Lol tursa ul, shamol kelib aytibdi bir xushxabar;
“Dashtda qaynay boshladilar gul qoplagan chashmalar!”

Gul o‘ziga boqsa, yo haq, bargsiz emas tanasi,
Avvalgidan ham suluvmish, suv ichgandan chamasi!

Dashtdan kelgan bu mehmonni xush kutibdi shahar ham,
Har ko‘cha, har dahasidan joy beribdi mukarram.

Bu masalmas, bu afsona, lekin bordir hissasi,
Ma’nisiz gap tildan tilga o‘tib yurmas, qisqasi.

3

NEGA QIRQ?

(Muqaddima o‘rnida)

“HAQQUSH QICHQIRIG‘I”ga qirqta afsonani jam etdim. Xo‘sh, nega qirq?! “Qirq” degan so‘zda noaniq, mavhum bir hikmatni ilg‘amayotirsizmi?! Ha, esingizda: “Qirqquloqli qozon”, “qirq kecha-kunduz yo‘l yurdi”, “chilla — qirq kunlik qish”, “dev qirqta kalitni shoxiga ilib uxladi”, “shoh ustaga qirq kun muhlat berdi”, “qirq tuya boylik hadya qildi”, “qirq gaz chuqur quduq”, “qirq qiz”, “qirq kecha — qirq kunduz jang qildi” va hokazo. Maqollar, iboralar-chi: “qirqiga kirib quyulmagan”, “qirqingga kirding — narxingga kirding”, “bir xotinning makri — qirq eshakka yuk”, “qirqingda surnay o‘rganib, o‘lganingda chalasanmi?” yoki Kaykovusni eslang: “umr — qirq tishli narvon, qirqi — chiqish, qirqi — tushish”. Shuningdek, yana bir g‘alati hikmat: “Orol dengizida oq

va qopa ikki balchiq har doim bir-birini quvlab yuradi. Oq baliq Amudaryoga kirib qolsa, to Pomirgacha boradi. Toqqa boshini urib yana ortiga qaytadi. Amudaryo bu baliqlarning yuqoriga yurishida qirq gaz, ortga qaytishida yana qirq gaz past tushib ketadi..." Yana qirq! Nima gap o'zi?! Qirq — qandaydir silsilaga, qonuniyatga aylanib qolmayaptimi?! Yo tasodifmi?

Afsonalar bolaligimizning oq qanotli qushlari. Ular bugun ham, ana yaqinginamizda — nurli ko'zlari bilan kuzatib turganga o'xshaydi bizni! Bu — hammaga tanish tuyg'u. Lekin yurtning — tug'ilgan maskanning afsonalari qayerdan boshlanadi? Kim to'qigan ularni?!

Vatan, zamon, baxt kabi tushunchalarni har bir avlod yangilaydi, o'z afsonalari bilan boyitadi. Afsonalari mo'l yurt — eng boy yurt, eng umrboqiy yurt. Afsonalar — eng uzoq umr ko'radigan, ya'ni eng ko'p ma'naviy xizmat qiladigan faxriy vatandoshlarimiz!

Akademik shoir G'afur G'ulom "Xorazmning har g'ishtida bobolarning ijodi butun-butun xalqlarning tarixicha keladi", degan edi. Har g'ishtida shuncha hikmat yashiringan imoratni kim bunyod etgan, qachon, qanday qilib?!

Bu imoratning birgina xorazmlik me'morlari — xorazmiylar, zamaxshariylar, beruniylar... Uning fidoyilari — To'rabekaxonimlar, Pahlavon Mahmudlar, Jaloliddinlar... Uning jazhonaro yangroq so'zi — Hofizi Xorazmiylar, Ogahiylar, Avazlar... Uning tojdor maqomi — Komil Xorazmiylar, Hojixonlar, Sheroziylar, Komiljonlar... Mana kimlar yaratgan Xorazmning tuganmas ertagini! "Ijodkor xalqimiz!" deganimizda, avvalo shu siymolar keladi ko'z o'ngimizga!

O'zbekiston — to'lin kamalak! Xorazm uning bitta o'tkir rangi! Bu rangning o'z hayoti, o'z falsafasi bor. Bu hayot, bu falsafa xorazmliklarning o'tmishida, bugungi o'ziga xos turmush tarzida, shuningdek, bizgacha yetib kelgan tirik ertak va afsonalarida namoyon bo'ladi. Afsonalar — bolalikning oq qanotli qushlari! Afsonalar — xalqimizning bolaligidan bu kunigacha uchib kelgan va kelajak sari uchishga hozirlanayotgan sirli ruhlar! Ularning ba'zilari sizga tanish — kimdir aytib bergan, qaysidir eski yoki yangi kitobdan o'qigansiz yoki o'zingiz sezmagan holda

xayolingizda yashab kelgan. Men bu kitobga jamlangan afsonalarga ehtiyot va e'tiqod bilan yondashib sayqal berdim, har kungi va abadiy ma'naviy ehtiyojlarimizga mos"libosi mavzun" kiydirdim. Endi muhtaram o'quvchini afsonalarning zangori qanotida sururli parvozga taklif qilar ekanman, hamma sayohatlar oldidan bo'lgani kabi, kichik bir eskartma berib o'tmoqchiman. Nega zamonaviy she'rlar yozib yurgan muallif birdaniga afsonalarga murojaat qilib qoldi? Orqaga chekinishmi?! Yo'q! Birinchidan, afsonalar, xalq og'zaki ijodiyotining boshqa shakllari kabi muqaddas boyligimiz hisoblanadi. Ularni bir joyga to'plash xayrli ish. Ko'pchilik afsonalar boshqa xalqlarda ham uchraydi. Demak, ular turli xalqlarning qadimiy madaniy aloqalaridan, orzu-intilishlarining bir xilda ekanligidan darak beradi.

Ikkinchidan, asrimizning texnikaviy shiddati, tezkorligi adabiyot va san'atga bir oz "muallaq"lik ruhini berganday bo'ldi. Miflar, afsonalar, xalq dostonlari san'atni zaminga "qaytarish"ga yordam beradi. Bundan yigirma-o'ttiz yil oldin giyoh bilan davolagan tabib masxaraday ko'rinar edi, bugun jahon meditsinasi bir qadar "avitsenna"ga qaytyapti. Besh-o'n yil oldin sun'iy matolar "moda" bo'lgan esa, bugun yoppasiga paxta, ipak, qorako'l... Avval shaharga intilar edik, endi ko'proq qishloqqa, tabiat qo'yniga... Bu — ortga ketish emas, chekinish emas! Bu — tezligimiz, sur'atimiz oshgani sababli bizdan orqada qolib ketayotgan eski do'stlarimiz — ezgulik, samimiyat, tabiiylikni birga olib ketish uchun bir zumlik qayrilish, xolos!

Muallifdan (1978-yil)

4

ODAMNING YOSHI

O't yaralgan zamonda,
Suv yaralgan zamonda,
Yer yuziga hayot, rang,
Ko'rk taralgan zamonda.

Tabiat bobo o‘ktam
Bor jonzotni qilib jam,
Xizmat, mavqe beribdi,
Belgilabdi yoshin ham.

Barchaga berib qirq yosh
Va insonni etib bosh,
Bobo sinab ko‘ribdi —
Kimlar rozi, kimlar g‘ash.

Rosa qirq yil o‘tgan choq,
Ya’ni muhlat bitgan choq,
Hammani yig‘ib yana
Bobo qilibdi sò‘roq.

Kimdir rozi ketibdi,
Kimdir arz ham etibdi.
Xullas, umr haqida
Gap eshakka yetibdi:

“Kechir, Tabiat bobo,
Bergan umring mutlaqo
To‘g‘ri kelmadi menga,
Bundan o‘lganim a’lo.

Kuch-quvvatim bor mahal,
Yozmi, qishmi — qop mahal
Ishlatdi odam bog‘lab —
O‘ziga darkor mahal.

Lekin qarigan onim
Xor-u zor qoldi jonim,
Menga qirq yosh ortiqcha,
Yigirma yosh armonim”.

“Mayli,— debdi Tabiat.
O‘ylab ko‘raman faqat”.

Ahvoli roz aytishga
Itga yetibdi navbat:

“Voy-voy, umr deganning
Bilmadim ne ekanin!
Yoshlik xush-ku, qarisang,
Non yo‘q ekan yegani.

Yosh paytim odam uchun
Sarf etdim bor-yo‘q kuchim.
Uy qo‘ridim, qo‘y boqdim,
Yotmadim yozin-qishin.

Lekin qarigan onim
Darbadar qoldi jonim.
Qirq yoshing kerak emas,
Yigirma yosh armonim”.

“Mayli,— debdi Tabiat,
O‘ylab ko‘raman faqat!
Ahvoli roz aytishga
Inson olibdi navbat:

“Tabiatim, otamsan,
Saxovatli Hotamsan.
Oliy farmonbardorsan
Bor-u yo‘qqa hakamsan!

Qirq yosh — eng zo‘r yosh ekan,
Ong — tiniq, kuch — chosh ekan.
Lekin andak tashvish ko‘p,
Umr — chop-chop, shosh ekan.

Hali uyim bitmadi,
Yig‘in-to‘yim bitmadi.
Umrimga belgilagan
Orzu-o‘yim bitmadi.

O‘lsam — shuncha ish qolar,
Bola-chaqam yosh qolar.
Rosti, kechgan umrimdan
Ko‘nglim to‘lmas,
g‘ash qolar...”

Ha! Tabiat bilardi,
Ko‘pdir odamning dardi.
Agar ming yosh bersa ham
Yo‘q demasdan olardi.

Bobo ko‘p o‘y suribdi,
Bir qarorga kelibdi:
Eshak va itdan ortgan
Yoshni unga beribdi!

Qayg‘u ichra turgan jon
Bu gapdan bapq urib qon,
Xayr-ma’zur qilmay ham
Bo‘pti-ku yo‘lga ravon.

“To‘xta,— debdi Tabiat,
Har narsada bordir had.
Yetuk o‘g‘lim, deb, senda
Jam etdim oliy hikmat.

Umringni cho‘zdim, kerdim,
Lekin unutma derdim:
Eshak, it xohlamagan
Umrni senga berdim!

Qirq yosh — asil o‘z yoshing,
Qirq — eng tikka quyoshing.
Shuni a’lo yasholsang,
So‘ng ham egilmas boshing.

Shu o‘z yoshing o‘tsa puch,
Bekor ketsa, yoshlik, kuch,
Eshak va it qismati
Senga so‘zsiz bo‘lur duch!”

5

ALLA

Alla! Seni ilk bor dunyoda qaysi bir ona aytdi ekan?! So‘zlaringni yozgan sening qaysi bir shoir, bastakoring qaysi zamona?! Onaning seni uzun tunlar kuylab chiqishidan maqsadi faqat go‘dagini uxlatishmi?! Yo bolakayiga ezgu oliy tilaklar tilayaptimi?! Dunyoda go‘dak tug‘ilgan xonadon borki, beixtiyor muqaddas bu sado eshitila boshlaydi va bola ham, ona ham, tabiatning o‘zi ham shirin, osoyishta orzular sukunatiga singiydi. Allani beixtiyor katta yoshdagi odam eshitib qolsa, xayolga cho‘madi, lekin uni uyqu elitmaydi, aksincha, xotirida uchib borayozgan taassurotlar, uxlab borayotgan, unutilay deb qolgan tuyg‘ular, umrining jonli lavhalari, bolaligi esiga tushadi.

Allada biz hatto xayolimizga keltirmagan boshqa bir mo‘jiza, muqaddas qudrat bor!

Roziya, Robiya, Guljon. Uch ajralmas dugona, chiqon, o‘rtoq. Uch do‘st, uch sirdosh, uch tengdosh. Ularning qizaloqlik paytlari birga kechdi. Bolalikning turli o‘yin-ermaklarini birga to‘qib-chatishdi. Deylik, Guljon biron ermakni — qo‘g‘irchoq o‘ynashni taklif qilsa, Robiya darhol eski-tuski lattalardan “go‘dak” yasar, Roziya esa uni qo‘liga olib alla aytishga tushar edi. Go‘dakning “tug‘ilish” to‘yini ham ular kattalardan ko‘rganlaridek o‘tkazishardi. Roziya allani, albatta, onasining ukalariga aytganidan yodlab aytardi. Lekin baribir o‘zidan ham nimalarnidir qo‘shar edi.

Olmadandir beshigi,
Olsin endi opasi.
Alla.
Jiydadandir beshigi
Jiyranmasin opasi,
Alla.
O'rikdandir beshigi,
O'rtanmasin opasi,
Alla.

Qo'g'irchoq o'yini darrov ularni zeriktiradi. Qarabsizki, bir necha lahza o'tmay, tut bog'da yoki o'rik bog'da shoxlar orasida yurishadi. Hatto o'g'il bolalarga qo'shilib bekinmachoq o'ynashgayam kirishib ketadilar. So'ng esa hammasi qip-yalang'och Amudaryodan oqib keladigan Xizreliyopning loyqa-bo'tana suvida shataloq otishadi. Kechqurun esa ular yuz-ko'zlarida loyqa suv izlari bilan birontasining uyida qandaydir marosimda xalfa kampirning sirli lahjasini — yarim qo'shiq, yarim so'z aytimlarini tinglab o'tirishadi. Xotinlar boshlaridagi oq paxta ro'mollari ko'ziga tushib, chayqalib, ko'zlari yoshlanib tinglashadi. Qizaloqlar ham xalfaning gaplari qayg'uli ekanini sezganday, ancha jim o'tirib, keyin har biri o'z oyisining tizzasiga bosh qo'ygancha uxlab qolishadi. Faqat xalfa bir maromda davom etadi:

Man o'lsam, e jamii mahrami roz,
Mani o'zga o'lukdek qilmang e'zoz.
Ko'zingizdan chiqarmang qatrayi yosh.
Janozam orqasidan otingiz tosh...

Voqealar qadimgi Gurlanda kechayotganini eslatib o'taman. Uzun qish kechalarini xotin-xalaj shunday o'tkazishadi. Bahorda hammaning tashvishi ko'payadi. Uch dugona ham shubhasiz ancha ulg'aygan. Xotinlar sumalak solish bilan ovora. Erlar ho'kizlarning shoxlarin yog'lab, otizga chiqib ketishgan. Kechasi bilan o't yonadi qirq quloqli qozon ostida. Kechasi bilan bayt, topishmoq aytishlar, goh quvnoq, goh qayg'uli qo'shiqlar. Ayollar tunda qandaydir mard bo'lib ketadilar qizlarning nazarida.

Biri shunday boshlaydi:

Osmonga qarasam oyning bolasi,
Orqamga qarasam Gurlan qal'asi.
Umidimga yetkazmadi, chiqonjon,
Harom o'lsin ulli boyning bolasi.

Ikkinchisi:

Osmonda oy edim aylanib turgan,
Dolonda toy edim boylanib turgan,
Sevganimga tezroq yeta qolsam deb,
Qizlarning ichinda shaylanib turgan.

Uchinchisi:

Oson emas dengizning
Topmoq oppoq toshini.
Yana qiyinroq ekan
Topmoq dil yo'ldoshini.

Odamlarni aslida yillarning o'tishi emas, yurtning urf-odatlari ulg'aytiradi. Qizlar shu tariqa katta bo'lishmoqda edi. Kuzda qizil sholi pishganida, yana xotinlar yig'ilishib kelib sholi oqlashga tushadilar. Yana qo'shiq, baytlar, tez aytishlar, ertaklar...

Hayit bahorga to'g'ri kelsa, yana qizlarning kuni tuqqani. Yo gujum, yo qoromon, yo o'rikka arqon tashlab, arg'imchoq solishadi. Ikki-uch joyda yonma-yon va basma-basiga uchishlar... Yana qo'shiqlar...

To'ylar — qizlar uchun katta bayram. Dugonasini uzatishga birga borishadi. Ot aravada oydin kecha yor-yor aytib yo'l yurish, kuyovnikiga kiraverishda katta sahnda yonayotgan gulxandan o'tish, sochqi sochayotgan xotinlarning qo'polligi, yuz-ko'zga urilgan qand, novvot, parvarda parchalari, kuyovning belbog'ini yechish marosimlari... hamma-hammasi yangi bir olam, yurakda yangicha zarblar...

Roziya, Robiya, Guljon. Uchalasining bo'yi baravariga yetildi. Endi ular atrofidagi esa yotga emas, balki boshqa bir shohga tobe, fuqaroligini qabul qilganday edilar. Muhabbat kirgan edi ularning yuragiga. Robiya bilan Guljon sevgi domiga tez tushib, o'z yigitlari bilan qat'iy va'dalar olishib, to'y umidi bilan yashay boshladilar. Lekin nimagadir Roziya shoshilmas, haliyam o'z bolaligidan ajralgisi kelmayotganday, hamma narsaga beparvoday edi.

Yurtda hayot hamon o'z eski yo'sinida. Hayit navbahorga to'g'ri kelgan yili Amudaryo bo'yiga odam sig'may ketdi. Aytishlaricha, bu saylga to'qson yurtdan hofiz, dorboz, savdogar, mehmon kelgan. Ko'rsatilmagan tomosha, pishirilmagan taom, aytilmagan qo'shiq, so'z qolmagan. Bu saylda qizlarda katta o'zgarish bo'lib, uchoviga qorama-qora Robiya bilan Guljonning yigitlari ham yurishardi. Roziyaga bu bir oz alam ham qilgandek edi. Ikkala dugonasi unga yigitlari borligi bilan maqtanayotgandek tuyulardi. Faqat bolalikdagi do'stlikning intiq iplarigina o'rtada jiddiy bir gap chiqishidan saqlab turardi. Lekin voqealar birdaniga boshqacha tus olib ketdi. Savdogarlar rastasini ular negadir Roziyaning tazyiqi bilan uch marta aylanib chiqishdi va to'rtinchi safarida Roziya xorijlik yosh va ko'rkam yigitning matosiga xaridor bo'ldi. Yigit esa o'ylanmasdan molini, shundoq, bepul tutqazdi-qo'ydi Roziyaga! Qiziq-ku! Qizlar lol. Xorijlik yigit esankiragan. Roziya esa mag'rur!

Sayl o'tib ketdi. Lekin voqea davom etdi. Savdogar yigit o'zi bilan kelgan hamrohlari bilan xayrlashdi. Gurlan karvonsaroyida mustahkam joylashib Roziyalarning ko'chasidan kunda bir marta o'tadigan bo'ldi. O'rtada g'alati bir muhabbat paydo bo'lgani aniq edi. G'alati deganimizning sababi, qiz boshqa millatdan, ustiga, xorijdan kelgan birovni yaxshi ko'rib qolib, masala turmush qurish darajasigacha taqalib qolsa, biz tomonlarda bugun ham ko'pchilik taajjub ila yoqa tutadi.

Ish jiddiy, Roziya o'zining g'alati sevgisidan karaxt va garang. Na dugonalarining, na qarindoshlarining o'git-maslahatlari va na otasining duoyibad qilaman deb do'q qilishlari bir naf berdi. Ona kasallanib yotib qoldi. Lekin Roziyaning o'z bilgani bilgan, xo-

rijlik bilan ketishga qat'iy jazm qilgan edi. Yo'limni to'smanglar, o'zimni o'zim o'ldiraman va yigitim o'ligimni bo'lsayam olib ketadi, deb do'q ham ura boshladi.

...Har bir yurtda donishmand oqsoqollar bo'ladi. O, Gurlanda kadxudolar hamma zamonlarda istagancha topilgan. Roziya voqeasiga ular aralashishdi. Oldiniga ular ham Roziyani "uzoq el, borsang, endi hech qachon qaytib kelolmaysan, u yoq-bu yoq..."qabilida qaytarib ko'rishdi. Lekin hech narsa o'zgarmadi. Shunda ular qizning otasi bilan onasini bir amallab oq fotiha berishga ko'ndirishdi. Oh, qanday donishmand, oqko'ngil, saxovatli donishmandlar yashaydi Gurlanda!

Qiz ketdi. Kichikroq to'y ham qilib berishdi sho'rlik ota-ona. Ketishi oldidan ona Roziyani bag'riga bosib qiziq bir iltimos qildi. "Jon bolam, sog' bo'l, salomat bo'l. Baxtli bo'l. Bitta o'tinchim: bola ko'rsang ularning hech biriga alla aytma! Aytsang, sendan butun umr norozi ketaman...". Roziya xo'p deb oyisini ishontirdi va yo'lga ravona bo'ldi. Nima bo'pti alla aytmasa?! Hech nima! Chiqonlari Robiya bilan Guljon yetti chaqirim joygacha aravaning panjarasiga yopishib, xayrlashib yig'lab kelishdi va oxir ular ham, ukalari ham, qiziqsinib ergashgan odamlar ham qolib ketishdi. Gurlan qolib ketdi. Amudaryo, to'qaylar, qum sahrosi... ko'p narsa ortda qolib ketdi...

Xullas, ular yigitning yurtiga yetib kelib, to'y-ma'raka qilib birinchi farzand ko'rganlarida oradan yetti-sakkiz yil vaqt o'tib ketgan edi. Roziya boy-badavlat yashar, turmushning hech nimasini o'ylamas, faqat xizmatkorlar qurshovida o'z go'dagi bilan ovora edi, xolos. Uni goh olisdagi otasiga o'xshatar, goh oyisiga, goh ukalariga mengzatib, sog'inchini bosib, o'zini ovutar edi. Ona iltijosi esidan chiqqani yo'q, bolasiga sira alla aytmadi. Lekin kunlarning birida o'g'il qandaydir kasalga chalinib, tezgina olamdan o'tdi. Roziyaning qayg'usi yer-u osmonga sig'madi, faqat ikkinchi o'g'li tug'ilib, miyig'ida kuladigan bo'lgandagina birinchi dard, yo'qotish bir oz yengillashdi.

Lekin bu farzandi ham ko'p turmadi. Roziya qora kiydi. Xizmatkorlar xo'jayiniga xotining bolaga uncha mehr qo'ymaydigan toifadan ekan, avvalgi ikkitasiga ham biron marta alla aytganini

ko‘rmadik degan gaplarni albatta yetkizishgandi. Uchinchi o‘g‘il tug‘ilganida hamma yengil nafas oldi. Roziya endi uni yer-u ko‘kka ishonmas, erining unga bo‘lgan muhabbati endi shu go‘dakning taqdiri bilan bog‘lanib qolganini Roziyaning o‘zi ham sezib turar edi.

Yo falak! Nogahon erka o‘g‘ilcha kasallanib qoldi. Roziya, eri o‘zini har tomonga urishdi, uzoq-yaqindan kelgan tabiblar sarson — naf yo‘q... Mana, necha kecha bola yig‘idan tinmaydi. Roziya o‘zini yo‘qotar darajada. Tong oldida eri dahshatli qiyofada hayqirdi:

— Qanday onasan o‘zi?! Mehr degan narsa bormi senda ham?! Bir alla aytib bag‘ringga bossang-chi sho‘rlikni?! Alla ayt...

Roziya lol. Erining bu g‘alati vajohatidanmi yo onasiga bergan va’dasi uchunmi, yzoq vaqt biron nima deyolmadi. Bolaning ahvoli og‘irlashgandan og‘irlashib, bir ahvol bo‘lganda, birdan bolani ko‘kragiga bosib dast o‘rnidan turdi va yig‘imi, o‘tinchga o‘xshash bir ovoz bilan alla ayta boshladi...

Go‘dak ingranib-ingranib, axir tinch uyquga kirdi. Birinchi, ikkinchi, uchinchi kecha alla aytdi... Bola tuzala boshladi... Roziya endi onasiga bergan so‘zini unutgan, soat sayin to‘lishayotgan go‘dagiga mahliyo, alla aytar, ko‘ngliga quvonch va umid ina boshlagan edi.

Bola butunlay tuzalib ketdi. Lekin baribir to alla aytmaguncha uxlay olmas edi. Bir kuni kechasi alla aytib, mudrab o‘tirib to‘satdan Roziyaning ko‘ngli to‘lishib ketdi, ko‘zlari issiq yoshga to‘ldi. U allani go‘yo o‘zi uchun aytayotganday, yoshlikda dugonalari yasagan qo‘g‘irchoqqa aytayotganday tuyuldi. Rost! Dugonalari hozir qanday ekan-a? Onasi-chi? Sho‘rlik, qarib qolgandir?! Yo... Xudo ko‘rsatmasin, kasalvand edi, olamdan o‘tgan bo‘lsa-ya... “Onajon! Dod, oyijonim!”

Roziya faryod solib o‘rnidan turdi. Chinqiriqqa xizmatkorlar, eri kirib kelishdi. Roziya o‘zini bosdi, bosinqirabman, dedi. Lekin yotib uyqusi kelmadi. “Ukalarim katta bo‘lib ketishgandir. Otam-chi?! Bechora otaginam. Birgina ko‘rsam sizlarni armonim yo‘q edi! Birgina ko‘rsam! Robiya! Guljon! Ko‘ramanmi sizlarni endi?!” Roziyaning ko‘z o‘ngidan bolalik xotiralari — Xizreliyop

loyqa suvlari, g‘apq pishgan oq tutlar, o‘riklarga osilgan arg‘imchoqlar, qo‘shiq aytib qizil sholi tuyayotgan xushchaqchaq xotinlar birma-bir tizilib o‘ta boshladi.

Shu kechadan boshlab, tinchi butkul yo‘qoldi. Sho‘rlikning uyini ko‘rgisi keldi. Onasini... Yurtini... Oxiri eri ham sezdi uning ahvolini. Roziyaning ko‘nglini oldi. Lekin Xorazmga borishning hech-hech iloji yo‘q edi. Birinchidan, yo‘l benihoya uzoq va mashaqqatli, ikkinchidan, o‘rtadagi mamlakatlar bir-birlari bilan katta urush qilar, ko‘p qonlar to‘kilib, karvonlar qatnovi tamom tinib qolgandi...

Roziya qiynoqda qoldi. O‘g‘li katta bo‘lib, tengqurlari bilan o‘yinga chiqib ketganida, o‘ziga o‘zi alla aytadi, yig‘laydi.

Bolaligida eshitgan qo‘shiqlari uzuq-yuluq bo‘lib bo‘g‘ziga tiqiladi:

Osmonga qarasam oyning bolasi,
Orqamga qarasam Gurlan qal’asi...
Gurlanning yo‘llari olisdan-olis,
Gurlanning yo‘linda yonadi fonus...

Gurlanning yo‘llari yo‘l bo‘lg‘onmikan,
Egnida oq ko‘ynak kir bo‘lg‘onmikan?!
Manov turgan bizin yorning havlisi,
Shamol bilan kelar Gurlanning isi...

Xullas, Roziya onasi qilgan iltijoga endi tushunganday bo‘ldi. Lekin u alla shunchaki yaqin kishilarni, qarindosh-do‘stlarni esga solib, yurakni siqar ekan, deb o‘yladi.

Lekin u bu sog‘inch, bu intilishning tub zamini qayerdan ekanini anglab yetgani yo‘q!

Allada biz xayolimizga keltirmagan boshqa bir mo‘jiza, muqaddas qudrat, sehr bor degan edik. Alla — onadan o‘tgan meros emas, bizga u — onalarimizga ham katta ona bo‘lgan ona tuproqdan kelayotgan sado!

6

MANGULIKNING O‘LCHOVI

Bir donodan so‘rabdilar:
“Javob bering, bobojon,
Vaqtning bormi tarozusi,
Necha yoshda bu jahon?!
Mangulikka biron narsa
Bormi qiyos etarlik?!
Qancha kechgan undan, yana —
Qanchagacha yetarlik?!”
Donishmand oqsoqolini
Silab asta kulibdi.
So‘ngra boqib kunchiqarga
Sirli imo qilibdi:
“Insonning vaqt o‘lchamlari
Vaqt oldida o‘yindir...
Fursatning tub hikmatlarin
Ilg‘ab yetmak qiyindir!
Aql-u idrok yetmas joyda —
Ko‘kda bordir bir makon!
Quyosh undan yog‘du olar,
Ufq olar Kahkashon.
Yerning, oyning, yulduzlarning
U tug‘ilgan joyidir.
O‘n sakkiz ming olamning u
Payvand bo‘lgan yoyidir.
Ul makonning qoq o‘rtasi
G‘oyat yuksak Olmos tog‘!
Siz-biz o‘ylay olgandan ham
U ming-ming bor kattaroq!
Shu tog‘ jumla mavjudotning
Eng markazi bo‘ladi.
Har yuz yilda bir mitti qush
Unga uchib keladi.

Tog‘ ne qadar katta bo‘lsa,
Qush shu qadar kichkina!
Shunday vahm yerda, dersiz,
Ne qilar bu qushgina?!
Mangulikning garchi yo‘qdir
O‘z mezon, o‘z soati,
Lekin juda hikmatlidir
Qushchaning bir odati:
Har yuz yilda olmos tog‘ni
Qushcha tavof etadi.
Har yuz yilda unga bir bor
Tumshuq suykab ketadi.
Qush shu taxlit kela-kela,
Tog‘ni qayrab yo‘q etsa,
O‘tdi, degan gap bular shu,
Mangulikdan bir LAHZA!”

7

KERAKLI NARSALAR VA ULARNI IZLASH

— Qayerdasan?

— Bu yoqda...

Oldinga yuguribdi izlayotgan odam. Topolmabdi.

— Qaydasan? Hoy!

— Mana bu yoqda...

Izlayotgan odam endi orqaga chopibdi, topolmabdi.

— Qaydasan, javob ber axir...

— Qara, shu yerdaman-ku!

Chor atrofga o‘zini urarmish izlayotgan odam. Yugurarmish-yelarmish. Undan darak yo‘q!

— Qaydasan axir?! Seni topishimga o‘zing ko‘mak ber, o‘tinaman...

— Mana... Mana... Qanchadan beri bosqilab yuribsan,— oyoqlaring ostidaman-ku...

8

AKS-SADO

Tutab yotar to‘da-to‘da tog‘,
Qimir etmas daralar labi.
Soylar otar kumush o‘mbaloq,
Sheroz qo‘ylar suruvi kabi.
Cho‘qqilarning olmos zirhidan
Yalang oyoq chiqib kelar Kun.
Kurk tovuqdek toshlar pinjidan
Mo‘ltiraydi ming ko‘zli shudring.
Xuddi shu dam dara oralab
Kezib cholar bir telba sado.
Yangrataru majruh bir qah-qah,
G‘oyib bo‘lar ungurlar aro...

Yana borliq jim qolar bir zum,
Toqqa cho‘kar vahimli sukut.
Cho‘qqilarga, huv, qilmay ta’zim
Mag‘rur suzib yurar bir burgut.
So‘qmoqlardan ko‘zin uzmaydi,
Changalida qotmish sovuq shaxd.
Pastda... yosh bir ohu bo‘zlaydi,
To‘dasidan ajralib bevaqt.
U bo‘zlaru o‘z tovushidan
Xalos bo‘lib ketolmas sira,
Go‘yo kimdir chorlab qarshidan,
U ham yaqin kelolmas sira.

Uning ohin tog‘ orasidan
Kimdir quvlar shovqinga qorib.
U tentiydi o‘z nolasidan
Dardlariga malham axtarib.
Sanqir hijron qo‘shig‘i shunday,
Tog‘ sukuti uzra darbadar.
Tinglar endi uni tushunmay,

Tirik jon ham, tosh ham baravar.
Faqat o‘zi aldanar undan,
O‘z sasidan ohu bolasi,
Aks-sado kelgan tomondan
Qichqirgandek bo‘lar onasi.

Yuguradi yo‘l ham axtarmay,
Yuguradi ohu yosh to‘kib.
Na ranglarning farqiga bormay
Va na xatar borin unutib.
...Birdan burgut silkindi ko‘kda,
Tumshug‘ida qotib qolgan qon.
Qanotlarin yig‘di-yu, tikka
Yerga uchdi yoy o‘qisimon.
Ammo samo o‘g‘li yashinvor
Tashlanmasdan ohuga yovqur,
Changalidan ketgandi mador,
Ko‘zlarida so‘ngan edi nur.

Qanotlarin siltab asabiy,
Yana ko‘kka qochdi u bexos,
Quvgan edi, naq o‘lim kabi
Uni o‘sha adashgan ovoz.
U quvlardi bo‘lib vahm-u g‘ash,
Chalg‘itardi xayollaridan.
Charx urardi qo‘rquv etib baxsh,
Qoyalarning oralaridan.
Qirqildi-yu, burgut shiddati,
Tark ayladi ohu saydin ham.
Yot tuyuldi tog‘lar xilqati,
Qoyalarga ko‘z soldi purg‘am.

Na’rami yo mungmi, muammo
Kezar edi hamon u tovush.
Burgut ko‘p sas eshitgan, ammo
Hech biriga bermagan ro‘yxush,

Ne-ne janglar g‘olibi bexos
Mahv bo‘ldi aks-sadoga!
Ming talvasa titkilab ko‘ksin,
Birdan o‘rlab ketdi fazoga.
...Ohujon ham bo‘zlar so‘qqabosh
O‘z sasida adashib hamon:
Dodiga dod qaytargan har tosh
Najot bo‘lib ko‘rinar bu on...

Tun ham kirdi tog‘ beshigiga
Va uxladi ko‘zlari ochiq.
Faqat bir sas sanqir hali ham
Daralarda o‘zidan qochib.
Bu — aks-sado! Mavhum tiriklik!
Sharpa poylab yurgan benavo!
Na tirikdir ul va na o‘lik,
Na yovga o‘q, na do‘stga davo.
U tentiydi beyer, bevatan,
Sharpalarga mute shukuhi.
U — o‘z asrin befarq yashagan
Bir kimsaning quvg‘indi ruhi...

Tutib yotar to‘da-to‘da tog‘,
Qimir etmas daralar labi.
Soylar otar kumush umbaloq,
Sheroz qo‘ylar suruvi kabi.
Cho‘qqilarning olmos zirhidan
Yalang oyoq chiqib kelar Kun.
Kurk tovuqdek toshlar pinjidan
Mo‘ltiraydi ming ko‘zli shudring.
Xuddi shu dam dara oralab
Kezib qolar bir telba sado.
Yangratar-u majruh bir qah-qah,
G‘oyib bo‘lar ungurlar aro.

9

G‘AMXO‘RLIK YOKI IKKI CHINOR

Taqdir-da:
katta chinor ko‘lankasida
chinor niholi ko‘karib, ko‘zga tashlanib qoldi.
Katta
Kichkinaga g‘amxo‘rlik qilmoqchi bo‘ldi:
qish bo‘yi uni pinjida tutib,
balo-qazolardan asradi!
Lekin...
yoz kelganda ham qo‘yib yubormadi
Qo‘l ostidan!
Endi
kichkina chinor
dunyoni
faqat
KATTA CHINORning beso‘naqay panjalari
ostidagina ko‘rib
yashaydi (kun ko‘radi!).

10

NURJON BOTIR

Bu dunyoda kimlar bilan to‘qnashmaydi yo‘lingiz,
Kimlar bilan el bo‘lmaysiz, kimlar bilan yurmaysiz.
Gohi chidab, goh chidamay, tinglab ne-ne suhbatni,
Majbur bo‘lib kimlarning ham xizmatida turmaysiz!

Yurt aylanib, xon qaytmoqda ana mudrab saroyga,
Hashamatli faytonida, atrofida qirq navkar.
Hazratlari o‘ylagandek, butmas ekan butun yurt,
Hamma yo‘li ravon emas, hamma yog‘i bexatar.

Oddiy misol, mana birdan loyga botdi ulovi,
Quruqlikka chiqarolmay qirqta navkar ovvora.
Tasir-tusur qamchi, tepki, loy sachraydi har yonga,
Dabdabadan, hashamatdan iz qolmadi, nachora.

Kun ham peshin bo‘lay dedi, davom etar talotum,
Qirq “alpomish” loy ichida, loy ichida buyuk xon.
Xuddi shu payt boshqa yoqdan aytib qo‘rqmas qo‘shig‘in
Kelib qoldi shu yerlarning mardi — Nurjon, nogahon!

Nega uni el-u yurti maqtar Nurjon botir deb,
Bola-chaqa, qari-qartang — barcha yaxshi ko‘radi.
Shoshilmaysiz! Ana, Nurjon xon qavmiga kelar duch
Va tomosha qilar uzoq! So‘ng qahqaha uradi.

“Voy bo‘y, xonim jon hazratim, ne ko‘ylarga tushibsiz,
Yoningizda bular kimlar, qo‘l-oyog‘i nopok, loy!
Hey, ulug‘ning yonidagi haftafahm o‘loqlar,
Chiq bu yoqqa! Xonim, ayting!
Hey, chiq, dedim! Bo‘ling, hoy!”

Xon ham hayron! Jonga tegdi axir loyda o‘tirmoq!
Navkarlarni haydab, qani, ne bo‘lar deb kutadi.
Nurjon shartta loyga kirib — borib xonning oldiga,
“Qani bunda o‘tiring!” deb... yelkasini tutadi!

Va quruqqa chiqaradi xonni shundoq opichib!
Xon xursand deng!
Lekin Nurjon shu bilan ham tinchimay,
Bir navkarni Oltmishboyning qo‘rg‘oniga yugurtib,
Obkel deydi faytonini to‘rtta oq ot qo‘shib shay!

Ha, bor-yo‘g‘i yarim soat. Hamma narsa jo-bajo.
Xon obro‘si tiklanildi.
Boy ham turar xizmatda!

"Yigit, tila tilagingni!" "Qo'ying, gado emasman!"
"Yaxshilikka yaxshilik shart axir bizning odatda!"

"Menga hech ne kerak emas! Mayli... ko'rgan-netganda
Bir bosh irg'ab qo'ysangiz bas,
"Xo'sh, Nurjonboy, qalay?"deb!"
Xon ketadi. Lekin endi unda-munda ko'rganda:
"Xo'sh, Nurjonboy, qalay?!" deydi u Nurjonga bosh irg'ab.

Hazil gapmi?! Salom bersa xonday odam birovga!
Hamma yoqda shov-shuv, gap-so'z.
Hatto ko'plar kelishib,
Xondan bitar ishlarini Nurjonboydan so'rashar,
Sovg'a-salom, hatto katta poralar ham berishib!

Nurjon xo'p deb obqoladi "hojatmand"lar ne bersa,
So'ngra yetim-yesirlarga tarqatadi barini...
Lekin botir ul kazzoblar uchun xonga bormaydi...
Ko'p vaqt o'tar — bitkazmaydi "arz"larning hech birini.

...Oxir "kuygan" bir-ikkisi xonga borar chug'illab,
"Nurjon kabi bir pastkashga nechun egilasiz, xon!"
Xon, bu — xon-da! Oldirar tez Nurjonboyni saroyga,
Quvlik bilan deydi: "Tila salomdan boshqa in'om!

Ul ishingga biron narsa olmog'ing shart arzirlik!"
Nurjon o'sal yigitmi, tez fahmlaydi ahvolni:
"Xonim, — deydi.
To'lqin soldi yuragimga mehringiz,
Qutlug' uydan quruq ketmay... Mayli bering shamolni..."

"Shamolni?!" Xon, a'yonlar lol. "Uni nima qilasan?!"
Yig'ilganlar barcha uni masxaralab kulishar.
"E, ol!" — der xon, Nurjon esa bo'sh kelmaydi sira ham.
"Yorliq bering, xonim, chindan Shamolboshi bo'lsam gar!"

Qo‘shig‘ini aytib Nurjon qishlog‘iga qaytadi,
Kuz emasmi, hamma yoqda o‘rim-yig‘im avjida.
To‘xta! Ana Yetmishboyning don xirmoni ko‘rindi!
Shamolda don sovurmoqda qarollar chang ichida!

“Hoy, Yetmishboy! Nega olding shamolimni beruxsat?!
Bu yorliqni xon hazratim o‘z qo‘li-la tutqazdi!”
Boy garang deng! “Ne qilayin?!” “Uchdan biri meniki!”
Janjal. So‘kish. Baribir ham Nurjon amrin o‘tkazdi.

Olganini shu yerdayoq qarollarga ulashib,
Endi tikka Saksonboyning dalasiga soldi yo‘l.
U yerdan ham ulush oldi — kambag‘alga ulashdi,
Xalqda gap-so‘z, unda obro‘ oshib borar mo‘ldan-mo‘l.

Boylar zada. Yugurishib xon oldiga keldilar:
“Xonim, sizning g‘aznaga ham bu zarar-ku oqibat...”
Yana Nurjon xon poyida. “Bolam,— deydi ayyor xon,
Shamolni qo‘y... Tangrimniki erkin yurgan har ne’mat...”

Nurjon darhol anglab yetar gap nimada ekanin:
“Mayli, o xon, der u tayyor. Jonim sizga sadag‘a!
Davringizda endi men tinch o‘ynab-kulib yurayin,
Qog‘oz qilib bering baland qahqahani, jon og‘a!”

“Bu boshqa gap!” Qahqahaga qog‘oz qilib berar xon,
Nurjon botir qo‘shiq aytib qaytar oshib qir, daha.
“O‘-ho‘! Mana To‘qsonboyniig qo‘rg‘oni!
Naq jannat-ku!
Ichkarida bazm shekillik! Varang kulgi, qahqaha!”

Ha, bu unga tegishli ish! Nurjon shartta kiradi!
O-ho! Bazmi Jamshid shunda! Doshqozonlar osilgan!
O‘n-o‘n beshta boyvachchalar qimor surar, qizlar, may...
Qahqaha avj! Beso‘rog‘-a? Xondan buyruq yozilgan.

“Bas qilinsin kulgi!” deydi Nurjon chiqib o‘rtaga
Va bosh uzra ko‘taradi xonning zarxat yorlig‘in!
O‘rtadagi uyum pulni jarima deb oladi,
“Endi mensiz ko‘rsatmaysiz tishingizning bir oqin...”

O-la! Bu gap baridan ham oshib tushdi chamasi!
Yurtda axir ko‘p qahqaha otadigan qani, kim?!
Shu boylar-da, amaldorlar, ishboshilar, to‘ralar,
Kambag‘alga kulki uchun hech tuqqanmi oy-u kun!

Yana boylar, beklar zada. Nurjon emas, balo bu!
Qutqaring deb yana xonning oyog‘iga yotdilar.
Xushomadlab, yig‘lab, xonni ko‘tardilar falakka,
Nurjonboyga qarg‘ish, chanchish, ta’na toshin otdilar.

Yana Nurjon qarorgohda. Yana o‘sha-o‘sha gap!
Xon bu safar jilmaymadi, qahqaha ham urmadi.
Yo qo‘rqdimi, bul jarima solmasin deb nogahon,
Lekin gapni jingalaklab, ko‘p cho‘zib ham turmadi.

Ammo Nurjon bo‘sh kelarmi?! Ta’zim qilib ko‘p chuqur,
Dedi: “Xonim, sizning davr — dorilamon, tengi yo‘q!
Hamma yoqda Adolat, Haq! Ruxsat eting, man shundan
Oz-moz ushri kafsan olib yashab yotay tinch-u to‘q...”.

“Adolatdan? Ushr-kafsan?!” O‘yga tolib qoldi xon.
Nima desin? Yo‘q desa, bu — adolat yo‘q degani!
Noiloj “Xo‘p, bo‘pti,— dedi.
Shunday, mayli, yashayver.
Odamlarim endi lekin ranjimasin, bema’ni!”

Nurjon asta uyga qaytdi. Lekin endi negadir
Yuragidan qo‘shig‘i ham chiqmas edi baralla.
Nazarida yo u, yo xon nimadandir yanglishdi,
Lekin nima masalada? Ilg‘olmadi bu palla!

Qissa tamom! Nega dersiz? Nurjon axir qayerda?
Shu-shu undan biror xabar eshitmadik mutlaqo.
Adolatdan kafsan olib yashayman deb ketgandi,
Boyib jimjit ketdimikin, ochdan o'lganmikin yo?!

11

RUHLAR

Ruh
qabriston yonidan o'tgan yo'lga chiqdi.
Bir yo'lovchi shosha-pisha ketayotir.
Ruh
yo'lovchining bir tanishi qiyofasiga kirdi,
uni to'xtatmoqchi bo'ldi:
"Hoy, shoshilma, bir gap bor!"
Yo'lovchi "tanishi"ga bir qarab qo'ydi-yu,
to'xtamadi!
"E! Yo'ldan qo'yma! Mamarayimga bir ko'rsatib qo'yay!
Uning gapi to'g'rimikin yo meniki! Kallani ishlatish kerak, kallani!"
Ruh indamadi. Asta qabrga qaytib,
suyaklari orasiga kirib yotdi:
"Tuzuk! Odamlar o'z so'zi, o'z orzulari uchun
kurashayotgan ekanlar!"
Ruhlarni sukunat uyg'otadi.
Bir yilmi, bir yarimmi vaqt o'tdi.
Ruh
qabriston yonidan o'tgan yo'lga chiqdi.
Kimdir ko'ringanday...
Yuryaptimi? Turiptimi?!
Ruh
uning qarshisida!
"Yo'lovchi o'z "tanish"iga qaramadi ham!
"Hoy, menga qara!"— chaqirdi uni Ruh.
"Hoy! Gap bor deyapman!"

... ...
Yo‘lovchi beparvo. “Menga nega baqirasan?”
deganday ta’nali bir qaradi xolos.
“Senga muhim yangiligim bor, hoy...”
Ruh
loqayd yo‘lovchining xayolidan o‘tgan
bir fikrni ilg‘ab qoldi. Yo‘lovchi ichida: “Tavba,
kim bilan kimning ishi bor?! Men-u, mulohazam-u,
maslahatim kimga zarur? Gapirganimdan ham nima
foyda?!” degandi.
Ruh
larzaga tushdi!
Faryod sola qabriston sari uchdi:
“O‘liklar! Yerning yuzi ham o‘zimizga...”.

MUALLAQ TO‘RG‘AY

Ko‘pda hayron etar bizni
Tabiatning ishlari.
Barchaga teng bo‘linmapti
Imkonlari, kuchlari.
Bir joyiga boqsang uning
Rang, yashillik uyulgan.
Bitta joyi sariq sahro —
Har narsadan tiyilgan.
Aql-u idrok, farosat ham
Goh shunday taqsimda.
Bir joyida oqillar xor,
Birda johil tahsinda.

Zo‘r o‘rmonda o‘z rizqin tinch
Oshar ekan to‘rg‘aylar.
O‘z qadimiy dasturida
Yashar ekan to‘rg‘aylar.
Niyatlari — yashamoqdir

Xushbaxt, nasl qoldirib,
Bekor ishga unnamaslar,
Qanotlarin toldirib.

Qon, bu — qon-da! Unda isyon
Uyg‘onadi goh-goho
Va to‘rg‘aylar qavmida ham
Tug‘ilibdi yosh daho.
Bir kuni u ko‘k sayridan
Qaytib o‘zga shaxt bilan,
Tanitibdi qondoshlarin
O‘zi qilgan ahd bilan:
“Jigarlarim! Yetar endi
Zax o‘rmonda bekinmoq!
Tong otganda shukur qilib,
Kun botganda yukinmoq!
Aqlimiz bor, kuchimiz bor,
Kam yo‘q tilda, zabonda.
Shunday ekan, bizning o‘rin —
Yerda emas, osmonda!
Keling! Qo‘lni qo‘lga berib,
Ertan barvaqt turamiz!
Birgalashib o‘zimizga
Ko‘kda shahar quramiz.
Barcha yemish, noz-ne’matni
O‘sha yerga qilib jam,
Ozod, erkin yashagaymiz
Samovotda shod-xurram!”
Zo‘r gap! Ko‘plar shu zahoti
Bunga tayyor chiqibdi.
Ko‘p ichidan lekin qari —
Bir buzrukvor chiqibdi.
“O‘g‘lim, gaping — orzularing
Juda yaxshi, qoyilmiz.
Qonimiz ham ko‘p eskirgan —
Yangilashga moyilmiz.

Lekin ko‘kda sen aytgandek
Qal’a qurib bo‘lmaydi:
Samo — bo‘sh joy, unga loy ham,
Cho‘p ham urib bo‘lmaydi!”
Daho to‘rg‘ay qariyaning
Shart bo‘libdi so‘zini:
“Xurofot-la bekitma sen
Qavmimizning ko‘zini!
Ko‘r emasmiz, huv bulutlar
Qandoq suzib yuribdi?
Ana, ko‘kda quyosh, yulduz,
Oy muallaq turibdi!
Men qurурman: ul shaharni,
Dog‘da qo‘yib Kun, Oyni!
Tez yetkazib tursanglar bas
Menga pastdan suv, loyni!”

Yangilik-da! Hay-haylashib,
Uxlamasdan kutib tong,
Qavmi to‘rg‘ay bu g‘aroyib
Qurilishga urdi bong!
Daho to‘rg‘ay bir yuksakka
Chiqib turdi muallaq.
“Ishga olg‘a, tez bo‘l”larga
To‘lib ketdi hamma yoq.
Bir kun o‘tdi, hafta, o‘n kun
O‘tdi shu xil necha oy.
Daho to‘rg‘ay hamon ko‘kda,
Hamon so‘rar suv va loy.
Shuncha mehnat, qon, ter ketdi,
Lekin... biron samar yo‘q.
Ko‘kda yolg‘iz “me’mor” bor-u
Shahardan hech asar yo‘q.
Buni hamma sezdi oxir,
Elda ellik derlar ko‘z.
Chinga o‘xshab qoldi bugun

Keksa to‘rg‘ay aytgan so‘z.
Lekin daho hamon ko‘kda —
O‘z ahdidan qaytmaydi.
Bo‘lmasligin bilsa hamki,
Bo‘lmaydi deb aytmaydi.
Esiz, shuncha emgak, umr,—
Bari ketdi bilinmay.
Yerdagi ko‘p zarur ishlar
Qolib ketdi qilinmay...
Yillar o‘tdi. Bugun ham goh
Men ham daho bo‘lay deb,
Ko‘p to‘rg‘aylar muallaqdir —
Ko‘kdan chorlar “Suv, loy!”deb.
Qayda agar ul qushlarga
Tushib qolsa ko‘zingiz,
Bu afsona bejiz emas,
Ishonasiz o‘zingiz!

KOMIL XORAZMIYNING MUHAMMAD RAHIMXON II (FERUZ) DAN ROSSIYA BILAN SULH TUZISHNI SO‘RAGANI

Xon hazratim, Siz nazm ta’b, chux teran nazar,
Xorazmning tarixida ko‘p biyik xonsiz!
Siz raiyat umidisiz, davlat sarvari,
O‘lka agar osmon bo‘lsa — Siz Kahkashonsiz!

Sizga ayon: bugun charxning aylanmog‘ida
Yuz ochmoqda sirli-sirli sifatlar, hollar.
Bugun turmush daraxtiga solmoqda g‘uluv
Gohi agar sho‘x nasimlar, goh qora yellar...

Bugun Jayhun oqmog‘ida bezovtalik bor:
Xorazmga bosh urmoqda nolakor, bexud,
Bois shulkim, o‘ng qirg‘oqqa tirnoq botirib,
Suvga tumshuq suqayotir qo‘sh boshli burgut!

U— Toshkentga chovut solgan, zabtiga olgan,
Samarqandni qanot urib aylagan vayron.
Changalida haligacha bug‘lanib turar
Ko‘p qardoshlar o‘z erki deb to‘kkan qutlug‘qon!

Romanovlar Rusiyasin quzg‘unidir u,
Xorazmga tashlayotir chaqchaygan nazar.
Uning to‘ymas ko‘zlarida aks etmoqdadir
Qul va qaram bir suvratda Kotdin to Xazar!

Ko‘zlarida aks etmoqda, siym-u zar talon,
Nasliy meros qo‘lyozmalar yoqilgan va sob!
Ko‘rmoqdaman, ming-ming yillik buyuk yodgorlar —
Tariximiz chechaklari toptalgan, xarob!

Sizga ayon, Samarqanddan sarhang Samsonov,
Qanday maktub jo‘natgan shoh Aleksandrga:
“O, gumbazlar bunda g‘ashga tekkundak yuksak,
Eng avvalo teng etmoq shart shularni yerga!”

Shu singari turli-tuman hodisotlardin
Goh umid, goh talvasada toshmoqda qonlar.
Qo‘shiningiz— qilich yalang, qo‘llar tizginda,
Buyursangiz qalblarini etar qalqonlar!

Hatto bir tup beklaringiz darg‘azab, mag‘rur,
Chorlamoqda qatog‘onli janglarga elni.
Buyruq, bayroq, barot talab etmoqda ular,
Va lekin men... SULHga qat’iy bog‘ladim belni!

Ha, ha! SULHga! Afv eting! Izn eting! Meni —
E’tirozli nazaringiz kul etayotir!
Demoqchisiz: ehhe, shoir, shumidi, holing?!
Yo‘qmi bizda kelgindini quvgudek botir?!

Demoqchisiz, xo‘sh, Xorazm tarixda qachon
Bosqinchidan sulh tilangan riyokor, yaltoq?!

O‘shal shoxli Iskandarga tiz cho‘kdikmi yo
Qutaybaga egildimi bizning hur bayroq?!

Demoqchisiz, Sulton Sanjar Jayhunni bo‘g‘di,
Sotmadik-ku or-nomusni bir ko‘za suvga!
Faxr emasmi Jaloliddin sherning taqdiri —
Bitta o‘zi shuncha qirg‘in solgani yovga?!

Xon hazratim, asoslikdir e’tirozingiz —
Ahd-paymoni butdir yurtning, bunga yo‘q shubham!
Ammo qo‘shni xonliklarning ushbu borada
Tutgan yo‘li, rasamadi hayronlig‘, mubham!

Toshkent begi Buxorodan Muzaffarxonning
Ko‘magidan, najotidan voz kechdi! Nechun?!
Samarqand ham, Buxoro ham mahv bo‘ldi axir,—
Ola og‘iz, araz-g‘araz bo‘lgani uchun!

Agar, Xudo ko‘rsatmasin, qo‘sh boshli quzg‘un
Panja yozib Xorazmga tashlansa nogoh,
Zambaraklar oloviga berurmizmi dosh,
Nochor qolsak, holimizdan kim bo‘lur ogoh?!

Hech kim! Hech kim! Qo‘l yetgulik qo‘shni yo‘q endi!
Yakka-yolg‘iz kirajakmiz qiyomat jangga!
Yurt qirilgay, tuproq yongay, daryo qurigay,
Kelgindilar ega bo‘lib qolgay Vatanga!

Shu boisdan qarshingizda nolon turibman,
Shul boisdan “Sulh! Sulh! deya chekmoqdaman g‘am!
Bu tadbirda yo‘q g‘ururlar lat yegulik vaj
Va aksincha ko‘p hikmatlar unda jamuljam!

Xon hazratim, siz shoirsiz, gulnafas, komil,
Dunyo sirin ocholasiz — bekitib so‘zga!
Sulh emasmi — yer va osmon muvosoligi,
Sulh emasmi — daryo borib quysa dengizga?!

Bir sulh borki — quyosh nuri yer birlan payvand,
Shundan tuproq uyg'oqligi, hayot borligi!
Bir sulh borki, unga ism Muhabbat erur,
Ikki dilning bir-birovga shundan zorligi!

Bir sulh borki qo'l va tanbur oralig'ida,—
Bu birlikdan yangrar ajib so'zsiz dostonlar!
Bir sulh borki, nomi uning Do'stlik, Ittifoq,
Bir sulh borki, ahil-totuv yashar insonlar!

O'ris shohning qo'sha boshli burguti bugun
Ko'p daxlsiz o'lkalarga solarkan soya,
Sulh tuzsaydik, butkul boshqa Rusiya bilan
Tanishardik, topar edik sobit himoya!

Ul Rusiya bugun ilm ahliga poytaxt,
Ul — Ovrupo madaniyat avjiga ko'zgu.
Temir yo'llar qurib bersin, dilgirom, po'shta,
Ittifoqi odil bo'lsin, do'st bo'lsin mangu.

Muddaoyim ana shunday sulhdir! Va lekin
Yerim, elim qolar bo'lsa o'zgaga banda,
Sulh bor turib — sodir bo'lsa har qanday bosqin,—
Men abadiy isyondaman, abadiy jangda!

14

XUM

1. T a r i x ch i
Aylanardi dastgoh va zamon,
Aylanardi olam bezavol.
Aylanardi dunyo kulolning
Dastgohida parcha loy misol.
Faqat kulol kaftidagi iz
Ulanardi vaqt ipiga bot.

Uni ilg‘ab qoladi shaksiz,
Olis asr, olis bir avlod.

2. K u l o l
Aylan, mening yog‘och dastgohim,
Aylan, mening yuvosh dastgohim,
Barmoqlarim injilmas bir dam,
Ming-ming qatla shukur Xudoyga:
Baxsh etgandir avval-azaldan
Mening rizqi-ro‘zimni loyga.

3. X u m
Bu gapirgan kulol edi. Men —
Olov bilan bo‘yalgan xumman.
Men ham yerdan yaraldim, lekin
Badanimda kezinar gulxan,
O‘zni o‘tga sololganlarning
O‘tdan o‘tar umriga sanoq:
Balki men ham mangu yashardim,
Hamma zamon keng ochsa quchoq.

4. T a r i x ch i
Odamzodni davron beshafqat
O‘tdan olib o‘tga soladi,
O‘zligida boqiylar faqat
Davronlarda boqiy qoladi.

5. K u l o l
Men kulolman, aylan dastgohim,
Xum yasayman, eh, antiqa loy,—
Sendan ko‘za yasamasmidim,
Qizlar bazmi aro hoynahoy,
Gulgun yonib tashir eding may;
Yo tokchada dunyoni o‘ylab,
So‘ylar eding gullarga siring.
Lekin taqdir tadbirdan qattiq

Kelmoqdamish biz sari bosqin.
Yovda yo‘qmish bunday to‘q hayot,
Unmas emish yerida giyoh,
Don-dunini yurt qilmoqda gum,
Bunga esa asqotadi xum!
Aylan, mening yog‘och dastgohim,
Aylan, mening yuvosh dastgohim.

6. T a r i x ch i
Aylanardi dastgoh va zamon,
Aylanardi olam bezavol,
Bosqin bo‘ldi yurtda bir zamon,
Kim sog‘qoldi, kim ko‘rdi zavol,
Kulolxona ichra bir kuni
Kirdi yangi shohning jallodi,
Dedi: “Nechun yasaydursan xum,
Nechun yurtda yo‘q g‘alla oti,
Donni qayga ayladilar gum?”

7. K u l o l
Do‘qlariga chidolmadim, men,
Bir kulolman — ro‘zgor jo‘jabir.
Kim ne desa bajaraman teng,
Bu xulqimga lozimmi ta’bir?!
Qaysi rangni xush ko‘rsa zamon,
Ikkilanmay buraman dastgoh.
Bilaman-ku axir hammasin:
Kim xum olgan,
kim ko‘mgan g‘alla! —
Gapirmasam ketadi kalla, —
Jallodiga yo‘l boshladim jim...

8. T a r i x ch i
Bosdi yurtni dushman galasi,
Bosqinchida o‘zboshimcha erk.
Jo‘mardlarning ketdi kallasi,

Hayotidan ko‘tarildi ko‘rk.
Keltirdilar kulolni shohga:
“Xo‘sh... xumlarni senmi ko‘rsatgan?!”
“Ha, buyuk shoh,
men... ojiz banda...”
“Tilla bering bunga bir lagan!”
Xo‘p irshaydi kulol va lekin
Shoh tashladi o‘zga bir savol:
“Ul xumlarni sen yasabmiding?”
Qotib qoldi kulol loy misol,
Shoh qo‘l siltdi, jallodga shu bas,
Bu degani: “Kallasini ol!”

9. K u l o l

“Men... kul... o... o...”.

10. X u m

Men xum bo‘lgan edim bir onlar,
Endi sopol parcha bor-yo‘g‘im...
Avlodlarga solar gumonlar
Kashf etilgan har bir sinig‘im.
Jismimda ul damlar izi bor,—
Ajdodlarning qoldirgan so‘zi!
O‘qiy olur meni shu odam,
To shuvitmas yurtida yuzi.
Kechmishlardan bir zer-u zabar —
Saboq erur mening bu tanim:
Har kelgindi ko‘za sindirar,
Sotqinlarga qolsa Vataning!

11. T a r i x ch i

Aylanardi dastgoh va zamon,
Ulanardi vaqt ipiga bot,—
Uni ilg‘ab qoladi, shaksiz,
Olis asr, olis bir avlod!

15

GURLAN DEGAN JOYNING NOMI

Gurlan g‘aroyib yurt.

Gurlanliklar o‘zbekning bek urug‘i.

Go‘yo: “Gurgon”, “Jurjon”, hatto “Gurganj” degan dunyoga ma’lum nomlar ham “Gurlan”ning buzibroq aytilgani”.

Gurlanliklar qadimdan ahil.

Heyvoqni necha bora qirg‘in etgan Junaid Gurlan bilan sipo, qo‘rqib salomlashgan.

Buxoro qolmay, Samarqand qolmay, kanizaklar yig‘gan Isfandiyorning mahramlari Gurlanga kelganda, tuyalariga o‘t qo‘yib, quvilgan. O‘g‘irlab ketilgan gurlanlik qiz ham xonga rozilik bermagani uchun qirq quloqli qozonga tashlab, qaynatib o‘ldirilgan.

Gurlan atrofi qishloqlarida ming, qiyot, qo‘ng‘irot, mang‘it, kot, bog‘iolon, uyg‘ur, qongli, qatag‘on, to‘qson, cho‘bolonchi, sart, yuz, qipchoq... kabi urug‘lar nomi saqlangan.

Gurlanning eng eski nomini chollar “To‘rt to‘qson gurlan” deb eslaydilar. Qadimgi Gurlanning to‘rt ulkan darvozasi bo‘lib, bittasi mashhur Zamaxshar shahriga tutashgan joyda, ya’ni hozirgi Toshhovuz shahriga yaqin bo‘lgan.

Xo‘sh, Gurlan degani ne?!

Amudaryo Xorazmdan oqa boshlaganiga qancha vaqt bo‘lgan?!

Gurlanliklar o‘sha vaqtda paydo bo‘lganlar. Ko‘p qirg‘inlardan omon o‘tgan qurch, butmag‘iz, og‘zi bir, kotxudo, bek urug‘i Gurlan!

So‘nggi bir og‘ir qirg‘inda bu yerda biri ko‘r, biri lang-shol, ikkita chol-u, to‘rt-besh nafar o‘g‘il-qiz go‘daklar omon qolishibdi.

Ular ham qazoyi muallaq qo‘lida edilar.

Lang: “Qori! Bu dunyoda sen bilan bizning hisob-kitobimizning oxiri ko‘rinib qoldi! Mana bu polaponlarga jonim achiyapti!”

Ko‘r: “Hali shunday kunlarga qoldikmi?

Dod-voy, tuyoq va temirlarning jarangini eshitdim, kuyundi va chang-to'zonni tuydim, xolos. Yurt ne ahvolda, bayon et!

Sening ko'zlaring butun! Tiriklik alomatlari bormi?!"

Lang: "Bor, qori, bor! Yonmay qolgan don-dun topiladiganga o'xshayapti.

Lekin oyog'im shol-ku! Bir qadam ham jilolmayman! Sog' bo'lsam, omon qolgan rizq-ro'zni yig'ib, mana bu go'daklarni o'limdan saqlab qolardim!"

Ko'r: "Qani ko'zlarim ko'rsa...".

Lang: "Qani oyoqlarim bossa...".

Yig'lashib bir kechani o'tkazibdilar.

Ikki kecha o'tibdi. Uch...

Ko'r ko'rolmaydi, shol yurolmaydi.

Go'daklar yig'lamoqdan beri — chalajon suvratga kelibdilar.

Lang: "Qori, oyoq-qo'ling but, meni ko'tar-u go'daklardan uzoqroqqa oborib tashla! O'sha yoqda o'lay!

Bir amallab qaytarsan!"

Ko'r: "Men ham ketaman!"

Ko'r langni ko'tarib yo'lga tushibdi...

Lang: "To'xta! Mana bu uyning eshigi ochiq... Bir nimalar ko'rinyapti ichida!"

Kirsalar, har holda yegulik bir nimalar topilibdi! Quvonishib, o'ljalarni olib, yana shu taxlitda birga ortga, go'daklar oldiga qaytibdilar.

Hayot tantana qilibdi!

Tarixning dahshatli suronlaridan o'z shajarasini shunday saqlab qolgan Gurlan bu!

"Gurlan" degani — "Ko'r", "Lang" boboning ismi!

Ikki ism! Bitta hayot! Bitta el!

16

ENG SO‘NGGI XAZINA

Xudoyberdi Doniyorovga

Ko‘p qiziqdir ko‘hna moziy taqriri,
Ko‘p qiziqdir unda xalqlar taqdiri.

Agar kimdir mashhur esa qadimda,
Yo‘qdir bugun u hech kimning yodinda.

Kimdir kecha xor-u xasga yursa teng,
Bugun uning shon-shuhrati ko‘kda deng.

Nahot hech kim boqiy umr olmasa,
Nahot hech bir zot ustuvor qolmasa?!

Savol ko‘pdir, ammo charxda tinim yo‘q,
Go‘yo unda hech narsaga qo‘nim yo‘q!

Shu taxlitda zamir-zamon do‘nipti,
Hamma shunga ko‘nipti.

II

Biri katta, biri esa kichikroq,
Ikki urug‘o‘tgan ekan eski choq.

Yeri, eli behad katta birining
Va har jihat qo‘li kalta birining.

Xalqning fe’li o‘z yeriga o‘xsharkan:
Katta urug‘ yalqov, loqayd yasharkan!

Kichigi-chi, qaynagan qon, ishchan er,
Mehnatidan zar tug‘arkan har kaft yer.

Yondosh yashab, doim ol-ber qilishib,
Hech beg‘araz borishib ham kelishib,

Bul ikkovi chin qo‘shniga do‘nipti,
Hamma bunga ko‘nipti!

III

Katta mulkka, katta yerga o‘chlar ko‘p,
Zimdan qarab, tish qayrovchi kuchlar ko‘p.

Bir kun ulli urug‘ni yov bosibdi,
Haq g‘oz uzra qirg‘iy qanot yozibdi.

Ko‘p qiribdi yov beparvo elatni,
Boshiga ham solibdi xo‘p kulfatni.

Xo‘sh, kichkina qo‘shni-chi, u tiyran, qurch,
Jim turdimi, yo‘q, yordamni bildi burch!

Shunday qilib ikkov bir saf bo‘ldilar,
Yovni birga olqon-talqon qildilar.

Urush tugab, qo‘shni do‘stga do‘nibdi,
Hamma shunga ko‘nibdi!

IV

Mana bazm! Ichar ikki oqsoqol,
Katta quchib kichkinani, aytar hol:

“Zo‘r sinovdan birga o‘tdik, berdik dosh,
Og‘a-ini bo‘ldik endi qarindosh!

G‘alabada so‘zsiz ulkan hissang bor,
Kam-ko‘stlar ko‘p...
yana sal-pal qarashvor...”.

Bu maqtovdan kichik boshliq jo‘shibdi,
Tilni tilga, elni elga qo‘shibdi!

“E, ol!”debdi topgan-tutgan borini,
Ayamabdi hatto siym-u zarini.

Ul og‘aga, bul ukaga do‘nibdi,
Hamma shunga ko‘nibdi.

V

Og‘a urug‘ katta-da!
Hech to‘ymas, deng,
Inicha ham “iltifot”ni qo‘ymas, deng!

Bog‘in tashir, donin tashir, chorvasin,
To‘ydirmoqning lekin topmas chorasin!

Ish ne holga yetibdi deng, alqissa,
Ukasiga zahmat ortmish to‘rt hissa.

Ko‘rgani ham, bilgani ham dalasi —
Shunda o‘tar endi har bir pallasi.

San’at, bilim, kamol qayda, unutdir,
Orzu-armon, xayol qayda, unutdir.

Axir nechuk ini qulga do‘nibdi,
Hamma shunga ko‘nibdi?!

VI

Elning butun ahvolidan xabardor
Yashar ekan bir donoyi buzrukvor.

Uni olib el boshliqqa boribdi,
Borib barcha dardi holin yoribdi.

Boshliq dermish:
"Biz kichkina — u katta,
Yovlar ko'pdir, himoya yo'q, qo'l kalta!"

Dono debdi: "Yurtga bir boq, oqsoqol,
Unda hali o'zi bilmas zo'r ganj bor!

Bu g'ururdir!
U — har qalbning qa'rida!
Shuni uyg'ot hali imkon borida!

Uyg'otolsang — xalqing xalqqa do'nadi,
Yo'qsa butkul so'nadi!"

VII

Ko'p qiziqdir ko'hna moziy taqriri,
Ko'p qiziqdir unda xalqlar taqdiri.

Agar kimdir mashhur esa qadimda,
Bugun yo'qdir u hech kimning yodinda.

Kecha kimdir xor-u xasga yursa teng,
Bugun uning shon-shuhrati ko'kda deng!

Xo'sh, ne bo'ldi kichik urug' taqdiri,
Bugun qanday uning holi taqriri?!

Ul el o'zda g'urur paydo etganmi
Yo eng so'nggi xazina ham yitganmi?!

Kim biladi?! Shuncha zamon do'ngandir!
Balki bordir, balki butkul so'ngandir...

17

ARSLON VA QAFAS

U bo‘kirsa daraxtlardan qular uyalar,
Kuz barglari yerga tashlar o‘zlarin garang.
Buloq suvi loyqalanar o‘n chaqirimda,
Ko‘rsichqonlar inlariga sig‘arlar arang.

Ovga chiqsa... go‘yo samum xuruj etgandek,
Shart uzilar o‘rmon ichra quvnoq musiqa.
Naq elakka tushgan kabi qalqiydi o‘rmon,
Jonzot g‘oyib turgan-turgan yerning o‘zida.

U shunday zo‘r, u shunday zo‘r, shunday yagona,
Erk timsoli, kuch timsoli, ko‘lam timsoli.
Lekin hayot ham ildiz, ham shoxdir bir onda,
Kim bo‘lmasin shu qismatdan bo‘lolmas xoli.

Mana necha kundir, uni izlar ovchilar,
Goho qamal qiladilar, qochirarlar goh.
U bezovta: ne bo‘lganin bilmay darg‘azab,
U bilmaydi: nega odam unga qazir choh?!

Arslon oson mag‘lub bo‘lmas, solib amonga
Nechalarning majaqlaydi qurolin; o‘zin
Bir amallab uyqu pishang otib yiqitib,
Keltirarlar bir shaharga bog‘lashib ko‘zin...

Uyg‘onadi: ne ko‘rgulik?! Zil-zambil qafas!
Fil sonidek temir ila o‘ralgan har yon.
Qani uyi, qani yeri, qani ozodlik
Va u mutlaq hokim bo‘lgan poyonsiz o‘rmon?!

Hech biri yo‘q! Isyon! Isyon! Qo‘zg‘olon! Yotma!
Qayir, bura temirlarni! Uzib-uzib ot!

Anov kimlar! Ikki oyoq zo‘ravonlar kim?!
Hey, yaqin kel! Senlar bois buzuldi hayot!

Fitna bilan, xoinona bog‘ladilaring!
Birortang ham chiqolmading kurashga ro‘y-rost!
O‘ra qazib, og‘u bilan oldinglar qo‘lga!
Ne kurash bu?
Hayvonlarga lekin emas xos?

Shu tariqa arslon kun-tun bezovta bo‘ron,
Necha og‘ir qafaslarning yetdi boshiga!
Murosaga keltirolmay, mana necha oy,
Tinchitarlar uyqu dori qo‘shib oshiga.

Fursat o‘tdi, muhlat o‘tdi — charchadi arslon,
Charchamadi lekin kurash, qafas buzishdan.
Uni qayg‘u, umidsizlik charchatgani yo‘q,
U charchadi uyqu dori, o‘laksa go‘shtdan...

Ha, charchadi. Juda yomon charchadi, so‘ndi,
Ko‘ksidagi olov, shiddat mudroqqa do‘ndi.
Atrofiga boqsa: qancha jondor qafasda!
Demak, bir gap bordir-da, deb, shunga ham ko‘ndi.

Gap shu! Endi bir maromda o‘tadi kunlar.
O‘rmon, tog‘-tosh, yildirimdek yugurishlar yo‘q.
Erk ramzi deb ko‘rsatishar bolakaylarga,
U-chi, mudrar. Goh homuza tortar — qorni to‘q...

Mana kimdir tozalashga kirdi qafasni,
Chiqib ketdi. Hoy! Eshik!
Lang qoldi-ku shundoq?!
Arslon sakrab yopib oldi ustidan uni...
Axir hali uxlab qolsa... Shunisi tinchroq...

18

HAQQUSH QICHQIRIG‘I

Haqqush haqida eshitganmisiz?!
Quloq soling:
Bog‘olon rivoyati bu!

...Bor-yo‘q sharpalar, sadolar tinib,
Yulduzlar ham oqmay turadigan daqiqalar bo‘ladi tong oldidan!
Tabiat go‘yo butun osmonni kimningdir kelishiga tayyorlab bo‘sh va tinch qo‘yganga o‘xshaydi.
Shu payt har chaqirimda bir marta “Haq-q!” deya chaqirib,
Haqqush o‘tadi teran orom qo‘ynida yotgan yer va osmon oralig‘idan!
Uni na ko‘rib bo‘ladi,
na qayoqdan kelayotganini-yu, na qayoqqa ketayotganini bilib bo‘ladi!
Odamlar uning ovozini eshitib:
“Shukr, olam osoyishta, yurt farovon, haqiqat barqaror ekan!” deb, tongni o‘z orzu-o‘ylari bilan kutib oladilar!
Aytishlaricha, Haqqushning qichqirig‘ini boshqa sado bo‘lib yuborsa, yomon bo‘ladi!
Bolaligimda eshitgandim bu gaplarni:
“Qayda to‘qlik, anda sho‘xlik!”
To‘kin hayot kishilarning arzimas ermaklarga mashg‘ulligini ko‘paytiradi!
Kimdir arzimagan bahsda yutilib, “Haqqushni otib olaman bir o‘q bilan! Bari bir hech nima bo‘lmaydi!” debdi.
Miltiq gumbirlashi bosib ketibdi Haqqush ovozini o‘sha kun!
Kampirlarning gaplariga qaraganda,
1941, 22-iyun tongotari ekan o‘sha kun!
Hamma bolalarning otalari, og‘alari
qayoqqadir — qorong‘ulikka ketishibdi o‘sha kun!

Onalar, kelinlar, singillar faryod ko'tarishibdi o'sha kun!
Dahshatli kun bo'libdi o'sha kun!

Qishloqda hayot endi fayz-farahsiz bo'lib qolibdi, ayollarning shirmoy yuzlari tandirdan oqib tushgan nondek qorayib-qunib qolibdi, singillar erga tegmayoq kampirlarga do'nib qolibdi, qishloq chetidagi qabristonga ko'plab boyqushlar qo'nib qolibdi...

Bolaligimda eshitganman bu gaplarni.
Bolalik — tinglash va hayratlanish davri!
Bolaligimdan shu esdalik bo'lib qolgan.

"Haq-q!"
Qayerdan kelayapti bu ovoz?!

"Haq-q!"
Haqqush qaytib kelibdi bugun Bog'olonga! Yurtimizga!
Osmonimizga!
"Haq-q!"

Bu sirli chaqiriqni o'z qulog'im bilan eshitdim! Katta o'rigimizning tagida. Haqqushning ko'k tubidan kelgan najib qichqirig'idan uyg'onib ketdim!

Bu ovoz — yuragimdan chiqqan sadodek, kimgadir aytishim zarur so'zimdek.

"Haq-q!"

Nariroqda yotgan buvim "Shukr..." deb o'zicha so'zlanib, yana uyquga ketdi.

Haqqush qichqirig'ini eshityapman.
Yonma-yon o'sha, bolalikdan esdalik — sarosima:
mana hozir yot bir gumbirlash, yot bir sado bo'lib
yuboradiganday Haqqushimning ovozini!

19

KAMALAK AFSONASI

Do'sjon Matjonga

Xorazmga erta ko'klam
Ajabtovur keladi.
Osmon bo'ylab paxmoq-parquv
Bulutlar shan yeladi.
Ko'm-ko'k qirda oq qo'chqorlar
Otishgandek shataloq,
Shox tashlashib chopar ular
Qo'zg'ab chaqmoq, qaldiroq.
Xuddi shu dam quyib qolar
Kumush yomg'ir jaranglab
Va quyosh ham bulut yorib,
Pastga boqar alanglab.
Xuddi shu on yuz ochadi
Bo'yoq o'yin manzara:
Shu'lalarga cho'miladi
Har bir tomchi, har zarra.
Bulut orti — Yog'du ko'ldan
Ochilar-u bir to'g'on,
Yetti rangli nur sharshara
Yerga oqap yoysimon.
Bu kamalak! Lekin uning
Boshqa nomi yodimda:
Hasan-Husan o'q-yoyi deb
Atalmishdir qadimdan.
U ko'rinsa, yaxshilikka,
To'kinlikka yo'yishib,
Dehqonlar ham shodlanarkan
Shukr-shukr deyishib.
Kelinchaklar unga boqib
Sochlarini tararlar.
Shunday qilsak egiz o'g'il
Tug'amiz deb qararlar.

Uni dengiz yo‘llar ekan
Borliq go‘zal bo‘lsin deb,
Osmon tiniq, tuproq bo‘liq,
Bog‘lar asal bo‘lsin deb.
Bu hikmatlar xayolimni
Tortar edi har yona.
Ko‘p sirlardan ogoh etdi
Bir qadimiy afsona.

Emish... qadim Bog‘olonda
Bir soy toshqin oqarkan.
Sohilida ne-ne bog‘lar
Yashillanib yotarkan.
Hasan-Husan — egizaklar
Dumalanib, dovlashib,
Choparkanlar bunda sho‘x-sho‘x,
Kapalakdek quvlashib.
Bir kun ular soyga yotib
O‘ynashib o‘z aksini,
Ko‘ribdilar suvda alp bir —
Bahodirning rasmini.
Tiklansalar: oq duldulda,
Jarang tilla yasoqda,
Bir chavandoz kulib turar
Shundoqqina qirg‘oqda.
“Barakalla, egizaklar,—
Deya yaqin kebdi u.
Ismingiz ham nazarimda
Hasan-Husan, debdi u.
Jangchi og‘ang zo‘r savashga
Borayotir, debdi u.
Qay biringiz chaqqonroqsiz,
Qaysing botir, debdi u.
Ko‘za-po‘za keltiringlar,
Bosay chanqoq, debdi u.
Siz qaytguncha yasab turay

Zap o‘yinchoq, debdi u.
Egizaklar shod qiyqirib,
Jo‘nabdilar ko‘zaga.
O‘yinchoq ham tayyor bo‘bdi
Ular qaytgach iziga.
Sirli yo‘lchi tol chiviqdan
O‘q-yoy yasab shu zamon,
Bolalarga tutqazibdi,
Suv ichibdi bearmon.
So‘ng yo‘rg‘asin ozod qo‘yib,
Ketibdi o‘z yo‘liga.
Ermak bo‘lib qobdi o‘q-yoy
Bolakaylar qo‘lida.
Botir aytgan o‘gitlarni
Ular dilda tutishib,
Toshmi, to‘nka tanlabdilar
O‘qqa nishon etishib.
Shu taxlitda o‘yin bilan
Vaqt o‘tsa ham necha oy,
Hasan-Husan qo‘llaridan
Tushmas ekan hamon yoy.
Oxir butkul esdan chiqib
Jangchining ham so‘zlari,
Hech o‘ylamay otibdilar
Ne ilg‘asa ko‘zlari.
Qushlarni-ku, aytmang, bari
Yot joylarga uchibdi.
Hatto behi, olma pishmay,
Yerga “tap-tap” tushibdi.
Endi o‘q-yoy asta-sekin
Sabab bo‘lib janjalga,
Aka-uka bir-birin goh
Olibdilar mo‘ljalga...

Bir kun ular sal olisdan
Bir sharpani sezdilar.

“Bizning boqqa kirgan kim?!” deb,
Hatto o‘q ham uzdilar.
Ha, allakim kelar edi,
Ot ustida bukchaygan.
Yo‘rg‘asi ham qoq ustixon,
Ko‘zlari puch, chaqchaygan,
Chavandozning saxtin ko‘rsang,
Egni-boshi ming pora.
Siniq qilich, teshik qalqon,
Hamma yog‘i qon, yara.
“Bolalarim...” debdi horg‘in
So‘z boshlabdi bir ahvol.
Birdan jimib... chor atrofda
Sezib buzg‘un va malol,
Boqqa ma’yus nazar solib,
Bolalarga qarabdi.
Ich-ichidan zil ketibdi,
Tag‘in ko‘za so‘rabdi.
Bunga Hasan-Husan ancha
“Sen bor-men bor” qilibdi.
So‘ngra jerkib xor yo‘lchini,
Nariroqqa jilibdi.
Shunda otliq obdi qindan
Yarqiragan bir xanjar.
“Buni sovg‘a qiladirman
Ko‘zaga kim borsa gar!
Talashmanglar, siz kelguncha
O‘q-yoy menda qoladi.
Kim tez kelsa, o‘q-yoyni ham,
Xanjarni ham oladi!”
Ko‘zi chaqnab ikkovining
Birdan shoshib qolishib,
Chopibdilar bir-birining
Oyog‘idan chalishib.
O‘zi bir payt yasab ketgan
Yoyga boqib chavandoz,

Og‘ir, dardli o‘yga tolib,
Egar uzra turib g‘oz,
Alam bilan, o‘kinch bilan
Soyga otib kamonni,
Ot suribdi ko‘zlagancha
Noma’lum bir tomonni.
Bu yoqda-chi, Hasan-Husan
Tortqilashib ko‘zani,
Boqqa qaytib,
hech kimsaning
Ko‘rmabdilar izini.
Hayron bo‘lib, giryon bo‘lib
Chopibdilar har tomon.
“Kim u bizni aldagan, deb,
Ajinami yo shayton?!”
Shunda bexos tilga kirib
Shovlab oqib yotgan soy,
Gapiribdi bo‘lgan gapni,
Qayga ketganin ham yoy!
Uni botir jahl bilan
Soyga otib ketibdi.
Oqib-oqib, yoy qachonlar
Daryoga ham yetibdi.
Ko‘p o‘ylamay, inilar tez
Daryoga ham kebdilar.
Yetib kelib, yoyni ber deb,
Arzi hol ham debdilar.
Daryo mavjkor bosh chayqabdi:
Qayting, qayting, hoy, izga,
O‘q-yoyingiz allaqachon
Borib yetdi dengizga!
Aka-uka quloq solmay,
Dengizga ham kebdilar.
Yetib kelib, yoyni ber deb
Arzi hol ham debdilar.

Sho‘xlik qilgan mavjlarini,
Haydab qumloq qirg‘oqqa.
Keksa dengiz o‘y surar huv,—
Boqib uzoq-uzoqqa.
U cho‘ng to‘lqin-qo‘llarini
Yoyib ikki tomonga,
Debdi: “Yaroq berib bo‘lmas
Hech qachon ham insonga!
Sizlarga yoy bergan botir
Menga keldi afsus yeb,
Yoy o‘rniga bolalarga
Boshqa bir ne qaytar deb!
Ko‘p o‘ylanib, ul o‘q-yoydan
Boshqa narsa yasadim.
Saboq bo‘lsin deb nomini
“Hasan-Husan” atadim.
Bu ham qurol, lekin otmas,
Qirmas jumla-jahonni.
U ruh berar, quvontirar
Tabiatni, insonni.
Uni ko‘rmoq istasanglar,
Orqangizga qaytinglar.
Gaplarimni borib barcha
Do‘stlaringga aytinglar.
Yurtingizga kelasi yil
Erta bahor kelgan chog‘,
Osmon to‘la paxmoq-parquv
Bulutlar shan yelgan chog‘,
Ko‘m-ko‘k qirda oq qo‘chqorlar
Otishganda shataloq,
Shox tashlashib chopgay ular
Qo‘zg‘ab chaqmoq qaldiroq.
Xuddi shu dam quyib qolgay
Kumush yomg‘ir jaranglab
Va quyosh ham bulut yorib

Pastga boqqay alanglab.
Xuddi shu on yuz ochgaydir
Bo‘yoq o‘yin manzara;
Shu’lalarga cho‘milgaydir
Har bir tomchi, har zarra.
Bulut orti — Yog‘du ko‘ldan
Ochilar-u bir to‘g‘on,
Yetti rangli nur sharshara
Yerga oqar yoysimon!
Bu — Kamalak! Endi uning
O‘zga bo‘lar nomi ham.
Hasan-Husan o‘q-yoyi deb
Intiq boqar har odam.
U ko‘rinsa, yaxshilikka,
To‘kinlikka yo‘yishib,
Hoqonlar ham shodlanarlar
Shukr, shukr! — deyishib.
Kelinchaklar unga boqib
Sochlarini tararlar,
Shunday qilsak egiz o‘g‘il
Tug‘amiz deb qararlar.
Shu boisdan endi doim
Suyuk bo‘lib qolar u,
Shu boisdan osmon qadar
Buyuk bo‘lib qolar u!”

20

DUNYONING CHEGARASI

Okean deymiz,
Dengiz,
Daryo,
Ko‘l,
Hovuz,
Tomchi,
Zarra...

Yigirma yoshida taxtga o‘tirdi shahzoda.
Qaysarlikda otasidan ham o‘tkirdi shahzoda.
“Menman”, dedi shahzoda,
“Men!” dedi shahzoda,
Quturdi shahzoda!
Keksa donishmandni chorlab,
Ikki ko‘zi cho‘g‘dek porlab
“Bir umr taxtning ostonasini yalading,
Otamga naf bermading, talading,
Ilming bilan qani nimaga yarading!”dedi.

“Qani, bir, ikki, uch!
Oldimga tush!
Chegarasini ko‘rsat qlamning,
Qilmaganini qilay otamning!
Dunyoni zabt etish bo‘ldi murodim,
Ololmasam, boshqa qo‘yaman otim!”
“Bolam”, dedi donishmand...
“Aql o‘rgatmang, aytmang pand!”
“Bolam...”
“Gapni qil kam...”
“Qiyin, qilib bo‘lmas ish bu, unnamang...”
“Ko‘rsat... yo dor!”
“Ko‘rsat... yo dor!”
Ketishdi.
Yurtning chetiga yetishdi.
Saltanat cheti aylana devor,
Bular yetgan joyda qo‘sh darvoza bor.
“Bu — dunyoning chetimas!”
To‘g‘ri... Huv karvonga bir soling nazar!
Bir qator kirmoqda, bir qator chiqar!”
“Ko‘r emasman! Bu doim shunday!”
“Istagan tuyani to‘xating, shoshing,
So‘ngra ustidagi sandiqni oching!”

Nima bo‘ysunmaydi shohning amriga.
Tuya to‘xatildi. Sandiq ochildi...

Vo ajab, bu ne sir?!
Sandiq ichida
G‘alati manzara, g‘alati holat.
Xuddi tashqarining o‘zi —
Saltanat,
Devor,
Qo‘sh darvoza,
Ikki saf karvon,
Biri kirmoqdadir, biri chiqmoqda!
Va har bir tuyada
Shunday sandiq!

“By ne gap?!”
“Istagan tuyani to‘xtating, shoshing,
So‘ngra ustidagi sandiqni oching!”
Nima bo‘ysinmaydi shohning amriga?!
Bu tuya ham to‘xtadi,
Sandiq ochildi...
Vo ajab, bu ne sir?!
Sandiq ichida
G‘alati manzara, g‘alati holat!
— Xuddi tashqarining o‘zi!
Saltanat,
Devor,
Qo‘sh darvoza,
Ikki saf karvon,
Biri kirmoqda-yu
chiqmoqda biri!
Va har bir tuyada, shunday
qo‘sh sandiq!
“Bu ne gap?!”
Shahzoda hayratda bir oz.
“Yana bir tuyani
To‘xtating,
Va undagi sandiqni oching!
Keyin yo‘l olamiz yana nariga!”

Nima bo‘ysunmaydi shohning amriga?!
Tuya to‘xtatildi,
Sandiq ochildi...

Vo ajab, bu ne sir?!
Sandiq ichida
G‘alati manzara, g‘alati holat?
Xuddi avvalgilarning o‘zi!
Saltanat,
Devor,
Qo‘sh darvoza,
Ikki saf karvon,
Biri kirmoqda-yu, chiqmoqda biri!
Shahzoda bu safar indamay,
Shitob,
Yana sandiq ochdi,
Sandiq ichida yana sandiq chiqdi,
Yana o‘sha hol.
Shahzoda uni ham to‘xtatdi darhol...
Va tinmay shunday
Sandiqlar ichiga kiraverdi u,
Yana sirlar sari yuraverdi u!
Qirqta sandiqqacha tushganda,
Asta
“Bo‘ldi...” dedi.
“Cheksiz ekan chamasi?!
Charchadim...
Bir dam olay!”
“Ko‘zguga bir qarang, shohim, ko‘zguga...”
“Ko‘zguga?!... Voh...”
Birdan seskanib ketdi shahzoda.
Ko‘zguda zabardast shahzoda emas,
Soch-soqoli oqargan mo‘ysafid ko‘rindi...

“Yo falak! Bu ne hol! Jallod!
Firibgar, jodugar, sen meni aldab,
Qaritib qo‘yibsan kunimdan burun!”

"Yo'q, yo'q! O'zingizda gunoh, shohim.
Urush, bosqinchilik ilmi ila mast,
Qirq sandiq ochdingiz,
Va buning uchun
Qirq yil sarf etdingiz, o'zingiz bilmay.
Bugun oltmishdasiz!
Va bildingizki,
Dunyoni zabt etmoq mumkin emas hech,
Bunday maqsad ila yashash zo'r gunoh!"

21

BIR XIVA — IKKI QAL'A

Xivada qal'a bor qal'a ichinda:
Biri Ichon qal'a, birisi Dishon.
Mashhurdir birining nomi ochunda,
Biri nurab yotar benazar, beshon.

Ne sir bu? Bir yonda moviy tafakkur
Qulf urib turibdi osud, beozor.
Bir yon — tengsiz jangda yengilgan mag'rur
Botirning loshidek qarovsiz va xor.

Ichon qal'a bugun — Xorazm faxri,
Bahornaqsh gumbazlar, minor, sardoba...
Shundadir ul buyuk Mahmudning qabri,
Shundadir shon, g'urur... Dishon — xaroba...

Xalqimning ustuvor ruhi — zo'r daho
Mangulik topgandir Ichon qal'ada.
Uni buzmasin deb tur-turfa balo
Qal'a tiklanilgan Dishon — dalada.

Azaliy beomon bir hukmdir bu:
Odam — Dishon qal'a, orzusi — Ichon!

Oz yashab ko‘p mushkul ko‘rsa hamki u,
Ruhin qoldirmog‘i mumkindir omon.

Men bugun Xivada viqorli turgan
Asriy yodgorlardan tuyarkan ma’ni,
Dedim: umr hikmatin bobongdan o‘rgan,
Asramoqni o‘rgan Ichon qal’ani!

22

QARG‘A NEGA QORA?

— Qora qarg‘a, qora qarg‘a, “qor-r” qarg‘a,
Sendan qora yana nima bor, qapg‘a?!
— Qarg‘a, nega qop-qopacan, kosovsan,
Tiling chuchuk, “qor-r”illaysan, soqovsan?!
—Nega qavming goh balandlab uchadi,
Pastlab uchsa nega sovuq tushadi?!
Nechun faqat o‘laksadir yemishing,
Qushsan — go‘shting haromdir, ne qilmishing?!
— Shuncha xunuk sifatlarga bo‘lib el,
Yana nechun umring sening uch yuz yil?!
...Shu taxlitda so‘zlar aytib kalaka,
Qarg‘alarni quvlar bir to‘p bolakay.
Uzoq ketmas, xafa bo‘lmas ul qushlar,
Yodga kelmas g‘azablanish, cho‘qishlar.
Oxir lekin gaplar, deyman, tuzladi,
Eng keksa bir qarg‘a vazmin so‘zladi:
— Shumtakalar, shumtakalar! — dedi u,
Bir gap aytay, hoy ukalar, — dedi u.
Bizni Xudo qarg‘agani yetadi,
Sizlarniki ortiqchalik etadi.
Aytay, tinglang, balki saboq bo‘ladi,
Asli bizning zotimiz Oq bo‘ladi!
Oppoq edi qanotimiz, parimiz,
Xizmat etar edik haqqa barimiz.

Himmatimiz dastur Arshi a'loga,
Xizmatimiz manzur Arshi a'loga!
Ming asr biz shunday nomdor yashadik,
Payg'ambarga Tangridan xat tashidik.
Ming asr biz mahram bo'ldik samoga,
Ming asr el bo'ldik Tangri taologa.
Kasbimiz jo'n: parvoz etib har erta,
Haqdan payg'om yetkazmaklik shu yerga.
Payg'ambardan javob xatin olib tez,
Yana Haqqa bo'lar edik yuzma-yuz.
Shu taxlitda ming-ming asr yashadik,
Halol ishlab, halol oshni oshadik.
Lekin bir kun boshga qora kun tushdi,
U chetdanmas, o'zimizdan yetishdi.
Yosh bir qarg'a bu mansabdan mag'rur, g'oz,
O'ylanibdi: "Mehnatlarim emas oz!
Butun avlod-ajdodim ham bok-u pok,
Shu xizmatda o'tib ketgan kamtar, xok.
Xudoning eng yaqinimiz, xeshimiz,
Uning har bir ishi — bizning ishimiz.
Shunday bo'lgach, manav maktub sirmi, yo'q,
Bunda bizdan yashirin gap bormi, yo'q!"
Shunday deb u xatni dangal ochibdi,
Ochib, ko'zi bo'sh qog'ozga tushibdi.
Ha, oq qog'oz! Na yozuv bor, na bir xat,
Tushunmabdi qarg'a — bunda ne hikmat?!
"Menga nima?!" debdi xatni yopibdi,
Oliy dargoh tomon qanot qoqibdi.
Yetib kelsa: Arshi a'lo... ko'chganday!
Hech nima yo'q!
Nom-nishoni o'chganday!
Ne qilarin bilmapti u sho'rlik jon,
Ko'z oldida torayibdi osmon.
Shunda uning qarshisidan, o'ngmi, tush,
Vazmin uchib kepti bir to'p qora qush.
Qag'illarmish tushunuksiz barchasi,

Bari qora, go‘yo tunning parchasi.
“Hey, kimsizlar?!” degan ekan, to‘dadan
Ovoz kebdi: “La’nat yog‘di Xudodan!
Sen qoldirding qavmimizni nasaqqa,
Olding tavqi la’nat muhrin nasabga!
Sen muqaddas Oliy sirni buzding, dod,
Qutlug‘qasam urdi bizni umrbod!
Quvg‘in bo‘ldik mangu Oliy makondan,
Biyron edik — mahrum bo‘ldik zabondan.
Qarg‘a qavmi qora endi toabad,
Yurak-bag‘ri pora endi toabad.
E’lon bo‘ldik “abad makruh, harom!” deb,
“Yemishlari o‘laksa, go‘ng — badnom!” deb.
Yerga yaqin borsak darrov qish bo‘lar,
Bunday qora qismat kimga xush bo‘lar?!
Bu qiynoqlar bo‘lmasin deb hech tamom,
Uzun umr berilgandir, vassalom!”

23

DARYO HAQIDAGI MITTI AFSONA

Odamlar Amudaryodan so‘rashdi:

— Shunchalik mahobat bilan, erkin ko‘lam olib oqishing bizni hayratga soladi. Qoyil! Shahdingning qudratli ovozi butun Xorazmga eshitilib turibdi! Ofarin!

Daryo vazmin to‘lg‘ondi:

— Meniki emas! Bu — menga qo‘shilgan irmoqlarning ovozlari.

Jimlik.

Odamlar yana lutf qilishdi:

— Sen ularni birlashtirib turmaganingda, qayerga yetar edi irmoqchalarning shaxti?! Senga ofarin!

— Uf,— qiynalib to‘lg‘ondi daryo.— Juda yoqqan bo‘lsam, menga taqlid qila qol! Faqat maqtama...

24

HOTAMTOYNING UKASI

Hotamtoyning ukasi ham yig‘ib boylik,
Qilmoq bo‘ldi el-u yurtga hotamtoylik.

Akasidek to‘rt eshikli uy qurdirdi,
Har eshikka bir lagandan pul qo‘ydirdi.

O‘tgan-ketgan, ehtiyojmand olib o‘tsin,
Istagancha yesin-ichsin, qolib o‘tsin.

O‘zi chetda poylab turdi, ne bo‘lar hol,
Bir vaqt uyga chol kirdi — deng — oppoq soqol.

Bir eshikdan kirib bor-yo‘q pulni oldi,
Ikkinchi uy lagani ham bo‘shab qoldi.

To‘rt uydagi pulni ortib yelkasiga,
Jo‘nayverdi chol boqmasdan orqasiga.

“Bu qanday gap? Bormi o‘zi din-imoni?!”
Hotamtoyning ukasining chiqdi joni.

“Birin ol-da! E, mayli, ol uchtasini!
Boshqalarga qoldirgin-da bittasini!”

Shu gaplarni aytdi cholni u to‘xtatib,
Haqopat ham qildi ustak zap o‘xshatib.

(Chatoq qildi, chatoq qildi yigit, bilmay,
Bir donishmand sinagandi uni atay.)

“Eh, sen bolam, bolam! — dedi, ranjidi chol,
Har kimga ham hotamtoylik emasdir fol.

Hotamtoylik — shuhrat emas, zo‘r hikmatdir,
Uni ato qilguvchisi tabiatdir!

Sen bilmaysan, lekin bir ish menga ayon:
Hotamtoy ham, sen ham go‘dak eding ul on.

Bir ko‘krak — bir sutdan emib o‘ssanglar ham,
Biring ochko‘z-xasis bo‘lding, biring hotam!

Akang juda oz emsa ham to‘yar edi,
Ukam emsin deb sen uchun qo‘yar edi.

Sen-chi, onang bir ko‘ksini emizgan dam,
Changalingdan chiqazmasding unisin ham!”

25

AJDAR QUDUQ

Bir bor ekan desammi,
Bir yo‘q ekan desammi,
Ochdan gapirsammikin,
To‘qdan lof ursammikin?
Yo‘q, yo‘q, joyin aytmayman,
Borar rohin aytmayman,
Ko‘rsatmayman ko‘yini,
Ko‘rsatmayman uyini,
Ismini sir tutaman,
Damni ichga yutaman, —
To ahdimni bilmasin,
G‘iybat qilib yurmasin!

Xullas, shu atrof joyda,
Tin bilmay yilda-oyda
G‘iybat etib bor elni,
Sira tiyalmay tilni,

Bir kampir yashar ekan,
Haddidan oshar ekan.

Mana u boy qo‘shnisining tannoz xotinini nima deb g‘iybat qilibdi:

Otdan gapirmayman, yo‘q,
Yotdan gapirmayman, yo‘q,
Men bordan gapiraman,
Er, ordan gapiraman:
Yo o‘zi naq hezalak,
Yo boylikka jon halak,
Xotiniga qaramas,
Erkalamas, silamas,
Shundan ul xonim erka,
Xiyonat qilar erga.
Eri-ku sezib yurar,
Bag‘rini ezib yurar.
Lekin inday olmaydi,
Bolta bilan solmaydi,
Nega desang ul “o‘ynash”
Mingboshiga qarindosh...
Buni hamma biladi,
Hatto gap ham qiladi,
Men gapirgan zahotim,
G‘iybatchi bo‘lar otim,
Qo‘y, qo‘y, zamona qursin!

Mana u qassobni qanday g‘iybat qilibdi:

Iloyim oti o‘chsin,
Tig‘i bo‘yniga tushsin.
Qovurg‘a, ichak-chavoq,
Kalla-poycha, bosh-oyoq
Avval go‘sht sanalmasdi,
Tarozuga minmasdi.
Endi bari halolmish,

Tashlasalar, uvolmish!
Ha, ungayam ko‘p qiyin,
Ponsod ko‘p, ko‘p xo‘jayin,
Go‘shtni shular oladi,
Suyak bizga qoladi.
Buni hamma biladi,
Hatto gap ham qiladi,
Men gapirgan zahotim
G‘iybatchi bo‘lar otim...
Qo‘y, qo‘y, zamona qursin.

Mana kampirimiz bir to‘yga borib baxshini qanday g‘iybat qilibdi:

Tori sinsin iloyim,
Kuyi bir kuydir doim,
Yangi qo‘shiq to‘qimas,
O‘tganlardan o‘qimas,
Ko‘zi pulda, hamyonda,—
Amaldorda, a’yonda.
Shularni madh etadi,
To‘tidan ham o‘tadi.
Faqat shunga til — biyron,
Buni hamma biladi,
Hatto gap ham qiladi,
Men gapirgan zahotim
G‘iybatchi bo‘lar otim...
Qo‘y, qo‘y, zamona qursin.

Axiran kampirni tartibga chorlash uchun madrasaning domlasini yuboribdilar.

Kampir uning va’z-nasihatlarini tinglab bo‘lib shunday deb shang‘illabdi:

Sen ham domullomisan,
Zaboning tillomisan?!
Biliming yo‘q — kaldaysan,
Bolalarni aldaysan!

Bilmaysan — Xudo qayda,
Bilasan — foyda qayda,
Pulsiz qolsang tullaysan,
Qur'onni ham pullaysan!
Bilim odami bo'lsang,
Elim odami bo'lsang,
Amaldor boyga emas,
Kambag'al-u xor-u xas —
Jonlarga qilgin nazar,
Sen-chi, qilasan hazar!
Naq it bo'lib uvlaysan,
Madrasangdan quvlaysan.
Nega desang, puli yo'q,
Dudi bor-u kuli yo'q.
Buni hamma biladi,
Hatto gap ham qiladi,
Men gapirgan zahotim
G'iybatchi bo'lar otim...
Qo'y, qo'y, zamona qursin.

Domla gap bilan kampirni yengib bo'lmasligini anglab, talabalarini uni kalaka qilishga gijgijladi. Lekin kampir ularga qarab shunday qattiq va ko'p gapirdiki, biz birgina parchasini keltirish bilan kifoyalanamiz:

Bolamassiz, balosiz,
Qachon gapdan qolasiz,
Domlalaring aldagach —
Aqllaring kalta, kaj.
Hech biringning dining yo'q,
Ilming yo'q, tayining yo'q,
Baring boyning o'g'lisan,
Baland joyning o'g'lisan.
Sizdan chiqar edi kim:
O'g'ri, kazzob yo hokim...

Domla:

"A? Bularni yo o'g'ri, yo hokim bo'ladi dedingmi?.. "

Gap darhol hokimga borib yetibdi. Bilasiz, hokim aslida rahmdil, insofli odam bo'ladi. Lekin o'zini haqoratlagan kimsani jazolashi kerak-da! Kampirni qirq ming yildan beri yoniga birov borishga qo'rqadigan, elda "Ajdar quduq" nomi bilan mashhur bo'lgan chuqurga tashlashga buyuribdi. Kampir qo'rqib ketib hokimga ancha yig'i-sig'i qilibdi. Hokim esa maza qilib kulibdi xolos: "U yerda bir o'zing yotmaysan-ku, jin-ajinalar ulfat bo'ladi! U dunyoni ham bir boplab g'iybat qil..." Shunda kampirning jahli chiqib ketibdi, baribir o'laman, deb gapini aytib qolibdi. Ko'p gapiribdi, xo'p gapiribdi, hokimga aytganlarining hammasini elga oshkora qilmay, biz bir og'izini keltirdik xolos:

Xo'sh, yolg'onmi gaplarim,
Yoqmasmi talablarim?
Birgina aybing ochay,
Yolg'on desang ont ichay.

Sen bu yurtga bo'lgach bosh,
Faqat yaqin qarindosh —
Xeshlaringni to'plading,
"Boshqa"larni ko'plading,
Qayda ne mansab bo'lsa,
Qayda ozroq naf bo'lsa, —
Xeshlaring oldi qo'lga,
Boshqalar do'ndi qulga...

Buni hamma biladi,
Hatto gap ham qiladi.
Men gapirgan zahotim —
G'iybatchi bo'ldi otim,
Qo'y, qo'y, zamonang qursin!!!

Xullas, bu gaplar endi befoyda edi. Kampir yomon kunga qoldi, "Ajdar quduq" g'oyat dahshatli, etni jimirlatadigan turli-tuman g'o'ng'illashlarga to'la, zax va qorong'u joy edi. "Tavba!" debdi

kampir quduqning tagida o‘tirib. “Ajdar deganlari, katta va kuchli maxluq bo‘ladi der edilar. Uni gapirib bolalarimizni qo‘rqitar edik. Biz bilgan ajdarlar butun-butun shaharlarni, davlatlarni egallab, qurbonlik so‘rar edi. Deyman, bu maxluqlar ham zamoniga qarab har xil bo‘lar ekan-da! Manov quduqda yashagan ajdar, deyman, fahm-farosatsiz, o‘z haqini tanimaydigan, hukmdorlarning til-siz-zabonsiz xizmatkoriga aylanib qolgan, umri bo‘yi eshshakdan battar xizmat qilib, oxirida yetishgani faqat shu qorong‘u go‘r — sayoq itlar ham hazar qiladigan o‘ra — bir baxtiqora ajdar bo‘lsa kerak! Gapim noto‘g‘ri bo‘lsa, bu jahannam qudug‘i “ajdar” degan ulkan nomga munosibmi, eh dunyo, dunyo! Men gapirsam — otim g‘iybatchi...”

Kampirning gapi dahshatli bir guldurosdan bo‘linibdi. Quduq ichida go‘yo momaqaldiroq turganday zilzila boshlanib, yer yorilganday bo‘libdi. Sababi, bu yerda chindan ham qirq ming yil burun uyquga ketgan bir keksa Ajdar tuproq ostida oromda yotar ekan. Qirq ming yilki, uni hech narsa uyg‘ota olmagan ekan. Lekin kampirning g‘alati tanqidi, ta’nakor gaplari sho‘rlikning jonjonidan o‘tib ketibdi. Ajdarning hayoti chindan ham kampirning qarg‘ishidagidek alamli bo‘lgan ekanmi yo shunchaki g‘iybatga chidamasdanmi, ishqilib, shart o‘rnidan qo‘zg‘olib, osmoni falakka ko‘tarilib, quduqni tark etibdi.

...Aytishlariga qaraganda, shu kuni havo ochiq ekan, lekin birdan momaqaldiroqni eshitib, hamma hayron qolibdi. Birov: “Ana, Ajdar g‘iybatchi kampirni narigi dunyoga olib ketdi!” desa, birov: “Yo‘q, Ajdarning o‘zi kampirning gaplaridan bezor bo‘lib qochib ketgan!” deb gap qilgan. Xullas, shu-shu, bu joyni endi goh “Ajdar quduq”, gohi esa “Kampir quduq” deydigan bo‘lishibdi. Bu voqea qayerda o‘tgan dersiz? Aytmayman! Buni o‘zingiz eslab ko‘ring: yashayotgan joyingizga yaqin yerda “ajina quduq”, “al-vasti g‘or”, “shayton o‘ra”, “jin teshik” kabi sirli, xilvat joylar bor! Ularning ko‘pchiligidan haligacha g‘o‘ng‘illagan ovozlar eshitilib turadi. Ishonmasangiz, borib ko‘ring...

26

G‘ALATI OROL

Bir orol bor Tinch okeani to‘rida — ovloq.
To‘rt tomoni poyonsiz suv — yashil cheksizlik.
Osmon tubsiz, ummon tubsiz, ufqlar tubsiz,—
Yurak siqar bu kenglikning o‘zi — erksizlik!

Mash’um orol! O‘ttiz-qirq gaz balanddan mudom
Esib turar guvlab, yutoq, yalmog‘iz shamol,
Changaliga ne ilashsa — ketar, vassalom,
Qutqazolur na zo‘r qanot, na boshqa a’mol.

Shamol emas, falokat bu! Lekin orol-chi,
Go‘yo jannat: tinch buloqlar, yashillik, toshloq...
Qurt-qumursqa, kapalaklar, yovvoyi gullar,
Hatto qushlar chug‘ur-chug‘ur jamoa, quvnoq...

Qushlar? Qandoq? Parvoz etmoq mahol joyda-ya?!
Qora shamol kom ko‘rsatib tursa tepada?!
Ko‘pchiligi shundan loqayd yashar osmonga,
Parvoz unut, yer bag‘irlab yurishar zada.

Ko‘p ilgari kelib qolgan qushlar shu bois —
Bola ochar — qanotlari tugma kalta, kal...
Lekin bunda sog‘lom qanot qushlar ham ko‘p-u
Uchish uchun bular ham hech qilmas tavakkal.

27

AFSONA HAQIDA AFSONA

Prometey degan kim o‘zi,
Kim u olov qilgan ixtiro?!
Yer o‘g‘limi yoki u olis
Yulduzlardan yetishgan ziyo?!

Nechun shuncha zamondan beri
Yashab kelar u haqda ko‘p gap?!
U zanjirband emish, ko‘ksin ham
Turar emish quzg‘un cho‘qilab!

Nega uni, mana, ming-ming yil
Hurmat ila yodlaydi olam?!
Yorug‘ etgan deya dillarni,
Larza solgan deya ko‘kka ham!

Sizga aytsam — oddiy bir jon u,
Majnun kabi fidoyi oshiq.
Nasriddindek xushdil bir siymo —
El umriga umri tutashiq!

Voqeasi bundan ham sodda:
Yasharkan u tog‘da qo‘y qapab.
Cho‘pon ekan — yurgan joyidan
Ko‘rinarkan, boqsa, har taraf!

Pastda esa, eldoshlar, qavmi,—
Ne bilgani qora mehnat, g‘am,
O‘zgacha bir hayot borligin
Xayoliga keltirmaslar ham.

Cho‘pon yigit tog‘da bir kuni
Ko‘rib qopti ajib manzara!
By — avvallar ko‘rgan-eshitgan
Holatlardan boshqacha, sara:

...Huv feruza qoyalar uzra
Tovlanarmish turfa saroylar.
Farishtalar uchib yurarmish,
Gijinglarmish qanotli toylar.

Bulut uzra faytonlar quvib,
Izlarida — chaqin, sadolar —

Tog‘da — oliy manzilgohiga
Bir-bir qaytar emish Xudolar.

Har birida o‘zgacha suvrat,
Har birida o‘zgacha a’mol...
Ochilgandi ko‘k siri birdan
Quvgan kabi bulutni shamol.

Shu payt shom ham tushib tez, quyuq,
Vodiy tunga bo‘lgan on xasm,
Arsh ustida — qoyalar uzra
Boshlaptilar tangrilar bazm.

Xos tantana chiqib avjiga,
Sarxush bo‘lib bor oliy makon,
Shundoq sezmay qolipti hech kim
Pastdan qarab turganin cho‘pon.

Ha, umrida bandasi aslo
Tushmagandir bunday hayratga.
Shundayin lol qotmishlar qadim
Musulmonlar boqib suratga.

Hushi yelga uchib cho‘ponning,
Yuragiga sig‘may g‘alayon,
Ko‘z o‘ngida nurlanib olam,
Otilibdi vodiyga tomon.

“Hoy, odamlar...” deyolibdi u,
Lekin nedir to‘smish yo‘lini.
Ortga sudray ketmish beshafqat
Qayirgancha ikki qo‘lini.

Bular, ya’ni Arshi a’loning
Baxil, nodon gumashtalari —
Eltar endi sho‘rlik cho‘ponni
O‘shal majhul cho‘qqilar sari.

“Hoy, odamlar...” deyolibdi u,
Ko‘zlaridan uchib g‘uj uchqun —
Bahorning ilk jilg‘alarida
Kumush hilol qilgandek o‘yin.

Yarim karaxt, uyqutob jonlar
Ne bo‘lganin bilmay turgan payt,
Sal sergakroq birov dedi-ku:
“Ko‘zlarining yonishini ayt!”

Va hammaning tushdi esiga
Cho‘pon sirli qarab ketgani.
Ko‘zida o‘t, bir muhim gapni
Ayta olmay, nolon ketgani.

Yorishganday edi ko‘k bir oz,
Qanday nur bu, kim bilar sirin?!
Garchi yarim tun-ku, odamlar
Tanidilar qarab bir-birin!

...Uyingga yot nazar tushmasin —
G‘azabiga mindi tangrilar!
Ul shakkokni keltirib shitob,
Zang qoyaga mixlab tang‘dilar.

“Mangu shunday tursin, dedilar,
Shunga loyiq buning buzg‘uni
Va har kecha cho‘qilab chiqsin
Yuragini Zulmat quzg‘uni!”

Maqsad ayon: o‘chirmoq qalbdan
Nogoh porlay boshlagan o‘tni.
Toki orzu etmasin odam
Bu ilohiy hayotni, qutni!

Lekin cho‘pon ul sirli kecha
Tashlaganda yalt etgan nigoh,

Pok yurak va sezgir do‘stlari,
Oliy nurdan bo‘lmishdi ogoh.

Shu-shu elda tarqalibdi tez
“Mehr ko‘zda” degan ibora
Va tug‘ibdi ishqni, do‘stlikni
Ko‘zlardagi o‘sha sharora.

Va shu bois mahkum o‘g‘lonni
Ko‘rolibdi el yerdan ayon.
Shu nazardan botirning qalbi
Butun chiqar bo‘libdi har tong.

Ko‘hna gap bu!
Lekin bugun ham
Minglab asil o‘g‘lonlar bandda.
Qalblar yonar! Va quzg‘unlar ham
Qilmaydilar o‘z ishin kanda!

28

TUN AFSONASI

Tun kezib yuripti bir parishonhol,
Bog‘lar, odamlarga soladi nigoh.
So‘niq yulduz bo‘lib, ma’sum oy bo‘lib,
Tun kezib yuripti bir parishonhol.

Tumanli qiyig‘in bo‘yniga tashlab,
Yoziq qora sochin qimtib labiga,
U tongday bir zotni qo‘msab yuradi,
Tumanli qiyig‘in bo‘yniga tashlab.

Tong esa kurraning qaydir burchida
Norg‘il qadamidan uchqunlar sochib,
Ishonch, g‘urur saqlab visolga shoshar
Oppoq tong kurraning qaydir burchida.

Tun-chi... kezib yurar egib boshini,
Visoldan qochar u yuzin berkitib,
Qaydir qilmishidan andisha etib,
Tun kezib yuradi bir parishonhol.

U bir bevafoning o‘kinchi emish.

29

IKKI DOG‘

Muhabbatda
imillash va g‘aflat
ne-ne ko‘ngilsizliklarga duchor etadi!
Ikki yurakning aniq va hamohang bir-biriga intilishidan
Visol
tug‘iladi.
Ham shoshqaloq, ham g‘ofil bo‘lsangiz,
ishqda yo nom-nishonsiz yo‘qolib ketasiz,
yo dunyoga masxarayi jahon bo‘lasiz!
Visol oqshomini
intizor kutmoqda edim.
Quyosh
jig‘imga tegadigan darajada
sust ketmoqda edi o‘z yotog‘iga.
Ishqi yo‘q-da, ishqi yo‘q!
Vaqtni qanday o‘tkazaman kechgacha?!
“Yotib qolguncha otib qol!”
Lekin na fursatni, na quyoshni otib bo‘ladi!
Demak, ixtiyorimda faqat yotish bor!
Oh...
Rohat...
Ko‘zim ilina boshlaydi...
Xursandman!
Quyosh, imillayver!

Visol — shirin tush, xayol!
Voh! Nima bu?!
Uy ichi qop-qorong‘i!
Nahot uxlab qolgan bo‘lsam! Nahot sharmanda bo‘ldim?!”
Tezroq!!!
Otilib eshikdan chiqarkanman... peshanamni shundoq...
OYGA
urib olsam bo‘ladimi?!
OYGA!
Ko‘zlarimdan uchqunlar potrab ketdi!
Osmon yulduzlarga to‘ldi birdan!
Xayriyat!
Oqshom ertaklardagidek kechdi!
Ancha bo‘lgan bu gaplarga!
Lekin endi to‘lin oyni ko‘rib qolsam,
o‘sha
kumush tun keladi xayolimga!
O‘shanda boshimni urib olganim uchun oydan uzr
so‘ramaganimga izza bo‘laman!
Peshonasidagi DOG‘ haliyam ketmapti sho‘rlikning!
Menikiyam ketmagan!

30

YOR TANLASH

“Qizil gul” bayrami. Yasan-tusan olomon. O‘yin-kulgi baravj. Qo‘chqor urishlari. Huqqabozlar. Sozanda truppalarining taraf-taraf aytishuvlari. Yigitlar o‘zlariga yor tanlaydilar. Odat bo‘yicha boshlariga har biri o‘zicha bir nima ko‘tarib chiqqan qizlardan ko‘zlari uzilmaydi ularning. Bu narsalar go‘yo qizlarning aqli, zukkoligi, dididan xabar bergan.

Bir yigit, necha navro‘z
Yurmay hech ovi-dovi,
Sayilga kebdi bugun
Onasi-la ikkovi.

Sayilmisan sayil bu,
O‘z gulingni tanla, o‘z,
Ana, boshda ko‘zasi —
Kelmoqda bir oyimqiz.
Yigit odat bo‘yicha
Unga luqma tashlapti:
“Ayt, ko‘zangda ne bor?” deb,
Bilagidan ushlapti.
Shunday javob debdi qiz:
“Ko‘za — rizq-ro‘z nishoni.
Qozon-o‘choq — uy-ro‘zg‘or,
Dilning tilak-armoni...”
Ona moydek eripti:
“Ayni bizbop, shuni ol!”
O‘g‘il-chi g‘udranipti:
“Menga kerakmas qarol...”
O‘h-ho‘! Anavi kimdi?!
Yurishga boq, yurishga!
Boshidagi chambari
To‘la oltin-kumushga.
Yigit odat bo‘yicha
Quv bir savol tashlapti:
“Boy ekansan!” deb qizning
Bilagidan ushlapti.
Mag‘rur kulipti jonon:
“Yigit, baland joydanmiz!
Naq qirq tuya sepim bor,
Yerdan emas, oydanmiz!”
Ona moydek eripti:
“O‘g‘lim! Baxt bu! Shuni ol!”
“Qo‘ying! Tillolik uyda
Uxlolmaysan bemalol...”

Ona jerkib o‘g‘lini
Yana yurishsa bir oz,
Ro‘paradan kelarmish

Xo‘p yasangan bir tannoz!
Farang ro‘mol qoshinda,
Etiklari amirkon!
Boshga qo‘ygan savati
Go‘yo upa-atir kon!
Yigit endi bu qizga
Piching savol tashlapti:
“Boshingdagi ne hikmat?”
Deb belidan ushlapti.
To‘satdan yot bir tilda:
“Bu — zo‘r savat!” debdi qiz.
“Ketdik! Chet tilda so‘ylash —
Madaniyat!” debdi qiz.
Ona bir oz jim turib
Debdi: “Yoqsa, ol, mayli...
Madaniyatli bo‘layin
Shu kelinim tufayli!”
“Qo‘ying, oyi, hech qachon
O‘z tilimni sotmayman!
Ona degan so‘zni ham
Boshqa tilda aytmayman!”
“Qaysarliging qursin!” der,
Toqati toq onaning.
“Senday farzandlar qilar,
Bag‘rini dog‘ onaning!”

Sayil-da! Qiz ko‘p! Ana
G‘oz kelar bir do‘ndiqcha
Boshidayam ul-bulmas —
Chog‘roqqina sandiqcha.
Sandiqchaki, liq to‘lgan
Turli-tuman mevaga.
Yigit kinoya qilar:
“Bozorgami, nimaga?!”
Qiz uyalib turibdi,
Yuzga tortibdi parda.

“Meva — nasl deyishar
Qadimdan o‘zbeklarda...”
Ona moydek eripti:
“Kelinim bo‘l!” debdi shod.
“Uyim bolaga to‘lsin,
Baxtli yashang umrbod!”
“Nima bo‘pti,— der o‘g‘il.
Har bir gapga uchasiz!
Axir hamma ayol ham
Ona bo‘lar shubhasiz!”

Jig‘i-biyron deng ona,
“Peshonangdan ko‘p, bolam.
Bo‘ldi! To‘ydim, charchadim!
Endi o‘zing yur, bolam!
Sayilga bir qara, hoy,
Ming qiz kelar yo‘lingdan!
Bittasiga er bo‘lish
Nahot kelmas qo‘lingdan?!”
Ammo yigit bu asno
Qizlarning orasidan
Kimnidir ko‘rib qopti
Ko‘z uzmay qorasidan!
Bu rang-barang chamanda —
Ko‘zga tushgan kim u, xush?!
Hech narsa yo‘q boshida,
Tag‘in ikki qo‘li bo‘sh...
Ona ko‘rib ul qizni,
Debdi: “Qilma nazzora!
Ko‘ryapsan-ku, u bir zor...
Noumid bir bechora...”
Lekin yigit o‘ylanmay
Qizga yetib olibdi.
Ikki og‘iz so‘z aytib,
Ko‘ngliga qo‘l solibdi:
“Odatlarni, navro‘zni

Nahot unut qilibsan?!
Boshinggayam hech narsa
Ko‘tarmasdan kelibsan?!

Rost! Qiziq-da! Atrofga
Odam to‘lib ketibdi.
Qiz esa bir tin olib,
Shunday javob etibdi:
“Yigit! Qutlug‘ bu ayyom
Ezgu so‘zlar so‘zlanar!
Orzu-armon aytilib,
Olis yo‘llar ko‘zlanar!
Muhabbatim qozonmoq
Nasib etsa gar kimga,
Men bir umr o‘shani
Ko‘targayman boshimga!”

31

AMUDARYO IZTIROBI

Amudaryo — bezovta ilhom,
Bezovta ruh, bezovta dunyo.
Har tomchisi oydan tomgan nur,
Har bir mavji — quyoshdan ziyo.

To‘zon-to‘zon barxanlar aro
O‘zin tashlab bor bo‘yi bilan,
Gohi turib, gohi yiqilib,
Goh piyoda, goh sayoz, arang.

Oqib yotar Amu — ming ism,
Oqib yotar ming-ming zamona.
Oqib yotar go‘yo iztirob,
Oqib yotar go‘yo afsona.

...Baxti qaro bo‘ldi kampirning,
Yonar-kuyar yolg‘iz qiziga:
Boy Itolg‘i uni xush ko‘rib,
Olayotir zo‘rlab o‘ziga.

Itolg‘i boy oshgan yetmishdan,
Qizi axir endi o‘n beshda.
Kampir yolg‘iz. Yetim xeshi bor —
“Borsa-kelmas” dashtida ishda.

Qizi “quloq qiydi” o‘shanga,
Kun-tun kutar faqat o‘shani.
Unga xabar ketdi-ku, lekin
Hanuzgacha yo‘qdir nishoni.

Bu yoqda-chi, Itolg‘i boyning
Odamlari har kun tindirmay
“To‘y — bugun!” deb kelaverishar,
Kampir muhlat cho‘zadi atay.

Bir o‘ylovi bor-da kampirning,
Netsin, gulday so‘lmoqda qizi.
Tong pallasi mana, nihoyat,
Eshitildi oyoq ovozi.

Yigit keldi. Kampir ham, qiz ham,
Uni gapdan etdilar ogoh.
Lekin shu dam boshqa tomondan
Tuyoq sasi keldi banogoh.

Ikki yoshni shoshtirib momo,
Oq fotiha berdi-yu tezkor:
“Qizim, o‘sha aytgan gapimni,—
Dedi, — esdan chiqarma zinhor!”

Ya’ni kampir qiziga berdi
Bir g‘alati dori-kimiyo.

Uning yarmin ichsa agar qiz,
Oqa boshlar misoli daryo.

Ikkov ketdi. Kampir xotirjam
Uyga kirib yotarkan, shu on.
Yaqin keldi otlar dupuri —
Itolg‘idan keldi olomon.

Kampir chiqdi rozi suvratda:
“Mayli, to‘yni boshlanglar! — dedi.
Kuyov to‘ra obketsin qizni,
Borib ko‘nglin xushlanglar!” — dedi.

Peshin chog‘i Itolg‘i to‘ra —
Qo‘lda — qiyg‘ir itolg‘i qushi,
Savlat to‘kib keldilar, ammo
Kelin yo‘q-ku! Uchdi es-hushi.

“Qochirgansan!” Boy tishin qayrab
Qilich sermar — qular sho‘rlik jon.
Lof emas, naq bir tosh joygacha
Otiladi shahid qizil qon.

Ne mo‘jiza! Qon tekkan joylar
Do‘nar qizil jing‘il o‘rmonga.
Itolg‘i boy shoshib qushini
“Top, izla!” deb solar osmonga.

Qiz va yigit bu zamon shitob
Ancha joyda borar edilar.
Itolg‘i qush quvishin eslab
Tez-tez ortga qarar edilar.

Birdan... ko‘kda qora bir nuqta
Suza boshlar ularga tomon.
Bu o‘sha qush! Ey Xudo! Shoshib
Otdan yerga tusharlar shu on.

Hapriqadi qizning yuragi,
Ko‘rmay o‘tsin, ko‘rmay o‘tsin qush!
Qo‘li titrar — chayqalar dori,
Vahimadan chalajon, behush.

“Ichdim!” deydi qiz va dorining
Sipqoradi yarmini shoshqin.
Qolganini yigitga berib,
Aylanadi daryoga toshqin.

Yigit hayron. Ko‘kda itolg‘i
Charx uradi topolmay qizni.
Yangi daryo uzra xo‘p turib,
Ortga burib ketadi izni.

Yigit hayron. Qo‘lida dori,
Guvillaydi poyida daryo.
Yigit hayron. Qo‘lida dori,
Ne qilishni bilmaydi ammo.

Ha, bilmaydi! Chunki qiz shoshib,
Zarur gapni chiqardi esdan:
Qush daf bo‘lgach qolgan dorini
Suvga sepish shart edi tezdan!

Doridagi hikmat shu edi,
Sho‘rlik kampir eslatgan gap shu!
Qiz shoshgandi. Endi yigit lol,
Poyiga bosh urar loyqa suv!

Daryo sho‘rlik tilga kirmoqchi,
O‘sha sirni aytmoqchi yanglig‘,
O‘zin tashlar har yonga endi,
Qirg‘oqlari qiladi tanglik.

Yigit turar butkul noiloj,
Kimga aytsin axir zorini?!

Birdan: “Men ham daryo bo‘lay!” deb,
Sipqordi-ku qolgan dorini!

Ichdi! Tamom! Va lekin yigit
Daryo emas, do‘ndi qumloqqa!
Faryod solib qola berdi suv
Bosh urgancha qumloq qirg‘oqqa!

Xorazmga kim kelsa bugun
Shu ertakni eslar bir qarab.
Bir yon to‘qay! Bir yonda daryo
Oqar qumlar aro yarqirab.

Mana, tindi qayg‘uli qo‘shiq,
Lekin daryo tinmaydi hech on.
Amudaryo — mangu muhabbat,
Amudaryo — abadiy hijron.

32

TURNALARNING OVOZI

— Qanday sehrli ovozlar-a!

— Sog‘inch, o‘tinch, mung...

— Turnalar issiq o‘lkalarga ketishyapti.

— Nima deb “qur-qur”lashyapti ekan ular?!

— Yo‘l uzoq, undan-mundan gaplashib, ko‘ngil yozib ketishadilar shekilli...

Suhbatga avval qo‘shilmay turgan bir ovoz aralashdi:

— Yuksaklikdan yerga bir qarab ko‘r! O‘zing ham kuylab yuborasan!

Yana boshqa ovoz:

— Quyosh botyapti, qayerda tunasak ekan deyishayotgandirlar balki?

— Yo‘q! Ular “Odamlar, qish yaqinlashyapti!” deb ogoh etishyapti.

— Be, ming yildan beri shu xilda qur-qurlab, vag‘illab uchishadi-ku ular! Sen-men bilan bir pullik ishlari bormi?!

Yuksaklik haqida gapirgan ovoz:

— Uzoqlarga ketyapmiz, endi qaytib kelish nasib etarmikin deb yig‘lab ketishyapti ular...

Chetdan boshqa bir ovoz:

— Juda oshirdinglar narxini! Mendan so‘ramaysanlarmi ularning nima deb g‘o‘ng‘irlashayotganlarini. G‘iybat qilishyapti, g‘iybat: “Yo‘lboshchimizning qanotlari kalta, xunuk. Shunga qaramay u hammadan oldinda, boshliq!” “Xotinining oyog‘i maymoq...” “O‘ng qanot oqsoqolimizning bo‘yni tulagan...”, “Qizini ayt, suyuq...” “U anavi shimolda qolib ketgan suyuq yigitcha bilan don olishar edi shekilli...” va hokazo, vassalom!..

33

ISHQ VA RASHK

Yurak degan shaharda bir vaqt
Ikki opa-singil yashapti.
Bittasining fe’li keng, saxiy,
Bittasi xit, yo‘q qo‘ri-tafti.

Katta opa — Ishqning qalbi nur
Ko‘zlarida beg‘ubor shu’la.
Kichigi — Rashk, yuzi, ko‘zlari
Sharpalarga to‘la — xayula.

Ishq atrofga nazar solgan on
Tovlanarkan feruza bahor.
Rashk-chi, ishkal topar bahordan:
“Chaqmoq otlig‘ allakimi bor...”

Xullas, Ishqoy anchadan buyon
Sevar ekan botir Vafoni.
Uni o‘ylab kecha-yu kunduz
Tortar ekan sog‘inch, jafoni.

Bir o‘t bilan yonib ikki dil,
To‘y kuni ham belgilanganda,
Gap boshlabdi Rashk yana zimdan:
“Bir senmas, u ko‘plarga banda...

U — fidoyi, lekin payt kelsa,
Boshqani deb, tark etar seni...”.
Ishqoy hayron, ne·qilsa ekan,
Yaqin qoldi axir to‘y kuni!

Bu g‘aroyib ikki singilning
Oqil otlig‘ og‘asi bo‘lib,
Xabar topdi sovuq shubhadan,
Chora izlab toldi ishqilib.

To‘y haqida ovoza axir
Yetti yurtga tarqalgan qachon!
Vafo — elda ardoqli yigit,
Biron gap-so‘z bo‘lgani yomon!

Shuni o‘ylab Oqil bir kuni
Bobo Hikmat tomon soldi ot.
Donishmandning qoshida sipo —
Kutib turdi maslahat, najot.

“Ko‘p mushkul ish!”
dedi ohista,
O‘yga toldi boboyi Dono.
So‘ng to‘rtta tosh olib sandiqdan,
Oqilbekka tutdi purma’no.

“Gap — ularning ko‘zida, o‘g‘lim,
Nur me’yori darkor ko‘zlarga.
Bu toshlarni ko‘zlariga surt,
Bildirmasdan, tunda, qizlarga.

Ishqoy uchun mana bu javhar,
Ko‘zidan g‘ash, tumanni artsin.
Bu bir jufti Rashkning ko‘ziga —
Mayli, sal tinch, beparvo tortsin!”

Tong otmayoq kelib Oqil shod,
Amal qilib cholning so‘ziga,
Ul toshlarni berkitdi asta
Uxlab yotgan qizlar ko‘ziga!

Kutilmagan ish bo‘ldi tongda:
Rashk uyg‘ondi suqtoy beshbattar!
Ishq oh urdi Vafo deb dildan:
“O‘lay, desam boshqani agar!”

Bu nima gap? Rashk tili biyron
Qirq bo‘htonni taqar Vafoga.
Ishqoy esa “Vafo!” der faqat,
“Vafo!” deydi, boqmay dunyoga.

Janjal zo‘r-ku? Bu holni ko‘rib,
Changallabdi Oqil boshini:
Chalkashtirib qo‘yipti tunda
Donishmandning bergan toshini!

Shu-shu, sevgi bobida endi
Yanglisharmish oqillar hatto.
Rashkning ko‘zi to‘rt emish shundan,
Ishqning ko‘zi “ko‘r” emish go‘yo.

34

OLLOQULIXONNING CHOYI

Bu dunyoda o‘z bilganin har kim etib,
Alqissakim, so‘z navbati bizga yetib,
Olloqulixon zamonin ta’rif etib,
Ya’ni dong‘i-dasti yetti yurtga ketib,
Xivoq taxti manglayiga uning bitib,
Aytay davron surganini, keldi joyi.

Olloqulixon me’mori zamon bo‘ldi,
Davrida ko‘p minor, gumbaz, ayvon bo‘ldi.
Lekin so‘ngroq yurtda ochlik xoqon bo‘ldi,
Nomi ketgan boylar qoq ustixon bo‘ldi,
Elchilarning yemishi suv, qoq non bo‘ldi,
Shu taxlitda kechdi xalqning yili — oyi.

O‘sha kunlar yuz bermish deng ish boibrat:
Chinmochinga savdo uchun etgan hijrat
Katta karvon qaytib kelmish chekib mehnat,
Karvonboshi dilga tugib bir xush niyat,
Xurjunida zar qog‘ozda sirli ne’mat —
Xon oldiga kelib boshin qilmish quyi.

“Shukur, omon qaytib keldik, xonim, Chindan,
Qabul eting, bul g‘aroyib savg‘o mendan!
Bir misqoli qimmat ekan ming oltindan,
Nomi ko‘k choy, qaynatilar suv oldindan,
So‘ng idishda — o‘t ustida berilgach dam,—
Buni ichar u yoqlarda yurtning boyi!”

Sovg‘a degan, ayting-ayting, kimga yoqmas,
Obdi-yu xon: “Afsus, debdi, yeyimlikmas!..
Mayli, ichsak, xosiyati ne o‘lg‘ay, bas!”
Karvonboshi xo‘p maqtabdi choyni, xullas:
“Hazmi taom uchun hech zot bunga tengmas...”,
“Hazmi taom?!” Buzulmish-ku xon avzoyi...

"Jallod! — debdi, dorga torting buni zinhor!
Bunda ulus bitta uvoq nonga-ku zor,
Bu keltirmish hazmi taom choyin bisyor!"
Shunday qilib savg'o bois qurilib dor,
Bemavrud ish yetkizibdi koni ozor,
Bunga misol Olloqulixonning choyi.

34

DAVRONSHOHNING SUVRATI

Ertaklarda ko'p qadim
Zamonlar eslanadi.
Ko'p qiziq voqealar,
Makonlar eslanadi.

Va lekin baridan ham
Oldin Jurjon tomonda
Shoh, Davron o'tgan nomdor —
Ham dovruqda, ham dongda,

U shunday zo'r bo'lsa ham
Goho o'yga tolarkan
"O'tkinchi-da, deb, dunyo!"
Ming xayolga borarkan.

Ammo zerikmas ekan:
Yonda doim a'yonlar —
Ish buyursang mechal-u,
Gap bersang nuktadonlar!

Bir kuni ular hamso'z
Shoh qoshiga kebdilar.
Yaltoqlanib, buklanib
Shunday bir so'z debdilar:

“Shohim, jarchilarni tez
El-u yurtni kezdiring.
Rassomlarni chaqiring,
Rasmingizni chizdiring!

Ayashmasin bo‘yoq, zar,
Ter to‘kishsin fido jon.
Aks etsin unda sizning
Savlat, davlat, mangu shon!

To endi do‘st-u dushman
Suyib e’zozlasinlar.
Tavobda bo‘lsin unga
Asrlar-u nasllar”.

Zum o‘tmay, shu xususda
Yetibdi elga farmon.
Biroq qocha beribdi
Rassomman degan har jon.

Bois, vujudi shohning
Go‘yo quruq qoratol,
Bir ko‘zi yumuq ko‘r-u
Bir oyog‘i kalta-dol.

Kim chizar shunday zotni,
Qaysi ustasi farang?
Qanday ifoda etar
Qanday san’at, qanday rang?!

Ammo eski naql bor:
To‘pdan chiqar tuman gap!
Bir chet joyda uch rassom
Yashar ekan rang saylab.

O‘smoqchilab, bittasin
“Dangalchi”, der yurt-eli.

Qoni qaynoqroq ekan,
Cho‘rt kesar ekan fe’li.

Ikkinchisi — Sayqalchi,
Gulta’b, zarif ham zukko.
Ko‘p noxush holatni ham
Chizar ekan jo-bajo.

Uchinchisin el, qiziq,
“Paysalchi” deb atarkan.
Chunki har bir ishni u
Ko‘p o‘ylanib etarkan.

Shunday qilib Dangalchi
Otlanibdi dadil, dov.
Birov oq yo‘l deb qobdi,
Qobdi afsus deb birov.

Kelib “Shohim,— debdi u,
Siz odilsiz, men ham mard!”
Va chizibdi shoh rasmin
Qo‘shmay-olmay bitta gard!

Shoh suvratga boqib jim,
“Qoyil, debdi, boplabsan!
Qiyofam — o‘zim, lekin
Sal... ruhimni topmabsan!

Yurtni boshqarurimda,
Sochganim chog‘ zahrimni
Avzoyim shunday! Ammo
Qayga qo‘yding mehrimni?!

Axir hali bor yurtni
O‘ldirganim yo‘q-ku, ayt,
Biron yorim-do‘stimga
Zulm etdimmi biron payt...

Rasmingdan maqsad, bildim,
Jirkantirmoq avomni!
Dor kutadi seningday —
Fikri buzuq rassomni!"

...Dangalchining o'lganin
Aytib bo'lmay ham jarchi,
Saroyga nazokat-la
Yetib kebdi Sayqalchi!

Shoh rasmin u ming alvon
Bo'yoqlar-la qoribdi.
Rasmda shoh — yosh o'g'lon,
Otda adl turibdi!

Ya'ni, "andak" nuqsonlar
Topibdilar tez barham.
O'ttiz ikki muchali
Ko'rinibdi, sog', o'ktam!

Shoh qahqaha uribdi:
"Qoyil, debdi, boplabsan!
Bunda ruhim bor! Lekin
Suvratimni topmabsan!

Bunda qani jahonga
Larza solgan sher yurak?!
Bu bir kulinch, yupqa lab —
Suzik ko'zli hezalak!

Buningni ko'rsa yovlar:
"Shuyam shohmi?!" demasmi,
Meni yosh va g'o'r bilib,
Qo'shin tortib kelmasmi?!"

Jahl bilan sho'rlikning
Boshin obdi Davronshoh.

Boshqa rassom toping deb,
Zahrin sobdi Davronshoh!

Shoshib shunda jarchilar
Paysalchiga kelsalar,
"Muhim gap bor, debdi u,—
Jindak sabr qilsalar!

Hali tugal etay jam
Ul zotga xos ranglarni.
O'qiy-anglay ul qilgan
Savashlarni-janglarni!"

Fursat o'tib, shoh uni
Keltiringlar, debdi tez,
U paysalga solarmish:
"Ranglarga mos topay his... "

Shunday qilib, oxiri
Muhlatlar ham bitibdi!
Kelib shoh o'trusida
U mo'yqalam tutibdi.

Asta chiza boshlabdi,
Ranglarga ruh beribdi.
Har bir chizgi olib jon,
Har bir bo'yoq eribdi.

Suvrat bitib, nihoyat,
Ko'rsatilsa shohga, oh,
Qattiq ta'sir qilibdi —
Uzoq qarab qobdi shoh!

Rasmda shoh — sayyodmish —
Ov zavqiga cho'milgan!
Qo'llarida tarang yoy —
Ko'r ko'zi chirt yumilgan!

Cho‘loq oyog‘ini-chi,
Bir xarsangga tirab soz,
Shay turarmish otishga —
Ko‘kda uchib borar g‘oz...

Mamnun bo‘bdi Davronshoh!
“Qoyil, debdi, boplabsan!
Saxtim — dadil! Ruhni-da
G‘oyat tetik saqlabsan!”

Shunda saroy ahli ham
Yengil nafas olibdi.
Suvrat — bahona, barcha
Shohni maqtab qolibdi.

Rassom esa bir chetda
Xayol surib turar bot:
“Shoh, suvratin chizsang, shart
Paysal, fikr, ehtiyot!”

36

O‘N UCHINCHI ESHIK

G‘azna uzra bo‘y cho‘zmishdi bot,
Haybatli va qo‘rqinchli saroy.
Bunday shiddat, bunday mahobat
Bag‘dodda ham yo‘qdir hoynahoy!
Ichkarisi vahm bir dunyo,
O‘n ikkita eshigi bordir.
O‘rtada taxt... G‘azabnok siymo...
Tegrasida o‘n ikki qandil...
...G‘azab sochar G‘aznaviy sulton,
A’yonlarin tergaydi bir-bir.
Saroy ahli uni biron on
Ovutmoqqa izlaydi tadbir.

Sovuq cho‘g‘lar o‘ynar ko‘zida —
Do‘zax qushi ochganday bola;
Qarashidan tuproq yuziga
Yog‘ib turar kulfat va nola.
Na ziyofat, na cholg‘u — bazm
Yoqa oldi ko‘ngliga chiroq.
Chaplanganday nursiz bir rasm,
Xira edi bu ko‘shk, bu ravoq.
Horitganmi uni safarlar,
Quturtdimi balki shonlari?!
Yo qalbiga dahshat quyarlar
Xurosonda to‘kkan qonlari?!
Yo g‘azabga solurmi bu dam
Tiz bukmasdan turgan Hindiston?
Unda kezsa go‘dak ustida —
Raqs etguvchi bir shivasimon?
Hayron etar bizni ming-ming yil
Tabiatda ajib bir savdo:
Qaysi bir ish mushkuldan mushkul,
Echmoq uni soddadan sodda.
Faqat battol vaziri Hasan
Zap bilardi Sulton fe’lini.
Bir kori hol sezib, xususan,
Kelib qoldi bog‘lab belini.
Suyar edi vazirin Sulton,
Sodiqligi, quvligi uchun,
Va hozir ham... ko‘rgani zamon
Arib ketdi boshidan tutun.
“Davlatpanoh!” — bosh egdi vazir.
Ko‘zlarida makkor bir ziyo.
“Amringizga keldim muntazir,
Muntazirdir unga bor dunyo!”
“Gapir!”
“Qulluq! Ming-ming qulingiz
Hukmingizga zor-u intizor.
Bittasini sinab ko‘ringiz,

Emish, uning qiziq naqli bor!
Gap shundaki...” — Hasan buklanib,
G‘aznaviyga shipshitadi gap
Va tund Sulton birdan tiklanib,
Qah-qah urar mastlarga o‘xshab:
“Xo‘sh, xo‘sh! Qani olib kelinsin!
O‘zim uni qilaman so‘roq!
Yolg‘on chiqsa gaplari lekin,
Sindirurman boshida tayoq!”
Bazo‘r tutgan o‘ljasini ham
O‘ynab yemoq odat mushukka.
Shohlarning ham ko‘ngli, yo egam,
Moyil ekan shunday “qo‘shiq”qa!
Yaqinlarin to‘pladi Sulton,
Beruniyni kuta boshladi.
Tadbirini qildi-yu ayon,
Kula-kula ko‘zin yoshladi:
“Emish, o‘sha xorazmlik zot
O‘qir emish ko‘zlardan ma’no!
O‘qir emish xayolni ham bot,
Aytar emish yanglishmay aslo!”
O‘ylab boqsang, ba’zan kishiga
Hayrat solar o‘tmishda bir hol.
Hukmdorlar hamma ishiga
Ahmoqlarga ochdirdilar fol:
Yig‘ilganlar lol va farxunda
G‘aznaviyning topqirligiga.
Qolgan ishlar bahosi bunda
Turmas edi yarim miriga...
Kutardilar ular ham sarmast,
Topildi deb masxara, ermak.
Nodon qulga go‘yo erk emas,
Xo‘jasining shodligi kerak!
...Tugab borar Sultonning sabri,
Uchqunlanar ko‘zlari behis.
Nihoyat, ul “Xorazm faxri”

G‘aznaviyga keldi yuzma-yuz.
Ana turar u — toza xilqat,
Ko‘zlarida ko‘kday tubsizlik,
Chehrasida porlar beshafqat
Qat’iy sabot, mujassam o‘zlik:
“Sultonlarga bizdan ne darkor,
Tinch qo‘yarmi axir bu zolim?
Dil xushlashi uchun hukmdor
Endi kerak bo‘ptimi olim?!”
Sukunatdan qo‘rqardi, ammo
G‘aznaviyning qattol yuragi,—
Qah-qah urdi vahmini go‘yo
Kulku bilan bekitgan kabi:
“Eshitdimki, sen bir sehrgar,
O‘qirmishsan, ko‘zlardan ma’ni.
Biz ne xayol sursak-da agar,
Toparmishsan yanglishmay ani!..”
Tegrasiga nazar soldi u,
A’yonlari qotgandilar lol,
Turardilar ko‘ksida g‘ulu —
Bo‘ron kutgan yaproqlar misol,
“Ey sehrgar! Qani, yaqin kel!”—
Yer depsinib hayqirdi Sulton.
Titrab ketdi o‘n ikki qandil
Titrab ketdi o‘n ikki ayvon...
“Xo‘sh!— deb yana turdi o‘rnidan.
Neni xayol etishimni ayt!
Eshiklarning qaysi biridan
Hozir chiqib ketishimni ayt!”
Va shu lahza to‘qnashdi birrov
Ikki siymo — ikki xil nigoh.
To‘qnashganday suv bilan olov,
To‘qnashganday o‘pqon bilan tog‘.
Balki osmon bo‘lgandir talash,
To‘qnashgandir unda tun va tong.
Shu o‘tlug‘ zum, shu olov qarash

Lekin mangu etadi davom...
...G‘azna uzra bo‘y cho‘zmishdi bot
Haybatli va qo‘rqinchli saroy.
Bunday shiddat, bunday mahobat
Bag‘dodda ham yo‘qdir hoynahoy.
Ichkarisi vahm bir dunyo,
O‘n ikkita eshigi bordir.
O‘rtada taxt... G‘azabnok siymo...
Tegrasida o‘n ikki qandil...
“Qog‘oz, qalam!” —
der Abu Rayhon,
Nelarnidir yozar muk tushib,
Tegrasida a’yonlar, sulton...
Tegrasida o‘n ikki eshik...
Sal o‘tmayoq yozganini u
G‘aznaviyga uzatdi sipo.
Sulton esa xatni oldi-yu,
Jimjit turib qoldi bir asno,
A’yonlar ham hayron: “Bir navi
Kelarmikin javoblari mos?”
O‘qimadi xatni G‘aznaviy,
Zaharxanda iljaydi xolos.
“Xo‘sh, topdim de?!”
Birdan qo‘zg‘alib,
Navkarlarin chorladi tezkor.
Va o‘n ikki eshik ham qolib,
Yo‘l ochdirdi buzdirib devor!
G‘olib nazar, devkor yurish-la,
Shul “eshik”dan chiqib ketdi u.
Tez qaytdi-yu, xatni o‘qishga —
Vaziriga farmon etdi u!
Ne bo‘ldi deb, xo‘sh, undan keyin,
O‘tirmaylik, do‘stlarim, qaytib.
Ul xatda ne yozilganligin,
Mushohidlar ketganlar aytib:
“Kimning agar bor taxti toji,

Kuch-qudrati dog‘i ustuvor,—
Qay tomonga yuz bursa — hajdir.
Qay tomonga shahd etsa — yo‘l bor!”
...G‘azna uzra bo‘y cho‘zgandi bot
Haybatli va qo‘rqinchli saroy.
Bunday shiddat, bunday mahobat,
Bag‘dodda ham yo‘qdir hoynahoy.
Ichkarisi vahm bir dunyo,
Endi o‘n uch eshigi bordir.
O‘rtada taxt... G‘azabnok siymo...
Tegrasida o‘n ikki qandil...

37

YONG‘IN

Porlab ketdi samovot birdan,
Chayqalganday bo‘ldi huv minor.
Qarg‘alarni otdi bag‘ridan
Tun qa’riga asrlik chinor.
Har uy burjin tir kabi qayrab,
Har devorni bayroq etib cho‘g‘.
Qo‘rquv-vahshat ko‘lkasin haydab,
Chor tarafga bir nur chopdi sho‘x,
Yo‘laklarda boshlandi g‘ovur:
“Hoy, masjidga o‘t ketipti, yur!”

Madrasa ham uyg‘ondi shabko‘r,
Halqumida tiqilib oyat.
Salla ichra ko‘milgan bego‘r
O‘zliklar ham uyg‘onsa shoyad!
O‘t ichida qolgan masjidga
Kimdir chopdi... Kim qochdi cho‘chib...
Kimdir kirdi xayolan o‘tga,
Kimdir turdi labida uchuq...
Panohingda asra, yo rasul,
“Hoy, masjidga o‘t ketipti, yur!

Jim turardi kelgan olomon,
Hayron boqib o‘tning zo‘riga.
Borolmasdi hech kim ul tomon
Va ketmasdi hech kim nariga...
Qurshar edi olov minorni,
Peshtoqlarni yalardi yoli.
Otasini chaqqan ilonni
Bo‘g‘ayotgan o‘g‘il misoli.
Imom yig‘lab keldi: “ Astag‘fur...”
“Hoy, masjidga o‘t ketipti, yur!”
O‘t ichida go‘yo bu mahal
Yonar edi o‘zi ham Olloh!
Masjid yonar, imom yugurar:
“Kitoblar ham yonib ketdi, oh...”
“A? Kitoblar? Kitobmish! Qanday?!”
Yig‘ilganlar qoldi hang-u mang.
Birdan kimdir:
“O‘zbekmisan, hay-y!
Nima qilib turibsan hammang?..”
Va boshlandi: “O‘chir, ho, o‘chir!
Yur, masjidga o‘t ketipti! Yur!”

38

SAMANDAR

O, tabiat! Hayotning, ey sen go‘zal enasi,
Nechun nurdan iymading inson borligin butkul?!
Tun bila tongdan uning qorilmish zuvalasi,
Jismida bahsda emish toabad zulmat va nur!
Ko‘kdagi quyosh javob bo‘lolmas bu savolga,
Qalblardagi zulmatga darkor ikkinchi quyosh!
O‘sha bois — basharning kamoliga, zavolga,
Nomi — Haqiqat uning,
ko‘rinishi — yonar tosh!

Barcha qalbga bir vaqtlar teng
nur sochmishdir, biroq,
Bir quv zot o‘z ko‘ksiga yashirib qo‘ymish uni!
Har kimga ham nasibmi quyoshlarni qantarmoq —
Uzib, osmonga otmish u kuyuk yuragini!
Shu-shu falaklar aro g‘oyib ketmish Haqiqat,
“Haq — ko‘kda” deb,
“Xudo!” deb qutulib qolmish ul jon!
(Hali ham bor shundaylar: gunoh qilib qatma-qat,
Xudoni — yetti qabat ko‘kni qilurlar qalqon!)
Unutmish o‘zligin ham Xudo deganda odam,
“Yaratgan ham Xudodir,
Xudo — yolg‘iz, Xudo — haq!”
Va yana eski taxlit tentirab ketmish olam,
Tentirab ketmish nochor, qo‘li ko‘kda muallaq!
... Yo‘q edi ul zamonda na o‘ti, na qanoti
Va lekin ko‘kka boqib o‘yga toldi odamzod.
Garov qo‘yib bo‘lsa ham zulumotga hayotin,
Xudo diydorin ko‘rmak istab qoldi odamzod!

Bu tuyg‘u uyg‘ongandi yangi tuqqan oy misol,
Yorishib abadiy tun, uzlatda yitgan maskan.
Endi o‘tmish umrini inson qilolmay xayol,
Bugungi borlig‘in ham kuzatardi chekkadan.
Ana! Adl Ruh uchar! Shaxtining yo‘q hududi,
Go‘yo ming-ming tong nurin yig‘ib tiklangan bayroq!
Shu erur odamzodning qanotlangan umidi,
Shu o‘lmas Ruh chiqqandir samo zabtiga nogoh!

Ne teng kelur insonning intilishi, doshiga,
Ruh hayqirdi: “Keturman Olloh manzili qadar!
Inson ega bo‘lg‘usi Haqiqat quyoshiga,
Haq qaror topmaguncha —
men bir qushman Samandar!”
Qo‘zg‘oldi xaloskor kuch tilsimband samo sari,
Qanotida zamonlar yecholmagan mushkulot!

Samovot — axir, ne-ne sayyoralar mozori,
Na ohga javob bordir, na iltijoga — najot!

Yetdi Arshi a'loga Samandar omon va but,
Yulduzlarga ayon bir lahzada soldi nido!
Junbushga kela qo'ydi bunda bosqinchi sukut,
Titradi mangu g'aflat go'shasi Arshi a'lo!
Dedi: "Hoy Rabbil olam!
Men — olov qush Samandar! —
Odamlari zulmatda yashovchi Zamin ohi!
Qodir Qudrat, insonga najot yo'lla, muqarrar,
Haqiqat ber, eltayin, yo'limdadir nigohi!"

Sukut. Sukut. Va nogoh qiyomat ko'chgandayin
Guldirab ketdi cheksiz qahrga to'liq na'ra:
"Hey, telba qush! Hey, kufr!
Hey, shaytonning malayi!
Oliy dargohni nechuk qilmoqdasen masxara?!
Qayt ortga, yaratilish tarixing o'zi — beshon,
Behishtni Odam Ota qilib ketgandir badnom.
Yaxshi bil, Haqiqatga yetolmassan hech qachon,
Unga sig'inmoq o'zi — bandamga buyuk in'om!"

Arshi a'lo tegrasin chulg'ab oldi zil tuman,
Samandarning hushida birdan sovrildi dovul
Va qinidan sapchigan botir xanjarisimon,
Haqlik da'vosin tutgan Tangriga peshlandi ul!
Bashar qalbi bahr olsin deya o'z quyoshidan,
Nihoyat yerda mangu qilsin deb haq tantana,
Yulqab oldi muqaddas toshni Olloh tojidan,
Tilin tagiga joylab ko'chdi yer sari yana!

Qushning izidan endi zulmatdagi jonsarak —
Yulduzlar ham uchdilar mahzun zamin tomonga!
Ammo yonmoqda edi orqada butun falak,
Quvlardi Qodir Xalloq olov ulab osmonga!

Qushni Somon yo‘liga etmoq istab zanjirband,
Sovuq sayyoralarni otar edi izidan!
Ammo uchar Samandar yolg‘iz bir ila band,
Uchar uzmay ko‘zini Ona yerning ko‘zidan!

Dahshatda qoldi Tangri, ne qilsin makkor yovni,
Kurashsiz tobe bo‘lgay kim ham aduv qo‘liga?!
Va... Borliq zamirida yotgan Mangu olovni
Olib otdi muzaffar Samandarning yo‘liga!
O sen, yig‘lama olam, ko‘rib qushning holini,
Axir u — Ruh, bir jahdi yer-osmonga barobar!
Lekin... yo‘qotib qo‘ydi Olov ichra yo‘lini,
Shu ko‘yi o‘t ichida qolib ketdi Samandar!

Xo‘sh, keyin nima dersiz?! Qaysi birin gapiray?!
Ne balolar kechmagan qiyin taqdiri haqning?!
Bul xusus ko‘p qissalar aytilgan-u paydar-pay,
Bizning zamonlarga ham yetishgan bitta naqli:
“O‘t ichida qolmishdir go‘yo shundan beri haq,
Haq deganda odamlar kirmishlar o‘t qa’riga!
Shu-shu yonar bo‘lmishdir Mangu olov muhaqqaq
Haqiqat deb ko‘z yumgan insonlarning qabrida!”

39

KALTA MINOR FARYODI

Bittagina edi orzusi ustaning:
Oddiygina minora qursa!
Yuksak bo‘lsa —
bulutlar suykalib o‘tadigan!
Rangin bo‘lsa —
ko‘klam
shunga qarab
o‘ylanib qoladigan!

Har bir pillapoyasida
umri esiga tushsa kishining!
Salobatli bo‘lsa —
qaraganda
Ko‘ngli o‘ssa odamlarning!
Xullas,
Usta xonga yolborib bordi.
“Bu — saltanatingizning ko‘rki bo‘lgay!”
“Avlodlarga sizni eslatib turgay!”

* * *

Ishlar boshlanib ketdi.
Minora —
kichkina odamniig katta orzusi.
Biroq hukmdor
qo‘li yetgan joydan emas,
oyog‘i yetgan joydan axtaradi
o‘z shuhratini!
Yana urush! Yana harb!

* * *

“Bari bir tiklayman!”
Qarindosh-urug‘ini chorladi.
Bir gaz.
Do‘st-yor, el-yurtni aytdi ko‘makka,
Maqsadini tushuntirdi.
Yana bir gaz...
“Bari bir tiklayman!”
Hech ilinji qolmagan edi endi.
“Tilanchilik qilaman... tiklayman!”
Yana bir gaz ko‘tarildi minora!
Yarmiga yetdi,
YARIM MINOR bo‘ldi!
“Bari bir tik...”
Biroq shu payt pastdan

dag‘al buyruq eshitildi.
“Hey, yig‘ishtir! Askar kerak xonga!”

* * *

Orqasiga qaray-qaray ketdi usta!
Qoqila-qoqila ketdi usta!
Yig‘lay-yig‘lay ketdi usta!
Orzusining yarmini olib ketdi usta!
Yarmini minor taxlit qoldirib ketdi usta!
Qayoqdaligini aytmay ketdi usta!
Shu ketgancha qaytmay ketdi usta!

* * *

Biroq xondek shafqatsiz emas-ku Tabiat!
Zamondek shafqatsiz emas-ku Tabiat!
U qudratli shamollarini ishga solib,
dunyo bo‘ylab oqquv bulutlarni yig‘di—
yashinlar bilan mixladi Yarim minorga!

Tabiat tongdan shomgacha quyoshning bor nurini
to‘ka boshladi Yarim minor ustiga...
Kun botgandan tong otgunga qadar
Sonsiz yulduzlarni qadadi Yarim minor ustiga...
Yalekin... zamon Yarimligicha qolaverdi minora!
Yarimligicha qolaverdi kichkina odamning katta orzusi,

* * *

Bugun Xivaga ming-minglab kishilar keladi
dunyoning har yog‘idan!
YARIM MINOR! YARIM ORZU!
Tobora ko‘proq,
ko‘proq kelmoqda odamlar!
Uni ko‘rganlarning o‘z Yarim minori paydo bo‘ladi endi!

XOTIMA O‘RNIDA

“Xo‘sh, bu yog‘i o‘ttiz to‘qqizta-ku, qirqqinchisi qani?” dersiz?! Qirqqinchisi sizga havola, muhtaram kitobxon. Xohlang, o‘zingiz to‘qing, xohlang eshitgan yo o‘qiganlaringizdan birortasini qo‘shib qo‘ying. Axir hayotda kishining hech bo‘lmaganda birgina o‘z afsonasi bo‘lishi kerak! Marhamat!

MING BIR YOG‘DU

Ma’rifiy doston yoki “Xamsa”dan bitiklar

Olam muttasil aylanib, o‘zini yangilab turibdi, lekin juda ko‘p savol va muammolari o‘sha-o‘sha.

Ulug‘ bobomiz o‘zining ulug‘vor ijodi — tariximizning, madaniyatimizning, jahon adabiyotining gultoji bo‘lgan buyuk “Xamsa”sida bu jumboqlarning deyarlik barchasiga aniq va lo‘nda javobni besh yuz yil burun tayyor qilib qo‘yibdi. Biz uchun yaratilgan bu asarga — bu nurli merosga qonuniy vorislik g‘ururi bilan qarashimiz zarur.

Ayrim bir kishi “Xamsa”ni to‘laligicha ilg‘ab-uyqab olishi qiyin. Bu ko‘pchilik mehnatini, uyg‘un idrokni talab qiladigan ish!

Har bir avlod bu borada o‘z faolligini ko‘rsatishi kerak.

Ushbu yodgorlikka murojaat qilar ekanman, mening maqsadim bitta: shavkatli bobomizning ming bir xislati — ming bir yog‘duli bu asarini tashviq-targ‘ib qilmoq va ilohiy iste’dod egasiga yana bir bor ta’zim qilmoqdir.

Muallif

BU OLIY FAZILATLI ODAM KIM?

Qayerdan tushyapti bu nur!
Kim qaratyapti uni ko‘zimizga?!
O‘h-ho‘! Bu najib ranglar-chi?!
Bu — avval tariximizdan xabar!
Bu — madaniyatimizning oyinayi jahonnomasi!
Vaqt o‘yinlaridan,
Zulmat dovonlaridan, Jaholat devorlaridan o‘tibon,
bizni topdi —
Peshonamizda aks etdi!
Yog‘du — bizniki!
Bir-birimizga yaxshiroq, yaqindan qaraylik:
Hammamiz shu yoqtilik elchilarimiz,
Hammamiz shu nur farzandlari!
Lekin... nega muncha begonasiraymiz?!
Nega muncha nifoq, nizo, nadomat, nola,
nosog‘lom nazar?
Toleimizda Nur borligini bilmaganimiz uchunmi?
Loqayd, johil g‘ofillik uchunmi?..
Keling, bu shafaq taramlari bo‘ylab ketaylik.
Qo‘lingizni bering, kaftingizni!
Inson panjasi — uning kichkina quyoshi!
Qay-u “Xamsa”kim, mahzani durri nob,
Qay-u panjakim, panjayi oftob!

YURAKLARNI YO‘LGA, YANGILIKKA UNDOVCHI

“Turtki”ning tub manbalari ne?!
Yurakning ilohiy nurga Intilishini,
Xohishni nima tug‘diradi?!
Bu — elning baxt, oliy maqsad sari intilishidan
paydo bo‘lgan qudratli ohanrabo!
Bu umrning o‘z mangu musiqasiga intilishi!
Gul atrini sabo shiddati mashhur etdi.
Harakat — qo‘rqinchni, hadikni yenguvchi!

Istabon, ey xasta Navoiy, navo,
Bo'yla safarga qilur ersang havo,
Yo'l yomonlig'u yaxshisidan yema g'am,
Bismilloh degil-u qo'yg'il qadam!

BARCHA ASRLAR MA'RIFATCHISI
yuragiga uning baytlari zarrabinidan
qarashga jur'at etdim:
Shu'laga intilganlarni tabriklayman!
Kitobni varaqlash hali hechdir!
Undan dona topmoq...
Boshqalarga buning xabarini bermoq ma'rifatdir.
O'tmishda o'zini shamga urgan parvona —
QAHRAMON edi!
Bugun nur parvonalari Jaholat,
Birqolipchilik, Yakkafikrchilik
va h.k.larning
Yaltiroq shishasiga urilib o'ladilar.
Olamni yoritgan quyosh,
har bir odam yuragiga ham ro'shnolik ber-da!
Bahor, olamni uyg'otding,
Uyg'oqlarning-da boshini sila, endi!
Ma'rifat — donolar ittifoqi!
Ka'baki, olamning o'lub qiblasi,
Qadri yo'q andoqki ko'ngul ka'basi.

ELDO'STLIK TARG'IBOTCHISI qat'iy:
Dunyo zabtiga har qanday intilish — zobitlik!
Eldo'stlik — o'z millating saxo nurlaridan
o'zga ellar ko'ziga, kaftiga surmoq!
Evaziga ham shuni kutmoq!
Dehlaviy, Nizomiy, Jomiy!
Ustozlar kalomida barcha millatlarga saboq bo'luvchi
kuch bor, xislat bor!

Yigirmanchi asrning barcha ustomon bosqinchilariga axloq darsi bilan bu bayt:
Bo'lmadi bir mulk sari kinaxoh,
Kim bu dog'i chekmadi ul yon sipoh!

ERKIN MUBOHASA, TENG MUSOBAQA TARAFDORI

o'z "Xamsa"sini olam madaniyatiga ko'zgu etdi:
"Xamsa" — o'zbek xalqining yuragi!
Bu — olamni o'zida aks ettirgan,
so'ng olamga shu'la yo'llagan oyina!
Boshqa millatlar hayotida yuz bergan
har bir chaqin, yolqindan
ruh oluvchi, yanada ravshan tortuvchi ko'zgu!
Ustoz o'z hamkasblarini, kelar shogirdlarini
o'z xalqi boshidagi tojni yanada porlatuvchi
durdonalar yaratishga chorlaydi:
Forsi el tapti chu xursandliq,
Turk dag'i topsa berumandliq...

SHOIR, O'Z ONA TILINING DONORI!

Shoir o'z jon so'zini merosdan,
tarixdan, o'tganlardan oladi.
Zamonaviy til sheva-lahjalaridan yig'adi –
Tiniq mezon, sezgir tarozu bilan o'lchab!
Harakatdagi olamni odam to'liq idrok etolmaydi,
uni so'z suvratlantirishi mumkin!
Falakdan shunday ochil so'z so'raki,
Uning nuri, qudrati
elga ulashganda zarra kamaymasin:
Rang kamoloti, ma'no mujassamligi,
Ishlatilish o'rni, maqsadi,
Yuki, uch-to'rt ma'noni sig'dira olishi, ishorat quvvati,
tarixiyligi, nafisligi...
Asrni ham, lahzani ham sig'dirishi...

So‘zimiz mavqeyi Ona tilimiz uchun mavqe!
Tengriki, insonni qilib ganji roz,
So‘z bila hayvondin anga imtiyoz.

ONA TILINI MILLATNING BOSH ILINJI BILGAN TILSHUNOS!

Iztiroblarimiz izhori, borligimiz timsoli,
kelajakdan umidimiz — Ona tilimiz!
Tog‘ salobatini tog‘ dovonlariga chiqqan biladi!
Gullarni bir-biridan mehrli odam farq eta olar!
O‘zga bog‘larning iforini elchi xabaridan
tuyib bo‘lmas!
Xalqning tili o‘z yeri, o‘lkasi tabiatining
ham tug‘indig‘i
Tabiati kambag‘allasha boshladimi, tiliga
ham ofat yaqin!
O‘zbekiston!
Ulug‘ daryolar, tog‘lar, qirlar,
bog‘-u o‘rmonlar, sahro-yu gulzorlar diyori!
Azal boy hayvonot va nabobot dunyosi!
Sening birgina gullaring nomini
to‘la sanay bilgan odamga ham ta’zim qilaman!
Besh yuz yil burunoq o‘zbek tilini buyuk bobom
jahon maqomiga chiqarib qo‘ydi-ku!
Bu tilda faxr va g‘urur bilan,
mukammal gaplashdi-ku! —
Boshqa tillarga ham ehtiromini izhor etgan holda!
Ibtidoiy an’analarni buzib, olam anjumanida
o‘z tilida bitdi-ku “Xamsa”ni!
Nazm biyik masnadida o‘lturib,
Olima nazm ahli tuman ming turib,
Bazmda shohona yasab soz-u barg,
Boshim uzra egri qo‘yub nimtark, (n - bosh kiyimi)
Turk surudi bila solib qo‘lum,
Qilsam anda: “Hay tulugim, hay tulum!”

TURON ZAMINNING SIPOHDORI

el dahosini ming bir buloq der!
Ming bir buloq — ming bir ko'zgu:
O'zi ne bir tashna lablarga obihayot.
O'zi ne-ne nafaslarning
tirikligiga guvoh, oyina.
Ko'zgu, mir'ot —
Haq oldida o'zlukni ko'rsatuvchi!
Xalq ertaklari,
Xalq qahramonlari,
Xalqning iztirobkashlari —
xalqning kelajakka yo'llagan najot elchilari!
Elim, besh kuningni emas,
Kurradagi besh qit'aga hamroz hayotingni o'yla!
Bu anjumanda, boq, birov oldda, birov ortda,
Birov chapda va ...
O'ngda turkinavoz urub doston,
Qo'zg'alib har navoda Turkiston!

OLIYQADR DURLAR IJODKORI, SHE'R HOMIYSI

she'rni tirik jondek ulug'lar!
So'zga baland mavqe beruvchi a'mol she'rdir!
Tilni tiniqlik tekshiruvidan o'tkazuvchi — she'rdir!
Nafosatni davr qog'ozlariga muhrlovchi ham!
Eng muqaddas dostonlarni
omon saqlab qolgan ham u!
She'r — qo'shiqqa — ma'no,
She'r — oshiqqa — hujjat!
Islom o'z Bosh kitobini
she'rda bitdi...
Necha zamonlar turkiy xalqning Bosh so'zi -
"Xamsa" misolida
Asosiy qonuni bo'lib keldi!
Nazm anga gulshanda ochilmog'lig'i,

Nasr qaro yerga sochilmog'lig'i
Bo'lmasa e'joz maqomida nazm, (e. - mo'jizakorlik)
Bo'lmas erdi Tangri kalomida nazm,
So'z aro yolg'on kabi yo'q nopisand,
Aylar aning nazmini dono pisand.

ILOHIY SEZGILARI UYG'OQ KISHI

olamning Katta sari ham, Kichik tomon ham
Cheksizligini anglar!
Har ikkalasini tan olgan kishi
Har ikkovini ham asrashga moyil bo'lar:
Daraxt
o'z bargchalari orqali gaplashadi Quyosh bilan!
Zamin bilan eng nozik tomirlari orqali!
Kim bu gulistonkim erur bu jahon,
Balki jahone gul ichida nihon.
Kim ulug'roq, anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq, anga shafqat kerak.

O'Z SIG'INCHI BOR ODAM!

Inson umrining bosh ma'nosi e'tiqodidir!
Iste'dod egasi!
Sen qo'riqxonaning tojdor turnasi bo'lma,
yurtingga bahor yo kuz xabarchisi bo'l...
Hayot e'tiqodli kishilar bilan ma'noli,
Yurt e'tiqodli kishilar bilan fayzli,
Quruq mansab, kunlik rizq, tama ko'yida qolganlar
O'z qorin davlatining elchilari, xolos...
Ro'zi chun muncha fusunsozliq,
(f. - nayrangbozlik)
Mansab uchun muncha dag'abozliq.
(d. - hiylakorlik)
Bul erur barcha yomondin yomon,
Kimki yo'q andin yomon, andin yomon.

OTA BILAN ONANING JONKUYARI

o‘z farzandlik burchini, oila boshliqlariga hurmatini
Yurtiga bo‘lgan mehr bilan bog‘laydi.
Bunda uzilish bo‘lsa,
unda buzilish yuz berar.
Buni o‘zingga ogoh maqomi qil.
Kelar avlodingning, xalqingning
omon va muqaddas qolishingning ushbu
oltin qoidalarini bajarmoqqa unna:
Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.
Lekki jahoning‘a tilarsan fizo,
Hosil et ushbu ikkisidin rizo.
Tun-kuningga aylagali nur fosh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.

MUHABBATNING BEDOR KUYCHISI

o‘z afsungar tili bilan e’tirof etadi:
Parvoz shahdini unga Ishq bergan!
“Xamsa”ning birinchi muallifi ham muhabbatdir!
Olis visol, yonma-yon hijron —
sevgining abadiy suvratlari.
Qodirlik tuyg‘usi ham muhabbatdan!
Balki bu olamning ijodkori,
muallifi ham Ishqdir!
Bo‘lmasa ishq, ikki jahon bo‘lmasun,
Ikki jahon demaki jon bo‘lmasun.
Ishq ul tanki, aning joni yo‘q,
Husnni netsun kishikim oni yo‘q...

OSHIQLAR SARDORI

Majnunni o‘zidan qiyos — kuylaydi.
Farhodni o‘zidan qiyos — ulug‘laydi.
Bahromni ham o‘zidan qiyos — ta’riflaydi.

Dunyo xalqlarining
jami qahramon oshiqlari
bir bayroq ostiga yig‘ilsa,
yaxshi qo‘shin bo‘lar edi
dunyoni yangilash uchun!
Oshiq oni bilki, erur dardnok,
Ham tili, ham ko‘zi-yu ham ko‘ngli pok.
Kim bu sifat ishqda mag‘lub erur,
Har neki andin kelur, ul xo‘b erur.

ZAMON MUAMMOLARIDAN LOL ZOT:
Charxning kaj o‘yinlariga inoq jamoat bilan,
Turmush ko‘z boyloviga yor-u vafodor bilan,
Davron dami-taaddisiga hushyor hamkasaba bilan,
bas kelish, javob berish mumkin!
Tengquringning, shogirdingning
Yoki ustozingning yangi bir ishidan:
“Ko‘nglum aro dag‘dag‘a soldi havas!”
“O‘zni biyiklar ipiga bog‘ladim!” —
deb xitob qila olmoq na baxt!
Savr-u gul-u lola xaridori bor,
Lek, o‘tunning dog‘i bozori bor,
Fard kishi davrda topmas navo, (f. - yolg‘iz)
Yolg‘uz og‘ochdan kim topmish navo?!

TO‘G‘RI SO‘Z MIRZA,
TIK QALAM KOTIB:
Kim aytdi, mundin so‘ng donolar izzatda,
johillar xor yashaydi, deb!
Kim aytdi — ixtironi hamma shod kutaman, deb!
Kim aytdi — adolatparvar endi omonlik ko‘rar, deb!
Boshingga nimalar keladi-yu, boshing nimadan ketadi,
bil!
Podsholarning “rost” so‘zini taftish eta ko‘r-chi?!

Xonumoning taftishga tushadi, joning...
Ul kishikim tuzluk erur shon anga, (t. - to‘g‘rilik)
Dushman erur gardishi davron anga.
Kimki bu davronda qilur rostliq,
Yo‘qdir ishi g‘ayri kam-u kostliq. (k. - nuqson)

O‘ZLIGINI, KAYFIYATINI AYON ETA BILGAN KISHI

Imkon, Erk, Burch huquqini talab etadi.
Mola odamlar boshini emas,
Urug‘lar tushadigan maydonni tekislasin!
O‘zni ko‘rsatish imkoni
hammaga teng berilsin!
Lekin o‘zini ko‘rsatganlarning imkoni
hamma bilan baravar qilib qo‘yilmasin-da!
Zamon dehqoniga haqiqat urug‘ini ekishga
va uning mevasini olishga ko‘mak ber!
Molasiz, ul tuxmki, dehqon sochar,
Suvni teng ichmas, necha yakson ichar.
Necha zarurat ichra qolg‘on chog‘i,
Chin demas ersang, dema yolg‘on dog‘i.

ILMSIZLARDAN ZOR CHEKKAN ALLOMA

aytadilarki,
Zamon teskari evrilgan zamonda
Ilmlik o‘z boshiga,
ilmsizlar el boshiga kulfatlar soladi.
Chala olimlar ul-bul bilganlarini ham
johil sardorlar xizmatiga qo‘yadilar.
Yoshlar ilmga mehrsiz,
Dunyo shundoq qurilgan ekan-da, derlar.
Zulm durar ushbuki bir notavon
Ilm tilab, shahridin o‘lsa ravon.

Bo'yla g'am-u mehnatki davron chekib,
O'n-u o'n besh yil yugurib, jon chekib,
Ilmni kim vositayi joh etar, (j. - martaba)
O'zini-yu xalqini gumroh etar.

ILM-U AMAL TARAFDORI

bu ne'matlar uyg'unligini yoqlaydi.
Chin olim boshqalar xayol etmagan joylarda
saxo va imkon eshiklarini ko'ra oladi.
Ochish, kirish — odamlarga havola!
Qog'ozga yozilgani emas,
aqlga bitilib, amalni —
yurakni junbushga solgani — ilm!
Olim agar qatiy amal aylasa,
Ilmig'a shoyista amal aylasa,
Oni sharaf gavharining koni bil,
Gavhar-u kon, har ne desang, oni bil.

MA'NAVIYATDA OLIY MARTABALI INSON

Martaba egalarini ma'naviyat shior etishga chaqirdi.
Saroy pinjida buyruq bajaradigan yirtqichlarga emas
ahli donish, ahli zakovatga joy bo'lsin!
(Iskandar maqomini qo'llab).
Ammo ko'p zamonlar buning aksi evrila berdi.
Oqibat el, bir kun, bir oy emas,
Asrlar farovonlig' topmay o'ta berdi.
Razlg'a rif'at, bilim ahlig'a ranj.
(rif'at — yuksak martaba).
Tog' uzra xoro-vu yer ostida ganj.
Koshki, bog'ir yormoq o'lub kom anga,
Shoh iligi ustida fom anga. (f. - ko'rinish).

QILNI QIRQ YORGAN KISHI

bir hikmat aytsa,
qirq ma'no chiqaradi.
Ammo biron-bir usulni, tajribani
O'zgalar izohi bilan takrorlab,
Bilimdonlik da'vo qilganlar qancha!
Ovloqda yotgan tosh yozuvni cho'pon har kun ko'rar.
Ammo shu toshda, xuddi shu toshda o'zini,
elini, olamni halokatdan saqlab qoluvchi
sirli kashfiyot bitilganiga ishi bo'lmas!
Ammo aybli narsani ko'rishga ko'pchilik usta.
Ayb ko'zi chunki bo'lur tez bin,
Zahr ko'rar, garchi erur angubin. (a. - asal).

OLAMSHUMUL IDROK EGASI

o'z maslakdoshlari sha'nini yuksak tutadi.
Ilm — tabiatning insonga eng oliy ehsoni,
bu ehson unga falakka tikilmoqqa jur'at berdi.
yerni o'rganmoqqa rag'bat,
Kelajakni o'ylashga surur ato etdi.
Olimlar — jamiyat umidi, tayanchi, xazinasi...
Ahli donishga tosh otuvchilar kimlar?
Boy amaldor bilan olim hammomda uchrashdilar.
Boy olimga piching otdi:
"Hammomda hamma teng!"
Olim: "Sening boyliging tashqarida qoldi,
meniki o'zim bilan!.."
Kimki falak sari otar toshini,
Tosh ila ozurda qilar boshini.

DAVLAT ISHLARIDAN XABARDOR ZOT

muassasalar amaldorlari kirdikorlaridan
riyozat chekadi, ko'ngli ozurda, qo'li ishdan sovugan.
A'yonlarni shoh "saylagach",

amaldor-u ijrochilarni a'yonlar "saylagach",
bular, o'z navbatida, zulm uchun
xalqni "saylagach",
xalq nimani saylaydi?!
Avval erur kotibi dorul qazo, (d.q. - qozixona)
Ish anga nosha'rig'a bermak rizo.
So'ngg'isi muftiyi hiyal pesha bil. (h. - hiylalar)
Hiyla bila makr anga andesha bil.

QO'SHIB YOZISHLARNING DUSHMANI (1484-yilda)

bu jinoyatlar bari bechora xalq hisobidan,
mehnatchi sho'rlik ulushidan bo'layotganini aytadi.
Qo'shib yozishning ustalari xazinadan bir ne
undirmoq uchun,
Iso payg'ambar ustidan ham "qo'shib" yozdi:
"To'qqiz harami — to'qqiz xotini bor!"
Aslida ul bechoraning uylanmay o'tganini el biladi.
Do'stga shah molini sotib nuhuft, (n. - berkitib)
Barcha o'n oltunni bir oltung'a muft, (m. - tekin)
Sarxat etib birga besh-u o'n raqam,
Kim haq oning ilgini qilg'ay qalam!
(Bu yerda: qo'li qalamdek kesilsin!)

HAMMA NARSA INSON UCHUN DEGAN

shiorni o'rta asrdayoq bayroq etgan shoir!
G'amgin majnuntoldan kuy,
Kipriklar suzilishidan g'azal,
Buloq so'qmog'idan doston uqa olgan shoir!
Hamma narsa inson uchun!
Urush, qirg'in, fitna, qurol, g'azab, kin,
bosqinchilar...
Yer peshonasidan sidirib tashlang bu g'uborlarni...
Inson yashay olishi mumkin bo'lgan

bo‘lak sayyora bormi osmonda ko‘z-xayol
ilg‘aydigan joylarda! Yo‘q!
Yer — yolg‘iz!
Odam nega bu yolg‘izlikni tan olishni istamaydi?!
Qutqarishidan umid qiladimi
kimningdir osmondan tushib!
Umid yo‘q! Yo‘q! Yo‘q!
Faqat shu yer berilgan inson uchun!
Faqat shu yer berilgan inson uchun! Vassalom!
Bul chaman o‘lmog‘ida mavjud anga,
Bor edi INSON GULI maqsud anga.
Ma’dani inson guhari so‘z durur,
Gulshani odam samari so‘z durur!

XALQI TAQDIRINI O‘YLAGAN INSON

o‘tmish zamonlarda
payg‘ambar, vali nisbalari ila ulug‘langan!
O‘zining shaxsiy orom-u nash’asi uchun,
Yaqinlarining manfaati uchun,
kelgindi-bosqinchi hukmdorlarga oy ko‘rinish uchun
ozmi o‘z xalqini azob-uqubatlarga,
kamsitish va tahqirlarga,
tazyiq va cheklovlarga chidashga, chidashga
ming usul bilan majbut etganlar!
Ozmi?! Ozmi?! Ozmi?!
Har millat o‘z yerida, o‘zi xohlagan,
qulay va qoyim bo‘lgan,
bola-chaqasiga ham
meros, qonun-qoida qilib qoldirishi mumkin bo‘lgan
Hayot, Sharoit, Tuzum, Tartibni
Tanlashga, O‘rnatishga va Yashashga Haqli!
“Xalqim!” deb g‘urur bilan xitob qila olgan har kim,
“Xalqim!” deb yig‘lay ham bila olsin.
Xalqiga shu jihatdan yordamchi,
Odami, farzandi, vorisi bo‘lmog‘i kerak!

Ammo "Xalqim, millatim", deb, amalda biron ish
qilmaganlar — ahli odam emas,
u bir qop go'sht, suyak,
o'ziniyam, xalqiniyam istagan itga talatadi.
Odamiy ersang, demagil odami,
Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami!

FALAK YANGILANISHLARI
MUBOSHIRI
Charx aylanishida bir adolat boridan
dalolat berar,
yaxshi-yomon tomonlarini farqlash bizda qolgan:
Nega tabiat hamma narsani almashinishga majbur
etadi?!
Nega goh kunni osmonga ko'taradi, goh tunni?
Nega to'rt faslni, yilni, asrni
muttasil yangilaydi, qayta quradi?
Dengizni bulutdan elab yangilaydi?
Odamni farzandlari qonidan
g'alvirak qilib yangilaydi?
Tugun ochadi — yangi tugunni ko'rsatish uchun!
Shu ulug' harakatning ongli ishtirokchisi,
odam, tushun,
nega ufq ikki joyidan tugun: Shom va Tong!
Ko'rmak ila fahm qilur barcha el,
Kim nega bog'labdur ikki yerda bel?
Qani jahon dovari Chingizxon,
Qani jahon xoni Temur Ko'ragon?

SHOHONA SIFATLAR EGASI —
kamtarlikning quli.
Go'yo hech kimga e'tiroz aytolmasday...
Ammo qo'shin-yaroq yig'moqdan tinmay,
o'zgalar yeriga to'ymas nazar bilan boqib,

mayda-kichik xalqlarni
ming nayrang bilan toptab, chegarasiga olib,
pinjidan chiqarmay, zulukdek so‘rgan
to‘ymas bosqinchilarga nafrati benihoya cheksiz!
Iskandarning so‘nggi, foje soatlarining tasviri:
U o‘zi zabt etgan yerlaridan tez ketdi —
tobutdan bitta bo‘sh qo‘lini chiqarib, namoyishkorona:
Jismida jon yo‘q, bu makondin borur,
Xoli ilik birla jahondin borur. (x. i. — bo‘sh qo‘l)
Kimki, jahon mulki havasdir, anga
Ushbu ilik tajriba basdir anga!

HALOL IMON, HUSHYOR AQL EGASI

Mayxo‘r-ichkilikbozliklardan nafratlanadi.
Jaholat va g‘aflat balchig‘iga botgan bu siyoqlar
pokdomon kishilarga taxirlik qilib suykansalar,
pokiza buloqlarga cho‘chqalar kelib tumshuq tiqqandek,
jirkanadi!
Badtarin mastlikka tushgan
Kajta’b bir shoirning ko‘ziga esa
O‘zining bema’ni va mujmal barcha aytimlari
Sehr dunyosi bo‘lib ko‘rinadi.
Mast-u dovdir oshiqning ko‘ziga zolning qizi —
hurliqo!
Baxtsiz ota kayfda o‘z o‘g‘lini o‘ldirib shodlanadi.
Bodaga ko‘rguzsa kishi xiraliq,
Aql chirog‘iga berur tiraliq. (t. - qorayish)
Buki mayi jahl ichasen behisob,
Bo‘lg‘usi bir kun senga bu ehtisob. (e. — hisob-kitob)

ODIL SO‘Z, O‘TKIR KATXUDO

dashnom beradi:
Ey, o‘z holingni bilmay, kattaliq qiluvchi kimsa!
Ey, tinmay shoh nomidan so‘zlovchi takabbur to‘ra!

Tegrangga xushomadgo'y,
ta'magir shaxslarni to'plab,
mansab, obro', e'tibor talab qilasan el-u davlatdan!
Bu mukofotni hech tuzuk zamonda na shoh
na davlat beradi.
Bu — tegishli ulush yo haq emas,
bu — har kimga el beradigan ma'naviy baho-ku!
Xosaki bir johili duni taboh, (d.t. — past, buzuq)
Jahd-u jid etgay talab o'ziga joh. (joh - mansab)
Necha lavand oldida barcha najis, (l. — yalqov, n. - iflos)
Birida ne aql-u ne idrok-u his.
Eyki xarob etti takabbur seni,
Soldi takabburga tasavvur seni.
Arzi hunar bo'lsa yigitlar ishi,
Qilsa a'yon o'z hunarin har kishi!

DONISHMAND MUALLIM

suyukli shogirdlariga umrning bahori va kuzi-yu
bular orasidagi shiddatli farqni o'qitadi:
Ey, kuzda yalang'och asirdek diydirab turgan daraxt,
sen emasmiding bahorda
gullar sachratgan yashil mushakboz?!

Sen emasmiding bebaho g'unchalaringni
keldi-ketdi yellar yo'liga shoshilib ochgan?!
Na tong bayroq ko'tarsa safga turding,
na jon halak shomning holidan xabar topding...
Yigitlik degan nodir in'omga
Shu bo'ldimi topgan javobing?!
Kimki yigitlikda sarafrozdir, (s.- baland, shod)
Buki boshin yerga qo'yar ozdir.
Andaki qilmoq kerak ish, qilmadim,
Ish qila olmas kunini bilmadim.
Ohki umr o'tdi jaholat bila,
Qoldim o'lum vaqti xijolat bila.

Vaqt kam-u, yo'l uzun-u may achchig',
Asru qatig' hol yetibdur, qatig'... (a. - g'oyat)

INTIZOM UYINING OLIY TABIATLI OG'ASI

aql egasini ham, tiyiqsiz hislar jinnisini ham,
kuch egasini ham, huquqli amaldorlarni ham
ogoh etadi:
Qilma ulus irz-u iyoliga qasd, (i. i. — nomus, oila)
Aylama el joniy-u molig'a qasd.

YURTI BILAN FAXR ETUVCHI BOG'BON

o'z shahrining gullarini shuncha ta'riflar:
Gullari nav'ini ne de — oncha gul,
Oncha ne gulki sanay olg'oncha gul...
Sahnida bir gul chiqorib bir yig'och,
Har gulning atri borib bir yig'och...

ADOLAT MARTABALI HAKAM

Shodlik mavqesining yuz qoidasi bor,
shulardan birinchisi Adolat!
Adolat shohning ko'ngliga kirsagina
Elning ichiga kira oladi.
Shoh "Adolat!" deb bir aytsa,
Eldan ellik aks-sado "Sadoqat!" bo'ladi.
Adlning bir qoidasiga
amal etmak
dinning yuz qoidasini bajargandan afzal:
Buki erur adlg'a andin baland,
Din dog'i yuz qoidayi dilpisand.
Adl ila olam yuzin obod qil,
Xulq ila olam elini shod qil.

XALQPARVAR SIYMO
xo'rlangan bir bechoraning
arzi bayoni cho'zilganini ayb bilmaydi:
Arzni sabr bilan tinglamaganning aqli qisqa!
Barchani teng tutishning qoidasi boshqa,
yaxshi-yomonga teng qarashning ma'nosi bo'lak!
O'lgan birovni qayg'urish
o'zgalarni o'ldirish hisobiga bo'lmasin!
Yaxshi-yomonga chu teng o'ldi karam,
Bo'ldi yomonga ko'p-u yaxshig'a kam.

BEKORCHI MASHVARAT — MAJLIS, UZUN VA'ZXONLIKLAR YOVI
davrada bahs, qarama-qarshi fikrni
ochiq mubohasani yomon demaydi.
Cho'zilib ketganini ayblaydi, samarasizligini,
Bundan elga ne natija deb o'ylaydi.
Bo'lma ma'lul, o'lsa kengashda talosh,
Asru uzun dog'i kerakmas kengash.

OSHKORALIK, ERKIN FIKRLASH TARAFDORI
Shohlarni o'z fikrlariga el fikrini solishtirib ko'rib,
So'ng hukm chiqarishga chaqiradi!
Aksi bo'lsa, elning tiliga, diliga,
erkiga, qo'liga kishan tushgani.
Odam bitta ota-onaning farzandi,
Lekin u umrida o'nlab shohlarni ko'rar?!
Ammo shoh ham, fuqaro ham el farzandi-ku?!
El farzandi bo'lish —
elning orzularini o'ziga padar qilish!
Aylama o'z ra'yingga ko'p e'tiqod,
Mu'tamad ra'yidin ista kushod. (m. - ishonch)
Shohki ra'yini ko'p etti pisand,
Ra'y ko'rar el tiliga soldi band.

DAVLATNING, ELNING NAZARIDA BO‘LGAN KISHI

o‘z “men”ini nima qilishi kerak?
Boshni ko‘tarsa — kibrga do‘nsa,
egsa — xokisorlikka ketsa.
“Ulchaki...” bo‘lgani durustmi?
Ulchaki “men-men” desam yaxshiroq,
Yaxshilar o‘lsun bu yomonlikdan yiroq.

BUYUK “IMKON”LAR EGASI

buncha ilojsiz:
Davlat xizmatida turgan ijodkorning —
san’atkorning holini kim so‘raydi?!
Uning imtiyozi imkon izlashida ekan, xolos.
“Oh, mening holima yuz qatla oh...
Hamma undan umid tilab keladi, yordam, adolat...
Ilhom qushi qo‘nmog‘iga qani tinchlik, orom, sukut?
Ilhom bilan baravar arzchi ham eshik ochsa...”
Ayturig‘a chunki qo‘yuldi ko‘ngul,
Aytmay o‘n bayt tutildi ko‘ngul.
Kim, bor edi boshima ko‘p mehnatim,
Yo‘q edi bosh qoshig‘ali fursatim.
Birdam ulus mehnatidin kom yo‘q,
Bir nafas el javridin orom yo‘q.
Go‘shayi xilvat aro aylab nishast,
Ta’bni qilsam edi fikratparast...

IXTIROLAR OSHUFTASI

bu yolqinli hayajonni qaydin olar?
Ko‘ngliga ilhom dag‘dag‘asini,
Bu buyuk dostonlarga ibtidoni kim berdi?
Shuncha tirik rangni bir kamalakka yig‘gan kim?
Kim bu cheksiz iztiroblarning navosozi?
Xo‘sh, anavi toshbag‘irlarning me’mori kim?

Ko‘zdan yumalagan durlarning ustasi-chi?
Bu dilkash navoning uzilmasligi nedin?
Bular borini paydo aylagan ishq!
Birin ul birga shaydo aylagan ishq!

YURTNING KATTASI

kichiklar dardidan goh yig‘lay biladi,
Boqiy g‘oyalar taajjub nazardan tug‘ilgan!
Kattada kichikni ko‘rgan
kichikda kattani ko‘ra oladi.
Sen pisandlisan:
birovlar dilidagi kichik dardi bo̧ta’sir
Sening katta darding birovlar uchun garchi nopisand!
Ya’ni, har bir xalq jahonda o‘z haqini bilsin,
Shuningdek, har bir farzandini ham himoya qilsin.
Sening borliging qa-yu kimga yoqmas,
lekin seni istovchi minglar bor!
Ki har ne olamda sug‘roda mavjud. (s. — eng kichik)
Bori bu olamda kubroda mavjud... (k. — eng katta)
Yana bir buki hech ish hodis o‘lmas,
Birovgakim anga bir bois o‘lmas.

JUR’AT QUSH SOLUVCHISI

buncha ilhomni, qudratni qaydin oldi?!
Faqat yaxshi niyatdanmi?
Ulug‘ muddaoni ulkan himmat tug‘maydimi?
Himmatlilik baxtini kim berdi?
Toza lafz, toza andoza, toza nazar, toza vijdon!
Hamma zamonlardagi — hamma joylardagi
qora kuchlarga
oq sahifa yuzidan
muzaffar o‘qlar ota bilish shundan!
Hanuz etmay qalam yozmoqni odat.
Eshikdan kirdi iqbol-u saodat!

Falak yanglig‘ biyik himmat bu bo‘lg‘ay,
Quyosh yanglig‘ arig‘ niyat bu bo‘lg‘ay.
Biyiklik keldi himmatdan nishona,
Ki himmatsizni past etdi zamona.

BARCHA ZAMONLARNING NOTIG‘I

tarixdan, barhayot yuraklardan, bugundan
o‘z yangi so‘zini — dadil so‘zini topadi:
So‘zning kuzgi oltin yaproqdek havoda chiroyli uchib,
axiran yerga — xazon uyumiga qo‘shilgan emas,
Hechsa, xivichdek, havo kesib,
o‘tga tashlasalar ham charsillab
uchqunlar otgani chiroyli!
Topilg‘ay shoyad andog‘ bir necha so‘z,
So‘z ayturga elga ul yon tushmagan ko‘z.
Ani nazm etki tarhing toza bo‘lg‘ay,
Ulusqa mayli beandoza bo‘lg‘ay.
Agar tuproq tutsang bo‘lsun oltun,
Oqizsang qatrayi xay durri maknun. (x. — tomchi ter)
(d.m. — noyob dur)

ULUG‘ XONADONNING PADARI BUZRUKVORI

hukmda qat’iy:
Uy to‘shagiga boshqalar oyoq qo‘ymasin!
Yurt gulshanini begonalar bosqilamasin!
O‘z xonadoningga, xalqingga
to‘p-to‘p sog‘lom farzandlar meros qoldir!
Kelajaging — yurting egasiz qolmasin!
Xumda o‘n ikki ming yil qolib ketgan don
topib ekilganda,
yana yashillik ko‘kka bo‘y cho‘zdi, boshoq tugdi...
Kishi gar qilsa ming yil podsholiq,
Jahon mulkiga aylab kadxudoliq,

Chu tortar oqibat jomi fanoni,
Borur dam fahm etar bir damcha oni:
Ne chakkay ko'kka boshin tojdori,
Yo'q ersa bir dur andin yodgori.
Bu o'tlug'din erur bag'rimda dog'im
Qurutmasin debon davron o'chog'im.

BOLAJONLI OTA
Farzandining Farhoddek yetuk-komil,
uyning qalqoni, elning qo'rg'oni bo'lishini istar!
Bu bog'da begona daraxt yo'q.
Farzandlar kamoli — el kamoli!
Ziyrak va tadbirkor bog'bon
har bir niholning holidin
yetmish ikki marta xabardor,
uning har bir kurtak, har bargidagi o'zgarish —
bog'ning kelajagidan bir xabardir:
Ne ishkim charx etar izhorin aning
Burunroq ko'rguzar osorin aning.
"Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqirini kasb etmagan ilm.
Demonkim ko'ngli pok-u ham ko'zi pok,
Tili pok-u, so'zi pok-u, o'zi pok" .

KASHFIYOTCHILAR PIRI har bir fasldan, —
uning rangi va holatidan,
kelish tarzidan ta'sirlanishi, sirlanishi bor!
Chunki har yurakda
butrama bahor, nag'masoz yoz, ko'z yordi kuz,
tosh qotdi qish
fasllariga tegishli ayrim xos kalit bor.
Inson goh unisi, goh bunisi bilan
sir ochay deb ovunadi.
Hayrat, umid xazinasini topadi:

Havo dog'i bulutdin kiydi sinjob,
Bulut dog'i havog'a sochdi simob,
Qamar sarchashmasi har tun to'ngub muz,
Muz o'lg'on qatralar girdida yulduz.
Muz aylab yer yuzin oyina oyin,
G'alat qildim degil, oyinayi chin.

SALTANAT JONKUYARI
ikki narsaning tashvishini chekadi:
fuqaroning fikrini chetlab,
zulmkorga amal berilsa yoki
ishboshi olim bo'lsa-yu,
johillar undan zarra seskanmasalar...
Shoh — odamlar boshiga mushkul masalalar qo'yuvchi emas,
odamlar mushkulini masala kabi oson yechuvchidir.
Ikki holat kulgili:
Kitobning bahosini bilmaydigan shoh
olimlik da'vo qilsa;
Birmi- ikki kishiga ham ish buyurolmaydigan olim —
taxtga intilsa...
Bilimlar olimning jahlini sezsin!
Zolimlar shohning qahrini bilsin!
Agar zolimga yo'qdir shohdin bok, (b. - qo'rquv)
Erur ul xushdil-u, mazlum g'amnok.
Ne sud, ar ilm aro fardi zamondir,
Chu jahl ag'lig'a biymidin amondur. (b. - xavf)

DONISHMAND QARIYA ogoh etadi:
Tabiat umrning har fasliga muayyan vazifalar beradi,
umr shu hikmatlari tufayli qaytarilmasdir.
Ne so'z, eng baland shoxlardagi mevalarni
kuching borida tepasiga chiqib yeysan,
qariganingda qo'ling yetgan shoxlarni paypaslaysan.

Umr pillapoyalariga bepisand har sa'yi harakat —
kulgili.
Havas bo'lsa qarig'a navjuvonliq,
Xijolat zohir aylar sargironliq.

MUNOSIB VORISLAR TARBIYALAGAN
OTA uchun
vasiyat —
farzandga otaning umr oxirida
aytadigan so'zi emas!
Bu — otaning unga o'zi ko'rguzgan
Umr namunasi, hayot tajribasi.
Nihol bitta parvarishingga
O'n yaprog'i o'sib javob bersa, ne baxt?!
Atokim sen kabi farzandi bo'lg'ay,
O'lum vaqti yetishgach g'am yegaymu,
Agarchi o'lsa ham o'ldum degaymu?!

SAXOVATLI YURAK
Saho tarqatishi oqibatida so'nadimi? Yo'q!
Olov — uchqun sochgani sayin porloq —
sachrab kuygan har bir uchqun o'rnida
yonishga yangi nuqta ochiladi, imkon paydo bo'ladi.
O'tkir ko'z aldamaydi — o'tmas idrok aldaydi.
Kichiklarga kichikdir umr asosi,
Ulug'larga ulug'roqdir qiyosi.

HIKMAT XAZINABONI
o'z farzandini hayot va tarix g'aroyibotlaridan ogoh etadi.
Lekin aslo qo'rqutib, favqulodda
intilish, fikr, xayol yo'lini yopib qo'ymaydi.
Baxtli otaning umri

yaxshi farzandi ila elda obro‘li, davomli,
Lekin ota bu eski sandiqning — dunyoning
ham umid, ham tahlika manbai ekanligini aytsin:
— Ki bu sanduq sirrin kimsa bilmas,
Kalidi yo‘qturur, qulfi ochilmas.
Ani ko‘rdung, bilurning fikridin kech,
Ki biz ham ko‘rduk, ammo bilmaduk hech.
— Dedi: — Har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.
Olib boshim, demay obod ila cho‘l,
Ham ul maqsad sari tutqumdurur yo‘l.

DILDO‘ST, NASIHATGO‘Y.
Uning qisqa va ruboiy so‘zi
zamonlarni uzaytiradi.
Tegrasida odil maslahatchilari borlar —
o‘lim qarshisida ham ilinji bor kishilar!
Maslahat berishdan qochgan bilimli odam —
g‘arazli odam.
Bittaning yoki mingtaning nafi uchun qilinadigan
nasihat bor.
Undovchi nasihat, qaytaruvchi nasihat,
bilib-bilmay, vaqti-bevaqt qilingan “nasihat”...
Odamiga qarab,
foydasini o‘ylab qilingan nasihatlar...
Nechuk bilmay degay so‘z ahli hikmat,
Xususan so‘rsa oni ahli davlat.
Ko‘ngul dardig‘a darmondur nasihat,
Qiloli ulcha imkondur nasihat.

MING XIL BOSQINNI KO‘RGAN SAYYOH
bosqinchilarning hamma toifasidan nafratlanadi!
Jami ezilgan xalqlar nafrati ularga bo‘lsin!
Barchasining quyoshi zanglasin, daryosi chirisin!

Bir yurtga boshqa yurtning qo'shini, odamlari
faqat ofatdan xalos etishgagina kirsin!
Unga yordam berib, qaytib chiqib ketsin!
Yerini qo'lidan chiqarmay yeb yotish uyoqda tursin,
millatning tili, dini,
odatlari, ko'nglini buzish ham bosqinchilikdir!
Bitta odamning erki deb
necha xalqlar kurashayotgan paytda,
asoratda qolgan kichik bir xalqni ko'ra-bila
jim qolish — jinoyatdir yoki jinoyatchilarga
sheriklikdir.
Iskandar yurishlaridan ibrat olsinlar:
Emas erdi mamolik fathi maqsud, (m. - mamlakat)
Erur erdi maholik fathi maqsud. (m. — ofatli joylar)

YANGILANISH TASHABBUSKORI
o'z ruhini yangilashdan tinmaydi.
Bu mashg'ulotdan tinmoq — orzudan,
hayotdan ixtiyoriy voz kechmak!
Yangilanish — atrofga o'zgacha boqishdan,
muddao yo'lni qayta ko'zdan kechirishdan boshlanar.
Har bir narsani e'tiroz, shubha, inkor
elagidan o'tkazib olmoq ham zarar qilmas!
O'tguvchi yilning ustiga qish bekorga oq yopmas!
Falakda kun bilan tun tenglashgan kunni
Xalqimiz Navro'z deb bejiz bayram qiladimi?
Yana Farhod kiydi ish libosin,
Boshida toza aylab muddaosin.

TABIAT VA MUHIT SOATSOZI biladi:
Olam harakatida bejiz va bevazifa narsa —
unsur yo'q.
Tiriklik soati to'xtamasligi uchun
Inson bu ulug' harakatni idrok va

unda ishtirok etmog‘i kerak.
Hatto qorong‘u g‘ordagi yoqimsiz o‘rgumchak ham
balki, osmondanmi-yerdanmi,
yaqinlashib kelayotgan hodisaning
xabarchisi bo‘lib chiqishi mumkin!
Lekin boshqa bir g‘orda
o‘zini arbob-alloma sanagan bir o‘rgumchak
shogirdlarini, pashshalardek,
yaxshilik dasturxonini xira qilishga undaydi...
Bo‘lub g‘orida har dun ankabuti, (d. — past, nokas)
Bir usturlobi gardun ankabuti.

BARCHA ZAMONLARNING SUQROTI

o‘tgan barcha zamonlarda o‘z ustozlari
kelar zamonlarda shogirdlari borligini biladi.
Dil uchun Adolat qayg‘usidan o‘tkir qayg‘u,
Xayol uchun Adolat fikridan yuksakroq parvoz,
Umr uchun Adolat jangidan ko‘ra ulug‘ ma’no yo‘q!
Adolat izlab keldingmi, xush kelibsan!
Modomiki, bugun umrning bir kuni o‘tdi.
Bu kun Adolat izlaganlarga qiyin bo‘lmayaptimi?
Muni bilkim, jahon foniydir asru,
Haqiqat ahli zindonidur asru.
Safo kelturdingmu xush kelding oxir,
Qorong‘u uyni ravshan qilding oxir.

ISHNING KO‘ZINI, VAQTNING SIRINI BILGAN MO‘JIZAKOR

Goh fursatdan, Zamondan ilgari ketadi,
Goh davrdan ham yuksala oladi.
Qani barcha go‘zalliklar
O‘zlarini himoya qilabilsalar deydi,
Na boshi va na oxiri ko‘rinadigan

yumush bilan band bechoralarni ko‘rib,
indamay keta olmaydi.
Yuragida nido, isyon portlaydi!
Na quvonch, na umid, na ilhom bermagan mehnatni
e’tirozsiz qabul qilaberuvchi kimsa quldur!
Shundan ish buyuruvchi unga harna zulm qilishga
mayli.
Haqiqatdan xabarsiz kimsalar,
riyo luqmasidan “qorin to‘q” -
so‘ksiz ham o‘ksiz
kun beraberadilar.
Ammo bezovta qalb unday ahvolga chiday olmaydi:
Bu mehnatkim, chekarsiz rozin ayting,
Ham ul anjom ila og‘ozin ayting,
Ki nevchundur bu ranj-u ibtidongiz,
Qachonlardir falakdin bu balongiz?!
Ko‘rib sizni tutun boshimg‘a oshti,
Tutun nekim, ichimga o‘t tutoshti...

ISHQ MA’BUDIGA TOPINGUVCHI

ishq o‘tini himoya etishga chorlaydi!
Oshiq yurak — bexos yashin tekkan g‘aram emas.
Dovdir shamol uni har yon sochmasin!
Bu olovni butun olam ko‘rishi shart emas.
Uning yolqini sevikligining yuragiga tushsa bas!
Endi bu o‘tni ikkovlon himoya eting!
Sevgilingni o‘ylashdan ortiq o‘y,
Uni istashdan ortiq istak bormi?
Bu dardlardan xabarsiz kishi savodlimi?
Ammo bir tomonning jununligi
ikkinchi tarafga ziyon yetkizmasin!
Ki ey farzand, birdam tut o‘zingni,
Dame asra ko‘ngul birla ko‘zungni.
Seni devonalig‘ gar qilsa mag‘lub.
Piri paykar bo‘lur el ichra mahjub. (m. - uyatlig‘)

O'zungni asra birdam, bo'lma g'oyib,
Ki dahr ahli tilab topmas maoyib. (m. - ayblar)

QIZLAR MAJLISINI OBOD ETGAN SHOIR

qizlarning o'n xislatini maqtaydi,
Shu martabaning barcha qizlarda bo'lishini
orzu qiladi:
Mana o'rta asrlardayoq qizlarimiz uchun,
AMAL QILGAN talab, huquq, qoida!
Biri ash'or bahri ichra g'avvos,
Biri advor davri ichra raqqos. (a. — musiqa ilmi)
Biri mantiq rusumida raqamkash,
Biri hay'at ruqumig'a qalamkash. (h. - astronomiya)
Birining shevasi ilmi haqoyiq,
Balog'atda biri aytib daqoyiq. (d. — nozik ma'nolar)
Biri tarixda aytib fasona,
Biri hikmat fani ichra yagona.
Hisob ichra birining zihni borib,
Muammoda birisi ot chiqorib.

MUHABBAT DOSTONI PAHLAVONI

o'z qadrini biladi.
Sevgi — milliy tuyg'u, ming rang tuyg'u,
chin oshiq bu xislatlarini oyoqosti qildirmaydi,
O'zi haqida fikrlar o'zgarganida ham o'zi o'zgarmaydi.
Chunki, kamolot mukammal o'zlikdir,
qozonilgan, erishilgan o'zlikdir.
U o'z suratini insonlar ko'ziga o'z harakatlari
bilan chizadi.
Bu aks, bu in'ikos ibratli, ta'sirli!
So'zidan zohir asrori ilohiy,
Jamolidin ayon anvori shohiy.

Xirad dehqoni mundog‘ nuqtai der:
“Ki dona sochqoli yaxshi kerak yer!”

VAFO DOSTONLARI MUALLIFI
sevgi diyorida Vafoni
nafaqat ishqning, insoniylikning ham
toji deb bilar!
Bu xislat qizlar yuragida nechuk?
Ishq allaqachon hokim dil uyiga
o‘zga birovdan sovchi kelsa...
Xisravning sovchilari haqda Bonu Shiringa aytdi!
Ul sho‘rlik qizning tushgan ahvoli va nogoh
ko‘tarilgan mavqeyi:
(Farhodning uni xayol qilishdan o‘zga ilinji yo‘q paytda!)
“Boshimg‘a tig‘i g‘am sursang ne bo‘lg‘ay,
Bu so‘z deguncha o‘ltursang ne bo‘lg‘ay?!
Manga ne yor-u ne oshiq havasdir.
Agar men odam o‘lsam ushbu basdir!”

ISHQ ELINING SHOHI hukm chiqaradi:
Ishq gavharining o‘rni faqat yurak tojida!
Shohlik toji bu gavharga martaba bo‘lolmaydi!
Qo‘shin yig‘ib qo‘l yetmas qo‘rg‘onga hamla qilish qayda,
Oliy xislatli bir barnoning yuragini
yolg‘iz zabt etmak qayda!
Falak yerga oshiq bo‘ldi —
kamalakdan ko‘prik qurdi!
Ichib may, salatanat ilmay ko‘zumg‘a,
Qilay zulm, elga qilg‘uncha, o‘zumg‘a!
Kerak ishq ahli qul bo‘lmo bu so‘zg‘a:
“Ki shahlik o‘zgadur, oshiqliq o‘zga!”

ZOBITLAR SIYOSATINING NAYRANGLARIDAN XABARDOR SHOIR

Xisrav monand shohlarni zorlanib fosh etadi:
bir xalqning yer-mulkini ming zulm, fitna-aldov,
kuch va qurol bilan bosib olib, toptaydilar.
Endi bu bosqinchilar o'zlarini aziz tutishlarini,
tili, tarixi, mandaniyatini hurmat qilishlarini
talab ham qiladilar.
O'ljasini yeb bo'lgach, yerga ag'nab,
yaxshi hazm bo'lsin uchun
uv chekuvchi yirtqichlar hali ham bor!
Bu zolim endi o'zini oshiqi bechora,
G'amxor qilib ko'rsatsa-chi?
Jafo maydonig'a har dam surib ot,
Kishi andin nechuk qilg'ay mubohot?! (m. - faxrlanish)

SALTANAT VAZIRI shohdan doim odillik tilaydi.
Adolat mezonini kecha-kunduz ishlatmoqni talab etadi,
Chunki butun xalqning ixtiyori bir odamning
qo'lida-ku!
Shoh bir harakat bilan mingning taqdirini
o'zicha ochadi!
Tag'in buni u adolat deb kekkaysa-chi?!
Aybsiz aybdorlarning g'amini kim yeydi bu dunyoda?!
Shoh adolat asos intizomni qattiq tutsin!
Shoh yolg'on hukm chiqarishdan qo'rqsin,
yolg'onchilar esa shohning adolatidan!
G'azab tig'in chiqorsa podshohlar,
Ulug' mujrimcha bordir begunohlar.

HAQQONIY OSHIQ

Farhod qudratig'a, Majnun ozodligiga erishadi.
U zulmlar, ta'qibkorlar ustidan,
bir fasl bo'lsa-da, yuksala olgani uchun ozod!

Tabiat farzandligini tark etgan kishi
tuzum, jamiyat farzand ham bo'lolmaydi!
Chin oshiqlarda tongga, quyoshga
bevosita munojot etish huquqi bor!
Muhabbat — odamga ruhiy nafosat,
shaxsiy kamolot yo'lida xizmat qilarga
birinchi chaqiriq qog'ozi!
Ey, ishq, olamni yangila,
odamni yangila!
Sovuq ohimni bilurtib damingdin,
Ko'zum yoshini anglat shabnamingdin!
Meningdek bo'lmasang qayg'u ichinda,
Nedin gah o'tdasen, gah suv ichinda?!

HIJRON IZTIROBU NASH'ASIDAN OZURDA JON

yorini tusab, xayoli olamning jami —
olis-yaqin go'zal, sirli nuqtalariga yuguradi.
Har bir sayyoraga suyuklisi rasmini chizadi.
Ma'shuqasi ham xuddi shu ko'yda ekanidan bexabar!
Chinakam oshiqlar bir-birlariga yozgan
xatlarning mazmunlari doim bir xil!
Necha ming yil qilib sayr, emdi tolding,
Va yo baxtim kabi uyqug'a qolding?!
Quyoshingni quyoshimdek yoshurding,
Menga hijron tunin haddin oshurding.

DO'ST, HAMDAM KISHI

do'stini yo'lda tashlab
ketmaydi.
Do'st begonalik sifatlarini zohir eta boshlasa,
taajjub bilan hayqirmaydilarmi?
"Do'stlik" ortida g'arazli soya bo'lsa-chi...
Qo'llar bir-biriga uzatildi.

Kaftlar endi bir-biriga tegar payti
"do'st" birgina lahza chetga —
boshqalar xizmatiga "chalg'idi"...
"Qo'lqop" bilan ko'rishildi!
Rafiq-u yorliq mundoq bo'lurmu?!
Amonatdorliq mundoq bo'lurmu?!

O'Z TAQDIRI NOMIGA NOMA YOZGAN FARHOD

nogahonda o'z suyuklisidan yo'qlov xatini oldi!
Ayol zotidan xat olmoq —
ne baxt javonmardlar uchun!
Ayol maktubi!
Bihisht suyunchisi!
Sevguvchi dildor yuragi!
Imzosi noaniq baxt!
Nechog'liq erkalik, shafiqlik!
Ismsiz va'da.
Nechog'lik vafo, fidoyilik!
Yo'llar to'lib kelayotgan tong.
Ayolning shunday bir xatini o'qish uchungina
Olamga kelsang arzir!
Olamni savodxon qilsang arzir!
Dunyo poytaxtlarida
ayolning ishq maktubiga haykal qo'ying!
"Ne bo'lg'ay erdi charxi zulmpesha,
Meni sendin judo qilmay hamesha,
Xiroming chog'i yo'ldosh ersam erdi,
Sukunating vaqti qo'ldosh o'o'lsam erdi,
Ayog' sunsang bo'lub g'amdin xaroshing,
Mudom o'lsa edi qo'ynumda boshing.
Ko'rib xor-u xas o'rnungda, nihoniy —
Sochim birla supursam erdi oni.
Yuzungni olmasom erdi engimdin,
Aritsam erdi ashkimni yengimdin... ".

FIRIB, FITNA, ALDOV O‘LDIRGAN QAHRAMON

o‘z qarshisida nochorsinib turgan zol kampir
qissasini eshitdi.
Bu mujdada yolg‘onni ham sezdi.
Bu — olamni boshqarib turgan yolg‘onning
bitta shoxobchasi ekanini ham sezdi.
Lekin gap — sevgilisining o‘limi ustida edi-da!
“Shirin” degan so‘z bilan “O‘ldi!” degan
so‘z yonma-yon eshitildi?!
Endi “Farhod” degan so‘z yonida
“Tirik!” degan so‘z eshitilishi unga or!
Dunyodagi jami hasadgo‘y, g‘arazgo‘y,
buzg‘unchilarga
Farhod qarg‘ishi tegsin:
“G‘araz gar jon edi, olding, ana, hay,
O‘luk tandin ne istarsen, yana, hay?!
Ko‘ngul qonin ichardin to‘yg‘il emdi,
Meni o‘z mehnatimg‘a qo‘yg‘il emdi...”

MAXLUQOT DUNYOSIDAN XABARDOR

Farhoddek kuchli zot ham ulardan yordam tilaydi.
Ular Farhod o‘limida
odamdek motam tutib uv chekadilar.
Quvlik, qasdlikdan yiroq bu maxluqlar yig‘isi
baxil, qadr bilmas tirik “odam”larga go‘yo saboq!
Mohir tarbiyachilar saboq uchun
maxluqot dunyosidan ham misol topadilar!
“Vafo birla muhammar xilqatingiz,
Murakkab mehr birla tiynatingiz.
Nifoq-u g‘adrdin tab’ingiz ozod,
Yo‘q ul yanglig‘ki xayli odamizod...”.

YURAGI TOZA SIYMO inson yuragini
tun qorong'usidan kichrayib,
bazo'r omon chiqqan shabnam donasiga mengzatadi.
Qiyinchilik bu bilan tuganmaydi — endi boshlanadi.
Yurak shabnami quyosh qarshisiga chiqqan sayin,
nurni o'zida ko'p aks etkazgani sayin...
halok bo'ladi!
Qora sahnani kichik bir sham nechuk yoritsin!
Davron qorong'usi qarshisidagi, inson yuragi,
taqdiring shu!
Kishining necha ko'prak gavhari pok,
Aning bedodidin ko'prak alamnok.

QAYTAR DUNYO O'YINLARINI
KO'RGAN ALLOMA
biladi:
Xisrav Farhodni sargardonlikda o'ldirdi,
Farhod yuragini junbushga solgan Ishq isyoni,
afsus, Xisravga qarshi qo'zg'olonga aylanmadi.
Balki, u shuning uchun buyukdir,
balki shu bois uni davron bepisand halok etdi.
Xisravni so'ngroq o'z o'g'li o'ldirdi:
balki qismat Farhodning qoni uchun shundoq
xun talab qilganmidi?
Lekin kim nima uchun o'ldi?!
Shirinning o'limi-chi?
Uch saltanat boshida fojea!
Baloni Xisrav boshladimi?
Yo muhabbat uchun doim jazo tayyor etib turgan
qora kuchlar bormi falakda?!
Birovg'a kim birovdin yetti ofot,
Hamono kim qatig'rog'dir mukofot.
Sitamdin bas ilikni chekmak avlo,
Vafo-yu mehr tuxmin ekmak avlo.

Dehqon bir parcha yeriga don ekib,
atrofni devorband etadi,
qushlarga qo‘riqchi yasaydi,
garmsellar ihotasini qiladi.
Shoir... o‘zini ihota etadigan muhitni...
Qalamiga kapalak ham halal bermaydigan
sokinlik...
Fazo uchqunlarini chars-churs o‘ziga yig‘ib
Falak kezayotgan yer ovozin eshitishni...
Xolilikni istaydi, tusaydi, so‘raydi...
Shoh esa goh-goh uning xabarini tutsa,
rag‘bat gullarini yo‘llab-qo‘llab tursa...
Farog‘at kunjida bir go‘sha tutsam,
Meni el, men dog‘i elni unutsam,
Bori ashholdin shah tutsa ma’zur,
Ki bo‘lsam so‘z demoq shug‘lig‘a ma’mur.
Yana shoh iltifoti bo‘lsa gah-gah,
Ki bo‘lsa nazm yo nozimdan ogah.
So‘zimg‘a gah berib islohdin zeb,
Gahi in’omi etsa so‘zga targ‘ib...

ULUG‘ MUDDAOLI YURAKka ofarin!
Elining asl farzandlari o‘qiydi bu dostonini!
Biri o‘z san’atini osmon etadi!
Biri ilmi bilan bashar idrokini charxlaydi!
Biri hunar bilan qor ipagida gullar tiriltiradi!
Biri yer fanining otasi bo‘ladi:
to‘rt faslning sirlarini kaftidan o‘qiydi!
Biri tarix, ona tilini, so‘zni olamshumul etadi!
Xalqning boqiyligiga buyuk asos emasmi bu kitob?!
Faqat o‘qisalar,
Tatbiq etsalar,
bir-birini qo‘llasalar, bas!
O‘g‘lon! Qo‘lingda na qutlug‘ hujjat bu?!
O‘qi har harfini baralla!

Agar bir qavmi, yuz, yo'qsa mingdir,
Muayyan turk ulusi xud meningdir.
Olibmen taxti farmonimg'a oson,
Cherik tiqmay Xitodin to Xuroson.
Ko'ngul bermish so'zumga turk jon ham.
Ne yolg'uz turk balkim turkmon ham.
Ne mulk ichraki bir farmon yibordim,
Aning zabtig'a bir devon yibordim.

ABADIYAT IJODKORI!
Mangulik tog'ining tubida ochildi bu buloq!
Uni Alisher Navoiy qahramonlari ochdi!
O'zi — mirob, munajjim, mutasaddi!
O'zidan oldin o'tgan buyuk ustozlar bashorati bilan!
Yassaviy, Lutfiy, Sakkokiy, shuningdek,
xalq baxshilari chizmalari asosida!
Bu chashmalar qurimasligiga sabab tog'larning
yuksakligi emas,
bu obi hayotga tashnalarning ko'pligi,
intilishlarning abadiyligi!
Til! Xalq ruhining go'zalligini asrovchi tilsim!
Yurakdan chiqayotgan sirli ehtiroslarni,
orzularni olam bog'larida
moddiylashtiruvchi mo'jiza!
Ovozdan, havodan o'yib olingan musiqa.
Ey ona tilimiz!
Aytib sovurmas tarona sen-sen,
Olib qurimas xazona sen-sen.
Olam eli zarra yig'sa jovid,
Nurini kam aylagaymu xurshid?!

ZIYRAK MUALLIM
bola tug'ilganidanoq unga sifat bera oladi.
Taqdirini ko'ra oladi, loyiq bilim ham bera oladi.

Go‘dak mahaliyoq Majnunning o‘tga pinhon mayli
bor edi:
U tug‘ilishidanoq ishq lolazori alangasiga tushgan!
Yo‘q, yo‘q, bul homila
olov lolazorida paydo bo‘lgan!
Uning tepasida, ruhida, ko‘zi va so‘zida
Sharor ko‘rinmasa, demak, hayotdan keta boshlagani!
Shu olov uni hijron sahrosida yondirdi,
bugun ham sahrolar olovi — Majnundan meros!
O‘t ko‘rsaki mayl etib nihoni,
Ishq o‘ti tasavvur aylab oni.
Madh ichraki tortibon fig‘onlar, (m. - beshik)
Afg‘onida darddin nishonlar.

QOBILIYATLI BOLALARNI TOPIB TARBIYALOVCHI

yulduzi ravshan o‘g‘il-qizlarni
ayrim-ayrim, o‘qitish tarafdori.
Lolaga e’tibor yozda kerak. Atirgulga bahorda!
Barcha gullarni gulisapsarga qo‘shib kuzda
imtihon qilish mumkinmi?
Har bir o‘qituvchi o‘z “Qush tili”sini ato etsin
o‘quvchilariga!
O‘qituvchi o‘z o‘quvchisining xalq xizmatiga
albat yetishishiga kafolat bersin!
Butun jamiyat xabardor tursin maktab holidan!
Ta’limg‘a belni chust qildi. (ch. - mahkam)
Ne ul dedi bu durust qildi.
Oz vaqtda ayladi zamona,
Oni bori ilm aro yagona.

DONO TABIB

kishi tabiatini tez uqib ilg‘aydi,
muolajani shunga qarab belgilaydi.
Ammo, har kishi o‘z mijozi-holini,

o‘zini bilganiga ne yetsin!
Hamma balo odam, ko‘pincha,
o‘zi nimani xohlayotganini bilmasligida!
Hayotda o‘zining nimaga
vakil va mas’ul ekanini bilmovchilar —
jamiyatning xastaligi!
Kim bo‘lsa tabiatni muolij,
Jismidin etar marazni xorij.
Za’f ichra tabiat o‘lsa mushfiq,
Behrohki tuman tabibi hoziq.
(b. - yaxshiroq)

ISHQ BEDOR ETGAN KISHI

o‘z holidan o‘zi xabardor!
Shu bois oshiqni el oqlaydi.
Ishq insonni o‘smirlikdan yigitlikka uchirib
chiquvchi qanot!
Ishq — insonning barcha qushlar qanotlarini
o‘zida bir-bir sinab ko‘rishi!
Ishq — yurakda to‘rt faslning
Tez suvrat bilan birdan o‘tishi,
Ishq bor joyga g‘aflat yo‘lay olmaydi.
Odam yuragiga boshqa muddaolar ham
Ishq kabi aniq tug‘yon ichra kirsa edi:
eliga muhabbat, tiliga, foydali amalga...
Oliy tuyg‘ular kuchsizlana boshlagan joyda
g‘aflat kuch olaboshlar!
Beishq ulusqa kom uyqu,
Ishq ahlig‘adur harom uyqu.

BEVAFO DUNYONING G‘ARIBI

o‘zi ishqidin ortiq e’tiqod ko‘rmas,
o‘z sevgilisidan sevikli go‘zalni ilg‘amas.
Ishq kulki bo‘lgan mulkda

vafoga bir kaft yer topilarmi?
Lekin bu g‘ariblik
oshiqni yo‘ldan qoldirarmi?
Jahon shohlari birlashganlarida ham
hosil qilolmaydigan mo‘jiza
oshiqning yuragida-ku?
Derlar menga: “Ishqni unutg‘il,
Layli g‘amidin kanora tug‘il!
Ko‘nglum g‘am bila to‘q ayla, yo Rab,
Ishq ichra meni yo‘q ayla, yo Rab!
Layli ishqin tanimda jon qil,
Layli shavqin yuragimda qon qil.
Dardimga xayolini tabib et,
Jonimg‘a visolini nasib et!” .

OYINAYI JAHONNOMA
SIRIDAN VOQIF ZOT
bu oyina to‘g‘ri xabar-nurni
qabul va oshkor etishini aytadi.
Oshiqning yuragi oyinayi jahonnoma.
Bir kishining istagi yo‘lida
ming kishi qurbon etilishini
qaysi oshiq buyura olur?!
Laylining otasi qizi Navfal qo‘liga tushmasin deb,
o‘ldirishga bel bog‘lagan tong chog‘i...
Majnun Laylini tush ko‘radi.
Layli Majnunni otasining ahdidan (tushida)
xabardor qiladi.
Majnun iztirob tortib do‘sti Navfalni
keraksiz savashdan to‘xtatadi:
XX asr jahongirlari, boshqa g‘arazkorlar-da
Oz-moz oshiq bo‘lsalar edi.
— *Kin yoyin ilikdin aylagil yo‘q,*
Kim, jonima tegmagay mening o‘q!

TUSHKUNLIK DAMIDA NOUMID BO‘LMAGAN JON!

Qiyinchilik oldida bosh egib qolish
yov oldida chorasizlikka o‘xshar.
Har yerda ham ish ilm bilan bitavermas!
Jur’at, sovuqqonlik, xayol, sabr kabi
yuzlab qurollar qani?
Bordi esa ixtiyor ilikdin,
Ochilmas ish ul zamon bilikdin.
Jur’atdin erur nishot qilmoq, (n. - shodlanmoq)
Lekin kerak ehtiyot qilmoq.

ISHQIY MAKTUBLAR MIRZASI

o‘zi yozganidan ham nafisroq,
o‘zi kutganidan ham intizorrroq noma olsa,
undagi har so‘z iztirobdan, har jumla donolikdan,
har urg‘u sog‘inchdan, har ohang sadoqatdan,
har ma’no umr yugurikligidan xabar bersa
va u shunday boshlansa,
davomini o‘qib o‘tirishga kuch-majol yetarmidi:
“Ey, ishq o‘tida xasim nechuksen,
Ey bedil-u bekasim nechuksen?
Holing nedurur firoqim ichra,
Fikring nedur ishtiyoqim ichra?..”

KAMTARLAR PIRI

ishq va ilhom dag‘dag‘asidan benasib —
ichi g‘ovak kibr-u havoni yomonlaydi.
Kibr-u naxvat chirkini faqat ilm va chidam yenga oladi.
Lekin baribir, gullar ichra ra’noning havosiga,
qushlar ichra tovus tamannosiga,
bog‘da sarvning qaddi a’losiga
nima yetsin!
Shundoq “shod kekkayishlar”

Bizning-da ko‘nglimizni yashil o‘stirgan!
Asil oshiq toza mag‘rurlikka moyil!
U har lahzada nogahoniy xatolikni kechira oladi,
O‘zi ham nokomillig‘i afvini so‘rashdan qo‘rqmaydi.
Chiqishning ham, tushishning ham og‘irligi
baribir zinalarga tushadi-da...
G‘avg‘oyi junung‘a mubtolamen,
Boshtin-ayog‘imgacha xatomen.
Yuz yil kishi umr agar tilar, bil,
Kim sabr kerakdir anga ming yil.
Kim etsa minora uchi voya,
Birdur chiqar-u tusharda poya.

MEHRIBON PADAR!

Barcha otalar ham sendek bolajonlimi?
Farzandning har qilig‘i, har sa’yi qadamidan ogohmi?
Eslaymiz: ogohsen — shohsen!
Demak, xabardorsen — padarsen!
Bola tarbiyasida hech bir mayda ish bormi?
Bugun, bolaga singdirilmagan ushoq bir xislat
uning yuragidagi boshqa najib holni ham
rag‘batsiz qoldirmaydimi?
Kuyunchak padar farzandni har tong kuzatadi:
To ilmi adabni kom qilding,
Maktab tarafi xirom qilding,
Kim fazl-u kamol yoring o‘lg‘ay,
Ilm-u hunar ixtiyoring o‘lg‘ay.

VISOL DOSTONINING MUALLIFI

Layli va Majnun bir-birilariga yetishgan oqshomda
o‘zi Laylidek o‘ladi!
Majnundek ming tiriladi.
Faqat lahza Visol ilinjida...
Ruhlar Arsh toqiga ipakdek ilashib...

Bu afsonaviy visol oddiy qum to‘shagi ustida
sodir bo‘ldi!
Bu ikkalovi uchun tirikligidagi oxirgi visol!
Ikkalovi ham endi olov devona!
O‘rtalarida xalal berar hech ne yo‘q!
Buyog‘i yetishish, erishish, birikib... Ammo!
Alvon quyosh tun bag‘rini yorib kirsa...
cho‘g‘ suvga botsa nogoh –
bu vasl oqshomi tugashini bilar edilar...
Ul shom yuz yilcha gar havasdur,
Chun subh dam urdi bir nafasdur.

VUJUD ISYONLARI VA YONISHLARINING TABIBI
Muolajani xushbo‘y giyohlardan boshlaydi:
Ruh havosini yangirtadi.
Musiqiy zarb-u xonishlar taratib ko‘radi.
Bemor hech o‘ziga kelmasa, eng so‘nggi chora —
tig‘ tekkizishga majbur bo‘ladi...
Lekin oshiqlar qon tomirlari gullarga tutash-ku?!
Oshiqlar vujudi kamalaklarga birikkan-ku?!
Har bir yulduz —
Oshiqlarning og‘riq nuqtasi, cho‘g‘i...
Layli va Majnun bir-biriga yetmay o‘tgan
jami’ oshiqlar timsoli!
Na chora, ikki oshiqning qayg‘uli taqdiri ushbu:
Har ishki o‘tub haloklikdin,
Ayru emas erdi poklikdin.
Ishq ahli bu nav o‘lsalar pok,
Gar vasl muabbad o‘lsa ne bok?

VISOL UMIDVORI hayotda shu umidi bilan tirik:
Visol — ikki daryoning dengizda birlashuvi.
Visol — bahor buluti bilan yerning

quyosh qarshisida birlashuvi,
ya'ni kamalak, yomg'ir tug'ilmog'i!
Visol — sho'x daryo kechuvidan o'tgan uyur tulporlar.
Visol — ruhning, yurakning tozalanuvi, yuksaluvi!
Layli bilan Majnun majoziy birlashuvi -
Vujud ustidan Ruhning g'alabasi!
Bu visol abadiydir!
Chun vasl ila toza bo'ldi qoni,
No'sh etti obi zindagoni.

GO'ZALLIK VA NAFOSAT POSBONI

ijod mo'jizalarini kimlar va
qanday yaratishlarini tub bilar!
Iste'dod kushandalari kimlar,
ular zid turmoq yo'lini ham ko'rsatar!
Ammo xudbinlar xuruj-hasadi —
hosildor yerga tushgan sho'r,
Gujumlarga yoprilgan qurt, qonsiragan ochko'z bo'rilar!
Chin iste'dodning lahjasi — tabiiy va ishonarli,
Oshiqning oh-faryodi kabi larzali va pok.
Ishq soxtakorni tez oshkor etar,
Lekin san'atdagi yuzaki kuchanish-chi?
Kim zarq-u riyovu sho'r birla
Oshiq etar o'zini zo'r birla,
Ishqi o'ti bo'lmas elga jozib,
Andoqki, ziyoda subhi kozib (s.k. — yolg'on tong)
Mulk ahlig'a mehribonliq ayla,
Andoq ramag'a shubonliq ayla. (r. — suruv, poda)
Kim bo'riliq etsa, qovla oni,
Ul yer iti birla ovla oni!

XALQNING AHVOLIDAN XABARDOR HAKAM

hukmdorlar qo'llasin deb aniq adl yo'lini yozadi,
haqiqatni qonunga aylantirmoq istaydi:
Sen shu yerda — shu zamonda hukmronsan,

Sening-da, fuqoraning-da, takroriy hayoti yo‘q-ku,
“Mayli, yana ko‘rarmiz deyishga?!”
Inoyat va rizoyingni shu maskan, shu zamonda ber:
Eling balki bugun ezilib, hatto maqsadini ham
Aniq-to‘kis ayta olmaydigan bo‘lib qolgandir?
Maqsudini aylay olmasa arz,
Takror ila so‘ramog‘ini bir farz.
Taskin bila angla holatini,
Adl aylabon ol malolotini.

OLIY MUHABBATGA ERISHGAN AMIR

yuragini nima ko‘tardi bu mavqega?!
Oshiqni g‘amdan Visol qutqarsa,
elni g‘amlardan Adolat ozod etadi.
Voh, qishloqdan shaharga ilinj istab keluvchilarga
shafqat, e’tibor tayin et!
Shahardan qishloqqa borguvchilarga insof qonun et!
Zahmati ko‘p va bola-chaqa ko‘pdir qishloqda!
Shaharga jon qishloqning tomiridan kelar!
Gar shaharda istasang riyosat,
Sahroda aningdek et siyosat.
Andoq bori el ayolin asra,
O‘g‘ridin amonda molin asra.

XALQINING G‘AMNOK BASTAKORI, HOFIZI

Jannatdan yer yuziga endi chiqqan odamdir:
U o‘z ayolini topsagina
el bo‘lishini yaxshi biladi.
Shu abadiy izlov, intiluv —
yolg‘izlik qayg‘usi, mung‘i
Odamga o‘zi qarar, ahd bog‘lash baxtini berdi!
O‘n ikki musiqiy maqom –
Yerning quyosh girdini aylanmoq Mavqeyi!

Hayotda g‘am ko‘p, nag‘ma ko‘p.
Lekin sozanda “Navo” maqomidan
chalganiga nima teng kela oladi!
Bu — kamolat musiqasi!
Insong‘a erur kamol matlub.
Andin dag‘i dard-u hol matlub.
Har kimga ulum bo‘lsa vosil,
Gar dardi-yu holi yo‘q, ne hosil?
Mo‘nglig‘mon-u mo‘ng bila payomim,
Mo‘nglig‘ kishilar so‘zi kalomim!

YUKSAK E’TIQODLI INSON

o‘z ma’badiga sodiq.
Yuragida oliy e’tiqodi bo‘lgan kishining boshiga
fisq-u fasod iloni o‘rlab chiqa bilmaydi,
Ilon ming tirishsin, burgutning uyasidan balandroq
cho‘qqiga ko‘tarila bilmas!
E’tiqodli zot — avvalo, tabiat farzandi.
Muhitning ulug‘vor harakati qarshisida
ibtidoning ham, intihoning ham qiymati bir.
Inson bu harakatning qaysi pallasida ketmoqda?
Zamonidan nima samar istayapti?
O‘zini, o‘zligini tanish, o‘ziga baho berish baxti
barcha insonlarda, hamma xalqlarda bormi?!
O, bu o‘z asoratida jizg‘anak yurak iztirobi!
Lekin asirlik hali o‘lim emas!
O‘lim — atrofga befarq qaray boshlaganing!
O‘lim — yering, eving,
elingga qayg‘urmay qo‘yganing...
Odamning dardlari olam kattaligiga qiyos emas,
mo‘jaz muhit tarozusida tortiladi:
Azamat bobida gumondin uluq,
Nekim andin ulug‘ yo‘q, andin uluq.
To bu olamg‘adur asir tanim,
Ruh to‘tisig‘a qafas badanim.

REJALI - TADBIRLI KISHI

har ishning bezagini topib, ilhom bilan kirishadi.
Ilhom — ruh qanotida fidoyi parvozdir!
Ilhom — ruhni yurakdan parcha berib oziqlantirish!
Parvozga surur yo'ldosh!
Kishi nazariga kibr aralashsa,
ko'z qorachug'ining torayishi boshlanadi —
Ko'rish ufqlari kichrayadi.
Ba'zilar qo'nishga joy topmas qushdek,
o'zini har yon urishi shundan.
Kishilar olamga qarashlari,
intilish mavqelariga qarab,
ma'naviy mavqelidir.
Kimki bir ishga bo'lsa mustag'ni,
(m. - kamhafsala)
Yoshunur ko'ngildin base ma'ni.
Qaysi birining ne bo'lsa taqdiri,
Yoyilib olam ichra ta'siri...
Biriga nahsliqni odat etib,
Birisin mash'ali saodati etib...

AYOLLAR YULDUZINI BALAND ETA OLGAN SHOIR

Ayol go'zalligini tabiatning timsoli,
balki, tabiatning o'zi,
tiriklikning tabiati, deydi!
Ayol go'zalligi barqdek, yildirimdek,
ruh yo'lini g'uborlardan tozalar!
Mehri — turp suvidek dillardagi toshlarni eritur!
Iffati kamalakdek,
Osmon va yer o'rtasiga dur ko'prik yasar!
Zahri — kuyaga qiron keltirgan yang'oq bargidek.
Duolari — dilga yangi bahralar beruvchi munojat kabi!
So'zlari dardmandga — buloq suvidek.
Sog'lomga — quyoshda yumalangan irmoqdek,

Ayol — olamning nurga ehtiyoji, sog‘inchi.
Zarrada mehrni nihon aylay,
Bahrga qatrani makon aylay!
Chun azaldan shahi jahon siz-siz,
Bo‘lmasun bir lahza jahon siz-siz.

SO‘ZNING MASH’ALA — MAYDONINI BILGAN NOTIQ
o‘z mavqeyini xo‘p biladi.
So‘zidan o‘zining mavqeyi ayon.
Har kim o‘z qadrini bilishi baxt,
uni o‘zgalar qadrlasalar ikkinchi baxt.
Konni hech kim cho‘qqidan izlamaydi,
Javohir deb yer qa’riga tushiladi!
Qaysi javharki ishq bahosi aning.
Kon ono, tog‘ erur atosi aning.
Bir deganni ikki demak xush emas,
So‘z chu takror topti dilkash emas.

TILSHUNOS OLIM uchun so‘z — tarix kaliti.
Har bir so‘zning tarjimayi holi bor.
Muayyan til muomaladagi jonli haqiqatdir.
Xatoliklarni davr keltirib chiqaradi.
Tarixchilar o‘z shaxsiy xatolarini unga tiqishtirib,
Bekinib olishlari yomon.
Bitta yolg‘on bitilsa,
uni xaspo‘shlash uchun o‘nta uydirma yoziladi.
Lojaram anda aylagum pechish,
(l. — ana shu sababdan, p. - to‘lg‘onish)
Ayblig‘ bo‘lmasin debon hech ish.
So‘zda tarix ixtilofi bor,
Ahli tarixning xilofi bor.

ODIL SHOHNI IZLAGAN BAXSHI

o‘z maqsadini qo‘shiqda, dostonda
oshkor nido qiladi, qo‘bizni bo‘g‘ovlaydi.
Qahramonlar tirilishini ko‘ring!
Hatto Tangri uning ijodida
odil shoh suvratini eslatgandek bo‘ladi.
Baxshi shohlarni xayolan shunday gapirtiradi:
Kim bu shukronag‘aki qildi iloh,
Meni bu nav’ olam ahlig‘a shoh,
Elni shod aylamak kerakdurmen.
Adl-u dod aylamak kerakdurmen.
Komsiz komin aylamak hosil, (k. — orzu, maqsad)
Benavolarni aylamak xushdil!

O‘ZIDAN KETMAYDGAN — O‘ZNI YO‘QOTMAYDIGAN KISHI

atrofga teran nazar soladi.
Hamma uqubatlarning kaliti bitta:
yo o‘z imkoniyatlaringni oyoqostilab yuribsan,
yo boshqalarga toptatib qo‘ybsan.
Yo‘lingda jar, dara chiqsa,
uning vahm-u sifatini faryod qilish ne?!
Undan o‘tish chorasin izla!
Tashna lab bo‘lma bahr yoninda,
Qilma shevan, tarab makoninda.
(sh. — nola, t. - shodlik)

TOLE TAQDIRIDAN FOL KO‘RUVCHI:

Kimki har narsaga shaxsan o‘z
va o‘z yaqinlari manfaati — mavqeyi kungurasidan qarasa,
munday kimsa, kamyob iste’dod bo‘lsa ham
axiran so‘roq berishga mahkum!
Ma’lum guruhning xizmatini qilgan odam
shu guruh eshigiga moslaydi bo‘yini!

Bu taxlit sahv-u qabohatlarga
katta mansab egalari giriftor bo'lgan esalarchi!
Ish anga yettikim, bu yanglig' shoh
Mulk ishidin emas edi ogoh.
El bu ishidin shikoyat aylar edi,
Har kishi bir hikoyat aylar edi.

HUSHYOR DONISHMAND elning bodaga berilganini
xuddi azadordek nola-nahva bilan og'oz etar:
Boda bor joyda — mas'ullik yo'q.
Mas'ullik yo'qmi — uy qarovsiz, mulk posbonsiz.
Uy beegami, demak, tuqqan yer oyoqosti.
Ona yer oyoqosti bo'lgach,
aziz, muqaddas qadamjolarni izlab o'tirish ne?!
Bodakim olsa ixtiyor eldin,
Ne ajab chiqsa har ne bor eldin.

ADOLAT YALOVBARDORI!
Sen har bir xalqqa, har bir qavmga,
yurakka keraksan!
Adolatning o'rnatilish darajasi
xalqning talabi, intilishiga nisbatlidir.
Adolat — ko'pchilikning bir ohangdagi,
lekin zo'raygan qalb urishi!
Bu — vijdonning harakati!
Iymon uyg'ongan joy —
ovozi yetib borgan joy —
kelajakda adolat amal qiladigan maydon!
Yangi o'zlashtirilgan yer bir fasl qarovsiz qolsa,
kelasi yil hamma ishni boshdan boshlash kerak!
Adolat bir guruhning qo'lida
ikkinchiga zug'um etadigan,
asoratda saqlaydigan qurolga aylanmog'i mumkinmi?

Bunda qachon hamma adolat deb
bir yoqadan bosh chiqaradi?
Mulk chun shoh aqlidin qoldi,
Qoldi har kim neki qila oldi.

O‘Z QILGAN SAHVINI TAN OLA BILGAN KISHI

o‘zini himoya qilishga qodir kishi.
Vijdon azobi — insoniylik azobi.
O‘z jonidan xabardor kishi
o‘z fuqorasidan ogoh shohdir.
Jon kishining o‘z Ruhiga erkinlik berish imkoni!
Faol ruhi haq sari ilk qadam!
Dedi: “O‘z jonima ne qildim voy,
Bo‘lurin bo‘yla ish ne bildim voy,
Ulcha men qildim aylagaymu kishi,
Bu ish ermas edi kishining ishi!”

DO‘STLIK QOIDALARINI QATTIQ TUTUVCHI

do‘stlaridan ham shu sadoqatni kutishga... haqli.
Ularning bevafoliklari qancha musibat, alam...
Do‘stlik — muhabbat, noyob mo‘jiza.
Ko‘z, ranglarni tuyish idroki — na zo‘r baxt!
Muhitni anglamay — hayot ne?
Lekin safdoshlik tuyg‘usi na ulug‘!
El-yurt uchun ikkov-uchov
Birga qiynalishga ne yetsin!
Qani siz, do‘stlar?
Yorliq qayda ketti yoronlar!
Qilichingiz usholdimu oxir!
Iligingiz toshqa qoldimu oxir!

O‘TKIR LUTFGO‘Y, KINOYALAR QILICHBOZI
ayovsiz!
Xo‘sh, hamma balo-vu ofatlarning sababkori shohmi?!
Mana, taxtda hech kim yo‘q-ku! Qarang:
Ish faqat shohda qolsa, ish oson:
Ammo: hech nening javobgarligini
bo‘yniga olmaydigan mingta xo‘jayindan
bitta odil shoh ming a’lo emasmi?!
O‘rmonda bulbul ovozi bir bo‘lak,
qashqirlar uvillashi bir bo‘lak,
ammo sher na’rasi o‘rmonda azal ustivor!
Taxt chun bo‘ldi shohdin xoli,
Fitnadin xoli o‘lmas el holi.

BUYUK FAYLASUF insondagi har o‘zgarishni
atrofdagi o‘zgarishlar bilan bog‘laydi:
bir-biriga aloqasiz ikkita voqea yo‘q,
voqealarning aloqasi bir-birida.
Olamni bilish idroki kishi miyasida:
“Peshonangga yozilgan!” deyiladimi bejiz?!
“Yozilgan” allaqanday xat emas,
muayyan odamning in’ikos qobiliyati, idrok quvvati, rejasi,
shuni o‘z umriga tadbiq etish qudrati,
Peshonada har kim o‘zi yozishi uchun ham joy bor!
Kim havodis yeri durur olam, (h. — hodisalar)
Ondin ozod emas bani odam.
Gar menga bo‘yla sa’b suratdir,
(s. - qiyinchiliklar)
Chunki taqdir erur zaruratdir.

TAQDIRGA TAN BERMAYDIGAN!
Har qanday sharoitda ma’nan tik qolishni istaydigan!
Shu bois o‘zini tan oldiradigan!
Qanday xalqning farzandi ekanini bildiradigan!

So‘nggi imkonni umidiga safarbar eta oladigan!
Hammaga nogahoniy ishonch ruhi beruvchi!
Nechuk bo‘lsa, oyoq uzra turayin,
Yotib o‘lguncha dast-u po urayin!

ODAMOVI, UZLATSEVAR BANDA

o‘z g‘amida yolg‘iz qolish uchungina
yolg‘izlikka chekinmas!
Olam g‘amini
o‘z bezovta ruhida idrok etib ko‘rishni istar.
Dard hammaga aytaverish bilan ozaymaydi,
uning sababini topsang — umid uyg‘onadi!
Dardni, sirni birovlarga aytmaslikka sabablar ko‘p:
o‘zgaga ham qo‘shimcha ozor, muammolar.
Ko‘pgina yoyilsa, dushmanlar foydalanishi bor...
Tushunmaydiganlarning nasaq-fasodi...
Yurtning dard, tashvishi doim bir-biriga o‘xshash.
Dunyoda boshqa o‘xshash dardlar yo‘q.
Lekin bu dard yuqimli emas, uqimli!
Yuqmagay ko‘ngulga g‘amim asari,
Tushmagay joningga o‘tum sharari.

KO‘Z ILG‘AMAS HIKMATLAR KASHSHOFI

aziyat chekadi:
andak iste’dodli kimsaning ustamon, xushomadgo‘y,
manfaatparastligi
el uchun ko‘p ofat keltirmog‘i mumkin!
Shoh buni sezmasa, battar fojea!
Zayd Zahhob xazinadan oltin o‘marish uchungina,
shohga oldin xushomad yasaydi,
keyin oltin taxt yasash fikrini aytadi.
Bu taxtning zinalari shohning oyog‘i yaqinlashganda
ohista past tushadi, o‘zining niyatidek...

taxtning to‘rt baland burjiga to‘rtta tovus,
to‘rttasiga to‘rtta to‘tinng nima keragi bor edi?!
Zahhob to‘tilar, tovuslar shohga yoqishini bilar edi...
Chunki hunarmand edi nihoyatsiz,
Anga shah lutfi erdi g‘oyatsiz.
Hunari vasfi erdi shoh ishi,
Aybini ayta olmas erdi kishi.
Bo‘lsa ham aybi oshkor anga,
Qilmas erdi e’tibor anga.

USTIVOR E’TIQOD EGASI ogoh etadi:
chorasizlik zamonlarida
ko‘p kishilar gangib, chekinib qoladilar.
Ayyor, qallob olimlar paydo bo‘ladilar.
Ular podshoga
yilda yigirma sakkiz qayta aytilsa ham
eskirmaydigan hamd-u sano,
yozuv-yorluq yo‘llaydilar.
Shoh o‘zgarsa, yangisiga yana o‘sha-o‘sha eski gap
oyda o‘n olti marta takror,
hech ne bo‘lmaganday, davr suraveradilar.
Qiziq, e’tiqodsizligi uchungina
taxt qoshida “obro‘” topgan bu olimlarga, tag‘in,
necha shogirdlar e’tiqod qo‘yadilar,
Xushomad rev oncha ayladi paydo,
Ki ul el bo‘ldilar anga shaydo.
Bori arzi irodat ayladilar.
Amri birla ibodat ayladilar.

TUSHGA TA’BIR AYTUVCHI
javobga muntazir kishining holi-ahvoliga,
orzu-istaklariga qarab toleini aytadi,
Tushlar asosan ikki xil: rangli va oq-qora.

Biri go‘yo parvoz, biri go‘yo inqiroz.
Mana ikki xil tush va ularning ta’biri:
Dedi bir qushki: “Ey, havas payvand,
Tushgusidir iki oyog‘ingga band.
Ishratning sha’mi ko‘r bo‘lg‘usidir,
Vatanning tiyra go‘r bo‘lg‘usidir”.
Yana bir qush dediki: “Qilma taab,
(t. - qiyinchilik)
Ki sanga sa’d bo‘lg‘usi kavkab. (s. - baxt)
Egningga chiqqusidir ikki qanot.
Qat’ qilg‘ung uchun tariqi najot” (q. - joriy etmak)
“Bo‘lg‘usidir topib ko‘p ishga vuquf,
Charx mushkullari anga makshuf. (m. - ochiq)
Fikr ila bo‘lg‘usi falak poymoy,
Charx bo‘stoni ichra jilvanamoy...”.
“Charx avjiga iltifoti aning,
Budur egnidagi qanoti aning”.

AHLI DONISHNING AHVOLIDAN XABARDOR!

Hikmat ahli o‘z davronidan o‘zib ketadi,
lekin uzilib ketmaydi.
Aql bovar qilmas narsalar sonini yechadi,
o‘z mushkullari qarshisida bechora va garang.
Hikmat ahli kelar zamonlarga ilg‘amli
o‘kiriklar soladi,
lekin bu — atrofdagilarga telba qichqirig‘idek go‘yo.
Hikmat ahli jamiyat, izdihom ustida parvoz etadi,
Lekin turmush ikir-chikirlari oldida xor va zalil.
Ne so‘z, yukni siljitmoqchi bo‘lgan kishiga
shu yukning bor og‘irligi tushadi.
Ki nekim ahli hikmat ayladi kom,
Moni’ o‘ldi havodisi ayyom.

DAVLATI KENG DAVLATPANOH

fuqaro, katta-kichik kasb egalari bilan
gaplasharda muhim-nomuhim ish yo‘q.
Shoh uchun oliy martaba —
insonlarga teng nazar etmak.
Shoh bir kasb egasiga sal bepisandligi —
bitta kentidan ajralgani.
Bir bog‘bon tog‘-suv oshib, shohga bir sabad
olmurud keltirdi
va shoh qabuliga kirita olmay sarson ketadi!
Oxir shoh uni toptirib,
muhtojligini so‘rattirganida,
u diltang holda:
"Bir arra, bir tesha!" dedi.
Shoh aning hikmatini qildi savol:
Dedi: "Hikmat bukim, yonib filhol,
Qayda bu mevadin yig‘och mavjud,
Bo‘lsa borin kesib qilay nobud! "

ADOLAT OYNASINING ORZUMANDI

oqni oq, qorani qora deb —
to‘g‘ri aytish, ko‘rsatish mumkin bo‘lgan oshkoralik,
keng mubohasa, ochiq tanlov zamonni orzu qiladi.
Kaftdek buloq osmonni aniq aks etadi —
Teran joydan qaynab chiqqanidanmi?
Davronda bu oddiy adolat qachon bo‘ladi,
Buni kim quradi, kim kashf eta safo erdi?!
Mayli, afsonadagidek,
to‘g‘riso‘z kishining yuzini oq,
egriso‘zlikning betini qora qilmasa-da:
Ko‘p kishi qildi ozmoyish anga,
Aytg‘ondek edi namoyish anga.
Chin desa aksida safo erdi,
Desa yolg‘on, yuzi qaro erdi.

RANGLAR O‘RTASIDAGI KESKINLIKNI FARQLOVCHI
moviy rangga ichdan moyil ekanini fosh etib qo‘yadi.
Firuza, nilufar, moviy,
ko‘k atlas, ko‘korish rangi...
Hatto ... moviy osmon — quyoshning ham kezar joyi...
Uyg‘onish fasli shu rangda...
Ulug‘bek va Temur maqbarasi gumbazi ham...
Falakrang libosli go‘zalga shoir nazarkarda.
Osmon abadiyat gullarini asrarmi,
bir fasllik binafsha-da,
ko‘kka cho‘zila-cho‘zila jon beradi!
Xushdurur bog‘i koinot guli,
Barchadin yaxshiroq hayot guli.
Har parichehraki mahvash erur,
Movi o‘lsa libosi — dilkash erur.

MARDLARNING PIRI o‘z shogirdlarini
nomardlik, sotqinlik, firibgarlik,
og‘machilik, pisib, ortdan zarb berish kabi
inson jamiyatiga mislsiz azob-uqubatlik
balolardan saqlanishga,
ularni oshkor etishga o‘rgatadi.
Har kasb o‘z piriga muhtoj.
Necha toshiqqan yurak xos-munosib yo‘l,
Usta, sarbon topmay o‘tdi-ketdi.
Qancha kuch, qudrat, ibrat bekor, hayf!
Xira, mubham yo‘llardan rizq istab umr o‘tkarishdan
ko‘ra poklik va adolatni bir lahza kasb et, himoya qil!
Dedikim: “Pahlavonlik ermas ul,
Kim kishi makr birla urg‘ay yo‘l.
Sen agar zohir etting itlikni,
Men senga ko‘rguzay yigitlikni!”

TO‘G‘RILIGI TUFAYLI BAXTLI ODAM

har yerda, har bir ishda
ko‘pchilikning xulosasiga tayanadi, o‘ziga xulosa oladi.
To‘g‘rining baxti — tinchgina
Bir chekkada turish emas,
Egri yo‘llardan ham tik o‘ta olganida!
So‘zdagi to‘g‘rilik, ravon nuktadonlik boshqa,
amaldagi mashaqqatli ruhi ravonlik boshqa!
Muqbil ozodayi humoyun fol,
Elga maqbul etib oni iqbol.
Mudbir andoqki borsa har sori,
O‘lturib yuzda gardi idbori. (i. - baxtsizlik)

AYOL ISTIQBOLIDA O‘ZINI TUTA BILUVCHI

ichkilik zo‘ri bilan
shahvat sori moyil bo‘lg‘uvchilarni izza qiladi.
Tuppa-tuzuk odam — mast.
Beixtiyor-u besaranjom...
Ya’ni, bog‘bon ham mast, tikan devor-u,
o‘g‘rilar ham!
Gullar holi ne kechdi?
Aylabon shahvat oni nafsoniy,
Qo‘lni bir yerga sundi pinhoniy.
Ki ishi uqdasidin ochib band,
Oj sandalg‘a aylagay payvand.
(ya’ni, fil suyagini sandalga kirgizmoqchi bo‘ldi)
Ammo ayol uni nihoyatda aql va himmat bilan
qaytara bildi.
“Ki bukun oncha mayparast o‘lduq,
Kim ketib shuxu aql, mast o‘lduq.
Aql etib surati saloh bila,
Haramingga kiray nikoh bila.
Chun muyassar bo‘lur halol navo,
Bu haramda harom ko‘rma ravo!”

MUSIQA ILMINING MUNAJJIMI
bu san'atga Xorazmdagi e'tiborni ta'riflaydi:
Diloromning mahoratini ko'rmoq uchun
shoh faqirona libosda kelib chang tinglaydi.
Bu mo'jizakor chalg'uchining kuyini eshitgach,
Unga jisman yetishish istagini cheklab,
uni singil deb e'lon qiladi.
Musiqada Aflotundan ham o'tgan boshqa bir odam
Diloromning san'atiga oshifta, qoyil,
Unga shogird tushishga tayyor keladi.
Erlik nomahramligi xalaqit bermasligi yo'lini qiladi:
"Kim ko'rubtur bu nag'mani tuzmak,
Gah qatl qilib, gah tirguzmak...
Hunar umididin bo'lub ma'yub, (m. - ayblig')
Ra'juliyatni qilmisham maslub..."
(r. — erlik, m. — olib tashlamoq)

TOJDORLARNING KARAM VA ILTIFOTLARIDAN QO'L SILTAGAN ZOT
shohdin oxir-oqibat shafqat, marhamat
umidvori yurgan kimsalarni fikr, aql yo'liga chaqiradi.
Shoh boyligi, mukofotini tig' qo'riqlaydi.
Sen uni olib, nima bilan qo'riqlaysan?!
Yova desan! O'zungdami yo'q sen?
Yoki xoni hayotdin to'q sen?
Shahki bir so'z uchun to'kar qoning,
Yana qilmoq nedur fido joning?
Qochmoq andin savob erur bu dam,
Necha andin yiroq — ofat kam.

OG'IR ZAMONLARNI KO'RGAN FAQIR
o'z qiyinchiliklarini yengishda
xayolot, orzu, ertakni hamdard tutinar.

Afsonaga murojaat
ruh kashfi, muhabbatga tobe odamning kasbi!
Ammo hayoti, kelajagi mavhum,
qiyinchiliklar doimiy ishi bo‘lib qolgan millatni,
xalqni qanday afsona bilan aldaysan?
Agar yurt uchun afsonaviy,
umrlik jang ixtiyor etgan esang,
bu orzu, bu afsona muborak sanga!
Kimni behush etar bu afsona,
O‘ziga hud kelib netar yona!

SHOHNI BEHUDA URUSHLARDAN TO‘XTATA OLGAN VAZIR

Ulug‘ maqsadni ko‘zlaydi: xalq tinch bo‘lsin!
Millat, xalq o‘z yerida barakot topadi!
El o‘z evida yerdek muqum!
Uni qo‘zg‘ash shohga ham,
millatga ham ofat keltiradi!
Shohlarning maslahatchilariga insof bersin-da!
Tog‘ o‘z o‘rnidan qo‘zg‘olishini tasavvur qiling-a!
Tog‘ oyini istiqomat o‘lur, (o. - odat)
Chun taharruk topar — qiyomat o‘lur! (t. - harakatlanmoq)

NABOTOT VA MAXLUQOT DUNYOSI MEHRIBONI

Bu ikkiga qilingan jabrki javobsiz qolmas!
Bu ikkisi odamzodga kelayotgan ofatlarning
ilk balogardoni!
Bahrom yuz ming yigiti bilan bir kunlik
ov qilgan payti
yuz minglarcha jonivorning qoni to‘kildi.
Bu manzara — insonning yana hayvonga aylanish
manzarasi!
Undan-da past-tuban tushgani!

Xulosa hamma zamonlarning zulmkorlariga!
Barchasini qon tutdi — yer yutdi!
Qon to'kardiki yo'q haros elga, (h. - qo'rquv)
Bo'lubon lola gul libos elga.
Qondin ul yerda guliston butti,
Go'yoki ul elni qon tutti.

OLAM KAMOLOTINI SOG'INUVCHI

Jahon bu saodatga hamma millatlar
teng kamolini ta'minlasagina erisha olar!
Ne najib rang-barang guldasta!
Har gulning o'z hidi, rangi, tili!
Millat tilining boqiy qolishini qayg'urgan
ma'rifatchi
zamonalar do'nib ko'p xonlar kelib-ketishini biladi.
Lekin el taqdiri o'z xonlari taqdiri kabi
goh past, goh baland bo'lmasin!
Har kelgan shoh fuqaroni boshqa lahjada gapirishga
Hukmdorlar o'z xalqiga ayon tilda gapirsin!
Tilga tajovuz — elga tajovuz!
Erkinlikning oliy shakllaridan biri —
Xalqning dunyo martabasiga chiqishi!
Dahr aro chu turk voqi'dur,
El aro turk lafzi shoyi'dur. (sh. - mashhur)

OG'ZI OCHILMASDAN BURUN KO'ZI OCHILGAN INSON

tegrasidagi voqealarni ko'z bilan ko'rdi.
El taqdiriga mas'ul bo'lgan kimsalar
eldan yig'ilgan, talangan, olingan boylikning
ko'p qismini o'zlashtiraversa
yo'lini topib gizlayversa,
bunday ajdahoyi ochofatdan el nima kutsin?!

Lekin kim ko‘zi bilan ko‘rganlariga
so‘zi bilan nafrat javobini berolmasa,
hayf unga elga farzandlik!
Toki podshoh o‘zi aytsin:
Toki tushti mening qo‘lumg‘a jahon,
Qilmadim yer tubida ganj nihon.
Shahki ming yil aning hayotidur,
G‘araz: o‘lganda yaxshi otidur!

O‘Z IJODIGA KAMTARIN NAZAR:
she’rni shoirning farzandiga o‘xshatadi,
ota uni goh taltaytirib yuboradi,
goh holidan xabar olmaydi,
xatolarini ko‘rmaydi; yo kechiradi!
Kelajagidan bezovtalanmydi.
Ilk bora tili chiqqan bolangga
kimlar, qanday, nechuk maqsadli
so‘z o‘rgatayotgani — saboq berayotgani
nahot otaga befarq bo‘lsa!
Bu — o‘z taqdiriga befarqlik!
Chun o‘g‘il aybini ato ko‘rmas,
Ko‘rsa ham qilg‘oning xato ko‘rmas.
Voqean yaxshi yo yomonu ekin,
Dilrabo, yo‘qsa jon sitanmu ekin?
Yaxshilig‘ birla bo‘lsa gar shoyi’.
Bo‘lmag‘ay ranj-u mehnatim zoyi’.

SO‘Z ZARGARI
matnda ehtiros to‘lqiniga alohida moyil.
Shoir o‘zi yig‘lamasun, so‘zi yig‘latsun!
O‘z xalqi tarixini qayg‘irib qon yutgan
shoir qalamidan kurashchan kelajak tug‘iladi!
Sen ilgarilovchi aql egasisan!
Yig‘lab, orqada qolib ketma.

Otgan o‘qingning ham,
aytgan so‘zingning ham izidan yetib ulgur!
Dedi: “K-ey durfishon-u gavharposh!
Durru gavhar kibi nedur sanga yosh?
Bu javohir so‘zung aro basdur,
Ko‘z aro ehtiyoj ermasdur...”

SO‘Z IQLIMINI KEZGAN YO‘LOVCHI

o‘zidan oldin o‘tgan ulug‘lar ruhini yodlaydi,
eski daftarlarni ko‘p titadi!
“Talab” yo‘lida tolpina tirmana...”
oyog‘ini faqat pok joylarga qo‘yib,
behuda ishlardan uzoqda yurib...
Asl shoirning har bir she’ri
xalqi uchun qurol, qo‘llanma...
ham vasiyat...
“Bilik taxti uzra chiqib o‘lturay,
Xayol elchisi har taraf chopturay.
Deganimni ulusqa marg‘ub et!
Yozg‘onimni qo‘ngulg‘a mahbub et!
Xalqqa zebi torak ayla ani!
O‘qug‘onga muborak ayla ani!”

XALQI UMID KUTGAN IJODKOR

umri millat otlig‘ buyuk harakat va qudrat manbaiga
yangi tug‘yon bo‘lib qo‘shiladi.
Yorug‘likning yangi manbaiga aylanadi.
Har kishi hayotining avval-oxiri
Uning dunyoga ayta olgan so‘zi,
kurashi bilan bog‘liq!
To‘xtamasin bu uyg‘un fidoyilik.
O‘chmasin uyimning yorug‘i — xalqimning ijod dahosi.
Yo‘qolmasin bolalarimga atalgan meros yurak sharori,
Necha qidmati ortuq andozadin, (q. - qadimiyligi)

Vale dam-badam tozaroq-tozadin.
Jahon gulshani ichra bu toza gul,
Quyosh vardidek oliy ovoza gul. (v. - atirgul)

KASBLAR HOMIYSI, HUNAR EGASI

o‘z ishi samari, hikmatini
elga zarur va manzur bilish-la azizdir.
Hunar ustalari ahli donish qoshida bo‘lsa,
bu — buloq boshidagi Balx tuti niholi!
Endi kesilgan ko‘na tut ham,
o‘tda pishgan po‘lat tor —
chalg‘uchi ham,
bastakor-u
tinglovchi ham
umri, tasarrufiga kuymaydi!
Soxta payg‘ambarlar, sehrgarlar ko‘payadi
elning ilohiy yog‘du elning nazaridan uzoq tushsa...
Agar naqd ila bo‘lsa ham yorliq,
Anga xalq qilmay xaridorliq.
Agar bo‘lsa o‘z fannida bebadal,
G‘animatdir ul barchag‘a bebadal.
Qayu kimsaki ahli idrokdur,
Anga jon fido qilsa ne bokdur!
Agar oyg‘a tushsa ko‘zi, kun bo‘lur,
Qadam qo‘ysa tufroqqa oltun bo‘lur.

ULUG‘ ISHLAR JAZMKORI

xashaki tashvishlar o‘ramidan chiqib keta oladi!
O‘zing g‘urur etgulik qilgan ishing bo‘lmasa,
bugunni, shu voqyelikni chamala,
elingga g‘urur bo‘lgulik ishga qo‘l ur!
Xalqing nomi o‘zi g‘urur,
Tarixi surur bo‘la bilgay!

O‘ntaning bittasi bo‘lmasang,
mingtaning bittasi bo‘larsan!
Elning markazi shahardamas —
mard, uddaburon, o‘tkir o‘g‘lonlar, yuragida!
Ki bu mulk aro qahramon bo‘lg‘asen,
Ulus ichra sohibqiron bo‘lg‘asen.
Ko‘nguldin tavahhumni aylab adam, (t. - vahm)
Ilik ishiga ur, yo‘lg‘a qo‘yg‘il qadam!

O‘TGANLARNI VA YONIDAGILARNI XOS ULUG‘LOVCHI
iymonga faxr va qarzdorlik tuyg‘usi bilan yashaydi.
Bular yonib-kuygan davron
biznikidan yengilroq bo‘lganmi?!
Bizga ham oson emas, ming bora.
Kishi boshqa zamonga o‘tib keta olmaydi,
o‘z zamonasidagi jasorati maqsud yo‘lin ochar!
Tarixdagi dadil namoyandalar!
Madaniyatimiz sardorlari,
Buyuk shoirlar.
Xonadonimizga yaqin, aziz kishilar, ustozlar...
Bular yo‘qki, har kimki nazmo demish,
Va yo jamoatqa dohil emish,
Borig‘a niyoz-u duodir ishim,
Alardin madad muddaodir ishim.

TARIXCHI USTOD aytadi,
o‘tmish faqat shohlar shajaridan iborat emas!
Tole’ kambag‘alga yuz burishi aniq!
Ammo, “Men bir kichkina odamman
Tepadagilar hal qilsin buni,
Qonunda, qarorda yo‘q...”
deydigan qultabiat kishilar
shu tariqa o‘z “kichik”ligini

o‘z peshonalariga abad tamg‘alab
qonunlashtiradilar!
Kelmali-ketmali dunyo bu!
Ko‘rmali-kutmali dunyo bu!
Navoiy, ajab yerga yetmish so‘zung,
Ne eldur bular, xud bilursan o‘zung,
Jahondorlarni jahon qilsa past,
Topa olmag‘aymu gadolarg‘a dast.

MANGLAYIDA SHOHLIK TUG‘ROSI AYON FARZAND
bolalikdan bilimlar sari mayl̤li.
“Bo‘la”ligi xatti-harakatida!
Hikmat uning qoshi-qovog‘i ustida!
Bekorchi shug‘liyot kim tomonidan maxsus qilinsin,
ulardan bola qanoat topmaydi.
Uning har narsaga bo‘lakcha —
qarashi, o‘z bahosi, so‘zi bor!
Xonadonimiz kelajagi — har yangi tug‘ilgan
go‘dakning yumuq panjasida,
yumuq ko‘zida! Nega birdan yig‘ladi u!
Nimani qayg‘urib?!
Muallimlar shunga e’tibor etsalar!
Bu hol Iskandarda quyidagicha:
Qayu ishni ta’lim qilgan zamon
Eshitmak hamon erdi bilmak hamon.
Bilik kasbini qildi to joni bor,
Hunar bildi onchaki imkoni bor.

BOG‘ O‘STIRGAN BOG‘BON biladi:
ildiz bilan barg oralig‘idagi masofa —
o‘z umri emgaklari!
Daraxt bog‘bonning otini aytib dunyo keza bilmas.
Bog‘bon uchun bo‘lak ovunch bor!

Vatan — u yaratgan bog‘.
Vatan — shu bog‘dan kuch-qudrat olganlar!
Vatan — asrab qola olganlaring!
Qo‘lingdan ketgan joy — g‘animnikidir!
Ilkingdan qochgan vaqt — o‘limnikidur!
Hamono ikki shox berdi daraxt,
Birin yo‘ndilar taxta-yu birin taxt.

EL HURMATIGA SAZOVOR HAKAM sir aytadi:
elning e’tibori, bu — unvon yo nisba emaski,
yo yelkangda, yo ko‘kragingda osilsa.
Elning e’tibori –
Senga hadya etilgan qo‘shimcha tiriklik.
Uni o‘n hissa qilib qaytarishing bor.
Birovkim anga himmat o‘ldi baland,
Erur olam ahli aro arjumand. (a. - hurmatli)
Birovkim aning himmati yo‘qturur,
G‘aniy bo‘lsa, ham hurmati yo‘qturur.

MA’NAVIYAT CHO‘QQISIDAGI NAQQOSH TOSHKESAR ZOT
bu martabaning sharafidan aytadi:
Bu — yerdan yuksalgan tog‘ ulug‘vorligi!
Ma’naviy yuksaklik — odamlar orasida isming sadosi,
Turli balo-vu odatlardan baland yurish,
bu — ularga ustuvor javobing borligi!
Ne qushkim baland o‘lsa parvoz anga,
Halok istamas novakdoz anga.

ZOBITLAR-U BOSQINLARNI KO‘P KO‘RGAN G‘ARIB
jahongir Iskandarni nega tengsiz
qahramon deb biladi?!

Nega unga ko'lamdor doston bag'ishladi?
Nega barcha zamonlarning
tojdorlariga saboq-namuna etdi?!
Bir millat olamda yagona hukmronlikka
intila boshladimi,
U qanday siyosat yuritmasin,
Olam qiyomat sari keta boshlagani!
Navoiy Iskandari yer yuzida
tenglik o'rnatmoq istadi!
Zulm yasog'ini majbur o'rnatgan shohlarni
insofga chaqirdi, gapga kirmasa,
borib o'sha yer millatidan shoh tayin etdi,
o'zi chiqib ketdi!
Millatning ichki yashash-turmush
tarziga aralashmadi.
Taxtga merosxo'r topilmagan joylarda
yerlik elga kengashib, yangi shoh ko'tardi!
Navoiy yaratgan Iskandar siymosi
shoirning o'z shaxsining timsoli go'yo.
"Ani elga shoh aylasam mustaqil,
Ki mulk o'zgag'a bo'lmasa muntaqil!"
(m. - o'tib ketish)

SHOHNING TINSIZ NIZOLARIDAN ZADA NOIB

xalq talab qilib tursa ham
tojdan ixtiyoriy kechgan kishi haqida hikoya qiladi:
Iskandar uning qo'lidagi ikkita bosh suyagiga
ishora qilib,
Dedi: "Bu so'ngaklardan afsona et,
Ne so'rsam javobini aning yona et!"
"Chu o'lganda birdur bu ikki mato,
Tiriklikda nevchun qilurlar nizo?!"

SHOHGA TO‘G‘RI SO‘Z AYTA OLGAN DOVYURAK –
ko‘pchilik uchun qayg‘uradigan odamdir.
Bunday kishilar —
elning jonini asrovchi, ruhini alqovchi!
Shoh bu sirli kuchni qadrlashi shart,
chunki el orzusidan uni xabardor qildi.
Ba’zi muassasa kotiblari
qog‘ozbozlikni ikki qirg‘oqdan oshirib,
keraksiz omillarni g‘ov qilib
yo bekor kov-kov qilib,
davlat, yurt ishini orqaga tortadilar.
Bir hojatmand ishini orqaga surilishi —
davlat obro‘ xaritasidagi bir belgi o‘chishi.
Shohga mardlar so‘z yetkursin — shoh mard so‘z aytsin.
Adolat aro fasli navro‘zdek,
Siyosatda barqi jahon so‘zdek,
Raiyatga qilsa qalamzan sitam,
Qalamzanning iligini qilsun qalam.
Qilib zabt ila mahkam o‘g‘ri yo‘lin,
Ulus molidin qisqa qilsun qo‘lin.

ISKANDAR SHUHRATI GO‘YANDASI:
bu afsonaviy qahramon adolati bilan ehtirom
timsoli!
Kuch mavhum bo‘lmaydi, harakat maqsadlidir.
Uni kuylash shart emas.
Unga haykal qo‘yish navro‘zga haykal qo‘ishdek g‘alat:
U kecha va kunduzni teng qildi!
Sayyoraga xuddi shu adolat zarur payti edi!
Haqiqat balki, Onadir?!
Eng so‘nggi, chorasiz lahza
o‘g‘illar o‘zini uning poyiga tashlab yig‘laydigan?!
Lekin Adolat va Shoh?! Nodir uyg‘unlik!
Iskandar nega yana osmonda?!

Adolat har qanday tuzumda,
har qanday sharoitda ro'y-rost, erkin ishlay olsin!
Unga tajovuz qilganlarni oshkora jazolash kerak.
Adolat deb, yashirin kuyib-yonganlar,
endi chiqing oldingi saflarga!
Haqqa jon tikkanlar milliy qahramonlardir!
Haqiqat uchun kurash tugagan joyda
haqiqiy hayot tugaydi.
Yana tuzdi oltun tarozusini,
Qaviy aylab adl bozusini (q. — kuchli, b. — qo'l, bilak)
Adolat qo'lin tutti andoq biyik,
Ki topdi amon arslondin kiyik.
Agar adl o'q oshkora-nihon,
Yaqin bilki zer-u zabardir jahon.

MALIKULKALOM:
"Qizil tiling boshingga qora balo kelturmasin!"
Til yo'l qo'ygan xatoni qo'l to'g'rilay olmas,
Jinoyatga qaysi mavqedagi odam yo'l qo'ysa,
buning oqibati ham shu qadariy bo'ladi.
Shohlarning har qanday kalomi
so'z qo'shiniga yildirim buyruqdir!
Faqat so'zi bois abgor taqdirlar qancha?!
Faqat so'zi tufayli mavqeyi oliy kishilar bor.
Yo'q ersa ikki shohi hashamatmato',
Ayon etsalar mulk uzra nizo.
Biri bo'lsa, farzan, ulug', bir kichik,
Bu so'z demas, o'lsa ulug'da bilik.
Qo'tonning ulug' qush aro soni bor.
Vale sung'ur oldinda ne joni bor?!

TOTUVLIK, HAMKORLIK TARAFDORI
dunyoda kin, adovat ko'payib ketganidan kuyadi,
oroyish tuxmi qayerga qadaladi?!

Podsholar kelshmovchiligi olamni xarob qiladi!
Bosqinchi podsholar buzib keldi yer tinchini,
ellar tinchini.
Bir millatning baxtsizligi hisobiga
ikkinchi bir xalq dorilomon yashay olarmikan?!
Shohlar "yer hay'ati andoqki go'y"
yumaloq ekanligini
o'z harakatini oxir o'ziga qaytishini bilmaydilarmi?
Zobitlar! Har bir millatni, xalqni
o'z holiga qo'ying, o'z holiga!
Shohlar! Bitimga keling! Yo'qsa...
Bu go'yo jahon ichra to'fon erur,
Ki andin jahon ahli vayron erur.
Ne to'fon, balo bahri chayqolg'oni,
Jahon ahli suv ostig'a qolg'oni.

KAMBAG'ALPARVAR:
oddiy kishilarning jahli barqdek tez o'tib ketadi.
Ammo amaldor kek saqlashda mislsiz!
Oddiy fuqaroning bir achchiq kinoyasini
uning yuragini abadiy g'ajib yotadi.
Oxir shuning o'chini olish payidan bo'ladi!
Amaldorning adovati minglab kishilar ofati.
Daraxtning uchki shoxlari barra —
yumshoq bo'lgich edi...
Ammo, bu saltanat to'rong'ulning pastki shoxlari
o'tib bo'lmas chayir, chakalak...
Tepalikdagilarni qo'yavering, tig'dor, nayzador...
Necha shohlarg'a yaqinroq kishi,
Adovat kelib ko'prak uning ishi.

NIZOLARNI BARTARAF QILGUVCHI:
Har urush, nifoqqa o'ziga mos amal bilan aralashuv
darkor!

Qo'llagan quroling u yo bu tomonni
battar qo'zg'atmasin!
Birovlar nizosiga manfaat ko'zlab aralashsang,
Ularni halok qilasan,
o'zing xor bo'lasan.
Shirinlik talashgan bolalarni yaratirish na qiyin,
o'zgalar yerini talashgan ikki ajdahoni tinchitish,
o'ho'...

Rafiq ikki darvesh beishtiboh, (b. - begumon)
Erur yaxshiroqkim aduv ikki shoh!
Nizo ichra mundog' marotibni bil,
Qila olmog'ing chun yaqin bo'ldi qil.

.

DUSHMANNI OJIZ KO'RMAYDIGAN LASHKARBOSHI

dam, zug'm urguvchi har bir yovning
taaddisining sabab va imkonini chamalab boqadi.
Bepisandlik xor-u zorlikka uchratadi.
Bepisandlik mag'lubiyat keltiradi.
Bepisandlik yakkalanib qolishga olib boradi.
Dushman haqida bepisandlik bilan
havoyi ma'lumot beruvchilardan ehtiyotingni qil.
Birov oddiy ko'z bilan ko'radi, birov mantiq, karomat,
idrok ko'zi bilan...
"Xabarchi" o'z aqli darajasida ojiz fikrlab,
seni chalg'itmasin.
Biri debki: "Ko'rgach qaro qochqusi!"
Biri debki: "Uzr eshigin ochqusi!"

ADOVATLI SHOHLARDAN ZADA AMIR

ikki shohning adovati ikki tomonga hadsiz g'am
keltiradi!
Bu — tasodifiy qazoyi muallaq emas,
bu — xudbin kin, nifoq!

Tongning alvonligi — quyoshning
shohlar to‘kkan qonidan
bazo‘r oyoq uzib ketishi emasmi?!
Abadiy hayot, balki bitta boychechakning
pichoq yuzi o‘sganini tinmay kuzatishdir?!
Shu lahza ichida o‘zing qancha yashading!
Ketur soqi, ul mayki, jone topay!
G‘am ichra o‘lardin amone topay,
Ki gar davr og‘u berdi Dorog‘a bot,
Iskandarga ham bermas obihayot!

FAROSAT NURI TARATUVCHI DONO

davr shohiga qoidalar chizadi:
Taxtdan shoh yaqinlarigina iltifot ko‘rmasin,
olis-yaqin, katta-yu kichik teng bo‘lsin.
“Uluqqa uluqcha ato, kichikka kichikcha saxo!..”
Sen bir marta shoh bo‘lasan!
Elning ham umri ikkita emas!
El shohdan o‘ziga umr so‘ramaydi,
to‘rt fasl izchilligini kutadi.
Shoh saltanatni emas,
xalqi dahosini, hayotbaxsh g‘ayratini boshqarsin.
Va gar ilgiga tushti donishvar el,
Funun ichra oroyishi kishvar el,
Keraktur alar birla nav’e maosh,
Ki xotirlari topmag‘ay ko‘x xarosh.

BOSQINCHIGA O‘CH SHOHNI YO‘LDAN QAYTARUVCHI

yurishga chiqqan qo‘shin yo‘liga ko‘ndalang yotib oladi:
O‘z eling qornini to‘ydirmay, yeringni obod etmay,
chegarangdan tashqari ko‘z olaytirmog‘ing ne?
Ularni ham o‘z xalqingday nochor,
egik bosh qilmoqchimisan?

Chegarangdan endi boshqa xalqlarning kuy-qo'shig'i emas,
onaizorlarning zori-faryodi kirsinmi?!
Yurting boshqa xalqlarning nafrat va
masxara nishoni bo'lib qolsinmi?
G'urbat chegaralarini muncha kengaytirasan?
Dehqonning tomorqasini devoridan chiqarib yubor!
Eling dasturxoni chegaralaridan noz-ne'matni toshir!
Agar shohdin xalq xursand emas,
Aduv qasdi qilsa xiradmand emas.
Ne dushmang'adur tig' chekmak fani,
Kim o'z xaylidur sarbasar dushmani!

O'Z TAQDIRIGA O'ZI HAKAM ZOT e'tirof etadi:
kishi taqdiri — o'z fe'lining egizagidir!
Ko'z nafs uchungina ko'rsa,
Idrok nafsnigina o'ylasa,
Yurak nafsdan zarb olsa,
Umrning qayerdan boshlanib qayerdan tugashini
o'ylab o'tirishga hojat bormi?!
Bunday imoratga tashqariga ochiladigan deraza
qo'yish na hojat!
Kishida ne fe'lki mavjud erur,
Ki andin ziyonbud sud erur.

SAHO VA MURAVVAT KOSIBI
O'z mehnatiga, yaxshilig'iga evaz so'ramaydi.
Ammo yomonlikni, adovatni kasb etgan nokaslar
o'z qilmishlari jazosini ba'zan tezgina oladilar!
Tag'in, kelgan bu ofatdan hayratga tushadilar:
"Kim yubordi buni! Kim yomon ko'radi bizni?"
Ilohi, bularning butun umri qizigan
tova ustida bo'lsin.
Na bu olovdan tushib ketishni,
na o't yoqar kimligini bilsin.

Tariqi adovat shior aylasang,
Zalolat yo'lin ixtiyor aylasang,
Ne oldingg'a keltursa charxi dani, (d. - tuban)
Ko'rar lahza, ko'rgil o'zungdin ani.

ZAKOVAT XAZINABONI
har qanday boylik harakatda turmog'ini yaxshi deydi.
Odamlarni oltin-kumushdan, puldan qo'rqitib,
qo'lini ishdan sovutmoqlik nechun?
Yashirin boylik — koni notinchlik, kulfat.
Na elga, na davlatga manfaat keltirmaydigan
xazina nima, aql-idrok nima?
Bir shoirning ilhomini oldindan
rejalashtirish mumkin emasmi?!
Butun bir xalq dahosni undoq orzu qil,
mundoq umid qil deb
loyiha berib bo'larmi? Yo'q, bu qafas!
El o'zi moyil mehnat bilan yashasin-da!
Kishilar davlat boyligini o'marishga majbur bo'lmasin,
davlat ishbilarmon boyligini iste'dodidan "o'marsin!"
Agar nafdin bo'lsa mahzun yiroq,
Aning la'lidin xora ko'p yaxshiroq.
Kishikim benaf' erur mahzani,
Jahon ahlidur sarbasar dushmani.

GULGUN DAVRALAR OSHIG'I:
Jazava o'yin, sarxush suhbatlar hali saodat emas!
Bu anjumanda hamma uchun raqs tushasan,
lekin sevgilingni o'ylab.
Hammaga qaraysan, lekin
o'z gulingni o'xshashini topolmaysan...
Har qanday chiroyli davraning fayzliligi —
bunda sevgilingning, yoring, hamrozingning borligi!
Saltanat poytaxtga sidq-u fidoyilik!

Visol — ishqning poytaxti!
Visol — to‘garak olamning tortilish ohanrabosi!
Ishq bazmi hatto qishni ham qizdiradi.
Qishning uchqunlari — yor xabarchilari,
Visol yo‘liga oq to‘shovchi xizmatkorlar.
Qiyos etmayin davr-u layl-u nahor,
Aningdek qish ichra muningdek bahor.
Necha anjuman jannat osordur.
Tomug‘dur agar kimsa beyordur. (t. - do‘zax)

JAMI’ MANSAB-U NISBA-VU NISHONLAR SOHIBI

o‘z oshiqliging mavqeyini barcha unvonlardan
ustun qo‘yadi.
Odamning qolgan sifatlari
shu muhabbat shu’lasi tufayli ko‘rinadi,
qiymat topadi.
Muhabbat alangasi
uzoqni ko‘rish, to‘yish, yaqin tutish kabi
ming fazilatlidir.
Ishqsizlarga qayda bu in’omlar?!
Erur ishq aro bo‘yla a’jubalar,
Ki beishq bilmas bu mansubalar.
Navoiyg‘a, yorab, qariyb et ani, (q. - yaqin)
Qariyb etting ersa, nasib et ani.

TAMAGIRLIKDAN YIROQ AMALDOR

tobe kimsalar oldida qadrini yuksak tutadi.
Arzgo‘yga berilgan bir noo‘rin azob davlat ildiziga
urilgan bolta zarbi bo‘lib qaytar!
Yolg‘on va’dalar, behuda hasharbozliklar-chi?!
Kishilarga ular yoqtirmagan kishini
bosh qilib qo‘ysang,
ularga o‘zing ham yoqimsizsan.

Xalqning kirimin chamalab ko‘rmay,
chiqim talab qilma!
Iskandar o‘zi zabt etgan joylarda sipohlarga
talon uyoqda tursin, ta’magirlikni man qildi.
Uning buyrug‘i:
Birovkim tama’ rishtai qilg‘usi,
Aning birla bo‘g‘zudin osilg‘usi.

DORILAMON ZAMON ORZUMANDI

el farovonligi omili —
tenglik deb biladi.
Tenglik — har qanday sharoitda bo‘lsin!
Tenglik — har qanday tuzumda
Kishilar o‘rtasidagi tenglik!
Katta-kichik xalqlar o‘rtasidagi tenglik!
Mehnat — iste’dodiga yarasha samara beradigan tenglik!
Bir qadam siljishgada yo‘l ochadigan tenglik!
Birov o‘z mehnatidan boy yashasa,
shuning yarmini tortib oladigan tenglik emas,
har kim o‘z mehnatining samarasini ko‘radigan
tenglik!
Aksi bo‘lsa, yana o‘sha pora, ta’ma, qo‘shib yozish...
Birov-birovni ayblashlar, o‘lganni tepishlar...
Shunday tenglik bo‘lsinkim:
Birovdin birovga yetishmay g‘ame,
Kishidin kishi olmayin dirhame...

OLAMNI BILISH MUMKINLIGIGA ISHONGAN ALLOMA

uni harakatdagina bilish, o‘rganish mumkin deydi,
Jarayonda — bo‘lakdan butunga,
aniqdan nihonga aniq borish!
Yulduzni osmonga kim chiqargani emas,
shoir daftariga nega tushganligi qiziq,

Bobma-bob bilishga intilish — olimlikdir.
"Quyosh sirining mahrami, zarra mohiyatining
odami" bo'l!
Va lekin kishi zohir esa talab,
Jahon ichra ko'ptur ajabdan ajab.
Muni ko'rmak o'lmas jahon kezmayin,
Taab zahrni o'z komiga ezmayin. (t. - mashaqqat)

KALTABINLARDAN ZADA JON

keng, baland parvozlar istar!
Hammaning olamga o'zidek qarashini orzu qilar!
Ammo anavi buyruqbozlar,
olam nadir — osmon nadir,
o'z kaltaligidan narini ko'rolmaydigan kimsalar-chi?!
Kallasiga kelganini qonun qilib
shuni bajarishga hammani majbur qilib
turguvchilar-chi?!
Qonunning harflarini bir-bir pullovchi,
dehqonni faqat "terimchi",
"o'roqchi"ga aylantirib,
o'z millatini gado etgan "odil" arboblar-chi?
Faryod, yana faryod!
Bunday to'ralar bilan hurlikda emas,
qora zindonda yashash afzal!
Odamlar jamoasi bulardan
barcha jahon urushlaridagidan ko'proq aziyat chekdi!
Turli qushlarga, ularning qanotlariga,
hatto tuxumga
haykallar bor!
Katakdagi tovuq qanotiga ham
"yodgorlik" qo'ying!
Sabrga, "shukr"ga qon-zardobdan
yodgorlik tiklang.
Katakda qolib bo'rdog'on mokiyon, (b. - semirgan)
Ne ma'lumi uchmoqda sud-u ziyon!

XALQNING OTASI!

Elning so‘nggi umidi sizdan!
Sizdaylar ko‘paysin, uzoq yashasin!
Cho‘qqisi ko‘p tog‘lar —
Shu cho‘qqilar boshidagi oq mavqe
Tuqqan yerni quchish uchun daryolarga aylansin.
Chanqoq kishi bir kaft suvni
shu bois daryodan-da yuqori ko‘tarib ichadi!
Oshiqqa lola, dardmandga shifo,
yigitlarga kuch, keksalarga konlar teranligi...
Siz hayotning buyuk harakatiga,
kelar davronlarga, baxtga intilishiga
oq shiddat berib tursangiz bas.
Kelajak oqimi, mayli, qiyin dovonlar oshsin,
ammo pastga tushish vahmi uning nafasini bo‘g‘masin!
Tarona chekar soyir erkonda rud,
Chu turdi — tarab birla chekmas surud.

BUYUK SAYOHATCHI

ko‘rganlaridan albatta ochiq-nihon xulosa chiqaradi!
Kimki olam bo‘ylab yursa-yu, ko‘rsa-yu,
bundan na hayrat, na saboq olsa,
buni yurtga aytmasa, — dunyo kezgan sharpadir, xolos!
Hatto bulut o‘zi kezgan iqlimlarning
havosini yuqtirib keladi?!
Sharpalar, sharpalar...
O‘qisa-yu, o‘rgansa-yu, muqoyasa qilib hukm aytolmasa,
buyam shu!
Minglab odamlarni ko‘rsa-yu, odam tanimasa, buyam shu!
Yig‘sa-yu, nimaga sarflamoqchi ekanini bilmasa,
buyam shu!
Balki sayohatlar bu qusurlardan qutilishga
yordam berar?
Chunki: “Sayohat qilmagan odam xomdir”.
Shuning uchun ham

atrofingga boq, qara, ko‘r, ilg‘a, fikr qil!
Solib har nechuk yergakim yetsa ko‘z,
Eshitib yana barcha el ichra so‘z,
Ko‘rub har mashaqqatda xosiyate,
Topib har mazallatdan kayfiyate...

DEHQON BOBO, YERNING O‘Z EGASI!

Egatlar chizig‘i — uning kaftidan.
Soylar ayqirdisi — uning peshanasidan...
Uning uyqusiz ko‘z-kiprigi — tonglar otishi...
Dehqonni yeri bilan o‘z erkiga qo‘y!
U yerga kuch bersin, yer — unga!
Dehqon zuluk emas, yerni bemashaqqat so‘radigan!
U — hamshira, u — murabbiy, u — padar...
Uning qo‘llarida zamin taqdirining foli chizilgan...
Uning haqini tuya qilganlar
tuyalar tovoni ostida — bor xesh-u aqrabo,
jigarlari bilan ezilib, xor-u xarob bo‘lsin.
qurt-qumursqalar hazar qilsin.
Qabarchuq kafi-poyida har taraf,
To‘la durri maqsud ila ikki kaf.

YANGILANISH YO‘LLARIDAN XABARDOR SIYOSATDON

jamiyatda yangilanish bo‘lishi uchun
insonlar tabiatini, ularning orzu-armonini
o‘rganadi.
Inson tabiati ma’nan intilgan narsalar —
jami’ o‘nglanishlarning alifbosi!
Odamlarni, yangi fikr, g‘oya, yo‘nalish jalb qiladi!
Lekin bu bir lahzalik tomosha bo‘lib qolmasin!
Bu — abadiyat uchun, ruh uchun qilingan ish bo‘lsin!
Qobiliyatli yuraklardadir Iskandar oyinasi!
Oxiri majhul ishlariga behuda chiranish nechun?

Behuda ishlarga butun-butun avlodlarni
huda-behuda jalb, safarbar, sargardon,
garang etib qo'ymoq nechun?!
Har kim va hamma
iste'dodi, hatto g'ayritabiiy kuchi,
quvvayi hofizasini ayon etsin!
Ne qilg'oli kimgaki niyat durur,
Burun shart anga qobiliyat durur.
Tajaddud erur chunki marg'ubi tab'
(t. — yangilik, m. - yoqimli).
Erur mujibi aysh mahbubi tab'.

YIGITLIK QUDRATI BARQ URGAN SHAHZODA

Kalondimog', maqtanchoq, el so'rog'iga garang va
tajang shohning
taxtdan ketaqolmaganiga qahrlanadi!
Aslida gap taxtda yoshmi-qarimi o'tirganida emas,
kim uchun o'tirganida!
Axir butun boshli xalq,
Tabiatning o'zi fasl almashinishini taqazo etgan chog',
Aqli borini qachonlar xazon, qirov urgan kimsani
O'ziga BOSH qilib o'tirsa to'g'rimi?
Suf bunday sabrli xalqqa!
Suf o'z e'zozi-qadrini bilmagan avlodga!
Bu shohning holiga boqing:
Taxtning yog'ochiga tushgan qurtdan ne farqi bor?
Dimog'iga xiffat solib erdi yo'l, (x. - yengiltaklik)
Quloq solmas erdi nasihatig'a ul...

ABADIY YOSHLIKKA ERISHGAN JUVONMARD

o'z yasharish sirlarini o'rtoqlashishdan qizg'anmaydi:
Tabiat yoshlik, yigitlik paytingda seni

qancha balo va illatlardan
o‘zi asrab-ihota qilib,
burro til, bedor yurak, barqiy xayol,
oliy aql berib qo‘ysa
sen bu qaytarilmas imkoniyatlarni nimalarga,
qanday sarflayotganingni bilmasang,
hech bo‘lmasa o‘zing o‘zingdan so‘ra:
kim, nechun berdi bu ne’matlarni senga?!
O‘z xalqing tarixi ayvonidagi, bittagina bo‘lsin,
ustunni tiklab qo‘ya oldingmi?
Kelajak sari yo‘lida
bitta ko‘prikcha qurib beroldingmi?!
Yurt bog‘iga bitta nihol o‘tqaza oldingmi?
Millating toleyidagi
g‘uborga qorilgan
Bitta yulduzning kulgichini
yaraqlatib arta bildingmi?
Hech bo‘lmasa o‘z xonadoning qurch-metinligi uchun
zahmat va aziyat chekdingmi?
O‘z fikring ozod, ovoz chiqarib,
sinab, behadik, g‘alati gumdon bo‘lmoqdan
qo‘rqmay, aytib ko‘rdingmi?
Seni shu zarur ishlarni qiladi deb bermadikmikin
tabiat
bebaho va qaytarilmas imkonni?!
Hechsa, o‘z vijdoningga hamkorlik qil axir!
Kishining bu vaqt ikkidur holati,
Erur aqli yo nafsining quvvati.
Agar aqlig‘a quvvat o‘ldi fuzun,
Bo‘lur yaxshi ishlar sori rahnamun.
Yigitlik erur qulluq etmak chog‘i,
Qarilig‘ erur chunki ketmak chog‘i.
Xusho ulki, umrni taboh etmadi, (t. - xarob)
Qilur ishlarin qilmayin ketmadi.

JAMIYAT BEZAGI, MILLAT FAXRI

yurt obro‘sini, sha’nini
kimlar ustuvor tutib turganligini qat’iy aytadi:
Bular ruhi pok, tiynati pok, insof-diyonatli jonlar!
Ular yurt uchun har ishning uddasidan keladilar.
Ular har mushkulni, qirq tomonidan qarab ko‘rib,
kimlar, qanday bajarishi mumkinligini
biladilar.
Ular na xesh, na yor demay, na katta, na kichik demay,
o‘z odil so‘zi, daldasi yo raddiyasini bera oladilar!
Barcha bir so‘zni takrorlab,
bir odamni maqtab, qaytaraversa,
bilingki, erkinlik to‘tilarniki bo‘libdi!
Ha, yosh o‘g‘loni-qizi qo‘rqoq bo‘lib qolgan xalq —
baxtsiz, taxtsiz!
Keksalari xudbin, dirdov bo‘lib qolgan xalq —
baxtsiz, baxtsiz.
Bor bo‘lsin bu yurtning muboraktabiat kishilari!
Kim ul qavm erur yo nabi yo vali,
Va yo hikmat ahli aro a’qali.
Ki nafsoniyat qilmayin ishta fosh,
Qilurlar nechukkim, keraktur maosh.

HUSHYOR IDROK EGASI

o‘z qalb yolqinini sarishta tutadi,
Hushyorning dilida yuz savol ichida ikki savol doim bor:
“Men kimni himoya qilayapman?!”
“Menga kimning rahmi kelyapti?!”
Hushyorlik — yurak alangasini zardushtiylar
kabi asramak!
Hushyorlik — idrok tongida ochilgan gul.
Ba’zilar o‘z qalbida bor olov kuchini sezmay,
uni may bilan balandlamoqchi bo‘ladilar!
Millat erkinligi — fikrlar
turfarangligi

bir-birovga hushyor, mehribon homiyligi!
Hushyor donolar baxti — tafakkur
chaqmog‘iga
Keng falaklar doim minbar ekanligi!
Bu — kuchli olovga qaynoq suv bilan avj
berishga urinish!
Qayu o‘tki suv qilsa tug‘yon anga,
O‘zing deki o‘chmay ne imkon anga!

ODOB MUALLIMI aytadi:
Hayot seni goh arzgo‘y etadi,
goh shohona iltifot ko‘rguzishingni talab qiladi.
Bugun buni qilasan, erta mūni. Va aksincha...
Soha kishilariga
o‘sha soha odamidek munosabat qil.
Odob — yumshoq supurgilik ish emas.
Odob — ilm vositasi bilan
yurak oynasin jahl, kibr g‘uboridan tozalash!
O‘z haqini so‘rab kelgan faqirni
“o‘zgacha fikrlovchi yov” deb e’lon qiladilar.
Haqni so‘rash — ilohni so‘rash!
Salom va arzga kelganlar qarshisiga,
Iskandardek, taxtdan pastga tushib ko‘rish!
Bu — taxtdan tushganing emas,
Bu taxt mavqeyini ko‘targaning!
Ko‘rishgan mahalda qilib o‘zni past,
Ko‘rub o‘zni din ahlig‘a zerdast,
Qilib hikmat ahlig‘a ham mayl bot,
Etib har birisig‘a ko‘p iltifot...

XALQPARVAR SHOIR ISKANDARNI
odil shoh deydi
Ammo xalq odil shoh bo‘lishiga ishonmaydi,
omma o‘z tajribasidan kelib chiqib gapiradi:
Necha shoh kelib ketdi, —

birontasi o‘z jig‘ildonidan baland
ko‘tarila bilmadi!
O‘z xesh-aqrobosidan o‘zgani ko‘rmadi!
Millat ichida o‘zidan-da oqilroq,
kuchliroq yana bir jon borligini
hatto o‘ylashga ham qo‘ymas!
Kuni bittagina shu “oxirgi” “dahr”ga
qolgan xalqning holiga voy, voy...
Ammo Iskandar, u nechukdur o‘zgacha!
Yo falakdan xato o‘tib,
shohni odil qilib qo‘ydimi?
Savol-javob:
— Seni o‘zga shohlardek ettuk gumon,
Deduk o‘zga shahlar hamon, sen hamon.
Dedi shahkim: “Sizga nekim bo‘lsa kom,
Menga kom erur! Andin o‘zga harom!”

GUNOHKORLARGA AFVKOR VAZIR

o‘zin bu ish tutimini dalillaydi!
Gunohkorning bu birinchi aybi va
o‘zi endi uyatli va uzrli tursa,
elga — davlatga ko‘p yordam
keltirmagi barqaror bo‘lsa,
Jinoyatni jo‘rtaga sodir etmasa,
gunohkorga uzrli, afvli bo‘lish zarar qilmas!
Davlat oshkora kechirsa,
bu — oshkora saboq!
Yomong‘a jazo gar siyosat durur,
Muravvat tariqi riyosat durur.
(t.r. — boshchilik qoidasi)
Va agar kimsaga sobit o‘ldi gunoh,
Karam qilsang o‘g‘lon zamon uzrxoh,
Agar odami bo‘lsa — to joni bor,
Yana qilmoq ul ish ne imkoni bor?!

QAYTAR DUNYO SIRLARIDAN VOQIF KISHI ogoh qiladi:
Tabiat insonga yashirin xosiyat baxsh etgan,
bu sifatda sirli kayfiyat bor.
Bu har kimda har xil va mutlaqo o'zichadir.
Demak, birovga bilib-bilmay yomonlik qilsang,
jabrlangan tomon buni sirli tarzda eslab qoladi
Yo tabiiy ihota tuyg'ulari ishga tushadi, —
aks javob qanday va qaydan kelib qolganini
bilmay ham qolasan.
Ki har kim ayon etsa yaxshi qiliq,
Yetar yaxshilikdan anga yaxshiliq.
Va gar kimsadin zohir o'lsa yomon,
Ko'rar har nekim, zohir etti hamon.

ILTIFOTLI, SHIRINSUXAN, YAXSHI SO'Z INSON
Katta-yu kichikni —
hokim-u fuqaroni muomalada yuksak
madaniyatga chorlar!
Shoh o'z quli bilan, o'qituvchi o'quvchisi bilan,
usta shogirdi bilan, boshliq xizmatkori bilan
so'zning e'zozlik sifatlarini
qo'llab so'zlashishsa bo'lmasmi?!
Lekin ortiqcha, yelim yukli iltifot — ofat!
Kamtarlik —
ko'pchilik manfaati uchun qayishish bo'lsin!
Yurakni ozgina muhlat qo'l bilan bekitib turish —
— yurakni yot ko'zdan saqlash ham!
Bu — gullar ustidan ohista qo'l o'tkarish,
har qalbning mustaqilligini tan olish...
Bu ne — lutf-u pokiza tiynat bo'lur,
Bu ne — xulq-u ehson-u himmat bo'lur,
Bu himmatki bermish senga beniyoz,
Erur shahlig'ingga jahon mulki oz.

YOLG‘ONNI FOSH ETUVCHI PIRNAZIR

o‘truk, uydirma, lof so‘zlovchilarga
ko‘zgu tutadi go‘yo.
Kimki, so‘zi chinu ishi faqat o‘z manfaati bo‘lsa,
bu “chin so‘zlik”dan ko‘ra rost ofat yaxshi!
Nayzaning to‘g‘riligi qayda-yu,
Yurakning g‘ujanakligi qayda?!
Ha, terak go‘yo to‘g‘ri o‘sadi-yu,
ne-ne mevali daraxtlar, ming buklanib,
terak tomirlarining bexosiyat qo‘shnichiligidan
katta yuk tugolmaslar.
Ammo o‘z iste’dodsizligini tan olmas,
Elni johil, besavodga chiqaruvchilar bor.
El qalbidagi adolat tarozi
Qay tarzda ishlashi bir Ollohga ma’lum!
Ki: “Angakim yolg‘on farovon durur,
Chini ham el oldinda yolg‘on durur.
Agar qilmadi el himoyat sanga,
O‘zingdin kerakdir shikoyat sanga”

RAHBARLIK RIYOSATI VA SIYOSATI BILGIRLIGI

boshliqning so‘zi va ishini fuqaroniki bilan
solishtiradi.
Fuqaroniki bitta o‘ziga, shohniki mingga taalluq!
Shohning bitta harakati
elda turli ma’no chiqishiga sabab, xolos...
Kambag‘al bittagina qoidani buzsa bormi...
Birovni uzoq ko‘rsin deb,
Yelkamizga chiqaramiz.
U endi yuzimizga poshna urmasin-da!
Maozalloh, gar qilsa shoh egrilik,
Yuvmog‘liq kerak shahlig‘idin ilik.

MAYXO‘RLARNI IMONGA QAYTARGAN ZOT

bu toyifa uchun “oyinayi masxara” o‘ylab topdi.
Yolg‘on va rostni ajratadigan ko‘zgudan xabarimiz bor.
Ichkilikbozlikka jang —
millat ustuvorligi uchun kurash ekan-da!
Aroqni yo‘qotishga chiqarilgan qonun —
millatni o‘lishdan saqlab qolish hukmi.
Bu foje mashg‘ulotga kim, qachon ruju etdi! —
adl oynasida shuni oshkor etish shart!
Afsuski, bu ko‘zguning o‘zi,
Yasalish usuli, siri yo‘qolib ketgan...
Bu — imonga o‘xshash hikmati g‘aybdir.
Mana u ko‘zguning xislati:
Birov mayg‘a tog‘ib furudastliq,
Ayon qilg‘udek bo‘lsa badmastliq,
Ko‘rinur yuzi ko‘zgu ichra buzuq,
Uzun, yo‘qsa yalang, kichik yo uluq.
Ko‘rub ul buzg‘unlug‘ni nazzoragar,
Bo‘lur o‘z buzug‘ holig‘a choragar.

MEHMONNAVOZLIK FANI MIRZASI

kenglik va tenglikni shior qiladi o‘z xonadoniga!
Kenglik — boringki ochiq qo‘l bilan dasturxon bezash.
Tenglik — mehmonning mavqeyini namoyish qilmaslik.
Kenglik — o‘z kayfiyatini bilgizmaslik.
Tenglik — bu yaxshi ruhni hammaga tarqata bilish.
Mehmon ham toza tiynat —
bir eshikdan ikki narsa tilamasin!
Kipriklariga xijolatning botmon toshini osib
Kirsin xonadonga...
Agar bo‘lsa mehmon shoh ari gado,
Qilib mizbonlig‘ tariqin ado,
Tavofut ko‘rar bo‘lsa xud bok yo‘q.
Vale anga shahd-u munga xok yo‘q.

OLAM POKLIGI KURASHCHISI
o‘z mehnatlarining samarasini ko‘rishni istaydi.
Ammo yonginasida men ham ishlayapman deb,
hammani baravar bir qonga tiquvchi,
hamma daraxtlarga bitta bolta uruvchi,
barcha og‘ochlarda bir xil meva bitishini istovchi,
mendan yuksalmasin deb —
parvozga intilganlarning patini yulib turuvchi
vahshiy, yovuz guruh bor — qon hididan mast!
Bundaylar qachon fosh bo‘ladi?!
Ular qachongacha xalqning asl o‘g‘illari
taqdirini hal qiladilar?!
Bularga shamolning qismati saboq emasmi?
Yo‘q andoqkim, yelkim erur xokro‘b,
(x. — yer supuruvchi)
Qachon dasht aro bo‘lsa xoshokro‘b,
Qilur yer yuzin xor-u xasdin xolo,
Tamoin chuqurlarg‘a aylar to‘lo,
Bu af’olidin qilmish oni qadar,
Sabukbaro sargashta-vu darbadar.

DUNYO KO‘RGAN ULAMO ogoh etadi!
Kalondimog‘ shohning, xudbin millatning,
manman ustaning,
kibor olimning holiga voy, holiga voy!
Jahon sirlariga erishdim deb o‘ylagan faylasufning,
jami yulduz kashf etib bo‘lindi degan
munajjimning
aksincha, millatim dunyoning qolog‘i,
qashshog‘i bo‘lib qoldi degan talvasa-tashnalik bilan
olg‘a va faqat olg‘a intilgan jonlarga, qoyil!
O‘z istagini ochiq ayta olmaydigan,
qo‘rqoq millatning holiga voy!
Voy, orzusiga yetmay ketgan xalqim! Voy...
Iskandardan misol oling.

Qayerda yangilik ko‘rsa, buni o‘z mamlakatida
o‘z olimlari bilan tadqiq qilmasa tinchimaydi!
Shoh nimaga intilsa, fuqaro uning izidan boradi:
Nedin men dog‘i ahli hikmat bila,
Borib chora keyniga himmat bila,
Taammul qilib g‘avrig‘a yetmayin,
(t. — chuqur o‘y, g‘. - tubi)
Tilsim andin ortiq padid etmayin?! (p. - paydo)

OSHKORALIK TARAFDORI

Ahli donishni oshkora ihota etadi.
Oshkoralik — muayyan soḥaga ko‘pchilikni qaratish!
Oshkoralikning oliy martabaga, maqomi —
oddiy xalq o‘z dardini oshkora ayta olishi!
Shoh bilan fuqaro o‘rtasida oshkoralik —
bulutsiz cho‘qqi ila vodiy yuzma-yuzligi!
Iskandar olimlarini ikki guruhga —
Yer ilmi, osmon ilmi bilan shug‘ullanuvchilarga bo‘ldi,
lekin ikkovidan bitta samar so‘radi.
Chunki bu ikkisi bir-biridan ajralsa,
ilm bilan ilmninggina emas,
ilm bilan elning orasi buziladi.
Iskandar berib ikki sora madad,
Goh aylab qabul ishlarin, goh rad.
Alardin bu dog‘i bo‘lub mustafid,
(m. - bahramand)
Alar ham topib dahl mundin mufid.
(m. - foydalanish)

NAVRO‘Z KUYCHISI

Bu faslga alohida muhib, oshufta
Uzun qishdan so‘ng yerda, osmonda
zulmat bilan nur tenglashganidan behtar bayram bormi?!
Navro‘z — falakda adolatning boshlanar kuni!

Navro‘z kecha bilan kunduz falakda,
Teng oshkora yuzma-yuz kelar kun!
Navro‘z — o‘zbeklarning eng qadim,
yilda bir kun...
Eng suyuk, eng erkin bayrami!
Olamdagi barcha dinlar, qavmlar
o‘z qoidalarini ushbu ayyomdan o‘rganib,
qayta yozib chiqsinlar!
Gul-u sabza ayyomida bo‘ldi to‘y,
Bo‘lur gulshan oyin birla shahri ko‘y.
Ki bu sur erur olamafro‘z ham,
(s. — to‘y, o. — olamni yorituvchi)
Xususan erur fasli navro‘z ham.
Desang senki: jon qardoshim, yor-yor!
Men aytayki: munlug‘ boshim, yor-yor.

YOSHLIK QADRSHUNOSI
umrning tez o‘tar davrlariga urg‘u beradi.
Vaqt biz hisoblamasak ham o‘tadi.
Vaqt — yillar, oylar, kunlar emas!
Vaqt — elga xizmatda bo‘lgan davring!
Vaqt — umringning Vataning mazmuniga qo‘shilishi!
Vaqt — zamon xaritasiga
yuraging nuqtasini
tushira olganing!
Vaqt tez va sekin o‘tmaydi,
u ma’noli yo bema’ni kechishi mumkin.
Buni aniqlash oson:
Yangining eskira boshlaganini ko‘r!
Vaqt elning-xalqning zarariga
o‘tayotganin oshkor qil!
Jahon chorbog‘iki dilkash erur,
Yigitlik bahori bila xush durur.
Bu chog‘ etmagan aysh bo‘ston aro,
Jamode durur shakli inson aro. (j. — jonsiz, tosh)

KO‘NGIL SIRLARI BILIMDONI

hayotni ko‘ngilning holati,
ko‘ngilning hushi va raddi bilan idrok etadi,
Kishi tabiatdan ko‘ngliga mos,
tuyg‘ularni ovuntiradigan,
junbushga keltiradigan holat,
manzara izlashi shundan.
Ammo bahordan uzun, yozdan uzun,
kuzdan uzun, qishdan uzun
umr tilashimizga sabab ne?!
Chunki inson qalbi oyinasi
To‘rt faslni namoyon eta biladi.
Tan daraxti o‘z orzu gulini ochsin!
Turfa bu ranglar ruh qanotidir.
Ko‘ngulniki qish g‘uncha yanglig‘ qilur,
Bahor o‘lsa ul gul kabi ochilur,
Shak ermaski, har kimsakim joni bor,
Hayotni tilar ulcha imkoni bor.

TABIAT HODISALARIDAN HAYRON VA LOL KISHI

idrok doim savolga moyilligi sirrini
o‘z aqliy, ruhiy tajribalari orqali ochadi.
Birgina sirni yechgan, tan olgan odam
shu kichik mo‘jiza orqali uzun
sirlarga yo‘l ko‘ra olar!
Insonning (xalqning, millatning)
erkinlikka, hurfikrlik, mubohasaga
hamma borada intilishi
shunchalik tabiiyki,
shunchalik zarurki,
Agar unda shu tuyg‘u o‘lgan bo‘lsa,
uni (bu odamni, xalqni)
Tabiatning jonsiz, o‘lik joyi deng!
Demak, boring ham, yo‘g‘ing ham

Xalqing, millatingning gardanida!
Demak, men bir kichik...” deb
faol ishdan chetga tortilgan kimsa
Har holda odamiydan emas...
Necha sirridin elga yo‘qtur shuur,
Vale yo‘q tabiat ishinda qusur.

BAXT XAYOLPARASTI

O‘z ruh tovlanishlari, parvozni sezadi:
Kishi imon-e’tiqod butunligiga intilishi —
Olis baxt sari to‘g‘ri va qisqa yo‘l tanlagani.
Jimjima, dabdaba, kibr —
barchasi qo‘shilishib,
Bitta yomg‘ir chuvalchangidekkina yo‘lni bossalar,
Uning yumushini bajarsalar edi-ya!
Ne xush debdur ul dardmandi firoq,
Ki: “Oz baxt — ko‘p husndin yaxshiroq!”

SHOHLAR MASLAHATCHISI

Ikki tomon mutanosibligini diqqatda tutadi:
Fuqaro va shoh. Shoh va fuqaro.
Odil shohning adolati —
Unga qancha odam ergashayotgani!
Qo‘shini, mirshablari,
iskovichlaridan qo‘rqib emas,
aniq ixtiyor bilan, fazl-u kamolini suyub!
Odil shoh buning uchun o‘zida
necha noyob xislatlarni birlashtirsin:
Bahor-u yigitlik, dog‘i shohlig‘,
Yana hikmat-u donishgohlig‘.
Saxo shohdin elga matlub erur,
Siyosat ham o‘z o‘rnida xub erur.

ISHNI AVVALO O‘ZIDAN BOSHLAGAN INSON

Boshqalarni ham shunga chaqiradi.
Tabiat sirlari kaliti
Sening yuraging, ruhingda, inson!
Avvalo idrok ko‘zi bilan o‘z-o‘zungga,
o‘z ichki olamingga qaragin-a!
Tabiat seni uncha ham g‘arib,
qashshoq qilib yaratmagan!
Yaxshilab sanab ko‘r o‘z imkonlaringni!
O‘zingdan boshla! O‘zingdan!
Ammo o‘zingda hech nimani ko‘rmasang,
topa olmasang,
Tole’ingdagi ba’zi nuqsonchiliklar uchun
boshqalarni aybdor qilib yurma!
Nazar qilsa topqon basirat ko‘zi (b. - o‘tkir)
Erur bu baridin ajabroq o‘zi!
O‘z avzoyig‘a boqsa sar to qadam,
Topar aylasa yaxshi andesha ham,
Ki ne turfa erur dilpisand,
Aning zimnida ma’niyi arjumand.
(arj. — qimmatli, aziz)

O‘Z YURAGINING SOATSOZI

Aniq masofalar ichidan yo
mavhum kengliklardan
o‘zi-o‘zidan hech nima yurib kelmasligini uqtiradi.
Inson, kamolotiga yo‘l — yuragingda!
o‘zing, yo millating, xalqing biron narsaga
erishmagan bo‘lsangiz,
u yo o‘zi go‘l, yo o‘zi tanbal,
yo majburan uyquda, bexabarlikda tutilgan!
Yo uning basirat ko‘zlari bog‘lab qo‘yilgan!
Yo uning o‘z imkoniyatlarini ochishdan na o‘zi,
na boshqaga foyda yo‘q!

Yo shu mehnatning samari o‘z xalqiga
tegmasligini bilganidan!
Har bir xalq o‘z kamolini qayg‘ursa,
Ilmi, tili, madaniyati va uning namoyandalarini
Kamolotga yetkuzishdan boshlaydi:
G‘aroyibqa har kimki hoqon erur,
Ham o‘zida maqsudi pinhon erur.
Ne ma’niki sitar o‘zidan topar,
Jahonda kezarning ne ma’nisi bor.
Kishikim bu ganjinaga topti yo‘l,
Jahon ahlining shohi ul bo‘ldi, ul.

O‘ZGALAR G‘AMIGA HAMDARD HAMSHIRA!

insoniylikning oliy ko‘rinishi —
bir-biriga dard-u tashvish soatlarida esh bo‘lishi!
Bir o‘lja topsa yo yarador sherigini ko‘rsa,
hatto qushlar, hayvonlar bir-birlarini chorlayurlar,
bir joyda bezovta charx urarlar,
Nega 1982-yilda hamma sayyoralar
quyoshning bir tomoniga tizilib, ko‘rikdan o‘tishdi?
Ne xabar edi bu?
Jamiyatda, nihoyat, nihoyat, hechsa, birgina, bittagina...
o‘zgarish bo‘lishiga shama’ edimi bu?!
Yo falaklar tubidan bir elchining,
ravon ketishi yo kelishiga sharoit muhayyo qildilarmi?
Insondagi izlanish — o‘zining baxti!
Birovlar ko‘nglidagini topmoq istagi —
elning baxti!
Talab raji-yu topmomoq shiddati,
Bo‘lubtur aning mujibi shavkati, (m. - sabab)
Nedin o‘zgalar ko‘nglida tobdur, (t. - nur)
Ki durri noyob — noyobdur.

SHOHLAR TANQIDCHISI

Bu — hayotbaxsh xislat.
Bu — ellar yodida umid uyg‘otadigan kuch!
Faqat rad etuvchi, faqat shubha bildiruvchi,
xato izlovchi, teskari gap aytuvchilar ham bor!
Bir qarashda bularniki ham shijoatga o‘xshab ko‘rinadi!
Ammo, afsus!
Soatni to‘g‘rilash uchungina,
Bir-ikki minut orqaga qaytarish mumkin!
Shohning soati elining intilishlari shiddatidan
ortda qolib ketgan bo‘lsa, quruq gap ersa,
ne yetsin tanqidga, kurashga!
Ko‘rinib ajab shohning ul ishi,
Debon bir so‘z o‘z ko‘nglida har kishi.
So‘z ayturg‘a har kimsa aylab havas,
Vale topmayin kimsa ul dastras.

AYRILIQLAR DARDINI CHEKKAN KO‘NGIL

Hijronni kulfatning eng og‘iri sanar!
Mol-u dunyo ayrilig‘i ham bor.
Lekin Alisher Navoiyga bu asosiy g‘am emas.
Mol topilar — jon qayda?!
Jon topilar — do‘stlar qani?
Do‘st topilar — yurt qani?
Oh, bu hijronlar silsilasini ko‘ring!
Biri odam asbobi hijron bil, (a. - sabablar)
Muyassar jahon ahlig‘a ani bil. (m. ta’sirli)
Biri ayru tushmaklik ahbobdin.
Kishi bag‘ri o‘rtanmak ul tobdin.
Biri dog‘i hajri qarobat erur (q. - qarindoshlar)
Ki jon uzra andin mahobat erur.
Biri ulkim yetib ishqdin xastaliq,
Birov jonibi bo‘lsa dilbastaliq. (j. - jihat, taraf)
Mangakim ichim hajrdin zordur,
Bugungidan o‘zga bori bordur.

YURAK VA AQLI UYG‘UN ZOT!

Qalbda reja-istaklar bir dunyo!
Aql holatni lahza hisob-kitob qilib,
unga yo‘l ko‘rsatishi kerak!
Yurak, aqldek izdosh suyunchiga ishonsagina
olg‘a ketadi!
Yurak ishq deb ilgari ketsa,
El deb ilgari ketsa,
Erk deb ilgari ketsa,
qadrim deb ilgari ketsa,
Aql uning abadiy xizmatida bo‘lsin!
Qayu ishniki, ishq aylar pisand,
Emas aql man’ aylamak sudmand,
Necha bo‘lsa elga xirad rahnamoy,
Har ishda tariqi muvajjah namoy.
(t. - usul, m. - ma’qul)

O‘Z VATANIDA MAQSADIGA YETOLMAGAN KISHI

Arzini kimga aytsin?
Vatanida uni tushunuvchi kishilar oz,
Bori o‘z moli-joni qayg‘usida,
Ko‘pchilik davomdor jaholat bois uyquda bo‘lsa?!
Anchalar o‘zgarish umididin ko‘ngil uzgan ersalar?
Nechalar ochiq so‘z aytish,
kurashishdan chekingan bo‘lsalar?
Ko‘plarning tili-zaboni bog‘liq bo‘lsa?
Tili-zaboni ham suyanadigan bir tayanchi
bo‘lmasa?
Ketur soqi, ul jomi taqvishikan,
(t. - parhyezni, jimlikni buzadigan)
Ki ko‘nglumga tushmish havoyi vatan.
Tilarmen kezib rab’i atlolni,
(r. - obod, a. - vayrona)
Desam ranji g‘urbatdagi holni...

Navoiy, vatan bo'ldi manzil manga,
Bu manzildin ammo ne hosil manga?!

IKKI YO'QLIK ORASIDAGI ME'MOR

o'z umringni ikki olamga poydevor bilib
bekorga lof urma, urma deydi!
Belgisiz kelajakni maqtab ko'pirma!
Ko'pchilikni mavhum istiqbol bilan ham,
mavhum o'tmish bilan ham ovutib bo'lmaydi!
Baxtli bo'lish haqida ertaklar jonga tegdi!
Katta yoshdagi ba'zi odamlar lekin haliyam
go'daklik xislatini yo'qotmabdi:
Ona allasi bilan uxlab, ona ovozi bilan uyg'onadi...
Dunyo soxta yo'lboshchilarni ko'p ko'rdi.
Savodsiz jallodlarni undan ham ko'proq!
Bugun nima bor atrofingda, bugun!
Bugun! Bugu-u-un...
Burung'i kun-u tonglardin urma dam,
Ki el bir adamdur, bu dog'i adam.
Erurbiz bu kun har ne nobud-u bud,
Ki ikki adam ichra tutmish vujud.
(a. - yo'qlik)

O'Z VATANINI SEVUVCHI buning tub ota maqsadini aytadi:

Ne bo'lsang ham vatan ichinda bo'l.
Yildirim yorug'ida ham so'z yozib ulgur!
Maqsadingni aytib, ko'rsatib ulgur!
Chunki seni o'rab turgan zulmat beqiyos katta!
Lozim ersa, otgan o'qingdan,
aytgan so'zingdan o'zib ulgur!
Taqdiring ayrim so'zbozlar istagiga
bog'liqqina bo'lib qolmasin!

Yetmasmi jigarlaringning shuncha vaqt
mehnat o'ti uzra kabobligi!
O'z — bekist — on! — on! — ton!
Vatan — ona! Vatan — ota!
Vatan — o'zing!
O'zing! O'zing!..
Sen nima ish qilding shu o'zing uchun?
Shu o'zingni tozalay oldingmi yot illatlardan?
Shu o'zingni yuksalta oldingmu olam ko'ra olgudek?
Shu o'zing birgina o'zing bo'lib qolmadingmi?
O'zingga loyiq merosxo'rlaring bormi?
Musofir bo'l, ammo Vatan ichra bo'l,
Tila xilvat-u anjuman ichra bo'l,
Safar azmi do'zaxqa soniy durur.
Vatan xubbi imon nishoni durur!
(v.x. — Vatan sevgisi)

ZOBIT SHOHLARNI OGOH ETUVCHI
ta'kidlaydi:
Boshqalar yeriga qurol, qo'shin bilan kirish —
abadul-abad kechirilmas jinoyat!
Boshqa qavmlarning qarg'ishi
sening xalqingni ulug' etarmi?
O'z yurtingda boshqa millat qo'shiniga, hukmronligiga
chidab yashaganing ham
o'shancha kattalikdagi aybing,
o'z kelajaging oldida jinoyatingdir!
Farzandini bosqinchi qo'shin safida uzatgan el
faqat o'z farzandini o'ylab-qizg'onib qoladi.
Bu yov, bu bosqinni vahm ichra kutayotgan el esa
butun Vatanini o'ylab qizg'onadi.
Ikki xalq, ikki millat
Bir-birlariga mehmonga borishsin.
abadiy do'stlikda,
chegaralariga muqaddas gullar ekib,

teng savdo, teng ittifoq yashashsin!
Mehmon o‘z siyi ila ketsin,
Mezbon o‘z hurmati bila qolsin!
Iskandar, biron yurtga kirsa,
Adolat tiklash, ichki nizoni tugatish bilan bo‘ldi.
O‘sha millatdan — el xohalaganini bosh etib,
o‘zining (bittayam!) kishisini qoldirmay,
mag‘rur chiqib ketdi!
Ne tarixiy mo‘jiza, orzu bu!
Emas shohliq — olmoq yurub bahr-u bar,
(b.b. — suv va quruqlik)
E*rur topmoq andinki haq berdi bar.* (b. - bahra)
Angakim madadkor bo‘lgay bilik,
Jahon shug‘ulidan bori chekkay ilik!

ONANI TOJDEK BOSHGA KO‘TARGAN SHOH!

Onasini sevmagan jonlar
o‘z bolalarining taqdiriga qayg‘urarmikanlar?!
Jahondagi biron-bir ona
“o‘zga millatlar onalarini yig‘latib,
baxtingni top, bolam”,
dermikan o‘z farzandiga?
Ularning tilini, dinini, odatlarini yo‘qot dermikan?
Balki u shunday deganda ham
bundan topgan baxti qanchaga borarkan?
Otabezor, onabezor toifa umuman,
qorni to‘yadigan tomonga og‘ib ketaveradiganlar
odamzod uchun xatarli maxluqlardir.
Otasini-onasini, tuqqan yerini aziz
tutmaydiganlar uchun
olamda aziz biron narsa bo‘larmi o‘zi?!
Iskandarning olam zabti deb bosgan yo‘llarining
boshimiz ona poyiga egilgunchalik,
yetgunchalik ma’nosi, qiymati bormi?

"Budur so'zki, ko'p furqating istadim.
Yiriqlik bila mehnating istadim.
Demon qilsam erdi o'g'ulluq sanga,
Qabul aylasam erdi qulluq sanga,
Sanga aylabon xoki dargohlik,
Aning otin etsam erdi shohliq..."

YOSHLARNI DAVLAT ISHLARIGA FAOL UNDAGAN USTOZ

o'z xalqining ulug' kishilarini
o'zlariga o'rinbosarlar tayyor etishga chaqiradi!
Qaysidir avlodini qarovsiz qo'ygan xalq
bu yo'qotish, bu o'pirilishni
bir asrda ham to'ldirishi qiyin!
Millatning, davlatning ustivorligi uchun
uzoq-yaqin, katta-kichik demay, tanlab, inonib,
ko'pchilikni o'ylay biladigan yosh,
sog'lom vorislar izlang, toping!
Bo'ladigan: bordir, belgilidirlar:
Kichik yoshliq, ammo ulug' qadrliq,
Hilolida ma'lum o'lub badrliq. (b. - to'lishish)
Ne *sher bo'lsun kichik gar ulug',*
Erur savlati birla el qayg'ulig'.
Ulus chehrayi olamafro'zdin,
"Bilur yil kelishini navrg'o'zdin!"

EL NAZARI BILAN OLIY MAQOMGA KO'TARILGAN ZOT!

Adolatga o'zini, so'zini, ko'zini o'rgatgan kishi!
Qandoq erishdi, ne-ne shohlar, jahongirlar
orzu etabilmagan mavqega?!
Bu na kamolot, ruhoniyat, oliyjanoblik!
Qaysi bir abadiy qudratning tantanasi o'zi —
bu ulug' siymoning tug'ilishi!

Minnatdormiz ikkinchi bir quyoshini
hadya etgan quyoshdan!
Nega uxlaysan xalqim, nega?
Kechalaring ham yorug‘-ku, mundoq boqsang!
Nega muncha bosinqirash, tushda yulduz talashish!
Seni muncha qo‘rqitib tashlagan kim?!
Nimani axtarasan muncha garangsib?!
Nimani, a kimni?
Odil shohnimi,
Adl zamonanimi.
Boqiy qonunchiliknimi?
Qara, och, varaqla,
"Xamsa" sahifalarini!
Alisher Navliy o‘zi tabriklamayaptimi!
Tur, uyg‘on, o‘zingni rostla, qoloqlikdan qutil,
chin yangilanish, erk zamoni keldi deb!
O‘zing tanla, sayla endi
Adolat, Mustaqillik, Tenglik, Do‘stlik, Tinchlik
nomli shohlarni!
Qayu shahki yo‘q adl ila dod anga,
Ulus birla mulk o‘lmas obod anga.
Agar bor ersa poklik niyati,
Anga yor o‘lub poklar himmati,
Kerak og‘zi pok-u so‘zi dog‘i pok,
Yana ko‘ngli pok-u ko‘zi dog‘i pok!

OLAMDA HECH BIR ISH YASHIRIN QOLMASLIGINI BILGAN MUBOSHIR
oshkoralikni shior tutadi.
Oshkoralik faqatgina shohga yoki fuqaroga
bor gapni ochiq ayta bilishgina emas!
Oshkoralik halol oshni ko‘chada yeyish emas,
halol vijdonni oshkor etish!
Oshkoralik — odamning o‘z erkinligini sezishi,
shunga imkon olishidir.

Oshkoralik — har bir say'i harakati uchun ruh
mas'uliyati!
Oshkoralik — tenglikdir!
Shoh — qafas, el — to'ti emas.
Hamma ashyo yaratgan tabiatning ko'zi o'ngida-ku!
Qayerga yashiringanning ne farqi bor?
Shunday joyni topib bo'ladimi?
Kerak topsa ul bir andoq o'run,
Ki bo'lg'ay ishi tengridin yashirun.

O'ZBEK XALQINING OTASI

har bir farzandi Alisherdek komil bo'lishini tilar!
Har bir farzandining o'z yeriga,
eliga payvandligini istar!
Har bir farzandining olamni tanishi va olamga
tanilishini talab etar!
Har farzandiga bir-birini, o'z elini
himoya, ardoq, e'zoz qila bilishini buyurar!
Yomonga jazoning, yaxshiga e'zozning
tik tayin etilishini qilar!
Toki biron-bir ishning oxiri mubham qolmasn!
Haqsizlik, ofat, gunoh kimdan, qayoqdan
kelayotganini bil, ichdanmi-sirtdanmi?!
Bilmasang,
oldinga odim otishingning imkoni yo'q!
Adolat bila elni qil bahramand,
Ki yaxshig'a ketsun yomondin gazand. (g. - ziyon)
Navosiz ulusning navobaxshi bo'l,
Navoiy yomon bo'lsa sen yaxshi bo'l!
Chu davrong'a yo'qdur baqo-vu sabot,
Ham andin erur bevaforoq hayot.
Men bo'lsam-u bo'lmasam oshkor,
Bu so'zlarni qo'ydum sanga yodgor!

MUNDARIJA

Bektakror shoir Omon Matjon haqida (Marhabo Qo'chqorova).....3

She'rlar

"Kimnidir axtardim, axtardim uzoq..."....6
Yurakka....7
"Ko'zlaringni yashirgil mendan..."....8
She'riyat....9
"Belanchakda yotar koinot..."....10
"Boshqalardik sevishdik biz ham..."....11
Bobur....12
Eshigingdan o'taman....13
Amu....14
Eski o'choq....15
Masal....16
"Qalbimdan sir axtarmagil sen..."....17
"Xayolimda yashar bir nargis..."....18
"Chiq-chiq-chiq..."....19
Sirlarim....24
Yonayotgan daraxt....26
G'afur G'ulom xotirasi....27
Ogahiy g'azaliga muxammasi muloqot....28
Go'dak fe'lli do'stimga *(hazil)*....30
"Kishi kayfiyati, ruhiga qarab..."....31
"Yig'lading-u... kulding ..."....33

"Sen ketursan, izingdan..." 34
Ayriliq....35
"Mehr ko'zda emas..."....36
Xorazm raqsi....37
"Qo'shjonov domlaning uyida..."....38
Klod Mone chizgan manzara *(Asqad Muxtorga)*....39
Seni yaxshi ko'raman....40
"Garchi inson umri falakdan ehson..."....49
Nozim Hikmat zinalari....50
Qo'shiq. *(Miriyga o'xshatma)*....52
"Daraxtlar va giyohlarning tarhi-fayzini..."....53
Ayolga maqtov....55
Xafa xo'roz....56
Sena bo'yida qush bozori....59
Oqshom. Gavjum Parij....60
Sendan xabar keltirsa....61
"O'rtamizda birgina olma..."....62
Orolga yordam....63
"Ochil, ey gul, gul vaqting bo'ldi..."....65
"Ko'rdim Shukur Burhonni..."....66
Avvalgilarg'a o'xshamas *(Navoiy g'azaliga muxammas)*....68
Men ishqimni aytolmasam o'zingga....70
Qiyin muhabbat....71
"Qirq birinchi xotinlikka, Asiljon..."....72
2–3-yanvar, Xorazm....74
"Bugun yurt ufqida bir nur ko'rindi..."....75
Assalom....76
Erkin havolarda....77
Otajonni eslab....78

Odamlarim.....79
Pason taka.....83
To‘rtliklar.....84
Komiljon Otaniyozovni eslab.....87
Hazil lapar.....88
Ey, sirli diyor, Xorazm.....90
“Men goh mundoq qarab...”.....92

Dostonlar

Haqqush qichqirig‘i 93
Ming bir yog‘du 202



OMON MATJON

28-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Odil Ikromov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Gulshehra Gulyamova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*
Islom Azamatov

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 19,5. Nashriyot-hisob tabog'i 14,75.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 96-1/22 Buyurtma raqami № 22-311

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

O-55 Omon Matjon [Matn]: nazm/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Marhabo Qo‘chqorova, Diyor Matjonov. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 312 b.
ISBN 978-9943-8569-5-0

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(5O‘)-5

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

OMON MATJON